KASB-HUNAR TA'LIMI

ILMIY-USLUBIY, AMALIY, MA'RIFIY JURNAL

2023, 7-son

KASB-HUNAR TA’LIMI

Профессиональное образование
Professonal education

Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma’rifiy jurnal

2024-yil, 7-son

Muassislar:
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi,
Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'limboshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti

Bosh muharrir: Z.Y.XUDAYBERDIYEV
Ijrochi direktor: H.SIROJIDDINOV

Tahrir hay’ati:
M.XOLMUXAMEDOV, R.X.JO‘RAYEV, A.Q.JALALOV, A.R.XODJABAYEV, J.SH.SHOSALIMOV, A.NABIYEV, A.A.HASANOV, H.SIROJIDDINOV, K.M.GULYAMOV

Jurnal 2000-yildan nashr etila boshlangan.
O‘zbekiston matbuot va axborot agentligida 2007-yil 3-yanvarda qaytadan ro‘yxatga olinib, 0109-raqamli guvohnoma berilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan 2017 yil 29 avgustdagi 241/8 qarori bilan Pedagogika fanlari bo‘yicha dessertatsiyalar yuzasidan asosiy ilmiy natijalarni chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Manzil: 100095, Toshkent sh., Olmazor tumani Universitet ko‘chasi, 2-uy
Tel.: 90-979-75-89; 94-677-90-32;

E-mail: kasbhunartalimi@mail.ru, ksbjurnal@inbox.uz.

Nashr uchun mas’ul
H.Sirojidinov

Sahifalovchi:
I.Sirojiddinov

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.
Tahririyatga yuborilgan maqolalar tahrir etilmaydi va egasiga qaytarilmaydi.
Jurnaldan ko‘chirib bosilganda “Kasb-hunar ta’limi” jurnalidan olingani izohlanishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 22.08.2024-yil.
Bichimi 60x84 1/8
Bosma tabog‘i 10. Adadi 60 nusxa.
Buyurtma “PROFIEDUPRESS” MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Sirg`ali tumani, Yangi Sirg`ali ko'chasi, 18-uy

МУНДАРИЖА

Ergasheva G.A. Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy shakllanishida kompetensiyasining ahamiyati 3
Temurova G.X. Mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasi fanining tarkibi, maqsad va vazifalari, metodlari va umumiy masalalari ..7
Saydullayev Z.E. Ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish 13
Eshpo‘latova H.B. Ta’lim muassasalarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning ijtimoiy pedagogik zaruriyati 17
Nishonov A.T. Virtual texnologiyalar asosida bo’lajak informatika fani o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning metodik jihatlari 20
Kabulova S.E. Kouching texnologiyalari asosida bulajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyyorlashni takomillashtirishning mazmuni 24
Мусаева Г.К. Понятие и значение в современной педагогике 28
Aripova Sh.A. Bo‘lajak mutaxassislarning boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish pedagogik muammo sifatida 32
Rajabov A.X. Raqamli texnologiya asrida umumta’lim muasassalari o’quvchilarining axborotni saralash va foydalanishdagi jarayonni to’g’ri nazorat qila olish metodikasi 36
Shirmatova G.I. Texnologik ta‘lim mutaxasislarnining konstruktorlik kompetensiyalarini zamonaviy texnologiyalar vositasida takomillashtir ish.....41
Узоқов Ш.З. Олий таълимда талабаларнинг интеллектуал компетенциясини шакллантириш имкониятлари 45
Шарипова Н.Ш. Проведение урока с pre-while post stage 50
Isabayeva A.Y. Tayanch adabiy kompetensiyalari tushunchasi va ularni shakllantirishning pedagogik mazmuni 54
Esanov U.D. Rus tilini o‘qitishda xorijlik talabalarning kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirish usullarini tahlil qilish 57
Абдиева Ф.Ф. Мактабгача таълим ташкилоти директорларини жамоани бошқаришда касбий сифатларни шакллантиришнинг педагогик шарт-шароитлари 61
Xushnazarov F.R. Boshlang‘ich sinf o‘quchilarida jismoniy madaniyatni shakllantirishda tizimli yondashuni takomillashtirish 66
Inamov D.D., Ibroximova G.S. Umumta‘lim maktablarida musiqa darslari vositasida o‘quvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirish ..70
Хаитов Б.Ш. Проблемная технология обучения и эффективность в современном образовании 74
Islomova E.Y. Badiiy matnda presuppozitsiya 78
Yuldasheva D.M. Shimoliy va Janubiy Amerika tub aholisi tillari va ularning kelib chiqishi tarixi 82
Movlyankulova M.X. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rahbar xodimlarning kreativ faoliyat jarayonida foydalanadiga texnologiyalar .85
Raximov A.A. Manaviy-marifiy faoliyat prinsiplari o‘kituvchi faoliyati da.....89
Ibodova M.N. Akademik litseylarda biologiya fanini o’qitishning integrativ texnologiyalari va metodik ta’minoti 97
Ulug’bekova G.J. Tibbiyot ta'limida anatomiya fanini o’qitishning ahamiyati 102
Xoshimov S.N. Talabalarning tadqiqotga jalb etilishini rivojlantirishning hozirgi tendentsiyalari va muammolari 106
Temirova O.M. Yuqori sinf o’quvchilarining psixo-pedogogik hususiyatlari va ma’naviy-axloqiy prinsiplar qat’iylashuvining zaruriya ti.....110
Yuldasheva D.T. Mehnat tarbiyasi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv faoliyatini rivojlantirishning ahamiyati 114
Abidova N.Q. Daktil nutqining og‘zaki va yozma nutq shakllari bilan munosabati 119
To‘raqulova S.B. O‘quvchilarning individual hususiyatlarini aniqlash: neyropedagogik diagnostika metodlari 124
Xusnuddinova Z.X. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda predmet tasavvuri va ko‘ruv idrokining o‘ziga xos xususiyatlari 129
Tulaganovna M.N. Xalq dostonlarida ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni va ma'muriy-hududiy bo‘linishni ifodalovchi leksemalar 133

Siddiqov B.S., Quldashev M.G'. “Temurbeklar maktabi” o‘quvchilarining ma’naviy kompetentligini jadidchilarning pedagogik qarashlari asosida shakllantirish dolzarb pedagogik zaruriyat 136
Tursunov Q., Umirzoqova M.B., Bakiyeva Q.O. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga matematik hisoblashlarning qulay usullari haqi da.....140
Xayitov L. Inklyuziv ta’lim tizimining shakllanishida defektologlarning kasbiy tayyorgarligi 147
Burxonov Sh.Sh. O‘quvchilarni xalqaro baholash dasturi orqali o‘qish, matematika va tabiiy-ilmiy savodxonliklarini o‘rganish texnologiyalarini yaratish tajribalari 151
Otakuziev N.N. Bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik zarurati 158
Buvrayev A.R. Talabalarning intellektual salohiyatini shakllantirish va bilim olishga yo‘naltirish 163
Lutfullayev J.A. ”Muvozanat” romanida ma’naviy-axloqiy muammolarning badiiy talqini 168
Soberova M.S. Badiiy mahoratning izohlanishi talqini (Abdulla Qahhor asarlari misolida) 174
Kazimbetova Z.M. Qoraqalpoq tili darslarida o'quvchilarda refleksiya ko'nikmalarini rivojlantirishda o'yin texnologiyalarining ahamiyati ...178
Akramova Z.B. Boshlang‘ich sinf matematikasini o‘qitishda rang tasvirga oid masalalarning o‘rni 184
Ботиров Ҳ.Х. Мактаб таълимида рақобат муҳитини яратиш бўйича АҚШ тажрибаси 187
Saburov A.K. Sport mashg‘ulotlari jarayonini tashkil etish asoslari ..194
Hamidova L.K. Oliy pedagogik ta’limda aralash o‘qitish modellaridan foydalanish – pedagogik muammo sifatida 199
Yusupova N.A. Kimyo o‘qitish nazariyasi va amaliyotida talabalarning funksional savodxonlikni baholash pedogogik muammo sifatida 205
Sheraliyeva N.A. Boshlang’ich ta’limda tarbiya darslarini samarali tashkil etishning didaktik imkoniyatlari 210
Adilova M. Dizartriyada logopedik massaj asosida orofatsial kamchiliklarni bartaraf etish 215
Xudaykulov J.N. Ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishda uzviylikni ta’minlashning pedagogik-psixologik asoslari 221
Asqarov I.B. Kreativ yondashuv asosida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning tarkibiy komponentlari 225
Abduraimova S.K. Innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari 231
Mashrapov Q.O. Texnik oliy ta’lim muassasalari ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning afzallik tomonlari 236
Narimova V.P. Ta’lim va hayot o‘rtasidagi bog‘liqlik tamoyili asosida maktab o‘quvchilarida kimyo faniga qiziqishini shakllantirish 243
Usanov S.A. Oliy ta’limda talabalar o‘quv faoliyati boshqaruv tizimini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari 247
Omonov B.O. Maktabgacha ekologik ta’lim-tarbiyaning xalqaro tajribasini milliy ta’lim tizimiga integratsiya qilish zarurati 253
Qodirova X.N. O‘qituvchining diagnostik faoliyatida diagnostik model tizimi 259
Xasanova O.Q. O‘rganishga undovchi ish muhitida xatolarga yondashish masalasi 265
Ilyasov A.S., Rabbimova M.S. Fiziologiya va inson salomatligi darslarida qr kod o’quv dasturidan foydalanib mashg‘ulot o‘tkazishning afzalliklari.....269
Normurodova S. Scratch dasturlash tili yordamida 1-sinf o‘quvchilarining diqqatlarini oshirish imkoniyatlari.....275
Abduraxmonova D.Y. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘qitish jarayonida nutq o‘stirishning asosiy yo‘nalishlari 281

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY SHAKLLANISHIDA KOMPETENSIYASINING AHAMIYATI

ERGASHEVA GULSHODA AMIROVNA
Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola bo‘lajak pedagoglarning kasbiy shakllanishida kompetensiyasining ahamiyati haqida so‘z boradi. Shuningdek, o‘qituvchi shaxsiga quyiladigan talablar haqidagi ma’lumotlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, pedagog, axborot, kompetensiya, usul, texnologiya, pedagogik mahorat.

Аннотация: В данной статье говорится о значении компетентности в профессиональном становлении будущих педагогов. Также описывается информация о требованиях к личности учителя.

Ключевые слова: образование, педагог, информация, компетентность, метод, технология, педагогическое мастерство.

Abstract: This article talks about the importance of competence in the professional formation of future pedagogues. Also, the information about the requirements for the teacher's personality is described.

Keywords: education, pedagogue, information, competence, method, technology, pedagogical skill.

O‘qituvchining kasbiy shakllanishi oliy o‘quv yurti dargohida kasbiy ta’lim olish jarayonida boshlanadi. Pedagogika oliy o‘quv yurtlarining o‘quv-reja va fanlar bo‘yicha dasturlarida bo‘lajak o‘qituvchilarga shu kasbning sir-asrorlarini o‘rgatish, ilmiy bilimlar berish, o‘qituvchi kasbi haqida ma’lumot berish va ko‘nikma hosil qilish nazarda tutiladi.

Ta’lim jarayonida fanlar bo‘yicha amalga oshiriladigan seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari nazariy bilimlarni mustahkamlashga hamda ularni ko‘nikmaga aylantirishgagina emas, balki ularni amaliy ish jarayonida qo‘llashga ham imkon beradi. Bunday mashg‘ulotlar tanlagan kasbi to‘g‘ri ekaniga ishonch hissini uyg‘otadi.

Oliy o‘quv yurtidan keyingi davrdagi o‘qituvchining kasbiy shakllanish jarayonida maktabda pedagogik jamoatchilik katta rol o‘ynaydi. Yosh o‘qituvchilarga tajribali o‘qituvchilarni biriktirib qo‘yish, ularning darslarini kuzatish, uslubiy ishlarga jalb etish maktab rahbariyatining asosiy vazifalaridan biri. O‘qituvchi o‘z kasbini sekin-asta o‘zlashtirib borishi bilan birga ota-onalar o‘rtasida pedagogik bilimlarni targ‘ib etadi. Shu yo‘l orqali ham kasbiy shakllanishi takomillashib boradi. [2].

O‘qituvchilik kasbini va pedagogik mahoratni egallash, maktab o‘qituvchilar jamoasiga kirishib, unda o‘z o‘rnini topib keta olishi yosh o‘qituvchining o‘ziga bog‘liq. Jamoaning yordamidan yuz o‘girmaslik, qiyinchiliklarga duch kelganda ruhan tushmay, o‘z xatolarini ko‘ra bilish va uni bartaraf etish uchun harakat qilish uning o‘qituvchi bo‘lib shakllanishidan darak beradi.

Shu bilan birga, o‘qituvchining kasbiy shakllanishi o‘z-o‘zini tarbiyalab borishga, o‘z ustida tinmay ishlashga va o‘z vaqtida malakasini oshirib borishga uzviy bog‘liq.

[3]. Bularning hammasi kasbiy fazilatlarning ajralmas qismi hisoblanadi.

Shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya tizimini nazariy-metodologik jihatdan qurollantirish – bugungi kunda pedagogika fanining bosh maqsadi sifatida belgilangan.

Yuqorida bayon etilgan yuksak, ammo, sharafli vazifalarni muvaffaqiyatli uddalash har bir pedagogik xodimdan yuksak kasbiy mahorat, bilimdonlik va keng dunyoqarashni talab etadi.

Pedagogik mahorat – o‘qituvchi ijodkorligining oliy namunasi bo‘lib, u yillar davomida shakllanadi. Uning yuksak mahoratni egallashi g‘oyat murakkab jarayon bo‘lib, pedagogika fanining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. [4].

O‘qituvchi kasbiga xos bo‘lgan ko‘pgina fazilatlar bilan birga uning pedagogik mahoratni egallashi katta ahamiyatga ega. Yuqori pedagogik mahoratga ega bo‘lgan o‘qituvchigina o‘z kasbiga layoqatli, iste’dodli bo‘lishi mumkin.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o‘qituvchi yuqori pedagogik mahorat va keng dunyoqarashga ega bo‘lishi kerak. Shundagina oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi, ijodkorlik uning hamisha hamkori bo‘ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste’dodli kishidagina pedagogik mahorat egasi bo‘lishi mumkin. Pedagogik faoliyatning samarali bo‘lishi uchun o‘qituvchi o‘z fanini chuqur bilishi, unga turdosh fanlar haqida ham tushunchaga ega bo‘lishi, o‘quv materialini o‘quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olishi, o‘quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg‘otishi, o‘quvchilarning bilim, kamolot darajasi va ruhiyatini hisobga olishi, ularning nimani bilishlari va hali nimani bilmasliklarini tasavvur eta olishi lozim. [6]. Qobiliyatli, tajribali o‘qituvchi o‘zini o‘quvchining o‘rniga qo‘ya oladi, u kattalarga aniq va tushunarli bo‘lgan narsalarni o‘quvchilarga tushunilishi qiyin va mavhum bir narsa bo‘lishi ham mumkinligiga asoslanib ish tutadi. Shuning uchun u bayon etishning xarakter va shaklini alohida o‘ylab chiqadi hamda rejalashtiradi.

O‘qituvchi o‘quvchining, ichki dunyosiga kira olishi, o‘quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilishi bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik kuzatuvlar olib borishi kerak. Bunday o‘qituvchi o‘quvchining ruhiyatiga ko‘z ilg‘amas o‘zgarishlarni ham tez fahmlab oladi.

O‘qituvchida nutq o‘z fikr va tuyg‘ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati hisoblanadi. Bu o‘qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir. O‘qituvchining nutqi aniq, jonli, obrazli, talaffuzi jihatdan yorqin, ifodali, his-hayajonli bo‘lib, unda stilistik, grammatik, fonetik nuqsonlar uchramasligi lozim.

O‘qituvchi obro‘si – o‘quvchilarga bevosita emotsional-irodaviy ta’sir ko‘rsatish va shu asosda obro‘ qozona olishdir. Obro‘ faqat shu asosdagina emas, balki o‘qituvchining fanni yaxshi bilishi, mehribonligi, nazokatliligi va hokazolar asosida ham qozoniladi. Bu qobiliyat o‘qituvchi shaxsiy sifatlarining butun bir yig‘indisiga, chunonchi uning irodaviy sifatlariga Shuningdek, o‘quvchilarga ta’lim hamda tarbiya berish mas’uliyatini his etishga, o‘zining haq ekanligiga ishonishga, bu ishonchni o‘quvchilarga etkaza olish kabilarga ham bog‘liq.

O‘qituvchi kasbiga xos bo‘lgan xislatlar, ya’ni yuksak pedagogik mahorat

unda birdaniga shakllanmaydi. U o‘z ustida tinmay ishlash, izlanish va ko‘nikmalar asosida rivojlanadi.

O‘qituvchining yuqori kasbiy mahoratni egallashi bevosita uzluksiz ta’lim tizimi orqali amalga oshiriladi. Uzluksiz ta’lim tizimida asosiy o‘rin egallagan malaka oshirish o‘quvchi faoliyatini tahlil qilish va unga istiqbol yo‘nalishlar berishga imkon beradi.

Hozirgi davr o‘qituvchidan o‘qitishning ilg‘or pedagogik texnologiya talablarini to‘g‘ri tushunish, tashabbuskorlik, o‘z fani bo‘yicha yangiliklardan xabardor bo‘lishi va darslariga joriy eta olishni talab etadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlikni vujudga keltirish, do‘stona muhitni yaratish muammosining muvaffaqiyatli hal etilishi, fan o‘qituvchilari va maktab rahbariyatining egallagan bilim, ko‘nikma malakalari va shaxsiy insoniy fazilatlarini egallaganlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

O‘qituvchi avvalo:

- Yumshoq ko‘ngilli, ochiq chehrali, shirinso‘zli, bolalarni qanday bo‘lsa shundayligicha yaxshi ko‘rishi;

- Mehr-muhabbat, qalb g‘urini o‘quvchilarga bab-baravar bo‘lib berishi, sinfda do‘stona muhitni yaratish va o‘quvchilarning o‘quv motivlarini rivojlantiruvchi kuch-rag‘batlantirish metodlari ekanligini anglash;

- O‘quvchilarning taqdiri, baxti va kelajagi uchun mas’ul ekanligini chuqur his etish, ularning nafsoniyati va qadr-qimmatini e’zozlash;

- Har qanday pedagogik vaziyatda o‘quvchilarga qo‘pollik qilmaslik, haqorat qilish va baqirish, taqdid va qo‘rqitishdan o‘zini tiyishi zarur;

- O‘quvchilarni tushuna olishi, ularning his-tuyg‘ularini qadrlash, tashvishlari, iztiroblarini engishiga yordam berishi, yoshlik va psixologik rivojlanishda o‘ziga xos xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlarini bilish.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ta’lim tizimining odil va demokratiyalashtirilishi o‘quv jarayoniga o‘zgacha talab va o‘zgacha pedagogik munosabatlarni kashf etadi. Bu jarayon mazmun mohiyatdan avvalgidan tubdan farqlanadi.

Bu esa ta’lim sohasida o‘quvchi, o‘qituvchi, oila, mahalla hamkorlikda bir maqsad sari, ya’ni, davlat ta’lim standarti talablarini o‘zlashtirish va undagi me’yorlardan yuqoriroq natijalarga erishishni taqozo etadi.

Ta’lim jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, ta’lim samaradorligini oshirish, ilm-fan yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, mustaqil fikr yurita oladigan ijtimoiy faol yuksak ma’naviyatli yoshlarni tarbiyalash vazifasi muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘qituvchi yoshlarga zamon talablariga javob beruvchi bilimlarni berish uchun avvalo o‘zi ana shunday bilimlar bilan qurollangan bo‘lishi kerak. Zero, tizimdagi yutuqlarning asosi maktablarda tashkil etiladigan dars jarayonining sifati bilan belgilanadi. O‘quv soatlarida o‘quvchilarga etarli bilim berish hayotiy ko‘nikmalarini oshirish va malakalarini shakllantirish o‘qituvchining kasbiy mahoratiga bog‘liq.

O‘quvchining mustaqil fikrini bayon etish, o‘z yo‘nalishini tanlashi va buning asosi bo‘lgan qarashlarini isbotlashi, o‘rni kelganda himoya qilishni o‘rgatilsa, yoshlarni mustaqil hayotga tayyorgarlik ko‘nikmalarini shakllantirib borishga erishishi orqali ta’lim mazmunining natijasi

yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Ta’limni isloh qilishda o‘qituvchi shaxsiga qo‘yilagn talablar kundan-kunga oshib bormoqda. Pedagogika fani oldida turgan muammolarning biri ham, aynan, o‘qituvchi va pedagog mehnat sharoiti muammosi hisoblanadi. O‘qituvchining ko‘p qirrali va murakkab faoliyati zamirida yosh avlodni bilimli va axloq-odobli qilib voyaga etkazish vazifasi yotadi.

Shu munosabat bilan bugungi kunda o‘qituvchi shaxsiga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- o‘z fanini chuqur bilishi va uning metodikasini etarli darajada o‘zlashtirish;

- keng ilmiy dunyoqarashli va teran e’tiqod sohibi bo‘lishi;

- ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruriyatni chuqur tushunishi;

- ijtimoiy va fuqarolik burchini chuqur anglashi;

- ijtimoiy-siyosiy faol bo‘lishi;

- o‘z kasbi va bolalarni sevishi;

- ruhiy pedagogik ziyrak bo‘lishi va yangilikka intilishi;

- o‘z xalqi tarixi, milliy qadriyatlari va urf-odatlarini chuqur o‘rganishi va ularni targ‘ibot qilishi;

- pedagogik kuzatuvchanlik, tashkilotchilik, talabchanlik, qat’iylik, vazminlik, haqqoniylik, o‘zini tuta bilish kabi xislatlar sohibi bo‘lishi;

- o‘z kasbiga to‘la layoqatli va pedagogik takt (odob) egasi bo‘lmog‘i lozim.

Xulosa qilib aytganda ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan har bir pedagog-o‘qituvchi o‘zining butun bilim va tajribasini ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga yo‘naltirishi bugungi kunning muhim dolzarb masalasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qarori // (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.06.2018 y., 07/18/3775/1313-son).
2. Avliyoqulov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiya. Darslik. – Toshkent: Tafakkurbo‘stoni, 2012. – 97 b.
3. Avliyakulov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: “Fan va texnologiyalar”, 2008. – 64 b.
4. Azizxo‘jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg‘armasi, 2006. -62 b.
5. Ishmuhammmedov R. Ta’limda innovasiya. – Toshkent.: “Fan va texnologiyalar”, 2010. 83 b.
6. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovasionpedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent.: “Adabiyot uchqunlari”, 2017. -200 b.
7. Anokhin, S., Schulze, W., 2009. Entrepreneurship, innovation, and corruption. Journal of Business Venturing, 24(5), 465−476.

MEHNAT VA PREDMETLI AMALIY TA’LIM TEXNOLOGIYASI FANINING TARKIBI, MAQSAD VA VAZIFALARI, METODLARI VA UMUMIY MASALALARI

TEMUROVA GULCHEHRA XUDAYKULOVNA
Jizzax davlat pedagogika universiteti Maxsus pedagogika kafedrasi v.b.dotsenti, p.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya: Maqolada kar va zaif eshituvchi bolalar tarbiyasida predmetli amaliy ta’lim fanining ahamiyati va uning tutgan o‘rni orqali nutq nuqsonlarini bartaraf etish va korreksiyalash haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so’zlar: nuqson, zaif eshituvchi, kar, nutq nuqsoni, korreksiyalash, mehnat, predmetli amaliy ta’lim, konsruksiyalash, qurish, yasash, elementlar

Аннотация: В статье представлена информация о значении предметно-практического обучения в обучении глухих и слабослышащих детей и его роли в устранении и коррекции дефектов речи.

Ключевые слова: дефект, слабослышащий, глухой, нарушение речи, коррекция, работа, предметно-практическое обучение, конструкция, конструкция, изготовление, элементы.

Abstract: The article provides information on the importance of subject-based practical education in the education of deaf and hard-of-hearing children and its role in the elimination and correction of speech defects.

Key words: defect, hard of hearing, deaf, speech impairment, correction, work, object-oriented practical education, construction, construction, making, elements

Bugungi kunda jamiyatimiz uchun har tomonlama rivojlangan fan-texnika taraqqiyoti natijalarini hayotga tatbiq eta oladigan, yetuk malakali kadrlar tayyorlash masalasi dolzarb bo‘lib turibdi.

O‘sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash borasidagi mavjud muammolarni hal etish ta’lim va tarbiya samaradorligini zamon talablari asosida ta’minlash, uni dunyo talablari darajasiga olib chiqishga erishish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish orqali ta’lim-tarbiya mazmunini takomillashtirish, maktabgacha ta’lim tizimini xalqimizning boy tajribalari asosida boyitib borish va uning yangi qirralarini kashf etish bugungi kunning muhim muammolaridandir.

Mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasi fanining maqsadi - talabalarda ruhiy va jismoniy rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalarga mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasi yuzasidan zarur nazariy bilim va amaliy malakalar, korreksion ta`lim-tarbiya jarayonini tashkil etish shakllari hamda usullari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdir.

Mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasi fanining vazifasi alohida yordamga muhtoj o‘quvchilarni mehnatga o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari hamda usullarini amaliyotda qo‘llashga o‘qitishdan iborat.

Maxsus maktabning asosiy maqsadi – o‘quvchilarni kasb-hunarga o‘rgatish.

Maxsus maktabning asosiy vazifalaridan biri - o‘quvchilarni amaliy faoliyatga, ishlab chiqarish mehnatida ishtirok etishga tayyorlashdan iborat. Ushbu vazifa maxsus maktabda o‘quvchilarga kasbiy tayyorgarlik imkoniyatini yaratib beruvchi aqliy va jismoniy rivojlanishdagi nuqsonlarni bartaraf etuvchi mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasi tizimida hal qilinadi. Mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasi va tarbiyasi jarayonida insonning dunyo qarashi shakllanadi, iroda, jamiyatchilik tuyg`usi

tarbiyalanadi. Mehnat yosh avlod tarbiyasining asosiy qismini tashkil etadi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, maxsus maktablarda doim mehnat tayyorgarlik olib borilgan. Mustaqillikkacha bo'lgan davrda mehnat faqatgina kasbiy yo'nalishi bo'yicha olib borilgan, uning bolalar ta'lim va tarbiyasidagi ahamiyati deyarli hisobga olinmagan edi.

Hozirgi paytda barcha maxsus maktablarda mehnat va predmetli amaliy ta'lim texnologiyasiga, umum texnika mehnati va kasbiy texnik tayyorgarlik kiradi. Ko'rsatilgan mehnat turlarini belgilashda alohida kategoriyadagi bolalarning rivojlanish xususiyatlari hisobga olinadi.

Mehnat va predmetli amaliy ta'lim texnologiyasining birinchi bosqichida – mashg'ulot paytida bolalar sodda asboblar, materiallar bilan tanishadilar ulardan foydalanishni o'rganadilar, kerakli bilim va malakalarni egallaydilar. Bolalarda mehnat malakalariga bo'lgan talablar ishlab chiqiladi. O'quvchilar shuningdek, sodda kasbiy asboblar bilan ishlash usullarini o'zlashtiradilar.

Mehnat va predmetli amaliy ta'lim texnologiyasining asosiy mazmunini materiallar bilan amaliy ishlash tashkil etadi (qum, plastilin, qog'oz va boshqalar). Material bilan ishlash jarayonida ularning jismoniy xususiyatlari haqida tasavvur hosil qiladilar.

Mehnat va predmetli amaliy ta'lim texnologiyasining mazmuni maktabning o'quv, tarbiyaviy va korrektsion vazifalari bilan aniqlanadi. Dastur o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishni ko'rib chiqadi. Mehnat va predmetli amaliy ta'lim texnologiyasi mashg'ulotlarida boshqa darslarda egallanadigan bilimlarni mustahkamlash va kengaytirishga asosiy e'tibor qaratiladi. Shunday qilib, ta'limning birinchi bosqichida umumiy ta'lim vazifalari hal qilinadi.

Mehnat va predmetli amaliy ta'lim texnologiyasining ikkinchi bosqichida umum texnik tayyorgarlik, uning vazifasi bolalarni oddiy materialni qayta ishlash, mehnat turlari bilan tanishtirish tashkil etadi. Shular bilan birgalikda o'quvchilarda amaliy faoliyatida turli asboblardan foydalanish malakasi shakllanadi.

Bu ma'lum bir mehnat turiga bo'lgan qiziqishni aniqlash va kasb tanlashga yordam beradi. Bu bosqichda o'quvchilar kasbiy ta'limga tayyorlovchi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar. Umum texnik mehnat darslari o'quvchilar bilish faoliyatining keyingi bosqichida nutqni takomillashtirish, xotira, diqqat, tafakkur, tasavvurni rivojlantirish ishlari amalga oshiriladi. Umum texnik mehnat mazmunini belgilashda umumiy ta'lim vazifalari hisobga olinadi.

Uchinchi bosqich - kasbiy texnik tayyorgarlik. Uning vazifasi mutaxassisliklar bo'yicha ishchilar tayyorlashdan iborat. Bu bosqichda kasbiy va yordamchi material usullari talablarini amalga oshirish yo'li orqali qo'l asboblari bilan ishlash malakalari rivojlantiriladi. Texnologiya haqidagi savollar bilan tanishishga ko'proq vaqt ajratiladi.

O'quvchilar mehnatning turli shakllari va ishlab chiqarish bilan tanishadilar. Yordamchi maktab o'quvchilari ishlab chiqarishni tashkil etish va texnologiya haqidagi eng oddiy tushunchalarga ega bo'ladilar.

Kasbiy-texnik tayyorgarlik dasturiga mashina boshqarish kursi ham kiradi. Yordamchi maktabda o'quvchilarga mashina boshqarish bo'yicha ba'zi bir mashg`ulotlargina beriladi, ko'r va zaif ko'ruvchilar, eshitishda nuqsoni bor bolalar maktablarida mashina boshqarish kursi kengroq hajmda olib boriladi. O'quvchilar ish tartibi bo'yicha konstruksiyalar bilan tanishadilar. Har bir o'rganilayotgan kasb uchun stanoklar jihozi bilan tanishish ko'zda tutiladi. Ish hujjatlaridan foydalanishga bo'lgan talab ortadi. Kasbiy tayyorgarlikda o'quvchilarning bilim va malaka doirasini kengaytiruvchi va ularni zamonaviy ishlab chiqarish amaliyoti muhim o'rin tutadi.

Ishlab chiqarish amaliyoti - o'quvchilarga maktab ustaxonalaridagi mashg`ulotlarda

har doim ham o‘rgana olmaydigan bilim va malakalarni egallashga yordam beradi. Ishlab chiqarishni tanlashda amaliyotni o‘tkazish uchun maxsus maktab o‘quvchilarining nuqsoni hisobga olinadi. Mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasi barpo etishning yagona tamoyiliga qaramay, har bir maxsus maktab uni o‘quvchilarning xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etadi. Turli toifadagi nuqsonli bolalarning psixojismoniy rivojlanish xususiyatlari, maxsus maktabdagi umumiy ta’lim , kasbiy va politexnik ta’lim mazmunini belgilashga, shuningdek, o‘quvchilarning mehnat tayyorgarligining darajasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi,.

Bugungi kunda umumiy ta’lim va politexnik tayyorgarlik kasbiy mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasi uchun asos bo‘ladi. O‘quvchilar metallni qayta ishlash turlari bilan tanishadilar, radio va elektromontaj ishlarini o‘zlashtiradilar.

Eshitishning yo‘qligi kasb egallashda kar insonlarning imkoniyatlarini cheklovchi obyektiv sabab bo‘ladi.

Surdopedagogika tarixidan ma’lumki, tilga maxsus o‘qitish amaliyotiga kommunikativ (muloqot) tamoyili kirib kelishining amaliy faoliyat bilan bog‘liqligi S.A.Zikov tomonidan ishlab chiqilgan. Bizning respublikamizda eshitmaydigan bolalar maktablarining ovoz kuchaytiruvchi apparatlar, sinf xonalarining maxsus jihozlar, muassasalarning defektolog-surdopedagoglar bilan ta’minlanganligi, o‘quvchilarda so‘zlashuv nutqidan (og‘zaki, yozma) muloqotda foydalanish imkoniyatining past ko‘rsatkichdaligi hamda o‘zbek tili qonuniyatlarining rus tili qonuniyatlaridan tubdan farq qilishi S.A.Zikov va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan metodikani aynan qo‘llash imkonini bermaydi. Tilga maxsus o‘qitishning faoliyat tamoyilini qo‘llash predmetli amaliy ta’lim darslarida amalga oshadi. Bu darsda o‘quvchilarning o‘qituvchilar, o‘rtoqlari bilan bevosita muloqoti uchun tabiiy vaziyatlar yaratiladi.

Amaliy faoliyat davomida o‘qituvchilarning o‘quvchilarga murojaatlari, savollari, topshiriqlari oson o‘zlashtiriladi.

Predmetli amaliy ta’lim darsi eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar maktablarida asosiy va yetakchi dars hisoblanadi.

Uning mohiyati shundan iboratki, predmet anglatgan mazmun, predmetga oid voqea-hodisalar, miqdor va sifat tushunchalari bevosita amaliy faoliyat asosida egallanib, tajribada qo‘llaniladi.

Predmetlarning o‘quvchilar tomonidan o‘z qo‘llari bilan tayyorlanishi, ularni tayyorlashda turli predmetlardan foydalanish o‘quvchilarga predmet va uning xususiyatlari bilan tanishishda qulay va mos sharoitni yuzaga keltiradi. Amaliy ta’lim orqali shu sharoitning yaratilishi predmetli amaliy ta’lim darsining mazmunini ochib beradi.

Bu darsda amaliy faoliyat jarayonida nutq, nutqiy ko‘nikmalar egallanadi.

Eshitmaydigan bolalar maktablarida predmetli amaliy ta’lim darsi o‘zida nutq o‘stirish, daktil nutqqa o‘qitish, yozuv, matematika darslari va shular zamirida tarbiyaviy yo‘nalishlar mazmunini mujassam etadi.

Surdopedagogika karlarni mehnatga tayyorlashda kasbiy yondashuvdagi qiyinchiliklarni bartaraf eta oladi. Maxsus maktablar amaliyoti shuni isbotlab berdiki, karlar turli kasblarni egallashlari va unda samarali mehnat qila olishlari mumkin. Karlar maktablarining tarbiyalanuvchilari metallni qayta ishlash sanoatining turli mutaxassisliklarini egallaydilar. Karlar uchun mos keluvchi mutaxassisliklar yog`ochni qayta ishlash sanoati bilan bog`liqdir. So‘nggi yillarda kar o‘quvchilar elektr va radiomontaj, chizmachilik va boshqa mehnat turlari kabi kasblarni egallamoqdalar.

Umum ijtimoiy vazifalardan tashqari, maxsus mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasi zaif eshituvchi bolalar rivojlanishidagi kamchiliklarining korreksiyasi va kompensatsiyasi bilan bog‘liq alohida vazifalarga ega. Bu vazifalarni yechishda

pedagogik, tibbiy va texnik vositalar kompleksi ishlatiladi. Bunda pedagogik vosita asosiy vosita hisoblanadi. O‘quv predmetlari nafaqat o‘rganish obyekti, balki maxsus vazifalarni yechish vositasi bo‘lib ham qo‘llaniladi. Bu rejada Mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasi zaif eshituvchi bolalar rivojlanishidagi kamchiliklarning korreksiya va kompensatsiyasida yetakchi vositalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Mehnat yosh avlod tarbiyasining asosiy qismini tashkil etadi. Mehnatda aqliy operatsiyalarni bajarish, malaka va ko‘nikmalari bolada maqsadga qaratilgan tarbiyalash ishlari o‘qituvchi tomonidan doimiy ravishda olib borilgan holdagina ta’sirliroq bo‘ladi. Odatda, istalgan predmetni ishlab chiqarish jarayoni bir qator operatsiyalardan iborat. Ularni bajarish jarayonida ketma - ketlikni qat’iy kuzatish kerakligi, bolalarda ishni rivojlantirish rejasini to‘zishni bilish, fikrlashning oliy shakllari rivojlanishidan dalolat beradi. Predmetlarning analitik idrok bilan bog‘liq ma’lum belgilari bo‘yicha bahosini chiqarish, qilingan ishning sifatini belgilash zarurati bilan o‘quvchilar mahsulotni ishlab chiqarish ustida ishlayotganlarida duch keladilar. Bu yerda ham idrok jarayonlarining tartiblanganiga qaratilgan korrektsion tarbiyaviy ish olib borilishi kerak.

Fikrlash operatsiyalari (analiz, taqqoslash)ni yuzaga keltirish qobiliyati maktabdan tashqari ta’lim jarayonida shakllanganlarni o‘z amaliy faoliyatida foydalanish holatida bo‘lganlarida yordamchi maktab ta’lim oluvchilarining aqliy rivojlanishi mustahkamlanadi. Shuning uchun ham ta’lim vaqtidagi yangi sharoitlarda orttirilgan malakalarni qo‘llash maqsadi maxsus rejalashtirilgan va tashkillashtirilgan sinfdan va maktabdan tashqari mehnat faoliyati kar va zaif eshituvchi bolalar uchun katta ahamiyatga ega.

Mehnat jarayonida eshitish, harakat va boshqa saqlangan analizatorlarning takomillashishi markaziy apparat analizatorlarining analitika-sintetik faoliyati takomillashishi bilan bog‘liq. Bu esa mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasida ko‘zi ojizlarning oliy ruhiy funktsiyalarining takomillashishiga xizmat qilishini bildiradi.

Mashinaning qismlari mexanizm tugunlari, ularning vazifasi va harakatlanish prinsiplari bilan tanishtirish ko‘zi ojizlarning konstruktiv texnik fikrlashi, maxsuslashtirilgan (texnik) fazoviy mo‘ljalni rivojlantirish vositalaridan biridir.

Mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasida ko‘zi ojizlarda tirishqoqlik, intiluvchanlik, diqqat, mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasida oriyentatsiya uchun mavjud bo‘lgan belgilarni ajrata olishni bilish sifatlari tarbiyalanadi.

Bolalar uchun asosiy maxsus vazifa ta’lim oluvchilarning og‘zaki nutqini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Uning yetarlicha rivojlanmaganligi karlarning barcha bilish faoliyatlariga, kasbiy mehnat tayyorgarligini oshirish imkoniyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Surdopedagogikada og‘zaki nutqni shakllantiruvchi turli xildagi uslublar va vositalar ishlab chiqilganligi ta’lim tizimida mehnat darslarini qo‘llash ma’lum o‘rinni egallashidan dalolat beradi. Mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasini to‘g`ri tashkil qilish aniq tasavvurlarni beradi, qabul qilishni, xotirani, fikrlash va bilish faoliyatining boshqa turlarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, mehnat tayyorgarligi jarayoni lug`at boyligini kengaytirish, jamiyat talabini rivojlantirish, boyitish, ularga taalluqli mehnat bilimlarini, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Karlar bilan amaliy ishlashda ma’lum qiyinchiliklar mavjudki, ta’lim oluvchilar o‘qituvchidan olayotgan topshiriqni har doim ham tushunmaydilar.

So‘zlitopshiriqni(texnologikkartochkalarni, chizmalarni) tushunish qiyinchiligi, ayniqsa, ma’lum obyekt tayyorlashda talab qilinadigan operatsiya kompleksini mustaqil bajarish zaruriyatida bilinadi. Bu holat karlarning ishlab

chiqarishda, sanoat va qishloq xo‘jaligida qatnashish imkoniyatlarini pasaytiradi.

Kar bolalarni mehnatga tayyorlash tizimiga ta’lim oluvchilarni so‘zli vosita (og‘zaki va yozma so‘zli topshiriq turli xildagi texnologik kartochkalar, chizmalar, tushuntiruvchi tekstil rasmlar) asosida o‘z ish faoliyatini tashkillashtirish kiradi. Bu bilan bog‘liq holda o‘quvchilarda hamma vazifalar va alohida operatsiyalarni bajarishning sifatiga to‘g‘ri baho berish, operatsiyalarni belgilash, rejalashtirish va reja asosida ishlay bilish qobiliyatini shakllantirish bo‘yicha ishlar olib boriladi.

Mashina uskunalari, asboblar, materiallar bilan o‘quvchilarning bevosita amaliy faoliyati Mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasiga kiritilgan real hodisalar va narsalar haqida o‘quvchilar tasavvurlarini aniqlashtirish uchun qulay sharoit yaratib beradi. Mehnat mashg`ulotlari jarayonida so‘zli vositalarda aks etgan turli xil sabab oqibatli bog‘lanishni sezish mehnat faoliyati bilan bog‘lik. Agar mehnat, mashg`ulotlari jarayonida bunga maxsus o‘rgatilmasa, karlar uchun ma’lum qiyinchilik tug‘diradi. Ko‘rsatilgan topshiriqni muvaffaqiyatli bajarish karlarni ishlab chiqarish jamiyatiga qabul qilish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Shuni ham aniqlash lozimki, eshitishning yo‘qligi ta’lim oluvchilarning harakat sohasi rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ularda tengdoshlariga qaraganda harakatlarining sustlashganligi yaqqol seziladi.

Ta’lim jarayonida, karlarning harakat tezliklari osha boradi. Mehnat darslariga tegishli mashqlarni kiritish qisqa muddat ichida to‘g`ri tezlashgan malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish imkonini beradi, karlarning motorikasi to‘la rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Ish rejasini to‘zishni bilish fikrlashning oliy shakllari rivojlanishidan dalolat beradi.

Predmetlarning analitik idrok bilan bog‘lik ma’lum belgilari bo‘yicha bahosini chiqarish, qilingan ishning sifatini belgilash zarurati bilan o‘quvchilar mahsulotni ishlab chiqarish ustida ishlayotganlarida duch keladilar. Bu yerda ham idrok jarayonlarining tartiblanganiga qaratilgan korrektsion tarbiyaviy ish olib borilishi kerak.

Kar va zaif eshituvchi bolalarning ta’lim jarayonida shakllangan malakalari yangi sharoitlarga yomon moslashadi.

Fikrlash operatsiyalari (analiz, taqqoslash, umumlashtirish)ni yuzaga keltirish qobiliyati ta’lim jarayonida shakllangan maktabdan tashqari o‘z amaliy faoliyatida foydalanish holatida bo‘lganlarida yordamchi maktab ta’lim oluvchilarining aqliy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun ham ta’lim vaqtidagi yangi sharoitlarda orttirilgan malakalarni qo‘llash maxsus rejalashtirilgan va tashkillashtirilgan sinfdan tashqari va maktabdan tashqari mehnat faoliyati kar va zaif eshituvchi bolalar uchun katta ahamiyatga ega.

Mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasi ta’lim oluvchilarga atrofdagi olam haqida aniq bo‘lmagan va xato tushunchalar va tasavvurlarni to‘g‘rilashga, aniqlashtirishga yordam beradi. Ijtimoiy ahamiyatli ishlab chiqarish mehnatida qatnashish yordamchi maktab ta’lim oluvchilarida zaruriy axloqiy (mehnatsevarlik, jamoa bilan ishlay bilish malakasi) sifatlarini shakllantirishning asosiy shartlaridandir.

Karlar maktablarining tarbiyalanuvchilari metallni qayta ishlash sanoatining turli mutaxassisliklarini egallaydilar. Karlar uchun mos keluvchi mutaxassisliklardan yana biri bilan yog‘ochni qayta ishlash sanoati bilan bog‘liqdir. So‘nggi yillarda kar o‘quvchilar elektro va radiomontaj, chizmachilik va boshqa mehnat turlariga oid kasblarni egallamoqdalar.

Jismoniy rivojlanishdagi kamchiliklarni korreksiyalashga kar va zaif eshituvchi bolalardagi Mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasi yordam beradi. Eshitish faoliyatining buzilishi sababli kar va zaif eshituvchilar maktablari ta’lim oluvchilarining rivojlanishida bir qancha kamchiliklar mavjud. Bu kabi hollarda Mehnat va predmetli amaliy

ta’lim texnologiyasi mehnat terapiyasi sifatida qo‘llanilishi lozim.

Bu haqda xorijiy adabiyotlarda quyidagicha qarashlar mavjud: “Art terapiya malakali art-terapevt ishtirokidagi o‘zligini ifodalash va aks ettirishda badiiy vositalarning qo‘llanilishidir. Art-terapevtga yo‘naltiriladigan mijozlar avval ushbu sohada tajriba yoki malakaga ega bo‘lishlari shart emas, ya’ni art – terapevt mijozning estetik va diagnostik imijini shakllantirishga birinchi galda e’tibor qaratmaydi. Uning amaliy faoliyati – mijozga badiiy materiallar yordamida shaxsiy o‘sish va o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun xavfsiz va qulay muhit yaratishdan iborat”.

Bayon etilgan materialni umumlashtirib quyidagicha xulosalarga kelish mumkin: Maxsus maktabdagi Mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasi keng doirali vazifalarning yechimini ta’minlash, eng avvalo, o‘z tarbiyalanuvchilariga keyinchalik ishlab chiqarish mehnatida ishtirok etishga imkon beruvchi tayyorgarlikni berishi kerak. Ta’lim oluvchilarning umum ta’lim va ruhiy - irodaviy tarbiyalanishlarida mehnat darslari muhim ahamiyatga ega. Maxsus maktab o‘quvchilarining atrofdagilar bilan muloqoti chegaralanganligi mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasining vazifasiga zaif eshituvchi bolalarning kamchiliklarini korreksiyalashni ham kiritadi. Barcha maxsus maktablari uchun mehnat va predmetli amaliy ta’lim texnologiyasi vazifalarining yagona shakliga qaramay, har bir turdagi maktab uchun uning mohiyatli maxsuslashtirilgandir.

Hozirgi vaqtda zaif eshituvchi bolalarning har bir kategoriyasi ta’limiga mehnat metodlari va vositalarini ishlab chiqish defektologiyaning dolzarb muammolaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami. 1997 y. O`z.Res Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 4 iyundagi 282-sonli “HUNARMAND” xalq hunarmandlari uyushmasini tashkil etish va uning faoliyati masalalari to`g`risida”gi Qarori. O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami. 2005 y., 12-13-son, 90-modda.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 28-mart, PF-3588-sonli “Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san`atining yanada rivojlantirish chora tadbirlari to`g`risida”gi Farmoni.
3. N.Yusupova, “Qo‘l mehnatini o‘qitish maxsus metodikasi va predmetli -amaliy ta’lim” T.: «Nizomiy nomidagi TDPU”, 2012
4. L.N.Gushkin., V.R.Xiltunin «Mehnat eng yaxshi tarbiyachi» t.2020 y.
5. S.Karimova «Moxir qo‘llar». T. «O‘qituvchi» nashiryoti. 2018y.
6. 1—5 sinf uchun «Texnologiya» darsligi.
7. «O‘zing yasa» Xasanboyeva .O.T. 2020 y
8. M.F.Xakimova Maxsus yordamga muxtoj o‘quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashning pedagogik asoslari Ped. fan. dok. Diss. – T.: 2010.

TA’LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

SAYDULLAYEV ZAFAR ERKINOVICH
Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola mamlakatimizning ta’lim tizimida fanlarni o‘qitishda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, axborot texnologiyalari - bu talabalarga nafaqat bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarni, balki shaxsiy fazilatlarni ham egallashga yordam beradigan va ularning bilimga bo‘lgan qiziqishini oshirishga yordam beradigan butun dunyo bo‘ylab tan olingan ta’lim vositasi ekanligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: ta’lim, fan, axborot, axborot texnologiyalari, usul, texnologiya, pedagogik vosita.

Аннотация: В данной статье речь идет об эффективном использовании информационных технологий при преподавании предметов в системе образования нашей страны, информационные технологии – это целое, которое помогает учащимся приобретать не только знания, навыки и умения, но и личностные качества и повышает их интерес к знаниям. Говорят, что это всемирно признанный образовательный инструмент.

Ключевые слова: образование, наука, информация, информационные технологии, метод, технология, педагогический инструмент.

Abstract: This article is about the effective use of information technology in teaching subjects in the education system of our country, information technology is a whole that helps students acquire not only knowledge, skills and abilities, but also personal qualities and increases their interest in knowledge. is said to be a globally recognized educational tool.

Key words: education, science, information, information technologies, method, technology, pedagogical tool.

Kirish. Bugun axborot texnologiyalari, kompyuter va kompyuter dasturlari insonlar bajaradigan ishlarni yengillashtirish, samarali faoliyat yuritish va bilimlarga ega bo‘lish uchun yaratiladi, yangi imkoniyatlar ochadi va bizdan yangi bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishimizni talab qiladi. Shu o‘rinda Kreyg Barretning so‘zlarini keltirish o‘rinli bo‘ladi: "Mo‘jizani kompyuterlar emas, balki o‘qituvchilar yaratadi". Ya’ni, axborot texnologiyalari vositalari ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilishi, bu jarayonda ular faqatgina bilimlarni yig‘ish vositasi sifatida qatnashishi nazarda tutiladi.

Asosiy qism. Zamonaviy jamiyatni va ayniqsa ta’limni axborotlashtirish zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini takomillashtirish va ommaviy tarqatish jarayonlari bilan ajralib turadi. Ta’lim sohasida ushbu texnologiyalar ma’lumotuzatish va o‘qituvchi va talabaning zamonaviy ochiq va masofadan turib o‘qitish tizimlarida o‘zaro ta’sirini ta’minlash uchun faol foydalanilmoqda. Zamonaviy o‘qituvchi nafaqat o‘z sohasi bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lishi, balki o‘z kasbiy faoliyatidaaxborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishi kerak. [1].

Hozirgi vaqtdaaxborot vaaxborot texnologiyalari sohasidan tashqarida mavjudlikni tasavvur qilish qiyin. Har xil turdagi axborotlarning tobora ko‘payib borishi bizni uni qayta ishlashning yangi, ilg‘or usullari va vositalarini joriy etishga majbur qilmoqda va zamonaviy hayot sharoitlariunisaqlash,uzatishvaxavfsizligini

ta’minlash masalasida tobora ko‘proq talablarni kuchaytirmoqda. Bugungi kunda fanlarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik va-axborot texnologiyalari hamda zamonaviy metodikalarni ishlab chiqish, ta’lim tizimida bilim, ko‘nikma va malakalarning to‘liq o‘zlashtirilishini ta’minlash, fanlarni o‘qitishda innovatsion texnologiyalarga-asoslangan ma’ruza, munozara, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini loyihalash va pedagogik faoliyatda qo‘llash, ta’lim jarayonida rivojlangan mamlakatlardagi ilg‘or tajribalarni o‘rganish kerakligini davrtaqozo etmoqda. Buning uchun o‘quv mashg‘ulotlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish mahorati, ijodkorligini oshirish, o‘quv fanlarini integratsiyalash turlari, yo‘nalishlari, tiplari, funksiyalari hamda kelgusida rivojlantirish istiqbollarini belgilash, informatika vaaxborot texnologiyalari fanlarini o‘qitishdao‘quvaxborotini qayta ishlash, muammoli savol, keys-stadi topshiriqlarini ishlab chiqish, ushbu fanlarni o‘qitishda talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, magistrlik dissertatsiyasining uzviyligini ta’minlash, mazkur fanlardan masalalar yechish metodikasini takomillashtirish, bu fanlarni o‘qitishda talabalarning bilimlarini ob’ektiv baholash mexanizmlarini takomillashtirish, standart va nostandart o‘quv va test topshiriqlari majmuasini ishlab chiqish, didaktik ta’minotini yaratish, bu fanlardan darsliklar vao‘quv-metodik qo‘llanmalar, elektron darsliklar, portfolio, o‘quv kursining elektron - ta’lim resurslarini va sillabusini yaratish kabi vazifalarni amalgaoshirish lozim. Jamiyatni vaayniqsa ta’limni axborotlashtirish zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini takomillashtirish vaommaviy tarqatish jarayonlari bilan ajralib turadi. Ta’lim sohasida ushbu texnologiyalar ma’lumot uzatish vao‘qituvchi va talabaning zamonaviy ochiq va masofadan turib o‘qitish tizimlaridao‘zaro ta’sirini ta’minlash uchun faol foydalanilmoqda. Zamonaviy o‘qituvchi nafaqat o‘z sohasi bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lishi, balki o‘z kasbiy faoliyatidaaxborot texnologiyalaridan foydalanishi kerak. [2].

Zamonaviy axborot texnologiyalarining turli tasniflarini o‘rganib chiqib, maqsadlarga muvofiq, ular axborot texnologiyalarini qo‘llashning asosiy yo‘nalishlarini: o‘quv vositasi vao‘quv vositasi, talabaning ijodiy rivojlanishining vositasi, nazorat, tuzatish, psixodiagnostika jarayonlarini avtomatlashtirish vositasi sifatida, ta’limni boshqarishni kuchaytirish va takomillashtirish uchun ajratibolishlarini aniqladim. zamonaviy axborot texnologiyalari tizimidan foydalanish orqali institut vao‘quv jarayoni. Shunday qilib, ushbu muammo bo‘yicha nazariy adabiyotlarni o‘rganayotganda quyidagilar aniqlandi: Axborot texnologiyalari - bu jarayonlarning murakkabligini kamaytirish uchun ma’lumotlarni to‘plash, saqlash, qayta ishlash, chiqarish va tarqatishni ta’minlaydigan texnologik zanjirga kiritilgan usullar, ishlab chiqarish jarayonlari va dasturiy-texnik vositalarning birikmasi. axborot resurslaridan foydalanish, ularning ishonchliligi va samaradorligini oshirishdir. O‘qitish jarayonidaaxborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, birinchidan, talabalargao‘quv ma’lumotlarini taqdim etishda, ikkinchidan, ularni o‘zlashtirish muvaffaqiyatini kuzatishda foydalanish mumkin. Shu nuqtai nazardan, o‘qitish jarayonida foydalaniladigan axborot-

kommunikatsiya texnologiyalari ikki guruhga bo‘linadi:

1) Ta’lim to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etish texnologiyalari;

2) Texnologik bilimlarni boshqarish texnologiyalari.

Ta’limiy axborotni taqdim etish uchun kompyuter axborot texnologiyalari qatoriga quyidagilar kiradi:

kompyuter o‘quv dasturlaridan foydalanadigan texnologiyalar;

multimedia texnologiyalari;

masofadan o‘qitish texnologiyalari.

Ushbu texnologiyalar bugungi kunda zamonaviy darslarni tashkil etish, dars jarayoni sifatini ta’minlash hamda vaqtdan unumli foydalanish imkonini beradi. Ta’lim natijalarini o‘lchash, kuzatish va baholash texnologiyasi va vositalari an’anaviy ravishdao‘quv jarayonida-axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanish muammolari bilan chambarchas bog‘liqdir. Darhaqiqat, hozirgi vaqtdaochiq ta’lim tizimining deyarli barchao‘quv muassasalarida pedagogik o‘lchash va nazorat qilish uchunkompyuter va telekommunikatsiya uskunalari qo‘llaniladi. Albatta, bunday pedagogik o‘lchovlarning tematik sohalari doimoamalgaoshiriladigan pedagogik faoliyatning mazmuni, usullari, shakllari va vositalari bilan moslashtiriladi.[3].

Bunday axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining qurilishi test tizimlari va tegishli kompyuter mahsulotlarini ishlab chiqish va pedagogik foydalanish xususiyatlarini maksimal darajada hisobgaolishgaasoslangan bo‘lishi kerak. Ta’lim jarayonidaaxborot kommu nikatsiyatexnologiyalaridan foydalanish maqsadlari quyidagilardan iborat:

o‘quv motivatsiyasini oshirish;

o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish;

talabalarning bilim doirasini faollashtirishga hissa qo‘shish;

darslarni o‘tkazish usullarini takomillashtirish;

o‘quv va ta’lim natijalarini o‘z vaqtida kuzatib borish;

o‘qituvchining ishini rejalashtirish va tashkil etish;

o‘z-o‘zini tarbiyalash vositasi sifatida foydalanish;

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali

Annotatsiya. Maqola boshlang‘ich maktabda jismoniy tarbiya darsini o‘tkazish texnologiyasi masalasini ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, jismoniy tarbiya jarayonida o‘quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari masalalari ochib berilgan.

Kalit so’zlar. O‘quvchi, jismoniy madaniyat, maktab, metodlar, qo’llanma, axborot texnologiyalari

Аннотация. В статье рассматривается вопрос о технологии проведения урока физической культуры в начальной школе. Также в процессе физического воспитания раскрыты вопросы возможности использования современных информационных технологий в образовательном процессе.

Ключевые слова. Ученик, физическая культура, школа, методы, руководство, информационные технологии

Annotation. The article addressed the issue of the technology of conducting a physical education lesson in elementary school. Also, in the process of physical education, issues of the possibility of using modern information technologies in the educational process are revealed.

Key words. Student, Physical Culture, school, methods, manual, information technology

Jismoniy madaniyat shakllanishi Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining qiziqishi, iqtidori, individual talanti, ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma'naviy me'yorlarni shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko‘zda tutgan bolalarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan jarayon hisoblanadi. Kichik maktab yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyasni rivojlantirish, muammolarini hal etishning yangi yo‘llarini izlash, birinchidan, ko‘rsatilgan ziddiyatlarni hal etish zarurati bilan, ikkinchidan, o‘sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy tayyorgarligi hamda psixik rivoji jarayonini takomillashtirish qonuniyatlarini, metodologik va usubiy sharoitlarini o‘rganish zarurati bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi

Bolaning maktab hayotining boshlanishi tananing barcha fiziologik va psixofiziologik tizimlarining zo‘riqishi bilan bog‘liq bo‘lgan yangi faoliyat va aloqa muhitiga o‘tish bilan belgilanadi. Bolaning yangi muhitga moslashishi qanchalik muvaffaqiyatli bo‘lishi uning jismoniy va psixo-emotsional holatiga bog‘liq. Moslashuvning ijtimoiy-psixologik, o‘quv va biologik tarkibiy qismlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bolaning sog‘lig‘ini belgilaydigan yagona va murakkab jarayonni tashkil etadi. Boshqa tomondan, jismoniy salomatlikning ajralmas xususiyatlaridan biri bu ma'lum bo‘lgan jismoniy (mushak) ishlashdir, bilvosita aqliy ishlash bilan bog‘liq. Mushaklarning ishlashining asosiy omillaridan biri bu jismoniy rivojlanish va vosita tayyorgarligining yuqori darajasi, shuningdek fiziologik rivojlanish sur'ati (biologik yosh).

Bir qator mualliflarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, fiziologik rivojlanish sur'ati sekinlashgan birinchi sinf o‘quvchilarida psixologik buzilish, tana vaznining pasayishi, vegetativ-qon tomir distoni va aritmiya belgilari ko‘proq uchraydi. Shu munosabat bilan, qismi sog‘liqni saqlash maktab o‘quv jarayonida tejash

yondashuvi jismoniy rivojlanish, biologik yosh va vosita tayyorgarligini baholashni o‘z ichiga olgan jismoniy holatni tizimli monitoring asosida kompleks pedagogik tadbirlarni rejalashtirishdir. Bundan tashqari, o‘quv ishlari o‘quv jarayonining barcha subyektlari - birinchi sinf o‘quvchilari, ota-onalar va o‘qituvchilar bilan olib borilishi kerak.

Bolaning boshlang‘ich maktabga kelishi, o‘quvchining haqiqat bilan munosabatlarining butun tizimini qayta qurish bilan bog‘liq muammo ko‘rib chiqiladi. Shu maqsadda boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarning psixologik, hissiy, jismoniy holatining rivojlanish ko‘rsatkichlari o‘rganildi, bu boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining shaxsiyatining jismoniy madaniyatini ularning maktabda o‘qishga tayyorligining ajralmas ko‘rsatkichi sifatida shakllantirishga ta'sir qiladi.

Zamonaviy sharoitda jamiyatning rivojlanishi maktabga o‘quv jarayonini takomillashtirish, shuningdek, bolalarni birinchi sinfga qabul qilishda boshlang‘ich ta'limga yangi talablarni qo‘yadi, bu erda ularning kelgusi ta'limga tegishli tayyorgarligi zarur. Maktabga tayyorlik-bu kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish va o‘quv faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirishdan ko‘ra kengroq tushuncha. Maktabga har tomonlama tayyorgarlik universal ta'lim harakatlarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi, bu erda bolaning shaxsiy fazilatlari uchun joy ajratilgan bo‘lib, unga talaba rolida ishlashga moslashishga imkon beradi. Bolalarning jismoniy tayyorgarligi ularning jismoniy rivojlanishi, psixo-emotsional holati, intellektual tarkibiy qismi bilan bog‘liq, shuning uchun maktabda o‘qishga muvaffaqiyatli tayyorgarlikning asosi bolaning jismoniy jihatdan qanchalik rivojlanganligidir.

Kichik Maktab yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasini rivojlantirish bo‘yicha turli adabiyotlarda bolalarning jismoniy va irodavi harakat tayyorgarligi jarayoni mazmuni bir xil talqin etilmaydi. Masalan, Levi Gorinevskayanining fikricha,maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish uchun murakkabroq umumjismoniy mashqlar,1-sinif dasturiga yaqin bo‘lgan va unga tayyorlaydigan mashqlar tanlab olinadi. Ayni vaqtda kichik maktab ta'lim muassasasidagi jismoniy tarbiya vazifalarida kichik yoshlardan boshlab jismoniy sifatlarni maqsadli yo‘naltirish zarurati to‘g‘risidagi mulohazalarning yo‘qligi e'tiborni tortadi. Faqat tayyorlov guruhi uchun dasturda chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilik va kuchni takomillashtirishning maqsadga muvofiqligi haqidagi muayan eslatma paydo bo‘ladi.Kichik maktab yoshidagi bolalar organizmi ikkita muhum xususiyatga ega, ularni bilish maktab o‘qtuvchisiga jismoniy sifatlarni tarbiyalash masalalarini muvaffaqiyatli yechish imkonini yaratadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda yurush, yugurish,sakrash,uloqtirish, konkida yurush yugurush,suzush hayot uchun kerak bo‘ladigan eng oddiy harakat malakalarni rivojlantirishdir. Bu harakatlarni bolalar tez o‘zlashtiradi,sababi-ularning asab tizimi yuqori darajada egiluvchandir. Kichik maktab yoshidagi bolalarga mashq berishdan oldin ularga o‘sha mashqlarni ahamiyati,bajarish tehnikasi ,harakatli o‘yin qoidalari tanani tarbiyalashni ayrim elementlari haqida tushuncha berib borish lozim. Mazkur maqsadni ro‘yobga chiqarish uchun ularda, odatda, jismoniy mashqlar va harakatli o‘yinlardan iborat bo‘lgan keng o‘quv materiali taqdim etilgan.

Jismoniy tarbiyaning sog‘lomlashtirishga yo‘naltirilganlik printsipi, shaxsni har tomonlama rivojlantirish printsipi, jismoniy tarbiyaning mehnat va harbiy amaliyot bilan aloqadorligi printsipi. Printsip- lotincha atama bo‘lib, boshlanish ma'nosini anglatadi. Nazariya, ta'limot va h.k.ning asosiy poydevori, qonun-qoidasi, ya'ni jismoniy tarbiya

nazariyasi va uslubiyati fanining ham qonun-qoidalarini ifodalaydi. Jismoniy tarbiyaning so‘g‘lomlashtirishga yo‘naltirilganlik prinsipi Jismoniy tarbiya mutaxassislarining bolalar sog‘ligini saqlash va mustahkamlash ishlaridagi mas'uliyati hamda burchlari sog‘lomlashtirishga yo‘naltirilganlik prinsipidan kelib chiqadi. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari uchun mashqlarni to‘g‘ri tanlash, milliy va zamonaviy o‘yinlar hamda mashqlardan samarali foydalana bilish bolalarning salomatligiga ijobiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Sog‘lomlashtirishga yo‘naltirilganlik prinsipi doimiy tibbiy pedagogik nazoratni, shug‘ullanuvchilarning o‘z-o‘zini nazorat qilishini ko‘zda tutadi.

Umumiy o‘rta ta'lim uchun jismoniy tarbiya bo‘yicha davlat ta'lim standarti (UO‘TJTDTS) ta'lim jarayonining sifatiga, ta'lim mazmuniga doir talablarni: o‘quvchilar tayyorgarligining zarur va yetarli darajasi hamda bitiruvchilarga qo‘yiladigan talablarni, ta'lim muassasalari faoliyati va jismoniy ta'lim hamda tarbiya sifatiga baho berish tartibi va mexanizmlarini belgilab beradi. Jismoniy tarbiya va ta'lim" kursi umumiy o‘rta ta'limda quyidagilardan tarkib topadi.

– Jismoniy tarbiya darslari- maktabda jismoniy tarbiya va ta'limning asosiy shakli. Ularning miqdori Tayanch o‘quv rejasida haftasiga 2 o‘quv soati hisobidan belgilangan;

– Harakat faoliyatining darsdan tashqari shakllari darsdan oldin o‘tkaziladigan gimnastika, umumiy o‘rta ta'lim darslarida jismoniy tarbiya daqiqalari va pauzalari, uzaytirilgan tanaffuslardagi dinamik pauzalar, ko‘ngil ochar o‘yinlar;

– Jismoniy mashq mashg‘ulotlarning sinfdan tashqari shakllari: sport sektsiyalari, fakultativlar, o‘quvchilar qiziqishiga qarab ochilgan to‘garaklar va boshqalar;

– Umum maktab tadbirlari: bayramlar, sport turlari bo‘yicha musobaqalar, spartakiadalar, viktorinalar va boshqalar;

– Mustaqillik mashg‘ulotlari: ko‘pincha uy vazifalarini bajarish tarzida, BO‘SM sho‘balaridagi mashg‘ulotlar, safarlar, o‘yinlar va boshqalar;

– Mashg‘ulotlarning barcha shakllari va turlari haftasiga boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun 8-10 soat;

– 5-9 sinf o‘quvchilari uchun 10-12 soat harakat rejimini ta'minlab berishi

kerak;

– Belgilangan hajm o‘quvchilarning ko‘rsatilgan guruhlari uchun yetarli darajada zarur va minimal darajada majburiydir;

– Nosog‘lom, jismoniy rivojlanish va tayyorgarligi past darajali o‘quvchilar uchun maxsus (individual-differentsial) rejim o‘rnatiladi;

– Jismoniy tarbiyaning barcha vazifalarini muvaffaqiyatli etish uchun maktab o‘qituvchilar jamoasini, maktabdan tashqari muassasalar xodimlari va ota-onalar kuchlarini birlashtirish talab qilinadi;

Maktabning jismoniy tarbiyaga oid yillik ish rejasida o‘quvchilarni tibbiy ko‘riqdan o‘tkazish muddati va tartibi belgilab qo‘yiladi. Ko‘rikdan dastlab birinchi sinf o‘quvchilari, so‘ng esa o‘tgan o‘quv yilida jismoniy zaif deb topilgan bolalar (hamma sinflardan) o‘tadilar. Keyin ikkinchi va uchinchi sinf o‘quvchilari tekshiriladi. Mazkur rejada sog‘lig‘ining yomonligi tufayli maxsus tibbiy guruhga o‘tkazilgan bolalarni qayta ko‘rikdan o‘tkazish muddatlari belgilangan bo‘lishi kerak.

Ta'lim jarayonining har bir bosqichida o‘quvchi-yoshlarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olib, dastur doirasidagi uzviylikni ta'minlash uchun har bir bosqichda ayni bir mavzuni qanday qilib, qaysi talablar asosida o‘qitish lozimligini ta'lim standartlarida keltirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarning minmal talablaridan kelib chiqqan holda belgilanishi lozim. Zaruriyat tug‘ilgan taqdirda, DTSlarni amaliy tajribalardan kelib chiqqan holda takomillashtirish zarur.

O‘qitishga bunday yondashuv umumiy

o‘rta ta'lim maktablari, o‘rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari o‘quvchi yoshlarning bilimlaridagi bo‘shliqlarini to‘ldirishga va amalga uzviylikni ta'lim jarayoni markaziga o‘quvchi shaxsi qo‘yilgan tabaqalashtirilgan va tom ma'noda shaxsga yo‘naltirilgan ta'limni amalga oshirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Драндров Г. Л. Формирование универсальных учебных действий у младших школьников в процессе обучения предмету «Физическая культура» / Г. Л. Драндров, А.А. Пауков // Современные проблемы науки и образования. - 2019. - № 1 (101). - С. 160-169. - URL: http://www.science-education.ru/article/view?id=27410 (дата обращения: 05.10.2020).
2. Пичкалева Н.В. Формирование универсальных учебных действий на уроках физической культуры / Н.В. Пичкалева // Пермский педагогический журнал. - 2018. - № 9.
3. Муниров Н. А., Раджабов Э. Н. Учебные технологии, применяемые в обучении видам национальной борьбы кураш //Научный журнал. - 2019. - №. 6 (40).
4 .Муниров Н. А., Раджабов Э. Н. Учебные технологии, применяемые в обучении видам национальной борьбы кураш //Научный журнал. - 2019. - №. 6 (40).
5. Муниров, Н. А. "Национальная борьба (Кураш)-одно из средств создания здоровой духовной среды среди молодёжи." УЧЁНЫЙ XXI ВЕКА 4 (2019): 69-70. 13.ОЛИМОВ Ш.Ш., ХОДЖИЕВА М. Ш. Возможности применения педагогических технологий в образовательном процессе //Молодежь и XXI век-2020. - 2020.

UMUMTA‘LIM MAKTABLARIDA MUSIQA DARSLARI VOSITASIDA O‘QUVCHILARNING AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH

INAMOV DILMIRZA DADAMIRZAYEVICH
Namangan davlat universiteti (PhD), dotsent
IBROXIMOVA GULNOZA SA`DULLAYEVNA
O`zDSMI Fmfiliali o`qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta‘lim maktablarida o‘quvchilarning axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda musiqa ta‘limining o‘rni yoritilgan. Musiqa darslari uchun muhim hisoblangan: musiqiy ifoda, mas‘uliyat, qat‘iyat, hamkorlik va axloqiy mulohaza kabi turli jihatlari o‘smirlarning ma‘naviy-axloqiy fazilatlarining rivojlanishiga qanday hissa qo‘shishi to‘g‘risida ma‘lumot berilgan. Musiqiy ta‘lim amaliyoti va ularning talabalarga ta‘sirini tahlil qilish orqali maqolada musiqa bilan shug‘ullanish empatiya, ma‘suliyat, qat‘iyat va jamoaviy hamkorlikda ishlash xususiyatlarini qanday oshirish mumkinligi to‘g‘risida aytib o‘tilgan. Maqolada nazariy qarashlar va amaliy misollarni o‘zida mujassamlashtirgan holda musiqa ta‘limining umumta‘lim maktablari o‘quvchilarida har tomonlama barkamol axloqiy fazilatlarni shakllantirish, ularni shaxsiy va ijtimoiy muammolarga tayyorlash imkoniyatlari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Musiqa ta‘limi, axloqiy rivojlanish, umumta‘lim maktablari, empatiya , mas‘uliyat, hamkorlik, axloqiy fikrlash , xarakter tarbiyasi, o‘smirlar rivojlanishi

Abstract. This article highlights the role of music education in the development of moral qualities of students in comprehensive schools. It presents information on how various aspects considered important for music lessons: musical expressiveness, responsibility, determination, cooperation and moral judgment contribute to the development of moral and ethical qualities of adolescents. By analyzing music education practices and their impact on students, the article discusses how music can enhance empathy, responsibility, persistence and teamwork. The article, combining theoretical views and practical examples, shows the possibilities of developing comprehensive moral qualities in students of comprehensive music education schools, preparing them to solve personal and social problems.

Keywords. Music education, moral development, secondary schools, empathy, responsibility, cooperation, moral thinking, character education, adolescent developmen

KIRISH

Zamonavi ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirish yaxlit rivojlanishning eng muhim jihatiga aylandi. Umumta‘lim maktablarida o‘qitiladigan turli fanlar orasida musiqa ta‘limi ma‘naviy va axloqiy rivojlanishni rag‘batlantirish uchun kuchli, lekin ko‘pincha kam foydalaniladigan vosita sifatida ajralib turadi. An‘anaviy ravishda kognitiv va ijodiy qobiliyatlarni oshirishdagi roli uchun qadrlanadigan musiqa darslaridan o‘quvchilarning axloqiy fazilatlarini tarbiyalashda samarali foydalanish mumkin. Musiqiy faoliyatga jalb qilish orqali o‘quvchilarda hamdardlik,bag‘rikenglik,tartib-intizom, qat‘iyatlilik va jamiyatga ahillik tuyg‘usini, axloqiy kamolotining ajralmas fazilatlarini rivojlantirish imkoniyatlari yaratiladi. Ta‘lim tizimi kundan-kunga o‘zgarib borayotgan jahon ta‘lim standartlariga moslashib borib o‘quvchilarining o‘zgaruvchan ehtiyojlarini hisobaga olgan holda, musiqa ta‘limini o‘quv dasturiga integratsiya qilish orqali, axloqiy o‘sishni rag‘batlantirish uchun istiqbolli

yo‘lni ochadi. Maktab o‘quvchilarida ushbu fazilatlarni rivojlantirish va amalda qo‘llash uchun tuzilgan muhitni ta‘minlash orqali musiqa ta‘limi nafaqat ularning shaxsiy hayotini boyitadi, balki ularni kelajakdagi murakkab ijtimoiy va axloqiy muammolarga halollik va hamdardlik asosida yechim topishga tayyorlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Pedagogika va psixologiya sohasida qiziqishlar, ehtiyojlar, shaxs shakllanishining psixologik-pedagogik mexanizmlarini tadqiq etishda katta tajriba to‘plagan. Bular L. S. Vygodskiy, A. V. Zaporojets, A. N. Leontyev, S. L. Rubinshteyn, B. M. Teplovlarning asosiy tadqiqot olib borgan va shu bo‘yicha yaratilgan ilmiy ishlaridir. Ularning ijodi shuni isbotlaydiki, birinchidan, musiqiy qobiliyat erta bolalik davrida shakllanmagan bo‘lsa, kelajakda bola tarbiyasidagi bu bo‘shliqni to‘ldirish juda qiyin, ba‘zan esa imkonsizdir. Ikkinchidan, bola shaxsining musiqiy rivojlanishi hayotning ichki qonuniyatlariga muvofiq davom etadi, lekin tashqi ta‘sirlarga bo‘ysunadi, ya‘ni bolalarning musiqiy ta‘limi pedagogik jarayon sifatida ichki jarayonlar va tashqi ta‘sirlarni hamda ularning birligida o‘z ichiga oladi. Atoqli rus pedagoglaridan biri Vasiliy Aleksandrovich Suxomlinskiy shunday degan edi: “Musiqa – ezgulikka, go‘zallikka, insoniylikka jalb etuvchi mo‘jizaviy, eng nozik vositadir... Jismoniy tarbiya tanani sog‘lomlashtirganidek, musiqa ham inson ruhini sog‘lomlashtiradi”.

TAHLIL VA NATIJALAR

VIII-XII asarlarda Sharqshunoslik tarixida "Sharq yoki musulmon Renessansi" davri deb nom olgan davr Sharqda O‘rta asrlardagi barcha taraqqiyotlaming eng yuksak cho‘qqisi hisoblanadi. Abu Yusuf Yoqub ibn Is‘hoq al-Kindiy, Abu Nasr ibn Muhammad al- Forobiy, Abu Ali ibn Sino va boshqalar shu davming ajoyib vakillari bo‘lganlar. Al-Forobiyning musiqaga bag‘ishlangan "Kitob ul-musiqiyal-Kabr" ("Musiqa haqida katta kitob") asarida yozilishicha musiqa haqidagi fan amaliy va nazariy sohalardan iborat. Birinchisi musiqiy asboblar yordamida musiqiy asarlarni ijro etishga oid. Ikkinchisi esa ohanglaming kelib chiqishi va musiqiy asarlarni yaratilish qonunlarini o‘rganadi. Forobiyning tabiricha san‘at, shu jumladan, musiqa ilohiy ne‘mat emas, balki inson ijodining mahsulidir. Uning vazifasi insonga o‘z intelektual va axloqiy sifatlarini takomillashtirishda foydali bo‘lishidan iborat.Musiqa haqida Ibn Sino o‘zining besh asarida yozgan. Bu "Kitob ash-shifo", ("Shifo kitobi") nomli ko‘p jildlik qomusiy asaming musiqa haqidagi bo‘limidir. Ibn Sinoning ta‘rificha san‘at, jumladan, musiqa fandir. Bundan san‘atning "aql bilan idrok etish" yoki "buyumlaming bilish" mohiyati kelib chiqadi. Ibn Sino musiqaning tarbiyaviy mohiyatini alohida ta‘kidlab o‘tgan. Bunda san‘at vositasi orqali estetik didni tarbiyalashga asosiy e‘tibor qaratilgan. Buyuk olim ta‘kidlaydiki, shaxsni har tomonlama kamol toptirish uchun ikki tomonlama-jismoniy barkamollik uchun jismoniy mashqlar, ma‘naviy rivojlanishi uchun musiqa va boshqa san‘at turlari orqali ta‘sir o‘tkazish lozim.She‘riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy nozik ta‘b, yuksak zakovat egasi sifatida musiqani sevib tinglar, dil-dildan zavqlanardi. Shoir talantli san‘atkorlarga hamisha g‘amho‘rlik qildi, yoshlaming kamoloti uchun tinmay qayg‘urdi. Insoning kamolotga yetishuvida asosiy rol o‘ynovchi vositalardan bin - musiqa san‘atidan bahramand bo‘lish deb bildi. "Musiqani idrok etmagan shoir nim shoirdir",-deydi Navoiy. Bu kalima shoir estetik qarashlarining mohiyatini yaqqol ko‘rsatadi.

Axloq - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, uning mohiyati, shaxs xatti-harakatlari, yurish-turishi, turmush tarzi, hayot kechirish

tamoyillari, qoidalari, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi. Shu bois, axloq ijtimoiy xodisa sifatida jamiyat ma‘naviy- ruhiy hayotida o‘ziga xos muhim ahamiyatga ega. Muayyan millat qiyofasi, uning kishilik taraqqiyotidagi o‘mi belgilanayotgan jarayonda mazkur tushuncha asosiy mezonlardan biri bo‘lib xizmat qiladi.“Axloq” tushunchasi omma fikri asosida tartibga soluvchi faoliyat tarzida kishilik jamiyatining ilk bosqichida shakllangan. Qadimdanoq jtimoiy-falsafiy, psixologik, pedagogik, tarixiy, badiiy, etnografik va madaniyatshunoslikka oid asarlarda ushbu tushuncha turli ko‘lamda ishlatilib kelingan.Axloq (arabcha xulq-atvor demakdir) - ijtimoiy ong shakllaridan biri, ijtimoiy tartib-qoida bo‘lib, bu tartib-qoida ijtimoy hayotning barcha sohalarida kishilarning xatti-harakatini tartibga solish vazifasini bajaradi. Axloq omma faoliyatini tartibga solishning boshqa shakllari (o‘quv, ishlab chiqarish, xalq an‘analari)da o‘z talablarining asoslanishi, amalga oshirilishi va omma fikri asosida tartibga solinishi bilan farq qiladi. Axloq talablari barchaga taalluqli, biroq hech kimning ko‘rsatmasi, hech qandav maxsus buyruq asosida bajarilmaydigan, ixtiyoriy amalga oshiriladigan burch shakliga kiradi. Axloq talab-larining bajarilishi faqat ma‘naviy ta‘sir ko‘rsatish shakllari doirasida yuz beradi. Axloq shaxs taraqqiyotining yuqori bosqichi bo‘lgan ma‘naviy komillik asosini, poydevorini tashkil etadi.Bir so‘z bilan aytganda axloq jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma‘qullangan xulq-odob normalari majmuyidir

Musiqa qadimdan insoniyat madaniyatining poydevori bo‘lib, ommaviy marosimlarda, shaxsiy hissiyotlarni ifodalshda va ijtimoiy tajribada alohida o‘rin tutadi. Biroq, musiqa ta‘limi o‘zining badiiy va ko‘ngilochar qiymatidan tashqari, axloqiy rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega. Maktab o‘quvchilariga musiqa vositasida axloqiy tarbiya berish bolaning musiqiy rivojlanishini boshqarish, uni musiqa bilan tanishtirish va axloqiy ongni shakllantirish jarayonida estetik tuyg‘ularini tarbiyalash qonuniyatlari haqidagi ilmiy bilim va tushunchalar tizimi sifatida qaraladi. Musiqiy ta‘lim pedagogika fanlari umumiy tizimiga kiradi va unda o‘ziga xos mustaqil o‘rin egallaydi. Maktab o‘quvchilarining musiqiy ta‘limi nazariyasi bevosita maktab pedagogikasiga kiritilgan, chunki u bolani musiqiy tarbiyalashga bag‘ishlangan. Bu axloqiy tarbiya sohasi bo‘lib, uning qonunlari insonning barcha musiqiy faoliyatiga taalluqlidir. Biroq, musiqa ta‘limi o‘zining badiiy va ko‘ngilochar qiymatidan tashqari, axloqiy rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega. Kognitiv qobiliyatlarni yoki badiiy iste‘dodni rivojlantirish bilan bir qatorda musiqa darslari ham axloqiy tarbiyaga ham katta ta‘sir ko‘rsatadi.Musiqa ta‘limi ham hamkorlik va jamoada ishlashga urg‘u berish orqali axloqiy rivojlanishga yordam beradi. Ansambl ijrosi, xor kabi ko‘plab musiqa tadbirlari o‘quvchilardan hamjihatlikdan ishlashni talab qiladi. Bunday muhitda ular tengdoshlarini tinglashni va qo‘llab-quvvatlashni, jamoaviy maqsadga hissa qo‘shishni o‘rganadilar. Ushbu hamkorlik muhiti hurmat, o‘zaro yordam va boshqalarning nuqtayi nazarini hisobga olish muhimligi haqida qimmatli saboqlarni o‘rgatadi. Guruhli ijro faoliyati orqali o‘quvchilar hamnafaslikda ishlash qiymatini o‘z tajribalari orqali his qiladilar va o‘zlarining individual hissalari guruhning umumiy muvaffaqiyatiga qanday ta‘sir qilishini o‘rganadilar.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki,, musiqa darslari empatiyani rivojlantirish, tartib-intizomni shakllantirish, hamkorlikni rivojlantirish, o'zini ifoda etish va mulohaza

yuritishni rag'batlantirish orqali axloqiy tarbiyaga katta ta'sir ko'rsatadi. Musiqani o’rganish orqali o`quvchilar nafaqat badiiy qobiliyatlarni rivojlantiradilar, balki insoniyat tajribasining axloqiy jihatlari haqida qimmatli bilimlarga ega bo'ladilar. Musiqa ta’limi orqali olingan saboqlar sinfdan tashqarida ham o‘quvchilarning boshqalar bilan o‘zaro munosabatiga va o‘z-o‘zini anglashiga ta’sir etadi. Musiqa ta’limini ma’naviy-axloqiy rivojlanish strategiyalariga integratsiyalashgan holda pedagoglar va ota-onalarga nafaqat san’atni puxta egallagan, balki o‘z hayotining axloqiy jihatlari orqali ajralib turadigan har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashda yordam berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 Yildagi 2022 — 2026-Yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida Pf-60-Son Farmoni Farmoni www.lex.uz.
2 .O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-mart kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidagi “Yoshlarni ma‘naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish tog‘rsida”gi ma‘ruzasida belgilab berilgan vazifalar ijrosinita‘minlash bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus. https://www.pv.uz/uz/news/
3.Musurmanova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. -Toshkent: O’qituvchi. 1996.
4. Masharipova Z. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi.-Toshkent, 2001.
5. Zufarova.M.E Umumiy psixologiya. O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.2010. B- 295-302
6.Ortiqov.T. Musiqa o`qitish metodikasi .” Muharrir “ Toshkent. 2010
7. J. Hasanboyev, X.A. To‘raqulov, I.Sh. Alqarov, N.O‘.Usmanov Pedagogika “NOSHIR” Toshkent. 2016. B-213-224
8.Теплов.Б.М Психология музыкальных способностей. Планета музыки. 2022.С-24

ПРОБЛЕМНАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ОБУЧЕНИЯ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ

ХАИТОВ БЕКЗОД ШУХРАТОВИЧ
Какандский государственный педагогический институт докторант 3 ступени

Абстрактный: В статье Высокий образование стандартный и современный общество требования с определенный современный в данных обстоятельствах в университетах проблемный образование концепция открыть данный Методы: исследовательский, аналитический. Результаты: рекомендации к пути человека творческий способность изменять и формирование

Ключ слова: проблемный образование, творчество человек, проблемный диалоги, традиционные педагогический стратегия.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Oliy ta'lim standarti va zamonaviy jamiyat talablari bilan muayyan zamonaviy sharoitda universitetlarda muammoli ta'lim konsepsiyasi tadqiqot va tahlil metodlari vositasida ochib berilgan. Natijalar: insonning ijodiy qobiliyatini o'zgartirish va shakllantirish yo'li bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: muammoli ta'lim, ijodikor inson, muammoli dialoglar, an'anaviy pedagogik strategiya.

Abstract: In the article High education standard and modern society requirements with a certain modern in the given circumstances at universities problem education concept open this Methods: research, analytical. Results: recommendations for a person’s path to creative ability to change and formation

Key words: problem-based education, human creativity, problem-based dialogues, traditional pedagogical strategy.

Основной целью современного образования является методика подготовки специалистов творческого преобразования мира. Творческий процесс, прежде всего, предполагает открытие нового: новых предметов, новых знаний, новых проблем, новых способов их решения. В связи с этим проблемное образование представлено как творческий процесс в форме решения нестандартных научных и образовательных задач с использованием нестандартных методов. Если есть учебные задачи, которые предлагаются учащимся для закрепления знаний и умений, которые не работают, то проблемные задачи всегда ищут новый путь их решения. Как психологическая категория она отражает противоречия субъекта в познании объекта. Одна и та же проблема может по-разному восприниматься разными людьми или разными группами людей, вызывая трудности в ее понимании, и воспринимается как проблемная задача, в которой сформулирована суть проблемы и обозначены этапы ее решения.

Проблемное обучение – это создание нестандартных ситуаций, в которых учащиеся приобретают новые знания, навыки и умения.

Формирование профессионального мышления студентов – это, по сути, развитие творческого, проблемного подхода. Университетское образование должно развивать у специалиста необходимые творческие способности.

Элементы проблемного обучения возникли в древности, а затем в эпоху Возрождения. Это эвристические беседы Сократа, беседы и диалоги Галилея. Педагогика Ж.-Ж.

Проблемные диалоги Руссо были любимым жанром эпохи Просвещения. Проблемный пример из истории отечественной педагогики, презентационный материал, возможное обслуживание лекций ТО.А.Тимирязев.

Суть проблемной интерпретации учебного материала заключается в томе V, в котором учитель не сообщает знания V в готовом виде, а ставит перед учащимися проблемные задачи, побуждает их искать пути, а объекты - их решения. Проблема заключается в пути к новым знаниям и методам действия.

Новые знания даются не для информации, а для решения задач или задач. При традиционной педагогической стратегии – знания, у которых проблема – учащиеся не могут развиться; Отрабатывать навыки и умения самостоятельного академического поиска, поскольку они даются для усвоения его конечных результатов. Гегель правильно определил роль научного поиска, говоря о том, что является не результатом существующей реальной совокупности, а результатом ее возникновения. В результате получается труп, который противоречит этой тенденции.

Традиционная лекция. Необходимо дать и уточнить некоторые физические понятия (абсолютное черное тело), затем объяснить основные понятия квантовых теорий, сообщить об основных свойствах (например, распределение интенсивности излучения по тепловым частотам), затем отступить к основным и производные формулы и покажите, какие научно-технические задачи можно решить с помощью этого понятийного аппарата.

Представим себе проблемную лекцию. Учитель рассказывает об ультрафиолетовой катастрофе, проблеме несоответствия теоретических кривых и кривой, принятой опытным путем, распределения интенсивности излучения в частотном спектре. Тогда полезно рассказать студентам о кропотливых исследованиях ученых, которые привели к созданию квантовой теории. Что дает перестановка терминов? Учитель создает проблемную ситуацию на уроке, начиная с, казалось бы, нерешенной проблемы, формируя в сознании учащихся мотив овладения пределами научного знания. Только мотивация может быть действенным фактором активного участия личности в процессе познания. Мотивы возникают из потребностей, а потребности определяются опытом, отношением, оценкой, волей, эмоциями.

Креативное мышление требует решения проблемы инклюзивности. Репродуктивные психические процессы, связанные с воспроизведением заученных закономерностей, в проблемной ситуации просто бесполезны.

Субъект-объект-субъектные отношения помогают активизировать творческое мышление, возникающее в процессе коллективного принятия решений. некоторые задачи. Некоторые психологи придерживаются разделения мотивов на две группы. В обоих случаях разделение происходит в зависимости от того, является ли основной мотивацией потребность действовать или знать. Ниже приведены три группы мотивов, связанные с традиционными и активными формами обучения, а также с общением.

При традиционном обучении у студентов развиваются две группы мотивационных мотивов:

прямые стимулирующие мотивы;

перспективные стимулирующие мотивы;

познавательно-мотивационные мотивы беспристрастного поиска знаний и истины.

Таким образом, познавательно-мотивационная мотивация возникает при использовании активных методов обучения и, возникнув, становится фактором активизации учебного процесса и эффективности обуче-

ния. Познавательная мотивация побуждает человека развивать свои склонности и способности, оказывает решающее влияние на формирование личности и раскрытие его творческого потенциала.

С возникновением познавательно-стимулирующих мотивов происходит перестройка восприятия, памяти, переориентация интересов и активизация способностей человека, создание предпосылок для успешного осуществления интересующей его деятельности.

Инерция – традиционная педагогика. При этом мотивация направлена, прежде всего, на стимулирование мотивационных мотивов и достижений: получения высокого балла, успешной сдачи сессии и т.п. Поэтому выявление психолого-педагогических особенностей и содействие возникновению учебной мотивации с дальнейшей трансформацией и профессиональной мотивации является одним из стратегических направлений развития педагогики высшей школы и инновационных образовательных технологий.

Поэтому учителю следует организовать педагогическое и межличностное общение и направить учебную деятельность учащихся таким образом, чтобы мотивация успеха не мешала возникновению познавательной мотивации.

Задача проблемного обучения – формирование мотивов. Ее успех определяется логикой и содержанием работы студента. Важнейшей особенностью содержательной стороны проблемы является обучение, отражение объективных противоречий, которые закономерно возникают в процессе научного познания, образования или иной деятельности. В результате проблемное обучение можно назвать развивающим, поскольку его целью является формирование знаний, гипотез, их развитие и решение.

Правильно сформулировать задачу – это уже половина решения. Но формулировка начального этапа решения такой проблемы не содержит ключа к ее решению.

Хотя учитель с самого начала знает кратчайший путь решения проблемы, его роль заключается в том, чтобы направлять сам процесс. искать, шаг за шагом ведущих учеников, которые смогут решать проблемы и получать новые знания.

Некоторые авторы описывают проблемное обучение как ряд проблемных задач, последовательное решение которых приводит к достижению поставленной перед ними дидактической цели.

В результате исследовательской и практической деятельности были выявлены три основных условия успешности проблемного образования:

обеспечить достаточную мотивацию, способную вызвать интерес к содержанию проблемы;

обеспечение целесообразности работы с возникающими на каждом этапе задачами (рациональное соотношение известного и неизвестного);

значимость полученной информации для учащегося в решении задачи.

Таким образом, основной психолого-педагогической целью проблемного обучения является развитие профессионального проблемного мышления; каждая конкретная деятельность имеет свои особенности. В целом развитие творческих способностей носит практический характер и определяется в зависимости от того, кем является субъект, формированием той или иной творческой способности, превращением в нестандартное воображение:

увидеть проблемные нерелевантные ситуации. Когда у учащихся возникают вопросы, неактуальные для данного уровня подготовки, например: «Можно ли любую кривую определить системой двух уравнений?»;

Увидеть по-новому строение тривиального предмета (новые его элементы, их связи и функции и ТП), например, соответствующие контуры континентов Америки, Европы и Африки;

сформировать способность переноса ранее изученных знаний и умений в новую ситуацию (формирование метанавыков);

объединение элементов ранее известных методов в новые решения. Например, перенос методов химического, психологического, графологического и математического анализа в судебно-медицинскую экспертизу;

Подобные методы создания оригинальных решений без использования ранее известных (Так создавалась неевклидова геометрия Лобачевского, теория относительности Эйнштейна.

Список литература:

1. Абдулина О. А. Личность студент В процесс профессиональная подготовка // Высшее образование в России. 1993. Номер 3.
2. Ананьев Б. Г. Избранное психологический работает. М.: МЭСИ, 1997.
3. Бороздина Г. В. Психология И педагогика: Учебник Для Бакалавр Лавры Люберцы: Юрайт, 2016.
4. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. М.: ИНТОР, 1996.
5. Руссо Ж.-Ж. Эмиль или об образовании. Педагогические работы. М.: Педагогика, 1981.
6. Шипилина Л.А. Методология и методы психолого-педагогического исследования: Учебник для аспирантов и магистров по направлению «Педагогика». М.: Флинта, 2013.

BADIIY MATNDA PRESUPPOZITSIYA
(O.Yoqubovning “Ko’hna dunyo” asari misolida)

ISLOMOVA E’ZOZA YORQIN QIZI
Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 3-kurstalabasi

Annotatsiya: Presuppozitsiya gapning vaziyat, kontekst hamda so’zlovchi va tinglovchilarning oldindan ma’lum bo’lgan umumiy bilimlari kabi elementlarni o’z ichiga oluvchi hodisadir. Presuppozitsiya hodisasi muloqot qatnashchilarining nutqiy tejamlilikka ehtiyoji, til birliklarining nutqiy vaziyatda sintaktik strukturaga qo’shimcha, ikkilamchi ma’lumot berish imkoniyatiga egaligi, suhbat qatnashchilarining bo’lib o’tgan yoki bo’lajak jarayon haqidagi oldindan ma’lum bilimlari kabi omillar ta’sirida nutqiy maydonga chiqadi. Presuppozitsiyaning til sathidagi ahamiyati tilning mohiyatini belgilaydigan qisqalik, tejamlilik tamoyillari bilan izohlanadi.

Kalit so’zlar: presuppozitsiya, leksik presuppozitsiya, mantiqiy presuppozitsiya, prezumpsiya, tagbilim, ichki ma’no, monema, pragmatik ma’no, sigmatik ma’no, tagma’no , kontekst, vaziyat.

Abstract: Presupposition is a phenomenon that includes elements such as situation, context, and general knowledge of the speaker and listeners. The phenomenon of presupposition is influenced by factors such as the need for speech economy of the participants of the conversation, the ability of language units to provide additional, secondary information to the syntactic structure in the speech situation, and the participants’ prior knowledge of the past or future process. Comes to the speech field. The importance of presupposition at the level of language is explained by the principles of brevity and economy, which determine the essence of language.

Key words: presupposition, lexical presupposition, logical presupposition, presumption, subtext, inner meaning, monema, pragmatic meaning, sigmatic meaning, tagman, context, situation.

Аннотация: Пресуппозиция – это явление, включающее в себя такие элементы, как ситуация, контекст и общие знания говорящего и слушателей. На феномен пресуппозиции влияют такие факторы, как потребность в речевой экономии участников разговора, способность языковых единиц привнести дополнительную, второстепенную информацию в синтаксическую структуру речевой ситуации, предварительные знания участниками разговора. В речевое поле приходит прошлый или будущий процесс. Значение пресуппозиции на уровне языка объясняется принципами краткости и экономии, определяющими сущность языка.

Ключевые слова: пресуппозиция, лексическая пресуппозиция, логическая пресуппозиция, презумпция, подтекст, внутренний смысл, монема, прагматическое значение, сигматическое значение, тагман, контекст, ситуация.

KIRISH. Hozirgi davrda, ya’ni tilshunoslik nazariy bilish bosqichiga ko’tarilgan paytda hodisalarni til va nutq bosqichida o’zaro aloqadorlikda, qolip hamda uning nutqda namoyon bo’lishi tartibida tahlil etish kuchaydi. Ayniqsa, til birliklari o’rtasidagi munosabatlarga asosiy e’tibor qaratildi. Zamonaviy tilshunoslikda bir hodisaning turlicha nomlanishi yoki ikki hodisaning umumiy ko’rinishlari, xossalari, mohiyatining o’xshashligi tufayli ularni o’zaro qorishtirish holatlari ham ko’zga tashlanmoqda. Xususan, atamalarning sinonimik, omonimik, polisemantik xususiyatlarini yoritishda har xillik yuzaga kelmoqda. XX asrning ikkinchi yarmidan o’rganila boshlangan presuppozitsiya hodisasi tadqiqida ham ana shunday har

xillik mavjud. Presuppozitsiya hodisasi tilshunoslikning barcha bo‘limlarida ham o‘rganilgan emas. O‘zbek tilshunosligida o‘tgan asrning 80- yillaridan boshlab til birliklarining pragmatik xususiyatlarini o‘rganishga qiziqish kuchaydi. Ayniqsa, gap tadqiqi yuzasidan olib borilgan ishlarda presuppozitsiya hodisasiga e’tibor qaratildi. O‘zbek tilshunosligi sohasida D.Lutfullayeva, U.Rahimov, H.Mahmudov kabi soha vakillari o‘zlarining ilmiy maqola va tadqiqot ishlarida presuppozitsiya hodisasini tilning ma’lum sathlari doirasida tahlil etganlar. Shu bois, presuppozitsiya masalasi o‘zining dolzarblik darajasini yo’qotgani yo‘q, balki o‘z yechimini kutayotgan masalalardan biridir.

"Presuppozitsiya " tushunchasi kontekst (ushbu til birligining lingvistik qurshovi) va vaziyat (ushbu jumlaning ekstralingvistik, substrati yuzaga chiqish shart - sharoiti) tushunchalarini o’z ichiga oladi . Bugunga qadar tilshunoslikda bu hodisaga nisbatan presuppozitsiya, prezumpsiya, tagbilim, ichki ma’no, monema, pragmatik ma’no, sigmatik ma’no, tagma’no terminlari qo’llandi. Tilshunoslikda presuppozitsiyaning mantiqiy va lingvistik turlari faqrlanadi. Presuppozitsiyaning mantiqiy yoki lingvistik ekanligi uni yuzaga keltiruvchi vositalarga bog’liq. Presuppozitsiya lingvistik ishoralar orqali anglashilsa, lingvistik presuppozitsiya deyiladi. Agar mantiqiy ishora vositalari orqali anglashilsa, mantiqiy presuppozitsiya deb ataladi. Xususan, Odil Yoqubovning “Ko’hna dunyo” asarida mantiqiy va lingvistik presuppozitsiyalarni uchratish mumkin.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Bir gapdan mantiqiy xulosa asosida boshqa bir hukm anglashilsa, mantiqiy presuppozitsiya sanaladi. Masalan, “Faqir kulbamizga nechun qadam ranjida qilmay qo‘ydilar desak, eski qadrdonni tark etib, yangisini topibdilar-da, mavlonayi zamon!” gapida “oldin kulbasiga qadam ranjida qilgan, eski qadrdonining uyiga borgan” degan mantiqiy presuppozitsiya anglashiladi. Shu bilan birga ritorik so’roq gaplar, sof so’roq gaplar, atov gaplar, so’z gaplar, to’liqsiz gaplarning tabiatidan , o’ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan presuppozitsiyalar ham mantiqiy presuppozitsiya hisoblanadi.

“Xo‘sh, shunda nima yutardi? Boshi osmonga yetarmidi? U bu noraso dunyoning ustuni bo‘larmidi?” gapida mantiqiy presuppozitsiya ritorik so’roq gap orqali ifodalangan. Mazkur gapdan “ hech narsa yutmaydi, boshi osmonga yetmaydi, dunyoning ustuni bo’la olmaydi” degan ma’no anglashiladi.

“Ajalimdan besh kun burun menga kafan bichib, ig‘vo yo‘liga o‘tdingmi, battol?

– Valine’mat!

– O‘tmagan bo‘lsang... qayga gumdon bo‘lding? “ Mazkur parchadagi har uchala gapda ham mantiqiy presuppozitsiya ifodalangan. Birinchi gapda “ shohning tobi yo’q, qo’l ostidagi odami anchadan beri uning yonida emas, shoh yomon gumonda” kabi ma’nolar yuzaga kelgan. Ikkinchi gapda “valine’mat” so’zining qat’iy tarzda aytilishi birinchi gapning noto’g’ri ekanligi, “ u ig’vo yo’liga o’tmagan” ligi haqidagi xulosaga olib keladi. Keyingi gapda esa “ u shohga sodiq qolgan, anchadan beri daraksiz yo’q bo’lib ketgan” kabi mantiqiy mulohaza yuzaga chiqadi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION). Tilshunoslikda presuppozitsiya termini ostida muayyan jumla tarkibida bevosita ifodalanmagan, yashirin holda aks etgan ma’no tushuniladi. Presuppozitsiya hodisasi kontekst va vaziyat bilan bog’liq. Masalan, “Dono poshsho donolarga loyiqdur! Nodonlarga nodon poshsho yarashur!” Asarda qo’llangan

mazkur gap nutq va kontekst bilan bog'liq bo'lib, "senday nodonlarga zolim shohlar yarashadi" presuppozitsiyasiga ega. Vaziyat hamda kontekstdan tashqarida ushbu gap presuppozitsiyaga ega bo'lmaydi. Lingvistik presuppozitsiya har doim o'z lisoniy vositalariga ega bo'ladi. Lisoniy presuppozitsiya moddiy vositasiga, tashqi signallariga egaligi bilan mantiqiy presuppozitsiyadan farq qiladi. Barcha tillarda presuppozitsiya hodisasi bo'lganidek, unga ishora qiluvchi vositalar ham o'ziga xos. O'zbek tilida presuppozitsiyaga ishora qiluvchi vositalar turli miqdorda ko'rsatiladi. Ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, modal so'zlar kabi leksik ma'no anglatmaydigan til birliklarining ma'nolarini presuppozitsiya tadqiqi orqali aniqlashtirish mumkin.

"Rasadxonaga... Hazrat Ibn Sino tashrif buyurdilar! Soxta emas, chin Ibn Sino, ustod! Yonlarida shogirdlari ham bor!" Mazkur gaplarda emas va ham yuklamasi lingvistik presuppozitsiya hosil qilgan. Ikkinchi gapda " haqiqiy ibn Sino tashrif buyurgan" , " bundan oldin o'zini ibn Sino deya tanishtirgan soxta kimsalar ham tashrif buyurgan" degan ma'no ifodalangan hamda emas yuklamasi inkor ma'nosini anglatgan. Ushbu gapda presuppozitsiya emas yuklamasi va sifatlovchi aniqlovchining zidlanishi orqali yuzaga kelgan. Keyingi gap esa " yolg'iz o'zi kelmagan, yonida shogirdi bilan kelgan" xulosasiga ega bo'lib, ham yuklamasi birgalik ma'nosini ifodalagan.

Faqat yuklamasi o'zi aloqador bo'lgan so'z bilan birgalikda gapning semantik strukturasini murakkablashtiradi: "Kamina o'z asarimda faqat haqiqatni yozdim! O'lim haq! Vaqtiki kelib faqir ham bu olamni tark eturmen". Birinchi gapda presuppozitsiya faqat yuklamasi , ikkinchi gapda ham yuklamasi orqali ifodalangan.Birinchi gapda " haqiqatdan boshqa hech narsa yozmadim, haqiqatni yozdim" degan ma'no anglashiladi. Bunda faqat yuklamasi o'ziga bog'liq tushunchani ta'kidlab ko'rsatishga xizmat qilgan. Ikkinchi gapda esa ham yuklamasi " boshqalar kabi men ham dunyoni tark etaman" ma'nosi orqali takroriylikni ifodalagan.

Faqat yuklamasi barcha gap bo'laklarini ajratib, ta'kidlab kelish xususiyatiga ega bo'lib, ba'zi holatlardagina kesimni ajratib keladi: "Murodim – faqat yaxshilik qilmoq, endilikda, faqat yaxshilik!" Ko'rinib turibdiki, har qanday gap bo'lagini ajratib kelganda ham semantik tuzilish murakkablashmoqda va faqat yaxshilik qilish kerakligi, boshqa ish-harakatni esa inkor etish ma'nosi ifodalanmoqda.

Ma'lumki, tilshunoslikda presuppozitsiyaga nisbatan tagma'no atamasi ham ishlatiladi. Ammo tagma'no va presuppozitsiyani farqlash lozim. Tagma'no so'zlashuvchilarning ichki maqsadini yashirin tarzda ifodalash uchun xizmat qiladi. Tagma'no hamma matnda ham bo'lavermaydi. Presuppozitsiya esa istalgan matn semantik tuzilishining mantiqiy tahlili yordamida aniqlashishi mumkin.

"Qayga bormay hamma joyda "odil shohlarga" duch keldim, ustod. Shundaykim oxir pirovardida ulardan yashirinishga joy topolmay qoldim. Jurjonda Qobus ibn Vushmagirning "adolatidan" zo'rg'a qochib qutuldim". Ushbu gapdagi "odil shohlar" aslida zolim, zulumkor, adolatsiz shohlar, "adolat" so'zi esa haqsizlik ma'nosida qo'llangan. Matndagi bunday yashirin ma'noning ifoda ko'rinishi tagma'no deb yuritiladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/ CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, presuppozitsiya hodisasi so'zlovchi va tinglovchining umumiy bilish fondi asosida yuzaga keluvchi murakkab hodisalardan biridir. Presuppozitsiya til birligining nutqiy vaziyat hamda nutq egalarining til

ko‘nikmalari bilan bog’liq tarzda yuzaga chiquvchi pragmatik xususiyati bo‘lib, mohiyatan gap qurilishi asosida yotuvchi yashirin hukmning tashqi ishoraga asoslanuvchi ko‘rinishini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N. Mahmudov. Presuppozitsiya va gap. Toshkent: O’zbek tili va adabiyoti, 1986.
2. M.Mirtojiyev. O’zbek tili semasiologiyasi. Toshkent, 2010.
3. A. Nurmonov, N. Mahmudov va boshqalar. O’zbek tilining mazmuniy sintaksisi.Toshkent,1992.
4. R. Rasulov. O‘zbek tilida yordamchi so‘zlarning semantik-grammatik xususiyatlari. Toshkent, 1983.
5. Sh. Rahmatullayev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 1975.
6. O. Yoqubov. Ko‘hna dunyo. Toshkent, 2015.

SHIMOLIY VA JANUBIY AMERIKA TUB AHOLISI TILLARI VA ULARNING KELIB CHIQISHI TARIXI

YULDASHEVA DILSHODA MUSAYEVNA
Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shimoliy va Janubiy Amerika tub aholisi tillarining tasnifi, kelib chiqishi va bundan tashqari ularning ehtimoliy turkiy tillar oilasiga aloqadorligi haqida bir nechta olimlarning fikr mulohazalari keltirilgan. Shimoliy va Janubiy Amerika tub aholisining tillaridan misollar keltirilgan va ularning turkiy tillarda o'xshash ekvivalenti jadval asosida ko'rsatilgan. Amerika hindu tillarini tubdan o'rgangan olim , tilshunos, antropolog Eduard Sepirning ham ushbu tillarning klassifikatsiyasiga qo'shgan hissasi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Amerika hindu tillari, Amerika tub aholisi tillari tasnifi, polisentetik tillar, agglyutinativ tillar, singarmonizm , "Mayya" qabilalari tillari, faraz, etnolingvistika.

Аннотация: В данной статье рассмотрены мнения ряда ученых о классификации и происхождении языков коренных народов, проживавших на территории Северной и Южной Америки, а также их возможном отношении к тюркской языковой семье. Приведены примеры из языков коренных народов Северной и Южной Америки и показаны их эквиваленты в тюркских языках на основе таблицы. Освещен вклад Эдуарда Сепира – ученого, лингвиста, антрополога, досконально изучавшего языки американских индейцев, в классификацию этих языков.

Ключевые слова: Языки американских индейцев, классификация коренных американских языков, полисинтетические языки, агглютинативные языки, сингармонизм, племенные языки «майя», гипотеза, этнолингвистика.

Annotation: This article examines the opinions of a number of scientists about the classification and origin of the languages of indigenous people living in America, as well as their possible relationship to the Turkic language family. Examples are given from the indigenous languages of North and South America and their equivalents in Turkic languages are shown based on the table. The contribution of Edward Sapir who was a scientist, linguist, and anthropologist, the one who thoroughly studied the languages of the American Indians and classified them according genetic and phonetic criteria.

Keywords: American Indian languages, classification of indigenous American languages, polysynthetic languages, agglutinative languages, Mayan tribal languages, hypothesis, ethno linguistics.

Amerika hindu tillari, hindular tillarining umumiy nomi bo'lib, bu qit'alarda Yevropa mustamlakachilari kelishidan oldin va keyin Shimoliy va Janubiy Amerikaning tub aholisi yashagan joylardir. Hindular guruhlariga faqatgina Amerika tub aholisidan bo'lgan Eskimoso-aleut xalqi kirmaydi negaki ular nafaqat Amerikada balki Chukotka va Rossiya federatsiyasiniing ayrim joylarida ham yashaydi. Eskimoslar tashqi ko'rinishi bo'yicha o'zining qo'shnisi bo'lmish hindulardan juda farq qiladi. Biroq, Shimoliy va Janubiy Amerika hindularining irqiy xilma-xilligi ham juda katta, shuning uchun hindular orasida Eskimos va Aleutlarning kiritilmasligi asosan an'analarga bog'liq.

Hind tillarining xilma-xilligi shunchalik kattaki, uni umuman inson tillarining xilma-xilligi bilan solishtirish mumkin. Amerikalik tilshunos J.Grinberg "Amerind" deb atalmish gipotezani ilgari surgan, Na-Dene oilasi tillaridan tashqari barcha hind tillarini yagona makrooilaga - amerikachaga birlashtirishni taklif qilgan. Biroq, hind tillari bo'yicha

mutaxassislarning aksariyati ushbu faraz va uning ortida turgan "tillarni ommaviy taqqoslash" metodologiyasiga shubha bilan qarashdi.

Hozirda Amerikaning tub aholisining tillarini tasniflaydigan bir nechta nazariyalar mavjud. Ularning barchasi odatda bahsli bo'lib, turli tilshunoslar va tarixchilar o'zlarining versiyalarini taklif qilishadi, ularda lingvistik makro oilalar soni uchdan oltitagacha yoki undan ko'p. Bulardan eng ko'p dalillangani Jozef Grinbergning fikri bo'lib, u uchta yirik Amerika mikro-oilalarini ajratgan. Bular: Eskimosko-aleut, Na-Dene va Amerind oilalari.

Boshqa bir guruh tilshunoslar (E. Sepir, S. Starostin, M. Rulen, Grinberg va boshqalar) mustaqil ravishda Na-Dene tillarining xitoy-kavkaz va yenisey tillari bilan bog'liqligi to'g'risida xulosaga kelishdi. Starostin va Greinbergning so'zlariga ko'ra, so'nggi ikki oila ham bir-biri bilan bog'liq. Shunday qilib, Na-Dene hindularining tillari Yevroosiyoning "mas'ul" mintaqasi bilan umumiy ildizlarga ega.

J.Joselin 1672-yilda "Yangi Angliyaning nodirliklari" kitobini nashr ettirib, unda Amerika hindulari (Siu Xok qabilasi) tashqi ko'rinishi, odob-axloqi va urf-odatlari bilan turk tilida so'zlashuvchi "tatarlar"ga o'xshab qolishini ko'rsatgan. J. Josselin tilshunos yoki olim emas edi, uning kitobida Shimoliy Amerika hindularining hayoti va urf-odatlari haqida so'z boradi.

"Arxeologik tilshunoslik" deb atagan A.Axmetov fikriga qo'shilib, qidiruvni bir paytlar ikki qit'ani – Alyaskani "bog'lab turgan" hududdan boshlash mantiqan to'g'ri. Darhaqiqat, Alyaska eskimoslari, aleutlar va ba'zi qo'shni xalqlar tillarida turkiy (bizning holimizda, qozoq) so'zlari bilan bir xil ma'noga ega bo'lgan o'xshashliklar mavjud. Tasdiqlash uchun biz A.Axmetov tadqiqotining ayrim natijalarinigina keltiramiz:

Eskimos tili	**Turkiy tillar (o'zbek tili)**
Ata	Ota
Ataataga	Otam(bobom)
Akkaga	Akam
Aana	Onam
Kayak	Qayiq
Tatirgak	Turna
Erte	Erta (ertalab)
Emuk	Emmoq

Siu tili	**Turkiy (o'zbek) tili**
Tan-tang	Tong
Tani-tangi	Tanimoq
Tannim	Tanidim
Tannisun	Tanishing
Ate	Ota

Ina	Ona
Oya	Oyoq
Icu	Ichmoq
Yasu	Yasamoq
Kokta	Ko’kda
Koda	Quda
Kan	Qon
Mi	Men

Shu misollar qatorida Shimoliy va Janubiy Amerika tub aholisi tillarining tasnifiga ulkan hissa qo’shgan olim, antropolog, hindu tillari bilimdoni Eduard Sepirning ham o’rni juda kattadir. Eduard Sepir asli kelib chiqishi Germaniyalik bo’lib 1889-yilda oilasi bilan AQSHga ko’chib o’tadi. Yosh olimning tilshunoslikka qiziqishida aynan uning ustozi Frans Boas bilan tanishishi sababli bo’ladi. Aynan shu tanishuvdan keyin Eduard Sepir o’zining birinchi dala tadqiqotlarini o’tkazadi (1905-1906-yillarda). Eduard Sepir dala tadqiqotlari natijasida Shimoliy Amerika hindu tillari bo’lmish Yana, Chinuk-Vishram, Takelma, Payute kabi tillarni o’rganadi. Keyinchalik Eduard Sepir o’z tadqiqotlari natijasida Shimoliy Amerika hindulari tillarini o’zigacha 55 ta oilaga bo’lingan guruhini 12 tagacha umumlashtiradi. Eduard Sepirning fikricha til klassifikatsiyasi nafaqat grammatik analiz balki genetik va fonetik jihatlarini ham inobatga olish juda muhim deb aytadi. Shundan kelib chiqib Eduard Sepir Shimoliy Amerika hindular tillarida agglyutsinatsiya hodisasi o’ta kuchli va ular polisintetik tillari guruhiga mansubdir degan xulosaga keladi.

Xulosa qilib ayganda bularning barchasi ko'p mehnat talab qiladigan tarixiy va lingvistik izlanishlarni yanada ko’proq o’rganishni talab qiladigan eng dastlabki bosqichda bo'lgan jarayondir. Bundan tashqari, bu tillarning bobo tilini aniqlash uchun olimlar arxeologiya, antropologiya, genetika, mifologiya, folklor va tasviriy san'at ma'lumotlarini solishtirishlari lozim. Olingan ma'lumotlar taqqoslanishi va hozirda Amerikaning joylashishi tarixining taxminiy xronologiyasini tashkil etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 Шалабаева Г.К. Культура: между хаосом и по-рядком. – Алматы: СаГа . –2008. – 108 с.
2 Каримуллин А.Г. Прототюрки и индейцы Америки. По следам одной гипотезы. – Казань: Инсан. – 1995. – 63 с.
3 Ахметов А.К. Азия – Берингия – Америка или Азиатское происхождение американских индейцев. – Алматы: ARNA – B. – 2006. – 110 с.
4 Greenberg Joseph. Language in the Americas. Stanford University Press. – 1987. – 438 p.
5 Захаров И.А. Центральноазиатское происхож-дение предков первых американцев//Первые американ-цы. – 2003. – №11. – С. 139–144 http://macroevolution.narod.ru/zaharov_indians.htm (последнее обращение 20 сентября 2012).
6 Клёсов А.А., Тюняев А.А. Происхождение человека (по данным археологии, антропологии и ДНК ге неалогии). – М.: Белые львы. – 2010. –1024 с.
7 Назарова А.Ф. Биологические, археологические и культурологические доказательства палеоазиатского происхождения северных монголоидов,
европеоидов и американских индейцев // «Академия Тринитаризма». – М., Эл. 12.06.2007. – № 77–6567. публ. – 14446, http://www.trinitas.ru/rus/000/a0000004.htm (последнее обращение 20 сентября 2012

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA RAHBAR XODIMLARNING KREATIV FAOLIYAT JARAYONIDA FOYDALANADIGA TEXNOLOGIYALAR

MOVLYANKULOVA MAVJUDA XODJIKULOVNA
47-Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ijodkorlikka, kreativ fikrlashga o‘rgatadigan texnologiyalarning ta’rifi, mazmuni, qanday foydalanish lozimligi haqida yoritib berilgan. Shuningdek, muammoli masala va vaziyatlarni hal qilish, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishitahlil etilgan.

Kalit so‘zlar. Modernizatsiya, aqliy faollik, axloqiy,estetik, jismoniy xislatlar, kreativlik

Аннотация. В статье дается определение, содержание, как использовать технологии, обучающие творчеству, креативному мышлению в дошкольных организациях. А также решение проблемных вопросов и ситуаций, творческий подход педагога к поиску решения вопроса, в котором анализируется развитие эмоционально-волевых качеств.

Ключевые слова. Модернизация, умственная активность, нравственные, эстетические, физические качества, креативность,

Annotation. The article provides a definition, content, and how to use technologies that teach creativity and creative thinking in preschool organizations. As well as solving problematic issues and situations, the creative approach of the teacher to finding a solution to the issue, which analyzes the development of emotional and volitional qualities.

Key words. Modernization, mental activity, moral, aesthetic, physical qualities, creativity.

Zamonaviy ta’lim barcha turdagi ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi, pedagoglarning ijodkor bo‘lishlarini taqozo etmoqda. “Kreativlik” tushunchasi o‘zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G‘arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan’anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg‘usi va erkinlik mavjud bo‘lishiga e’tiborni qaratadilar.

Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo‘naltiradi. Binobarin, kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg‘or, bolalarning o‘quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g‘oyalarni yaratishda faollik ko‘rsatish, ilg‘or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o‘rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo‘lishga e’tibor qaratadi.

Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o‘zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta’minlanadi, shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi bo‘lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo‘yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o‘zini o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim

ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligi deb uning fikrlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkun. Kreativlik insonda mavjud ma'lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi. Ta'lim sohasiga qo'yiladigan talablar orasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutaxassislarining kasbiy va kreativ kompetentligini oshirish uchun qator chora- tadbirlar yo'lga qo'yilgan. Ayni o'rinda shuni alohida qayd etib o'tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega. Xo'sh, ular o'zlarida kreativlik qobiliyati mavjudligini qanday namoyon eta olishlari mumkin. O'zingizni kreativ emasman deb hisoblasangizda, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo'lganingiz yoki bo'lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g'oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir. Har tomonlama fikrlash ta'lim oluvchilardan o'quv topshirig'i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to'g'ri g'oyaga asoslanishni ifodalaydi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi, "ta'lim oluvchilar e'tiborini ta'lim jarayoniga faol jalb etishni ta'minlaydi". Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativligi turli shakllarda namoyon bo'ladi. Ular quyidagilardir: axborot, shu jumladan, kompyuter texnologiyasi yordamida pedagog - tarbiyachi tomonidan kreativ yondashuv asosida tayyorlanib, ta'lim jarayonida samarali foydalanish mumkin bo'lgan ijod mahsulotlari sanab o'tiladi. O'zini o'zi ijodiy faollashtirish – shaxsning ijodiy faoliyatda o'z imkoniyatlarini to'laqonli namoyon qilishi va rivojlantirishining ijodkor va kreativbo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki mashg'ulotlarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur.

Mashg'ulotlarda "kreativlik yo'l haritasiga ko'ra quyidagi 4 ta yo'nalish bo'yicha harakatlanadi va ulardagi harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar (Patti Drapeau) sanaladi: 1)ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyon etish; 2) mashg'ulotlarni qiziqish bilan o'zlashtirishga rag'batlantiruvchi strategiyalardan foydalana olish; 3) innovatsion yondashuv va pedagogik masalalarning yechimini topishga kreativ yondashish; 4) kutiladigan natija Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi.

Pedagog-tarbiyachi o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil

eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur. O'zini o'zi ijodiy faollashtirish - shaxsning ijodiy faoliyatda o'z imkoniyatlarini to'laqonli namoyon qilishi va rivojlantirishining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki mashg'ulotlarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur.

O'zini o'zi ijodiy faollashtirish - shaxsning ijodiy faoliyatda o'z imkoniyatlarini to'laqonli namoyon qilishi va rivojlantirishining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki mashg'ulotlarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur.

Shaxsning u yoki bu qobiliyatlarini hosil qiluvchi xislatlar va xususiyatlar orasida bir xillari yetakchi rol o'ynasa, boshqalari yordamchi vazifasini bajaradi. Pedagogik faoliyatda shaxsning o'zaro fikr almashuv bilan bog'liq xususiyatlari yetakchi rol o'ynaydi. Birinchi navbatda pertseptiv, ya'ni idrok qilish sohasiga taalluqli bo'lgan xususiyatlar (ulardan eng muhimrog'i kuzatuvchanlikdir) yetakchi rol o'ynaydi, o'qituvchiga o'quvchining psixologiyasini, uning psixik holatini o'xshash tarzda idrok etish, muayyan holda umuman sinf jamoasining ahvoliga va xususan mazkur pedagogik vaziyatdagi ahvoliga to'g'ri baho berish imkonini beradi. O'qituvchi shaxsining o'zaro fikr almashuv bilan bog'liq xususiyatlari tarkibiy qismi sifatida empatiyaga, ya'ni o'quvchilarning psixik holatini tushunishga va ularga achinishga tayyorgarlikni hisoblash mumkin. Buning zarur sharti bolalarga bo'lgan muhabbatdir.

Mudira maktabgacha ta'lim tashkilotlarning tashkilotchisi, rahbari, malakalipedagog,uningfaoliyatimaktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni komil inson qilib tarbiyalash vazifalarini to’la-qonli hal etishga qaratilgan. U bolalar muassasalaridagi ta'lim-tarbiyaviy, pedagogik va gigiyenik talablar muvofiq ravishda amalga oshirilishi uchun zarur shart-sharoitlami ta'minlaydi.o’z jamoasida ishchanlik, maqsadga qaratilgan inoqlik vaziyatini yaratadi. Ularga umumiy rahbarlik qiladi. Mudirao’z ishida davlatimiz va Xalq ta'limi vazirligi tomonidan qabul qilingan qaror, qonunlarga amal qiladi vao’z ustida ijodiy ravishda ishlashni amalga oshiradi. Yuksak onglilik va siyosiy yetuklik, prinsiplilik,o’ziga va qo’l ostidagilarga talabchanlik, mudiraga qo’yiladigan asosiy talablardir. Jamoadagi o’zaro to’g’ri munosabatlar, har bir xodimning mehnat va ishlab chiqarish intizomiga rioya qilishini nazorat qiladi.

Rahbarlik mavqeyi mudirani o’z g’oyaviy, ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy-huquqiy saviyasini va mutaxassislik mahoratini doimo ongli ravishda oshirishga, pedagogik bilimlarni, bolalarga ta'lim-tarbiya berish nazariyasi va amaliyotini puxta egallashiga, hozirgi bosqichda maktabgacha ta'lim oldida turgan vazifalarni bilishga, o’z bilimlaridan faoliyatida foydalanishga majbur etadi. U dastur, metodik, instruktiv me'yoriy hujjatlarni puxta bilishi va amal qilishi kerak. U pedagogik jarayonning mohiyatini chuqur bilishi, kamchiliklami darhol bartaraf qilish choralarini ko’rishi lozim.

Mudiraning jamoatchilik va mahalla qo’mitasi bilan ish usullari quyidagi tarzda amalga oshiriladi: 1. Ota-onalar va jamoatchilik uchun anjumanlar o’tkazish. 2. Ota-onalar universitetlari tashkil qilish. Unda oila markazidan vakil, yetuk olimlar, xalq ta'limi bo’limi xodimlari va barcha ota-onalar ishtirok etadilar. Ota-onalar universitetining asosiy maqsadi oila va bolalar tarbiyasi masalalarinio’rganish va kamchiliklarni, muammolarni hal etishdan iborat. Mudira maktab bilan aloqao’r-natib 1

yilga mo’ljallangan rcja asosida ish ko’radi. Bunda bog’chaning asosiy vazifalari, maktab tomonidan amalga oshirila-digan tadbiriy choralar, bolani maktab ta'limiga tayyorlash, lotin alifbosini o’rgatish ishlari amalga oshiriladi. Bunda mudira va maktab direktorining vazifalari belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi Ozbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay'at yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi.
2. Г.И.ХАСАНОВА "Таълим жараёнида дастурлаштирилган укитиш технологиясидан фойдаланишнинг афзалликлари" Жиззах: 2020. 420 бет.
3.Kamilova G. Maktabgacha talim muassasalarida ekologik tarbiyani tashkil etishda integrativ yondashuv //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
4. Olimovna K. G. The importance of the criteria of pedagogical technologies at training highly qualified personnel //Достижения науки и образования. – 2017.

MANAVIY-MARIFIY FAOLIYAT PRINSIPLARI O‘KITUVCHI FAOLIYATIDA

RAXIMOV ASOMIDDIN ANORBOYEVICH
O‘zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti “Pedagogika” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma’naviy-ma’rifiy faoliyat prinsiplari to‘g‘risida ma’lumot berilib, uni talaba shaxsini rivojlantirishdagi roli izohlangan. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni tashkil qilishning ayrim yo‘nalishlari izohlangan.

Tayanch so‘z va iboralar: ta’lim islohoti, shaxs, ta’lim, tarbiya, rivojlanish, ma’lumot, demokratik jamiyat, ma’naviyat, ma’rifat, faoliyat, prinsip, ijodkorlik, tashabbuskorlik, qadriyatlar, oliy ta’lim muassasasi.

Аннотация: В данной статье представлена информация о принципах духовно-просветительской деятельности и объяснена ее роль в развитии личности школьника. Также разъяснены некоторые направления организации духовно-просветительской деятельности в высших учебных заведениях.

Ключевые слова и фразы: реформа образования, личность, образование, воспитание, развитие, информация, демократическое общество, духовность, просвещение, активность, принцип, творчество, инициатива, ценности, высшее учебное заведение.

Abstract: This article provides information on the principles of spiritual and educational activity and explains its role in the development of a student's personality. Also, some directions of organizing spiritual and educational activities in higher educational institutions are explained.

Key words and phrases: educational reform, personality, education, upbringing, development, information, democratic society, spirituality, enlightenment, activity, principle, creativity, initiative, values, higher education lim institution.

Kirish

Respublikamizda ro‘y berayotgan ta’lim islohoti sharoitida barkamol avlod o‘z Vataniga, xalkiga, ona yeriga, millatiga, ota - onasiga sodiq bo‘lgan har tomonlama kamol topgan insonlarni tarbiyalash eng muxim axamiyat kasb etadi. Yangilangan davlat tizimida tarbiya mazmuni maksad va vazifalari xam yangilanadi. Bu yangilanish avvalo tarbiyani insonparvarlik va demokratiya prinsipi asosida qurilishi bilan farqlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek “ ta’lim-tarbiya – har qaysi davlat va jamiyatning nafaqat bugungi, balki ertangi kunini ham hal qiladigan eng muhim va ustuvor masaladir. Shuning uchun mamlakatimizda bu masalaga davlat miqyosida ulkan e’tibor qaratilmoqda” [1, 353]. Darhaqiqat bugun ta’lim va tarbiya jarayonini sifatli tashkil qilish har qachongidan ham dolzarb bo‘lib turibdi.

Tarbiyani insonparvarlashtirish va demokratiyalash prinsipi talabalar, o‘qituvchi - tarbiyachilar ijodiy faollik va mustaqilligini rivojlantirishi ularni turli xil ijtimoiy foydali ishlarni amalga oshirishda hamkorligini ta’minlash uchun dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi.

Talaba-yoshlarda ijodiy faollik, aqliy zakovat, axloqiy salohiyat, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ularni keng

qamrovli ijtimoiy -foydali ishlarga faol ishtirok etishlarini shakllantirish uchun, oliy ta’lim muassasalarida olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning alohida o‘rni bor.

Adabiyotlar tahlili

Shunga ko‘ra biz ushbu maqolada ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy faoliyat, uni rejalashtirish, tashkil etish prinsiplari, shakllari xususida fikr yuritamiz.

O‘z yurtiga, Vataniga muhabbat, insonparvarlik tuyg‘ulari xalqimizning qon-qoniga singib ketgan azaliy xususiyatdir. Ana shu noyob insoniy fazilatlarni asrab avaylash va yanada takomillashtirish farzandlarimizning ozod va demokratik O‘zbekistonning munosib o‘g‘il-qizlari etib tarbiyalash masalasi ma’naviyat soxasidagi ishlarimizning asosiy yo‘nalishini tashkil etishi darkor. Shunga asosan ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni aniq rejalashtirish, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya tizimini yaratish, uning shakllari, metodlarini yosh avlod ma’naviy-ma’rifiy dunyokarashini shakllantirishga qaratishni taqozo qiladi. Har qanday tarbiya, tadbir, ma’naviy-ma’rifiy faoliyat yig‘indisi ma’lum qoidalar, talablarga rioya qilinganda, yoinki, ularga asoslangan taqdirdagina maqsadli bo‘ladi. Bu qoidalar, talablar, asoslar pedagogika fanida «prinsiplar» deb nomlanadi.

Darxakikat, ma’naviy-ma’rifiy faoliyat ham ma’lum prinsiplarga amal qiladi. Ma’naviy-ma’rifiy faoliyat prinsiplari - bu ta’lim muassasalarida barkamol avlodni tarbiyalash maksadida tashkil etiladigan ma’rifiy tadbirlarning yo‘nalishiga, mazmuniga, metodlari va tashkiliy shakllariga, tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlariga ko‘yiladigan asosiy talablarga amal qilishni ifodalaydigan koidalardir.

Ma’naviy-ma’rifiy faoliyat prinsiplari o‘qituvchi-tarbiyachilarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi talablar, qoidalar yig‘indisi hisoblanib, u barkamol insonni tarbiyalashning vazifalari bilan belgilanadi va umuminsoniy tarbiya to‘g‘risidagi ta’limotga hamda ilmiy pedagogik ma’lumot erishgan yutuqlarga asoslanib, uning qonuniyatlarini aks ettiradi. Shuning uchun ma’naviy-ma’rifiy faoliyat jarayonida bu prinsiplarga rioya kilish uning samaradorligini oshiradi, sifat ko‘rsatkichini rivojlantiradi.

Tadqiqotlar metodologiyasi

Hozirgi zamon jahon va milliy pedagogika nazariyalariga asoslanib, ma’naviy-ma’rifiy faoliyat prinsiplarini quyidagicha guruhlash mumkin:

- ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning ijtimoiy yo‘nalganlik

prinsipi;

- ixtiyoriylik, mustaqillik, o‘yin va romantika prinsipi;

- ishda ijodkorlik, tashabbuskorlik, yangilikka intilish nuqtai

nazaridan yondashish pritsipi;

ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning rejaliligi va tadbirlarning talaba-yoshlarlar kuchiga mos bo‘lishini ta’minlash prinsipi;

ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning muntazamliligi, davomiyligi, uzviyligi va ta’sirchanligi prinsipi;

ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni tashkil etishda tarbiyalanuvchilarning yosh va individual xususiyatlarini xisobga olish prinsipi.

Endi mazkur ma’naviy-ma’rifiy faoliyat prinsiplarini tavsiflashga o‘tamiz:

1. Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning ijtimoiy yo‘nalganligi prinsipi. Bu prinsip ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni tashkil

etish va amalga oshirishda ijtimoiy taraqqiyot, mamlakatning g‘oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-madaniy rivojidan kelib chiqqan holda, darsdan va auditoriyadan tashqari tashkil qilinadigan ishlar mazmunini, to‘garak, klublar, birlashmalar faoliyatini mamlakat taraqqiyoti bilan bog‘lanishi, shuningdek, fan, texnika, madaniyat, san’at yutuqlariga asoslanishni nazarda tutadi.

2. Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga ishtirok etishning ixtiyoriyligi prinsipi.

Bu prinsip ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan ma’naviy-ma’rifiy faoliyat fakultativlar, to‘garaklar, turli seksiyalar, klublar va x.k. larga ishtirok etadigan talabalarning qiziqishi, istak-xohishi, qobiliyatiga qarab tanlash va bunda ularning ixtiyoriy bo‘lishini ta’minlashga qaratiladi. Ixtiyoriylik prinsipi, talabalar ixtiyoriyligini inobatga olib, ularni toliqtirmaslik va zo‘riqtirmaslik uchun, ta’lim muassasalarida tashkil qilinadigan darsdan tashqari ishlarning ikkitadan ortiq bo‘lmasligini inobatga olishni ham nazarda tutadi.

3. Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatda talabalar-yoshlar mustaqilligi, tashabbuskorligi, ijodkorligini hisobga olish prinsipi.

Bu prinsip talabalarning qiziqishlari, tashabbuslari asosida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil qilish lozimligini nazarda tutadi. Har qanday tadbir, avvalo talabalarning mustaqilligiga asoslanishi, o‘qituvchi-tarbiyachi ularni ruxlantirishi, faoliyatini rivojlantirishi lozim. Shunda talaba-yoshlarda tashabbuskorlik, qiziqishlar, ijodiy qobiliyat rivojlanadi. Har qanday tadbirni ular yuqori ko‘tarinki ruhda qiziqish bilan, tashabbus bilan mustaqil ijro etishga o‘rganadilar. Ularda o‘z-o‘zini boshqarish his-tuyg‘usi taraqqiy etadi.

4. Tarbiyaviy tadbirlarning o‘yin faoliyati, romantika shaklida bo‘lish prinsipi. Bu prinsipni asosan kichik va o‘rta maktab o‘quvchilariga qo‘llash maqsadga muvofiq. Chunki kichik va o‘rta maktab yoshi o‘quvchilari asosan o‘yin faoliyatiga ko‘proq ehtiyoj sezadilar. Ammo bu ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan ma’naviy-ma’rifiy faoliyat tarbiyaning yo‘nalishiga, mazmuniga, metodlari, tashkiliy shakllariga, tarbiya jarayonining ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlariga ko‘yiladigan asosiy talablarni ifodalaydigan qoidalarga qaratilgandir.

5. Ma’naviy - ma’rifiy faoliyatda talabalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish prinsipi. Ushbu prinsipda tadbirlarning vazifalari, mazmuni talaba-yoshlarning yosh va tayyorgarlik darajalariga mos bo‘lib, ular sog‘ligiga, dunyoqarashiga ma’naviy-axloqiy salohiyatiga aqliy zakovatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishdan yiroq bo‘lishi lozim.

Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning kayd etilgan prinsiplariga

asoslanilsa, ularning yaxlitligi, o‘zaro hamkorligi, bir-birini to‘ldirilishiga e’tibor qaratilib, ulardan samarali foydalanilsa, talabalarning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlanuvchanlik faoliyatlari maqsadli yo‘lga ko‘yilishi, barkamol insonning to‘liq shaxs bo‘lib shakllanishi kafolatlanadi.

Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni maqsadli tashkil qilish, yo‘naltirish uning mazmunini aniq belgilash va rivojlantirish bilan belgilashdir. Agar mazmun va reja nomutanosibligi tashkil etilsa, ko‘zlangan maqsad amalga oshmaydi. Shunga ko‘ra inson noto‘g‘ri tarbiyalanadi, bundan jamiyat ham, insonlar ham, odamning o‘zi

ham aziyat chekadi. Demak mazmunni aniq belgilash va uni to‘g‘ri rejalashtirish darkor. Aks holda buyuk mutafakkir Bedil, aytganidek, agar me’mor dastlabki g‘ishtni to‘g‘ri qo‘ymasa, devor yulduzlarga yetsa ham qiyshiq bo‘lib qolaveradi. Bedilning bu fikri ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga daxldordir. Modomiki shunday ekan, ma’naviy-ma’rifiy faoliyat mazmunini aniq tasavvur qilish, uning yo‘nalishlarini to‘g‘ri belgilash va rejalashtirish lozim.

Tahlil va natijalar

Ma’naviy-ma’rifiy faoliyat insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatini anglatadigan, uni ruhiy poklanish va yuksalishga da’vat etadigan ichki olamini boyitadigan, vijdoni, iymoni, e’tiqodi, dunyokarashini, mafkuraviy salohiyatini mustaxkamlaydigan, umuminsoniy qadriyatlarni bilish, targ‘ib qilish, yoxud muayyan jamiyatning maqsad va vazifalariga muvofiq aqliy zakovati va ma’naviy-axloqiy salohiyatini tarkib toptirish, rivojlantirish jarayonidir. Shunga ko‘ra jamiyatni, ijtimoiy-siyosiy, iktisodiy-madaniy rivojlantirishda oliy ta’lim muassasalarida olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha mazmunini belgilash va rejalashtirish talabga muvofiqdir.

Tashkiliy-tarbiyaviy ishlar

II. Mafkuraviy (G‘oyaviy-siyosiy) tarbiya talabalar ijtimoiy faolligi va o‘qishga munosabatini kuchaytirish.

III. Ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish, bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, bilish faolligini oshirish.

IV. Umuminsoniy, milliy axloq va xulk madaniyatini tarbiyalash.

V. Go‘zallik, nafosat va badiiy tarbiya.

VI. Mehnatsevarlik va mehnat ahliga muhabbat tarbiyasi.

VII. Iqtisodiy va ekologik tarbiya hamda tabiatni muhofaza qilish

VIII. Yoshlarning huquqiy bilimdonligini oshirish.

IX. Sog‘lomlashtirish va talabalar jismoniy barkamolligi

to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish.

X.O‘qituvchi-tarbiyachilar va OTMning ishchi-xodimlari bilan olib boriladigan ma’naviy - ma’rifiy hamda mafkuraviy ishlar.

XI. Ota-onalar va mahalla bilan ishlash.

XII. OTM dagi jamoat tashkilotlari (Yoshlar ittifoqi, Kasaba uyushma, xotin-qizlar qo‘mitasi) bilan olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlar.

Yuqorida qayd etib o‘tilganidek, oliy ta’lim muassasalarida barcha fanlarni o‘kitish jarayonida talabalarning ma’naviy-ma’rifiy madaniyatini oshirishga va darsdan tashqari olib boriladigan ishlarga qaratilmog‘i lozim. Bunda har bir talaba «ma’naviyat», «madaniyat» tushunchalarining tub ma’nosini anglab olishlari, milliy ma’naviyatimiz sarchashmalari, manbalaridan xabardor bo‘lishlari, bu manbalardan mustaqil erkin ilm olish, o‘rganish malakalariga ega bo‘lishlari lozim. Bizningcha, oliy ta’lim muassasalarida tashkil qilinadigan ma’naviy-ma’rifiy faoliyat yo‘nalishlari quyidagicha qamrab olinsa maqsadga muvofiqdir:

I yo‘nalish: - mustakillik, bilimlar bayramini o‘tkazish, yubiley sanalarga doir bayramlar, ustozlar va murabbiylar kuni, Konstitutsiya kuni, Vatan himoyachilari kuni, diniy bayramlar («Ramazon» va «Qurbon» hayitlari), Hosil bayrami, Navro‘z bayrami, Xotira va qadrlash kunini nishonlash, tarixiy obidalarga, respublika

ziyoratgoxlariga ekskursiyalar uyushtirish, yil murabbiysi kabi ko‘rik tanlovlarni o‘tkazish bo‘yicha tadbirlarni o‘tkazish rejalashtiriladi.

II yo‘nalish: - mafkuraviy tarbiya talabalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olib, mamlakatimizning ichki va tashki siyosatiga doir ma’lumotlarni o‘rganish, Prizidentimiz asarlarini o‘qib o‘rganish, Oliy majlis qarorlari, ma’lumotlari bilan tanishish, davlatimiz ramzlari mohiyatini o‘rganish, davlat arboblarining faoliyatlari bilan tanishish kabi masalalar muhokamaga qo‘yiladi.

SH yo‘nalish: - aqliy mehnat madaniyati, bilish faolligi va o‘qishga ongli munosabat, ilmiy dunyoqarash asoslarini tarbiyalash. “O‘kishni o‘rgan”, “Mening qiziqarli mashg‘ulotim”, “Mening qiziqishlarim”, “Inson va texnikaviy dunyo”, “Mashhur odamlar hayotidan”, “Mening orzu va qiziqishlarim”, “Men bilgan va bilmagan dunyo”, “Fan taraqqiyoti uchun” kabi mavzularda suhbatlar, munozaralar, ilmiy amaliy anjumanlar o‘tkazish, «O‘yla, izla, top», «Quvnoqlar va zukkolar» o‘yinlarini tashkil etish va h.k.

IV yo‘nalish: - umuminsoniy axloq asoslarini tashkil etgan Islom dinida ta’lim-tarbiya masalalari, allomalarimiz ta’limotini o‘rganish, “Odob-axloq saboqlari”, “Ma’naviyat va hayot”, “Hayot

va turmush odobi” kabi mavzularda davra suhbatlari tashkil etish,

“Qizlar iffati”, “Yigitlik g‘ururi”, “Ayol madaniyati” mavzularida baxs

munozara, so‘zlashish, kiyinish, muomala odobi bo‘yicha suhbatlar,

kechalar, anjumanlar o‘tkazish.

V yo‘nalish: - talabalar va professor-o‘qituvchilar jamoasi estetik madaniyatini rivojlantirish maqsadida taniqli san’atkorlar, haqida ma’lumot berish, uchrashuvlar tashkil kilish, “Musiqa mening hayotim”, “So‘z qalbni yengar, kiyim husnni» mavzularida suxbat, “Jahon ichra - jahonim - Buxoroi Sharifim”, “Men nechun sevaman, O‘zbekistonni” nomli stendlar chiqarish, ijodkor, shoirlar, yozuvchilar, kompozitorlar, aktyorlar, rejissorlar bilan uchrashuvlar tashkil kilish, kitobxonlar konferensiyalarini uyushtirish: badiiy ijod to‘garaklarini tashkil kilish, ekskursiyalarga borish, odob go‘zalligi, xulq madaniyati, did va xulq qoidalari ko‘rik tanlovlarini uyushtirish.

VI yo‘nalish: - mehnat ilg‘orlari, kahramonlari, faxriylari bilan

uchrashuvlar uyushtirish: ijtimoiy-foydali mehnat shanbaliklari,

yakshanbaliklarga ishtirok etish: texnik ijodiy to‘garaklarga, klublarga,

remont - qurilish otryadlari ishiga katnashish: “Mehnatning qadriga yet”,

“Kasb va mehnat”, “Kasbim-faxrim” stendlarini chiqarish: kasblar, mehnat

qaxramonlari vitrinalari, “Shahrimiz mustaqillik yillarida”

fotomontajini chiqarish va h.k.

VII yo‘nalish: - iqtisodiy tarbiya va tabiatni muhofaza qilish:

iqtisodiy bilim, tejamkorlik to‘g‘risida ma’lumotlarini berib borish: o‘quv xonasi jihozlarini darslik, o‘quv qo‘llanmalarini asrash to‘g‘risida suhbatlar o‘tkazish: “Iqtisod va maorif”, “Suv obi–hayot” stendlarini tashkil kilish: iqtisodchilar, hisobchilar, bank xodimlari bilan uchrashuvlar, savol – javob kechalarini tashkil qilish.

VIII yo‘nalish: - talaba-yoshlarning huquqiy bilimdonligini oshirish bo‘yicha: talaba-yoshlarda yuksak fuqarolik

sifatlarini tarbiyalash, mustaqil Respublika konstitutsiyasi, qonunlariga hurmat his-tuyg‘ularini o‘stirish: milliy istiqlol g‘oyalariga sadoqat, diniy ekstremizm va fundamentalizmga murosasiz bo‘lishni shakllantirish: xalq deputatlari, huquqni himoya qilish organlari xodimlari bilan suhbat, uchrashuv, savol-javob kechalarini uyushtirish: “O‘z uyingni o‘zing asra”, “Militsiya - mening qo‘riqchim”, “Huquqiy onglilik - davr talabi” ko‘rgazmali stendlar tashkil qilish: Yo‘l harakati qoidalari, “Yosh huquqshunos” to‘garagini tashkil etish: “Siz qonunni bilasizmi?” ko‘rik tanlovini o‘tkazish.

IX yo‘nalish: - sog‘lomlashtirish va talabalar jismoniy barkamolligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish. O‘quv muassasalarida ertalabki sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlarini tashkil qilish: jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat darslari, to‘garaklarini faoliyatini takomillashtirib borish: Talaba-yoshlar harakat organlarini chiniqtirishga e’tiborni kuchaytirish: sport seksiyalarini tashkil qilish: o‘quv yilida o‘tkaziladigan sport o‘yinlari, musobaqalari jadvallarini ishlab chiqish: “Kichik universiada”, “Olimpiada rezervlari” kabi sport o‘yinlarini muntazam o‘tkazish, sog‘lom turmush tarzi va uni faol amalga oshishini keng targ‘ib qilish: “Sog‘lom tanda sog‘ aql” ko‘rik tanlovini o‘tkazish.

X yo‘nalish: - o‘qituvchi-tarbiyachilar va talaba-yoshlar o‘rtasida olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy faoliyat. “Ma’naviyat - millat gultoji”, “Islom ma’naviyat mash’ali”, “Hadis ilmi - hayot ilmi”, “Ma’naviyatimiz darg‘alari” mavzularida suhbatlar, kechalar uyushtirish, “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi”, “Mehnat qonunlari”, “Oila kodeksi”, “Jinoyat kodeksi”, “Ta’lim to‘g‘risida qonun”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” kabi qonun va meyoriy hujjatlarni o‘rganish soatlarini o‘tkazish, “O‘qituvchilik sha’ni”, “Tarbiyachilar mahorati”, “Kasb madaniyati”, “Yosh avlod murabbiysi” mavzularida kechalar uyushtirish.

XI yo‘nalish: - ota-onalar va mahalla bilan ishlash. O‘quv yurti hududida talaba-yoshlar ota-onalarining pedagogik ma’lumotlarini aniqlash maqsadida “Aholining ma’naviy-ma’rifiy” bilimdonligi ko‘rik tanlovlarini tashkil qilish: “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” mavzusida suhbat, kechalar uyushtirish: sinf, guruh ota-onalar majlislarini amalga oshirish: “Ochiq eshiklar kuni” tadbirini o‘tkazish: ota-onalar komiteti faoliyatini yo‘lga qo‘yish: “Ota-onalar burchagi”, “Oila va jamiyat” seminarlarini tashkil qilish: talaba-yoshlar, ota-onalar bilan bayramlar, kinofil’mlar ko‘rish, teatrlarga borish tadbirlarini yo‘lga qo‘yish “Obod mahalla”, “Mahalla - madaniyat o‘chog‘i”, “Mas’uliyatli oila” uchrashuvlari, kechalarini tashkil qilish va

o‘tkazish.

XII yo‘nalish: - oliy ta’lim muassasasi jamoat tashkilotlari bilan olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy faoliyat. Yoshlar ittifoqi, kasaba uyushmasi, xotin-qizlar qo‘mitasi kabi jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda faoliyatni yo‘lga qo‘yish, jamoat tashkilotlarining ilmiy, texnik, madaniy, sport va fizkultura uyushmalarini tashkil kilish. Darsdan so‘ng talaba-yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy ishlari ustidan pedagogik rahbarlikni yo‘lga qo‘yish. Qayd qilingan ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalshdagi ishlar o‘quv yilida rejalashtiriladi. Yillik reja asosida oylik va haftalik boshqariladigan ishlar tuziladi.

Yuqorida kayd etib o‘tilgan yo‘nalishlarda ma’naviy-ma’rifiy faoliyat

olib borish maqsadida ishlar o‘quv yilida yoki bosh yilga mo‘ljallab tuziladi va rejalashtiriladi.

Ma’naviy-ma’rifiy faoliyat turli shakllarida tashkil etiladi. Buni taxminan uch guruhga bo‘lish mumkin:

Yakka tartibdagi (Individual) ishlar.

To‘garak ishlari.

Ommaviy ishlar.

Yakka tartibdagi ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga olimpiadalar, iqtidorli talabalar bilan o‘tkaziladigan tanlovlar, konkurslar, ko‘rgazmalar kiradi. Garchi bu shakldagi tadbirlarga ko‘pchilik ishtirok etsada unda har bir ishtirokchi yakka holda ishtirok etishi, o‘quv yurti, viloyatini tadbirning ma’lum turi bo‘yicha yakka tartibda himoya qilgani uchun uni yakka shakldagi ma’naviy-ma’rifiy faoliyat deb ataymiz. Fan olimpiadalari - bu bilimlarga qiziqishini rivojlantirishning eng muhim vositasidir. Uning tarbiyaviy qiymati shundaki, garchi ma’lum fan bo‘yicha o‘tkazilsada, unda tuziladigan yakka holatdagi topshiriqlar, savollar talabani ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi, bilim olishga intilishini kuchaytiradi.

Yakka tartibdagi ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning tanlov va ko‘rgazma shaklidagi turi ham talaba-yoshlarga ijodkorlikni, maqsadga intiluvchanligini rivojlantiradi. Masalan: talaba “Mohir qo‘llar”, “Texnik ijodkorlik”, “She’riyat maskani” kabi tanlovlar va ko‘rgazmalarda ishtirok etib, har biri o‘z ijodkorligi, qobiliyati, iste’dodini namoyish etadi. Bu tanlovlar oliy ta’lim muassasasidandan boshlanib, respublika miqyosida o‘tkazganligi tufayli talabada mas’uliyat, faxr, sha’n uchun kurash his-tuyg‘ularini tarbiyalaydi.

Hozirgi kunda o‘quv yurtlarida eng ko‘p tarqalgan ma’naviy-ma’rifiy faoliyat shakli bu to‘garak ishidir. Oliy ta’lim muassasalaridagi fan to‘garaklari, badiiy havaskorlik, foto, radio, kinoxavaskor to‘garaklari, “Yosh adabiyotshunos”, “Yosh kitobxon”, “Yosh pedagog” kabi to‘garak va klublar xam katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

To‘garaklar va klublarda ishtirok etish talaba-yoshlarga bilish qobiliyatlari, ijodiy tafakkurini rivojlantirish bilan birga ularda yurt, Vatan, xalq oldidagi mas’uliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi va shuning uchun ham yosh avlodning ma’naviy-ma’rifiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning yana bir shakli ommaviy tadbirlardir. Bunga ertaliklar, mavzuiy kechalar, disputlar, savol-javob kechalari, anjumanlar, festivallar, sport bayramlari va o‘yinlari, ekskursiyalar va x.k.lar kiradi.

Shunday kilib, ma’naviy-ma’rifiy faoliyat keng qamrovlidir. Zero, ma’naviyat va ma’rifat - Oliy qadriyat. U xalqimizning urf-odatlarini, mutafakkirlarimizning sermazmun ta’limotlarini, tarixiy milliy qahramonlarimizning hayot yo‘lini, istiqlol, erk uchun kurashganlarning mashaqqatli turmush saxifalari o‘zida aks ettiradi. Shuning uchun ham u oliy qadriyat. U o‘z yo‘nalishlariga ko‘ra komil insonni tarbiyalash kabi buyuk maqsadni amalga oshiradi.

Yuqorida aytilgan fikrlar, ishlarni amalga oshirsak, ma’naviy-ma’rifiy faoliyat o‘z muddaosiga yetgan, barkamol avlodni shakllantirishga tamal toshi ko‘yilgan bo‘ladi. Buning uchun esa doimo izlanish, xarakat kilish lozim. Ma’naviy - ma’rifiy faoliyatda bu boradagi bor imkoniyatlardan maksimal foydalanishlari zarur.

Shunday kilib, ta’lim muassasalarida tashkil qilib o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy faoliyat talaba-yoshlarni bilimga chanqoqliklarini oshirib, aqliy saloxiyat va zakovatlarini rivojlantirish bilan birga, ularni ma’naviy barkamol bo‘lib tarbiyalanishlar

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. – 400 b.
2. Prezident Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son qarori. Yangi O‘zbekiston. www.lex.uz
3. Prezident Sh.Mirziyoyevning Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarori. // Xalq so‘zi. 2018-yil, 15- avgust
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining o‘z lavozimiga kirishishiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqi. “Yangi O‘zbekiston” ijtimoiysiyosiy gazetasi. 2021-yil 7-noyabr.
5. V.Alimasov, Y.Manzarov. O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy soha: nazariya va amaliyot. Toshkent, 2014.108b.
6. V.Rustamov. Ssenariynavislik mahorati. Toshkent, 2017 yil, 33b.
7. Madaniyat va san’at atamalari izohli lug‘ati/ Taxrirchi: B.Sayfullayev. - Toshkent; 2014.-B. 87.
8. B.Sayfullayev B.,Rustamov V. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati: o‘quv qo‘llanma. -Toshkent; 2017. -B.47.
9. Genkin D.M.. Massoviye prazdniki. -Moskva; 1998. -S. 45. 9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati /Taxrirchi: Z.Ma'rufov. -Moskva, 1981. -B.198.
10. Umarov B, Olimov Sh. Oliy o‘quv yurtlarida ma’naviy-ma’rifiy tarbiya asoslari. - T: «Fan», 2004.

AKADEMIK LITSEYLARDA BIOLOGIYA FANINI O'QITISHNING INTEGRATIV TEXNOLOGIYALARI VA METODIK TA'MINOTI

IBODOVA MAHFUZA NAMOZOVNA
Navoiy davlat pedagogika instituti, Biologiya kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada akademik litsey larda biologiya fanini o'qitishning integrativ yondashuv asosida o'quvchilarda tayanch va fanga doir xususiy kompetentsiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari yoritilgan.

Kalit so`zlar: integrativ yondashuv, tayanch va fanga doir kompetentsiyalar, bilish faolligi, ta'lim tizimi, axborotlashtirish.

Аннотация: В данной статье описаны теоретические основы формирования базовых и специальных компетенций учащихся на основе интегративного подхода преподавания биологии в академических лицеях.

Ключевые слова: интегративный подход, базовые и научные компетенции, познавательная деятельность, образовательная система, информация.

Abstract: This article describes the theoretical foundations for the formation of basic and special competencies of students based on the integrative approach to teaching biology in academic lyceums.

Key words: integrative approach, basic and scientific competencies, cognitive activity, educational system, information.

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasida «O'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish» vazifalari belgilangan. Bu borada o'quvchilarda tayanch va fanga doir kompetentsiyalarni shakllantirishning biologik va informatsion tarkibiy asoslarini aniqlashtirish, integrativ yondashuvga asoslangan biologiya fanini o'qitishning «komp`yuterli ta'lim metodi»ni ta'lim amaliyotiga joriy etish mexanizmini takomillashtirish, xususiy kompetentsiyalarni shakllantirishning metodik tizimini ishlab chiqish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyo hamjamiyati tomonidan ta'limni barqaror taraqqiyot, globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlariga moslashtirishda tabiiy fanlar, jumladan, biologiya fanining ta'lim oluvchilarda sog'lom turmush mada niyati, valeologik va ekologik kompetentlilikni rivojlantirishdagi ta'siriga alohida e'tibor qaratilmoqda.Bu esa akademik litseyning kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan texnologiyalashtirilgan shakllari, o'qitishning amaliy birligini ta'minlash imkoniyatlariga yo'nal tirilgan simulyatsion tizimlar, mustaqil tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantiruvchi virtual laboratoriyalarga bo'lgan qiziqish va talabni kuchaytirmoqda.

Respublikamizda ta'lim tizimini axborotlashtirish, pedagogik va axborot texnologiyalarini integratsiyalash, o'qitish jarayoniga elektron va masofaviy ta'limni joriy qilish A.A.Abduqodirov, M.M.Aripov, U.Sh. Begimqulov, R.X.Djuraev, N.I.Taylaqov, Sh.Abduraimov, D.N.Mamatov; biologiya o'qitish metodikasini takomillashtirish, o'quvchilarda tayanch va fanga doir xususiy kompetentsiyalarni shakllantirish: A.T.G'ofurov, J.O.Tolipova, M.Lutfullaev,

G.S.Ergasheva, A.K.Raximov, I.Azimov, N.J.Toshmanov kabilar tomonidan tadqiq qilingan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida o'quvchilarning bilish faolligini oshirish, integrativ ta'lim yondashuvlari, tayanch va fanga doir xususiy kompetentsiyalarni shakllantirish muammolari: S.L.Atanasyan, L.G.Axmetov, V.P.Bespal`ko, G.A.Berulova, L.O.Bilimxanova, M.M.Bondaruk, O.V.Berej naya, Z.I.Valieva, O.YU.Marchukova, I.V.Nikishina, L.V.Pivovarova, N.Z. Smirnova, N.F.Radionova, A.P.Tryapitsina, L.I.Svetkova, A.V. Shutenko, A.I.Yudin, A.V.Xutorskoy kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Xorijiy davlatlarda oliy ta'lim jarayoniga integrativ texnologiyalarni joriy qilish, pedagogik va axborot texnologiyalarni rivojlantirish, o'quvchilarning bilish va tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish sohasida C.Veld, S.H.Irons, A.A.Levesque, S.R.Simonson, S.E.Shadle, D.F.Slish, M. K.Smith, C.Trujillo, A.Sorgo, B.J.Tewksbury, M.P.Shaver, J.H.Hageman, S.Hennessy, J.D.Walker kabilar tadqiqot olib borgan.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarda ta'limda integrativ texnologiyalardan foydalanish, o'quvchilarning tayanch va fanga doir xususiy kompetentsiyalarini shakllantirish sohasida nazariy va amaliy ahamiyatga ega ayrim yondashuvlar ilgari surilgan bo'lsa-da, akademik litseylarda biologiya faninini o'qitishda elektron ta'lim resursidan foydalangan holda integrativ yondashuv asosida o'quvchilarning biologiya faniga oid tayanch va fanga doir xususiy kompetentsiyalarini shakllantirish metodikasi maxsus tadqiq qilinmagan.

• Umumiy kompetensiyalar – umumta’lim muassasalari o`quv rejasidan o`rin olgan barcha o`quv fanlari mazmuni va o`qitish jarayoni orqali tarkib toptiriladigan kompetensiyalar sanaladi.

• Xususiy (biologik) kompetensiyalar – biologik ta’lim-tarbiya jarayonida DTS bilan me’yorlangan bilim, ko`nikma va malakalar asosida tarkib toptiriladigan kompetensiyalar hisoblanadi.

• Fanlararo kompetensiyalar- o`quv rejadan o`rin olgan ijtimoiy-gumanitar, tabiiy-matematik va amaliy o`quv fanlarni o`qitishda o`zaro fanlararo bog`lanishlarni amalga oshirish orqali tarkib toptiriladigan kompetensiyalar nazarda tutiladi. Biologiya fanidan o`quvchining kompetensiyasi – biologiya fani bo`yicha egallagan bilim, ko`nikma va malakalarini kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanish va amaliyotda qo`lay olish qobiliyatidir.

Biologiya o`qituvchisi o`quvchilarda yuqorida qayd etilgan tayanch kompeten siyalarni tarkib toptirish maqsadida o`quv fani mazmunini tahlil etishi, o`qitishning barcha shakllari: dars, darsdan tashqari, ekskursiyalar va sinfdan tashqari mashg`ulotlarda olib boriladigan ishlarni tizimli va bir-biriga uzviy ravishda amalga oshirishni loyihalashi lozim.

Tayanch kompetensiyasi o’z ichiga kommunikativ kompetensiya, axborotlar bilan ishlash , o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi, Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, milliy va umummadaniy kompetensiya, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo`lish hamda foydalanish kompetensiyalarini oladi.

Kommunikativ kompetensiya -jamiyatda o`zaro muloqotga kirishish uchun ona tili va birorta xorijiy tilni mukammal o`zlashtirish hamda muloqotda samarali foydalana olish;

o`z fikrini og`zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to`g`ri qo`ya olish va javob berish;

ijtimoiy moslashuvchanlik, o`zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;

muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o`z pozitsiyasini himoya qila bilish, uni ishontira bilish;

turli ziddiyatli vaziyatlarda o`z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur (konstruktiv) bo`lgan qarorlarni qabul qila olish;

Axborot bilan ishlash-mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audioo-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish;

media vositalardan zarur bo`lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta'minlash va foydalanishda media-madaniyatga rioya qilish;

ma'lumotlar bazasini yarata olish, asosiylarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish;

kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish (oddiy tabriknomalar yoza olish, anketalarni to`ldirish, mehmonxona ro`yxatida o`zi to`g`risidagi ma'lumotlarni qayd eta olishi va boshqalar.)

Shaxs sifatida o`z-o`zini rivojlantirish kompetensiyasi:shaxs sifatida doimiy ravishda o`z-o`zini rivojlantirish, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;

hayot davomida o`qib-o`rganish, bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish;

o`z xatti-harakatini adekvat baholash, o`zini nazorat qila bilish, halollik, to`g`rilik kabi sifatlarga ega bo`lish;

o`qib-o`rganganlari va hayot tajribasidan foydalangan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi. Jamiyatda bo`layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga dahldorlikni his etish va faol ishtirok etish;

o`zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish (ya'ni xaridor, saylovchi, mijoz, ishlab chiqaruvchi sifatida faoliyat yurita olish);

mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala, iqtisodiy, huquqiy madaniyatga ega bo`lish;

kasbiy mavqeyining o`sishiga intilish bilan jamiyat va oilasi manfaatlari uchun xizmat qilish, yordamga muhtojlarga saxovatli bo`lish

Umummadaniy kompetensiya. Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo`lish;

badiiy va san'at asarlarini tushunish, ta'sirlana olish;

orasta kiyinish, yurish-turishda madaniy me'yorlarga va sog`lom turmush tarziga amal qilish,

umumbashariy ahamiyatga ega bo`lgan qadriyatlarni (urf odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar va.h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo`lish;

o`zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o`zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik hususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish;

xalqning tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o`rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo`lish hamda foydalanish: aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda, shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish;

shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yuritish;

kundalik faoliyatda turli formula,

model, chizma, grafik va diagrammalarni o`qiy olish va foydalanish;

inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo`lish hamda foydalana olish.

Mehnat faoliyati umuman tarbiyaning asosini, tarbiyalanuvchilar faoliyatining mazmunini tashkil qiladi. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda ham mehnat faoliyati kompetensiyalari shakllantiriladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida, oilada bajariladian bola uchun murakkab bo‘lmagan topshiriqlar unung kundalik vazifasiga aylanadi.

Kognitiv faoliyatni rivojlantirishda erta mehnatga yo‘naltirish – bolalarni mehnatga qiziqtirish, mehnat turlari bilan tanishtish va kasbiy tasavvurlarni shakllantirishga oid maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan bir qator tadbirlar majmuini qamrab oaldi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida erta yoshdan mehnat kompetensiyalarini shakllantirish bolalrni uyushqoqlik, mehnat jarayoniga shaxsiy tashabbus bilan qo‘shilish, mehnat faoliyatiga o‘z-o‘zini nazorat etish, o‘z-o‘ziga baho berish, mehnatga ma’suliyat bilan yondashish, boshlagan ishini oxiriga yetkazish kabi sifatlar bilan birga, o‘zgalar mehnatiga hurmat qilishni o‘z ichiga oladi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni mehnat turlari bilan tanishtirishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

- Har bir faoliyatning ijtimoiy mohiyati;
- Mehnat ahli o‘rtasidagi ijobiy o‘zaro

yordam berish munosabati;

- Har qanday mehnat faoliyati muhim ekanligini tushuntirish.

Shuningdek, ushbu jarayonda mehnat faoliyatining quyidagi asosiy tarkibiy qismlari bilan tanishtiriladi:

- Menatning maqsadi, uning ijtimoiy ahamiyat;
- Materiallarni tanlash;
- Jihozlash (mehnat faoliyati uchun zarur bo‘lgan asboblarni tayyorlab olish);
- Mehnat jarayoni (maqsadga erishish uchun bajariladigan mehnat harakatlari);
- Natija – mehnat mahsuloti.

5-7 yoshda bola katta odamlar mehnatiga qiziqadi, biror mehnat jarayonini bajarishda kattar bilan birga qatnashish yoki ozi mustaqil bajarishni hohlashadi. Bu yoshda bolalar kichik maktabgacha yoshdagilarga nisbatan anchagina maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Bolalarda mehnat ko‘nikmalarini shakllantirishda quyidagi qoidalarga rioya qilish lozim:

1) katta guruhlarda o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish, xo‘jalik mehnati, yer chopish, ko‘chat ekish, ko‘chatlarga suv quyish kabi tabiat bilan aloqador mehnat turlarini, hamda qo‘l mehnatini tashkil etish;

2) “Maktabgacha ta’lim tashkiloti ta’lim- tarbiya dasturi” orqali mehnat uchun ajratilgan vaqtdan to‘liq foydalanish. Bolalarni turli mehnat turlari bilan band qilish;

3) bolalar mehnat faoliyatining yakka va jamoa turlaridan foydalanish;

4) bolalar mehnatiga rahbarlik qilish metod va usullarini talim-tarbiya vazifasiga muvofiq tanlash;

5) mehnat turlarini bolalar faoliytining boshqa turlari bilan bilan uyg‘gunlashtirish

6) maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarni mehnatga qiziqtirish muhitini ta’minlash kabilar.

Kun tartibi orqali bolalar mehnatini barcha turini to‘g‘ri tashkil etilsa, ular bundan quvonadilar

Odatda, maktabgacha ta’lim tashkilotida katta yosh guruh tarbiya yoshidagi bolalarning kun tartibida o‘z-o‘ziga xizmt ko‘rsatish mehnati sezilarli o‘rinni egallaydi.

Tarbiyachilar bolada mehnat tarbiyasini shakllantirishda “fan va tabiat” markazining o‘rni beqiyos. Chunki, fan va tabiat markazida bolalarni jonli va jonsiz tabiatga qanday munosabatda bo‘lish malakalari shakllanadi. Mazkur rivijlantiruvchi markazlarda bolalar faoliyatlar tashkil etish jarayonida mehnatining turli shakllaridan foydalanadilar.

Albatta, maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarda mehnat faoliyatini erta rivojlantirish kelajakda biror-bir kasb turlari va o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi tasavvurlarini shakllantirishdan iborat. Xususan, bolalarda mehnat faoliyati va mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirish; o‘z imkoniyati darajasida yoshiga mos mehnat bilan doimiy shug‘ulanish istagini vujudga keltiradi. Mehnat tarbiyasining asosiy maqsadi kognitiv faoliyatini rivojlantirib, u o‘z ichiga bolalarda mehnatga qiziqish va mas’uliyatlilik fazilatlariga ega bo‘lishni rivojlantiradi.

Bolalarni mavjud kasblar haqidagi tasavvurlarini shakllantirishda kasblar dunyosi haqidagi ma’lumotlar bilan tanishtirib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda tarbiyachilar va kattalar nazorati yetakchi o‘rinni egallaydi, hamda bu jarayonlar maktabgacha ta’limda amalga oshiriladi. [171].

O‘ziga xos xususiyatlari, mazmuni, yuzaga kelish sababiga ko’ra mehnat va o’yin bir-biridan farq qiladi. Mehnatda maqsad qo‘yiladi, uni amalga oshirish, natijaga erishish uchun shart-sharoit yaratiladi, vositalar izlab topiladi. O‘yinda

esa bolalar kattalarning mehnat faoliyatiga taqlid qiladilar.

Maktabgachata'lim tashkilotida-o'yinlar tarbiyaviy-didaktik, rivojlantirish va ijtimoiylashtirish maqsadida ta'limning yaxlitligi, avvaldan loyihalanganligi, ta'lim -tarbiya natijalarining kafolatlanganligi, egiluvchanlik (moslashuvchanlik) va tugallanganlik kabi tamoyillar orqali amalga oshirilsa, u holda ularni mehnatni faoliyati deb atash mumkin.

Yuqoridagi ta'riflarni umumlashtirib, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalalrni kognitiv faoliyatlari – bu mehnat faoliyatlarini muayyan ta'lim jarayonlari va mehnat maqsadlari bo'yicha, ta'limning tizimlilik va izchillik kabi umumdidaktik tamoyillariga tayanib, texnologik jarayon sifatida yaxlitlik, avvaldan loyihalanganlik, kafolatlanganlik, egiluvchanlik (moslashuvchanlik) va tugallanganlik kabi tamoyillarga asoslanib tizimlashtirilgan pedagogik faoliyatdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilarda kognitiv faoliyatni qiziqishni shakllantirishga qaratilgan mehnat faoliyatlarini qo'llovchi tarbiyachi quyidagi bilim va kompetentliklarga ega bo'lishi zarur:

-mehnatni faoliyat jarayonidagi o'rnini baholay olish;

- mehnatni faoliyati va uning mazmun-mohiyati haqida tushunchaga ega bo'lish;

- mehnatni faoliyati turlari, qoidalari, prinsiplari haqidatushunchaga egabo'lish;

- mehnatni faoliyatining xar xil turlaridan amaliyotda foydalana olish;

-bolalar faolligini to'g'ri yo'naltirish, mehnatni faoliyatlari orqali kognitiv jarayonlarni rivojlantirish;

-faoliyatlarni hamkorlik pedagogikasi g'oyalari negizida tashkil etish va o'tkazish;

-pedagogik mahorat, takt, texnika, intuitsiya, pedagogik qobiliyat kabilarga ega bo'lish;

Bolalarda kognitiv faoliyatni rivojlantirishda o'quv faoliyatlarni pedagogik-didaktik jihatdan mukammal tashkil etish lozim. Quyida maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faoliyatini rivojlantirish yondashuviga asosan tuzilgan topshiriqlardan namunalar keltirib o'tamiz:

1. Mehnat maydonchalari. Bolalarda mehnat turlari haqida ilk taassurot uyg'otish, iqtidoroni erta kashf etish maqsadida mehnat maydonchalarini tashkil etish. Masalan, quruvchilikka qiziqan bolalar quruvchilik asboblarini, shifokorlikka qiziqadigon bolalar maxsus maydonchda o'yinchoq ishlab chiqarilgan shifokor anjomlarini o'ynashlari mumkin. Tarbiyalanuvchilarning qaysi maydonchada o'ynashlariga qarab, ularning qaysi mehnat turiga qiziqishi yuqoriligini aniqlasa bo'ladi. Bu bola iqtidorini to'g'ri yo'naltirishga, kelajakda adashib, o'zi qiziqmagan sohani tanlashining oldini olishga yordam beradi.

2. " Bu yerda nima yetishmayapti?" Kerakli jihozlar: uy-ro'zg'zor buyumlari, likobcha. Likobchaga narsalar tartibli joylashtiriladi. Bolalar barcha buyumlarni ko'rishlari kerak. Keyin bolalar ko'zlarini yumadi, tarbiyachi buyumlardan birini olib qoyadi va ikkita buyum o'rnini almashtirib qo'yadi. Bunda bolalar ikki o'zgarishni topishi lozim bo'ladi.

CONCLUSION

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalar har bir egallashi lozim bo'lgan kognitiv faoliyatlar doirasini mehnat malakasi orqali qiziqarli metodlar bilan boyitib, mustaqil va mantiqiy tafakkurini o'stirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar bilan boyitish lozim. Zero sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik-bu aql-zakovat

va ilm, eng katta meros-bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik-bu bilimsizlikdir. Shuning uchun kognitiv faoliyat tarkibidagi keyingi tarkibiy qism motivatsiondir. Shunday ekan biz maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalardan boshlab ta’lim sifatiga alohida ahamiyat berib, ularni tafakkuri va har tomonlama intelektual salohiyatga ega bo‘lishlari uchun qulay usullarni va sharoitlarni yaratib berishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. – T., 2019. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish концepцiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019 y., 07/19/4312/3106-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 391-son Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.05.2019 y., 09/19/391/3120-son.
4. Qodirova F., Sh.Toshpo‘latova, N.Qayumova, M.A’zamova Maktabgacha pedagogika. –T.: Tafakkur. 2019. – 200 b.
5. G‘ulomov J. Bilish jarayoni faolligi va neyropedagigk tadqiqotlar talqini. // Pedagogika. – Toshkent, 2015. - №4. – B.41-47.
6. Musaev U. Integratsiya – ta’lim jarayonini optimallashtirishning muhim prinsipi // Xalq ta’limi. – Toshkent, 2002. – №6. –B.100
7. Abdullaeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari. (ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi akademik litseylarda matematika o‘qitish misolida). Ped. fan. dok. ...diss. – Toshkent, 2006. – B. 264
8. Abdullaeva Sh.A., Axatova D.A., Sobirov B.B., Sayitov S.S. “Pedagogika” O‘zRFA “Fan”nashriyoti. 2004.173-bet
9. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari. 1-6 jild.- Toshkent.1980
10. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri / Tuzuvchi M.Mahmudov. – Toshkent, Meros, 1993. – B.185.
11. Abu Rayhon Beruniy. Feruza (Javohirlar haqida naql va hikoyatlar). – Toshkent: Abdulla Qodiriy,1993. – 96 b
12. Djuraeva B. R. va boshq., Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayoni sifati va samaradorligini takomillashtirishning pedagogik tizimi. Monografiya. – Toshkent: Lesson press, 2017. – 160 b.

DAKTIL NUTQINING OG‘ZAKI VA YOZMA NUTQ SHAKLLARI BILAN MUNOSABATI

ABIDOVA NAZOKAT QUTBIDDINOVNA
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Oligofrenopedagogika kafedrasi dotsenti, PhD

Annotatsiya: Mazkur maqolada daktil nutqiniog‘zaki va yozma nutq shakllari bilan munosabati yoritiladi. Maqolada daktil belgilarinitasnifiyoritilgan. Kar va zaif eshituvchi bolalar bolalar nutqining yuzaga kelishi va takomillashishi, olimlarning bu sohada olib borgan tadqiqotlari tahlil qilingan. Daktil nutqining og’zaki hamda yozma shakli o’rtasidagi munosabatlar so’zlashuvning yuzaga chiqishida yordam berishi tadiqotlar natijasida yuzaga chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: Daktil nutqi, og‘zaki nutq, yozma nutq ,eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar, maktab, zamonaviy tizimi, daktil belgilari,tasnifi

Аннотация: В данной статье объясняется связь дактильной речи с устной и письменной формами речи. В статье описана классификация дактильных знаков. Анализируются возникновение и совершенствование детской речи глухих и слабослышащих детей, исследования, проводимые учеными в этой области. В результате исследований соотношение устной и письменной форм дактильной речи способствует возникновению разговорной речи.

Ключевые слова: дактильная речь, устная речь, письменная речь, слабослышащие дети, школа, современная система, дактильная символика, классификация.

Abstract: In this article, the relationship of dactyl speech with oral and written forms of speech is explained. The article describes the classification of dactyl signs. The emergence and improvement of children's speech of deaf and hard of hearing children, the researches conducted by scientists in this field are analyzed. The relationship between the oral and written forms of dactyl speech helps in the emergence of conversation as a result of researches.

Key words: dactylic speech, oral speech, written speech, hearing-impaired children, school, modern system, dactylic symbols, classification.

Eshitish qobiliyatini yo'qotgan bolalarda nutqning shakllanishi boshqa buzilmagan analizatorlar - vizual va vosita yordamida amalga oshiriladi. Ularni og'zaki muloqotga o'rgatish jarayonida eshitish qobiliyati zaif bolalarda vizual idrok etish asosida rivojlantiriladi. Ma'lumki, tovush tili taxminan 30-50 ming yil oldin paydo bo'lgan. O'shandan beri og'zaki tizim (verbal) insoniyat jamiyatida asosiy aloqa vositasi bo'lib kelgan.

Imo-ishoralar yordamida insoniy muloqot ham xuddi shunday qadimiydir. Olimlarning fikricha, imo-ishora tili tovush tilidan oldin bo'lgan, ya'ni odamlar gapirishni o'rganishdan oldin imo-ishoralar bilan muloqot qilishgan. Shuni ta'kidlash kerakki, imo-ishoralar juda tez-tez (agar har doim bo'lmasa) shaxslararo muloqotda ishtirok etadi. Ular muloqotning maqsadi va holatiga qarab turli xil usullarda qo'llaniladi. Imo-ishoralar mustaqil ishora sifatida harakat qilishi mumkin. Masalan, "Kitobni qarzga olsam bo'ladimi?" Degan savolga. - suhbatdosh ruxsat, rozilik bildiruvchi ishora qiladi. "Qo'llarning chayqalishi" imo-ishorasi ajablanish ma'nosini bildiruvchi keng qo'llaniladi. Ko'pincha imo-ishoralar og'zaki matnga hamroh bo'lib, unda etishmayotgan ma'lumotlarni taqdim etadi. “Iltimos, menga bu tasmani bering (imo-ishora kenglikni ko'rsatadi). Og'zaki nutq nutqi og'zaki va noverbal komponentlarning

o'zaro ta'siri natijasi bo'lib, og'zaki (verbal) komponent asosiy komponent bo'lib, so'zlashuv nutqida noverbal komponentlar sifatida ishlatiladigan imo-ishoralar majmui mustaqil kommunikativ tizimni tashkil etmaydi. Imo-ishoralardan foydalanishning alohida sohasi - bu san'at (pantomima, opera, drama). Ular aktyorning jamoatchilik bilan muloqot qilish tizimidagi tilning ajralmas qismidir. Ammo transportda, armiyada, sportda ishlatiladigan imo-ishoralar mustaqil noverbal aloqa tizimlaridir. Transportda imo-ishoralar to'plami qo'riqchilarning buyruqlarini va haydovchilarning signallarini o'z ichiga oladi. Avtotransportda burilish yoki tormoz ko'rsatkich chiroqlari bo'lmasa yoki ishlamasa, haydovchilarning imo-ishora signallari talab qilinadi. Shunday qilib, armiyada, sportda, transportda kinetik (harakat) tizimlar qo'llaniladi, ularning tarkibi qonuniylashtirilgan va normativdir. Bunday tizimlar mustaqildir, garchi ular aniq maqsad va qat'iy cheklangan doiraga ega bo'lsalar ham.

Daktilologiya – kar va zaif eshituvchi bolalarning nutqining o‘ziga xos shaklidir. U so‘zlashuv nutqiga imo-ishora nutqiga nisbatan yaqindir. U yozma xarakatga ko‘ra yozma nutqqa o‘xshab ketadi. Uning vositalari grafik belgilar harflar emas, balki qo‘l, barmoq harakatlari hisoblanadi.

Nutq odamlarning tildan foydalangan holda muloqot qilish jarayoni, til esa belgilar va belgilar tizimidir. Kar va zaif eshitadigan odamlar uchun nutq, xuddi shunday qilib, erishib bo'lmaydi. Ammo shu bilan birga, ular bir vaqtning o'zida ikkita mutlaqo boshqa aloqa tizimidan foydalanadilar - imo-ishora tili va taktil nutq. Imo-ishora tili - eshitish qobiliyati zaif odamlar bir-biri bilan muloqot qilishlari uchun yaratilgan mustaqil til. Faktil nutq - bu barmoqlarning maxsus konfiguratsiyasi va harakatlari orqali hosil bo'lgan nutq. Imo-ishora va barmoq izlari nutqi karlar uchun aloqa vositasi bo'lsa-da, bu nutq noto'g'ri taxmin qilinganidek, karlar tomonidan o'ylab topilmagan.

Daktil alifbosi 12-asrda Sitsiliya rohiblari tomonidan ixtiro qilingan, ular uni buzmaslik va muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lish uchun sukut saqlashga qasamyod qilganlar.

Eshitish qobiliyati zaif bolalar og'zaki nutqni faqat maxsus muassasalarda o'zlashtira oladilar. Va faqat to'g'ri tuzilgan pedagogik jarayon bilan bu mumkin bo'ladi.

Bolalar nutqni vizual idrok etish asosida o'rganadilar, nutq motorli sezgilar bilan qo'llab-quvvatlanadi. Ular nutqning intonatsion-ekspressiv vositalarini egallash va uning naqshlarini quloq orqali idrok etish qobiliyatiga ega emaslar, eshitish orqali boshqariladigan taqlid eshitish bolaning nutqining rivojlanishini belgilaydi [7.67].

Buning sababi shundaki, eshitadigan bolalarda so'zning asosiy tasviri eshitishdir, kar va zaif eshitadigan bolalarda esa ko'rish, vosita sezgilari (barmoq, artikulyatsiya yoki yozish) bilan quvvatlanadi.

Faktil nutq karlarning shaxslararo kommunikativ faoliyatining tarkibiy qismlaridan biri sifatida, shuningdek, kar va eshitish o'rtasidagi muloqotda ishlaydi. Daktil nutq rus tili qoidalariga muvofiq tuzilgan va orfoepik me'yorlarga mos keladigan og'zaki nutq bilan birga keladi [8.30].

Kar va zaif eshituvchi bolalar nutqining yozma hamda og’zaki shakllari yuzasidan qator olimlar tadqiqotlar olib borgan. Olib borilgan tadqiqotlar qator olimlarning firklaridagi o’xshash va farqli o’rinlarni ham ko’rsatgan. Ponso o‘z metodikasida nutqning turli: og‘zaki, yozma, daktil va imo-ishora ko‘rinishlarini qo‘llaydi. X.P.Bonet (1579-1633) o‘zining 1620 yilda yozilgan «Tovushlar tabiati va kar-soqovni gapirishga o‘rgatish san’ati» asarida karlarni o‘qitish va tarbiyalashning o‘sha davrdagi maqsad va vazifalarini ko‘rib chiqar ekan,

ularni so‘zlashuv nutqiga daktil va og‘zaki nutq orqali o‘rgatish lozimligi haqida so‘z yuritadi. U kar bolalarni maxsus ravishda tayyorgarlikka ega bo‘lgan o‘qituvchi o‘qitishi, ta’lim jarayonida nutqni va aqliy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan ishlar savol-javob shaklidan foydalangan holda olib borilishi alohida e’tiborli omil sifatida qaraydi [2]. X.P.Bonnet g‘oyalarining keyinchalik taraqqiyotiga Angliyalik J.Vallis (1616-1703) va J.Bulver, Shveysariyalik J.K.Amman (1669-1724), Niderlandiyalik F.M.Van Xelmont (1614-1699), Italiyalik F.L.Tersiy (1631-1687) kabi amaliyotchi olimlar karlarni o‘qitishga alohida urinishlar sifatida o‘z xissalarini qo‘shdilar. E.R.Karrion (1579-1652) o‘z zamondoshlari boy tajribasidan unumli foydalangan holda ularning g‘oyalarini rivojlantirar ekan, karlar ta’lim-tarbiyasida taktil-vibratsiya sezgilariga hamda eshitish qoldig‘iga tayangan holda ish olib boradi. Yuqorida bayon etilgan karlarni yakka tartibda o‘qitishga urinishlar eshitish nuqsoniga ega farzandlari bo‘lgan zadogon oilalar ijtimoiy buyurtmasining mahsuli edi. Shu bois ta’limning bu turi ijobiy tajribaga ega bo‘lsada, ushbu toifa bolalari uchun o‘quv muassasalarining tashkil etilishiga uzoq vaqt muvaffaq bo‘linmadi. Faqat 14 asrning 70-yillaridagina kar bolalarni o‘qitish va tarbiyalash uchun maxsus muassasalar tashkil etish va rivojlantirish bo‘yicha urinishlar yuzaga kela boshladi. 1770 yilda Fransiyada dunyo tarixida birinchi bo‘lib Sharl Mishel de Epe (1712-1789) tomonidan Parijda xususiy maktab - kar-soqovlar instituti ochildi. De Epe tarixda Volter, Deni Didro, Jan Jak Russo kabi fransuz ma’rifatparvarlarining g‘oyalari bilan yo‘g‘riltirilgan mimika (imo-ishora) metodining muallifi sifatida nom qoldirdi . Amaliyotchi olim o‘qitish jarayonida asosiy e’tibor kar bolalarning har tomonlama: aqliy va jismoniy rivojlanishiga qaratish hamda ushba tizim kar bolani umumta’lim fanlariga oid bilimlarni o‘zlashtirish, jamiyatda yashash va mehnat qilishga tayyorlashi lozimligi masalalariga alohida axamiyat qaratadi. Ammo ushbu vazifalarni hal etish uchun o‘qitish davomida faqat nutqning imo-ishora shaklidan foydalaniladi hamda kar o‘quvchilar uning asosida yozishni o‘rganadilar. Uning shogirdi R.A.Sikar Sharl Mishel de Epening g‘oyalarini rivojlantirib, imo-ishoralar tilini «metodik belgilar» bilan boyitadi. Ya’ni ushbu metod asosida o‘qitish jarayonida o‘quvchilarga tildagi grammatik kategoriyalarni tasvirlash uchun ma’lum bir belgilar o‘rgatib boriladi. Ma’lumki, tilda grammatik kategoriyalar juda ko‘pchilikni tashkil etadi. O‘quvchilar hajmi kundan kunga ortib borayotgan belgilarni o‘zlashtira olmasliklari natijasida fanlarga oid blimlarni ham o‘zlashtirishga ulgurmay qoladilar hamda imo-ishora metodi asosida o‘qitish tizimi takomillashtirilganiga qaramay, undan amaliyotda foydalanish ta’limning oldiga qo‘yilgan vazifalarni to‘laligicha hal etish imkonini bermasligini ko‘rsatadi[3].

O‘zbek tilining har bir harfi o‘zining harakatli ifodasiga egadir. Daktil belgilarini uch guruhga tasniflash mumkin:

1. chizuvchi harflar (z, b, d);

2. harf shaklini ifodalovchi harflar (o, l, m, t);

3. shartli belgilar (v, j, n).

Daktil nutqi so‘zlashuv nutqining barcha qoidalariga ko‘ra shakllanadi va uni kar bola egallashi mumkin. Bog‘cha davrda kar bola daktilologiyaga savod o‘rganish uchun murojaat qiladi. Tadqiqot ko‘rsatishicha, daktilologiya eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar so‘zlashuv nutqini shakllantirish uchun yordamchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Daktilologiyani yaxshi egallagan o‘quvchilar so‘zning tovush sostavini to‘liq egallaydi. Ularda so‘zning tovush va daktil obrazi o‘rtasida shartli aloqalar o‘rnatiladi. Lekin so‘zning talaffuzi yozilishdan

uzoqlashsa tovush tarkibini o‘rganishda daktilologiya ta’sir ko‘rsatdi. Daktilologiyani va yozma nutqning o‘zaro munosabati juda murakkabdir.

Y.N.Marsinovskaya tadqiqot natijalariga ko‘ra, bu nutq formasining quyidagi belgilarini ochib beradi. Eshituvchi bolalarda daktillash 2,5 marta og‘zaki nutqni bayon qilishga nisbatan orqada qoladi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda og‘zaki nutqni bayon etish va daktillash tempi bir xil bo‘ladi, ba’zan daktillash og‘zaki nutqni bayon etishda oldindan o‘tib ketish hollari ham ko‘zatiladi. Daktilologiya og‘zaki nutqni o‘zida namoyon qiladi, lekin suhbat jarayonida eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar daktil nutqiga nisbatan imo-ishora nutqidan keng doirada qo‘llaniladi[4]. L.A.Novikova va Y.N.Marsinovskaya tomonidan o‘tkazilgan maxsus tadqiqotlarga ko‘ra daktilologiya ham og‘zaki nutq kabi kinestetik sezgilar asosiga qo‘riladi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar fikrlash operatsiyalarida faqat artikulyator apparatlarda, balki qo‘l, barmoq muskullarida ham impulslar yuzaga kelgani kuzatilgan. Lekin, artikulyator apparatdagi nutqiy kinestiziyalar, qo‘l kinesteziyalariga nisbatan puxta bo‘lib, tadqiqot ob’ekti sifatidan o‘rganish talab etiladi. Y.N.Marsinovskiy daktillash tempi og‘zaki nutq talaffuzi yaxlitligiga ta’sirini o‘rgatgan. Bu tajribalar ko‘rsatishicha kar bola daktillash texnikasini yaxshm o‘rganganda daktilologiya og‘zaki nutq tempi va yaxlitligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Daktillash texnikasini yaxshi darajada egallamaslik, talaffuz to‘g‘riligi, nutqni tushunarliligiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

S.A.Zikov tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda, bu muammo tadqiq etilgan. Eshituvchi bola savodga o‘rgatishning boshlang‘ich etapida nutqni akustik va harakat obrazlariga tayanadi. Bolani so‘zli yozishidan avval uni ichida yoki ovoz chiqarib o‘qishini ko‘rish mumkin. Kar bola og‘zaki nutqqa ega bo‘lganligi uchun savodga o‘rgatish davrida daktilologiyaga tayanadi. So‘ng bu jarayon bir vaqtda amalga oshadi, bola ham yozadi va daktillaydi. So‘zlashuv nutqini egallash darajasiga ko‘ra daktil kinesteziyalari asta-sekin siqilib, artikulyator kinesteziyalar bilan almashinadi. U ham bola singari so‘zni talaffuz etib, so‘ng yozadi[4].

Daktilologiya atrofdagilar nutqini labdan o‘qishda ham muhim vosita sanaladi. Chunonchi, ayrim tovushlar labdan yomon o‘qiladi, shu o‘qishda daktilologiyadan foydalanadi.

Daktil nutq yordamida nafaqat xabarning umumiy ma'nosi, balki uning so'zma-so'z mazmuni ham takrorlanadi. Barmoqlar bilan gaplashganda berilgan tilning imlo, morfologiyasi va sintaksisining barcha qoidalariga rioya qilinadi. Nutqning daktil shakli yozma va og'zaki nutq shakllariga o'xshash va farqlarga ega. Daktilik nutq og'zaki emas, balki yozma nutq uchun dravidlarga bo'ysunadi. Daktil nutq vizual tarzda qabul qilinadi. Ma'ruzachi daktil alifbosidan foydalanib, og'zaki nutqni orfoepik emas, balki orfografik tarzda takrorlaydi. Barmoq izlari paydo bo'lganda, nutqni tinglash emas, balki so'zlarning harf tarkibining qo'lda yozilgan tasvirlarini o'qish.a.

Nutqning daktil shakli yozma nutqni o'qish yoki og'zaki nutqni idrok etishda bo'lgani kabi, bir vaqtning o'zida butun so'zni yoki qisqa jumlani idrok etishga imkon bermaydi. Daktillanganda faqat havoda yozilgan individual harf belgilari ko'rinadi. Keyingi belgi paydo bo'lgandan keyin daktil belgisi ko'zdan yo'qoladi. Barmoq izlarini takroran olish bilan ham siz so'zni bir butun sifatida ko'ra olmaysiz. U har doim daktillashtirilgan harflar yig'indisidan aqliy ravishda tuzilishi kerak. Daktil tizimi nafaqat karlarning og'zaki nutqi va umumiy ta'lim fanlarini o'rgatish uchun, balki eshitadigan odamlar bilan karlar va karlar o'rtasidagi muloqot uchun ham

mo'ljallangan. Daktil belgilarining ma'nosi faqat tegishli alifboni o'zlashtirganlar uchun tushunarli. Daktil alifbosi karlar va ularga yaqin odamlar tomonidan qo'llaniladi. Hozirgi vaqtda daktilologiya butun dunyoda qo'llaniladi, ammo u xalqaro emas. Daktil alifbolarda ma'lum bir til alifbosida mavjud bo'lgan harflar soniga mos keladigan bir qator belgilar mavjud. Daktil alifbosining butun dunyo bo'ylab karlar orasida tarqalishi va uning bugungi kungacha qo'llanilishi og'zaki nutqning ushbu shakli hayotiyligining ishonchli dalilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Henry Walter Edward Klopping Language understanding of deaf students under three auditory-visual stimulus conditions — The University of Arizona, Arizona USA , 2012.-34-35.r.
2. Rustamova R.R. Boshlang‘ich sinflarda zaif eshituvchi o‘quvchilar nutqining grammatik qurilishini shakllantirishPed. fan. nomz. dis. ... avtoref. – T.: TDPI. 2009.
3. Mamarajabova Z.N.Ona tili o‘qitish maxsus metodikasida pedagogik texnologiyalar - T.,2004
4. Mamarajabova Z.N.Kar bolalar maxsus maktab-internatlarining 3 -sinflari uchun ona tili fanidan darslik– T.: O‘qituvchi,2010.
5. Mamarajabova Z.N. Kar bolalar maxsus maktab-internatlarining 5 -sinflari uchun nutq o’stirish fanidan darslik– T.: O‘qituvchi,2010.
6. Mamarajabova Z.N. Kar bolalar maxsus maktab-internatlarining 6 -sinflari uchun nutq o’stirish fanidan darslik– T.: O‘qituvchi,2010.
7. Богданова Т.Г. Сурдопсихология: Учеб. Пособие для студ. высш. учеб. заведений/Т.Г. Богданова. – М.: Академия, 2002. – с. 67.
8. Зайцева Г.Л. Жестовая речь. Дактилология: Учеб. для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Гуманитар. изд. центр ВЛАДОС, 2014. – с. 22-70.

O‘QUVCHILARNING INDIVIDUAL HUSUSIYATLARINI ANIQLASH: NEYROPEDAGOGIK DIAGNOSTIKA METODLARI

TO‘RAQULOVA SABINA BOBOMURODOVNA
Navoiy davlat pedagogika instituti, talaba

Annotatsiya. Maqolada o‘quv ma'lumotlarini bolalarning bilish jarayoni mexanizmlari bilan bog‘liq bo‘lgan individual xususiyatlarini – tafakkur strategiyalari va afzal ko‘radigan reprezentativ tizimlarini aniqlash uchun neyropedagogik diagnostika metodlaridan foydalanish tavsiya qilingan. O‘quv jarayonini tashkil etishda neyropedagogik diagnostika metodlari vositasida aniqlash va olingan natijalarni darsda qo‘llash bolalarning individualligiga yo‘naltirilgan ta'limni tashkil etishda muhim qadam bo‘lib xizmat qiliши мумкин.

Kalit so‘zlar: o’quvchi, neyropedagogika, diagnostika metodlari, reprezentativ tizimlar, mashq-topshiriqlar.

Аннотация. В статье предложены методы нейропедагогической диагностики, способствующие выявлению индивидуальных особенностей учащихся, связанных с механизмами процессов познания – стратегий мышления и предпочтительных репрезентативных систем. Выявление индивидуальных особенностей учащихся с помощью методов нейропедагогической диагностики и их учет при организации образовательного процесса может служить важным шагом в организации обучения, ориентированного на индивидуальность детей.

Ключевые слова: учащийся, нейропедагогика, диагностические методы, репрезентативные системы, упражнения-задания.

Annotation. The article proposes methods of neuropedagogic diagnostics that help identify individual characteristics of students associated with the mechanisms of cognitive processes – thinking strategies and preferred representative systems. Identification of individual characteristics of students using neuropedagogic diagnostic methods and their consideration in the organization of the educational process can serve as an important step in the organization of education focused on the individuality of children.

Key words: school student, neuropedagogy, diagnostic methods, representative systems, exercises-tasks.

Kirish ma’lumotlari / dolzarbligi. Yangilanayotgan O’zbekstonda o’sib kelayotgan yosh avlodni sog’lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish uchun ularda ilm-fanga qiziqishni uyg’otish, iste’dodni erta aniqlash va har tomonlama – intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishlari uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda. Hususan, so’nggi yillarda ta’lim muassasalarini yuqori malakali pedagog va mutaxasis kadrlar bilan ta’minlash, o’qitish va tarbiyalash jarayonlariga zamonaviy ta’lim dasturlari va uslublarini joriy etish bo’yicha keng ko’lamli ishlar amalga oshirilayotgani barchamizga ma’lum. [O’zbekiston, 2019]

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev “...butun ta’lim tizimining ... eng muhim vazifasi – yosh avlodga puxta ta’lim berish, ularni jismoniy va ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir”, - deb mazkur masalaga alohida urg’u berganlar. [Mirziyoev Sh.M., 2016. 14-bet] Bu dolzarb vazifalarni samarali amalga oshirilishi щыituvchi-pedagoglar zimmasiga ulkan mas’uliyatlarni yuklaydi.

Bu esa ta’lim dasturlarini o’zlashtirishga qiynalayotgan va o’z iqtidorini namoyon qilishda turli noqulayliklar sezayotgan

o’quvchilar uchun o’qituvchi va pedagoglar tomonidan individual yo’naltirilgan ta’limni tashkil etish imkonini beradi. Shuning uchun ham bola shaxsini har tomonlama va chuqur bilish, uning psixofiziologik xususiyatlari bilan bir qatorda neyrologik imkoniyatlari hamda jihatlarini diagnostika qilish kerak bo’ladi. Ushbu shartning bajarilishi, o’z navbatida, ta’lim jaraènining barcha bosqichlarida o’quvchi shaxsini rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishni ta’minlaydi.

Materiallar va metodlar. “Bolani bilish” deganda nimani tushunish kerak?

“Bolani bilish” deganda uning psixologik va fiziologik xususiyatlarini, qiziqish, qadriyat va ehtiyojlarini, odatlarini, xarakteridagi kuchli va kuchsiz jihatlarini bilish tushuniladi. Bu esa, o’z navbatida, bola olamni qanday ko’rishini, tashqaridan kelayotgan (yoki olinayotgan) ma’lumotlarni qanday qabul qilishini, anglashini va tashqi ta’sirlarga nisbatan qanday aks ta’sir etishi mumkinligini oldindan ko’ra bilishga yordam beradi. Ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda bolaning aynan mana shu jihatlarini xisobga olish uning bilish faolligini oshirish bilan bir qatorda tafakkurini yanada rivojlantirish imkonini yaratadi.

Ta’lim jarayonini tashkil etishda bolalarning individual xususiyatlarini aniqlab o’quv ma’lumotlarini ular uchun “tushunarli bo’lgan tilda” havola qilish uchun ular bosh miya yarimsharlari funktsional tashkil etilishining o’ziga hosliklarini bilish va muayyan birliklarda o’lchash, tahlil qilish, qiyosslash kerak bo’ladi. Chunki bolaning xulq-atvori va aqliy faoliyati yarimsharlardan qaysi birining yetakchi bo’lishiga bog’liq bo’lib, bosh miya yarimsharlari faoliyatining tashkil etilish mexanizmlarini neyropedagogik diagnostika metodlar vositasida aniqlash tavsiya qilinadi.

Neyropedagogika sohasidagi ilmiy izlanshlarda turli psixotiplar xulq-atvori, ta’lim-tarbiya faoliyatida o’quv vazifalarni bajarishda “afzal” xisoblagan yo’llarni tanlashlaridagi farqlar tadqiq etilgan. Xususan, neyropedagogika sohasidagi bir qator izlanishlarda – bolalarning bilimlarni (chet tilini o’rganish misolida) o’zlashtirishi ulardagi yetakchi yarimsharlar funktsiyasi bilan o’zaro bog’liqligini, ta’lim berishda bolalarning yosh va rivojlanganlik jihatlarini xisobga olish, o’quv ma’lumotlarini ularning tafakkur strategiyalariga muvofiq tarzda havola qilish masalalari yoritilgan. [Gulyamov D.R. i dr., 2018; Gulyamov Dj.R. and ad., 2020; Tunkun Ya.A., 2016]

Yoshi o’n ikkiga to’lmagan hamda dizontogenetik rivojlangan (organizm rivojlanishida buzilishi bo’lgan) bolalarni apparat yoki proektiv metodlar vositasida tadqiq etish tavsiya qilinadi.

Yetakchi yarimsharni aniqlashda I.P.Pavlov testi qo’llaniladi. Oliy nerv faoliyatini tavsiflash uchun I.P.Pavlov uchta tipni ajratgan: “fikrlovchi”, “badiiy”, “o’rtacha”. Olimning ta’rifiga ko’ra, atrofda o’rab turgan tashqi muhit, taassurotlar, hissiyotlar va g’oyalar (so’zlardan tashqari, eshitiladigan va ko’rinadigan) hayvonlar bilan odamlar uchun umumiy bo’lgan birinchi signal tizimidir. Uning ustunligi "badiiy" turdagi odamlarga xosdir. So’z (nutq) ikkinchi signal tizimi asosida yotadi. Ikkinchi signal tizimining ustunligi "fikrlovchi" turga xosdir. I.P.Pavlovning ikkita signal tizimlari kontseptsiyasi bizga miya yarimsharlarining funktsional ixtisoslashuvi to’g’risidagi ko’plab ma’lumotlarni, shu jumladan, yarimsharlarning o’ziga hos xususiyatlari va ularning birgalikdagi faoliyati natijasida yuzaga keladigan rollarni "taqsimlash" bilan o’zaro qiyoslash imkonini beradi.

Ko’rsatma: uchta guruxga uchtadan kartochka berilishi va uchchala guruxda

umumiy narsa bo’lishi kerak.

Kerakli materiallar: har biriga alohida “baliq”, “burgut”, “tog’ echkisi”, “pat”, “tarozi”, “jun”, “parvoz qilish” “suzish” “yugurish” kabi so’zlar yozilgan to’qqizta kartochka.

Natijalar.

1-variant:

a) “sazan”, “burgut”, “tog’ echkisi”

b) “yugurish”, “suzish”, “parvoz qilish”;

v) “jun”, “pat”, “tangali teri”.

Bu variantda umumiy belgilar ajratilgan bo’lib, ikkinchi signal sistemasi ustunlikka ega. Sinaluvchi – “fikrlovchi” tipga mansub bo’lib, unda chap yarimshar yetakchiligi va mantiqiy tafakkur ustunligi kuzatiladi.

2-variant:

a) “sazan”, “suzish”, “tarozi”;

b) “burgut”, “parvoz qilish”, “pat”;

v) “tog’ echkisi”, “yugurish”, “jun”.

Bu yerda narsalar va holatlar funktsional belgilariga ko’ra umumlashtirilgan bo’lib, sinaluvchida birinchi signal sistemasi ustunlik qiladi. Sinaluvchi – “badiiy” tip bo’lib, tasavvurli, obrazli tafakkurga tayanadi. O’ng yarimshari dominant bo’lganligi bois idrok qilishi mexanizmi - yaxlit, bir butun obrazning sintezlanishida aks etadi.

3-variant:

Bir vaqtning o’zida 1- va 2-variant testlarini bajarish aralash tiplarga hosdir. [Sirotyuk A.L., 2003]

Ba’zi hollarda yarimsharlar o’rtasida funktsiyalarning taqsimlanishi an’anaviy sxemaga ko’ra - o’ng yarimshar gumanitar, chap yarimshar esa mantiqiy bo’lmasligi mumkin. Yarimsharlar o’rtasida funktsiyalarning teskari lateratsiya holatlari ham uchrab turadi. Bunda o’ng yarimshar – mantiqiy, chap yarimshar esa gumanitar operatsiyalarni bajarishga ixtisoslashganligi kuzatiladi.

Miya yarimsharlari funktsiyalarining lokallashganligini A.L.Sirotyuk tavsiya qilgan test yordamida aniqlash mumkin bo’lib, quyidagi 2 bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich: Bolaga ko‘zlarini yumib, og‘zini ochmasdan sigirga o‘xshab “ma’rash” taklif qilinadi. Shu yo‘l bilan obrazli yarimshar faollashadi va uning boshi beihtiyor qarama-qarshi tomonga buriladi. Agar obrazli yarimshar o‘ng yarimshar bo‘lsa, u xolda bosh chap tarafga, agar obrazli yarimshar chap yarimshar bo‘lsa – o‘ngga buriladi. Mantiqiy yarimsharda esa hkch qanday sezilarli faollik sodir bo‘lmaydi.

2-bosqich: Bolaga ko‘zlarini yumib, to‘g‘ri yoki teskari tartibda sanash taklif qilinadi. Ushbu jarayonda mantiqiy yarimshar faol ishtirok etadi. Agar mantiqiy yarimshar chap yarimshar bo‘lsa, u holda sinaluvchining ko‘zlari va boshi beixtiyor o‘ngga buriladi, agar mantiqiy yarimshar o‘ng yarimshar bo‘lsa – chap tomonga buriladi. Obrazli yarimshar bu jarayonda faollik ko‘rsatmaydi. [Sirotyuk A.L., 2003;201-str]

Signal tizimlarining o‘zaro nisbatini Ye.A.Klimov metodikasi yordamida aniqlanadi. Buning uchun o‘quvchilarga bir xil o‘lchamdagi va turli turdagi to‘qqiz juft doira taqdim etiladi: birinchi to‘qqizta doira – so‘zlar bilan, ikkinchi to‘qqizta doira esa ranglar (pushti, ko‘k, qizil, yashil, sariq va boshqalar) bilan belgilangan bo‘lishi kerak.

Ekspozitsiya vaqti 30 soniya bo‘lib, bu vaqt davomida bolalarga taqdim etilgan juft materiallarni eslab qolish taklif qilinadi.

Doiralar so‘zlar bilan izohlab ko‘rsatilganidan so‘ng, sinaluvchilardan xotiralarida qolgan so‘zlarni yozishlari (yoki aytishlari) so‘raladi. Bu – chap yarimsharning funksiyasi bo‘lib, chap yarimshari yetakchi bo‘lganlar mazkur topshiriqni oson bajarishlari kuzatiladi.

Rangli doiralarni ko‘rsatilganidan so‘ng, doiralarni ularga taqdim etilgan ketma-ketlikda joylashtirishlari taklif qilinadi. Bu topshiriqni o‘ng yarimshari yetakchi

bo‘lganlar qiyinchiliklarsiz bajarishlari mumkin.

To‘g‘ri takrorlangan so‘z va rangdan iborat juft stimullar soni hisoblanadi.

Signal tizimlarining nisbiy ko‘rsatkichi sifatida xotirada saqlangan rang va so‘zdan iborat juftlik qiymatlarining nisbati (K) xizmat qiladi.

K = A/B

Bunda:

A – rangli doiralar soni;

V – so‘z bilan ifodalangan doiralar soni.

Hisob natijalari bo‘yicha olinadigan koeffitsiyent K>1,05 bo‘lsa - birinchi signal tizimi ustun bo‘ladi (o‘ng yarimshar yetakchilik qiladi).

Agar K<0.95 bo‘lsa, u holda ikkinchi signal sistemasi ustunlikka (chap yarimsharning dominantligi) ega, deb hisoblanadi.

Aralash tipdagi (teng yarimsharli) sinaluvchilarda mazkur koeffitsiyent K = 0.96 – 1.04 oralig‘idagi qiymatga teng bo‘ladi. [Gulyamov Dj.R. va boshq., 2024. 102-103-betlar.]

Yetakchi modallikni aniqlashning ekspress diagnostikasida L.Kans va S.Kokov hamda B.A.Levis va F.Pukelik metodikalaridan foydalaniladi.

Verbal testlar (savol-javob) sinaluvchining o‘ziga-o‘zi adekvat baho bera olidigan sharoitlardagina qo‘llanilishi mumkin. Shu sababli bolalar 12-15 yoshga to‘lguniga qadar ularda ushbu metodika qo‘llanilmaydi. Chunki aynan mana shu yoshda, normal ontogenez (individual rivojlanish)da o‘ziga-o‘zi baho berish uchun mas’ul bo‘lgan bosh miya po‘stlog‘idagi peshona bo‘laklarining shakllanishi yakunlanadi.

L.Kans va S.Kokov metodikasi modalliklarni tezkor testlashtirish imkonini beradi. Ushbu testni qo‘llashning muhim sharti – bolada 30gacha sanash ko‘nikmasining mavjudligidir. Metodika quyidagi vazifalarni bajarishdan iborat:

1. Vizual modallikni aniqlash uchun bolaga kartochka ko‘rsatilib, “Ushbu kartochkada nechta doira chizilgan? Barmog‘ingni tekkizmay kartochkadagi doiralarni sana”, deb topshiriq beriladi.

2. Audial modallikni aniqlash uchun bolaga ko‘zlarini yumish taklif qilinadi. So‘ng "Men taxtani taqillataman. Men taxtani necha marta taqillatganimni aytasan", deb pedagog notekis interval bilan taxtaga 13 marta uradi.

3. Kinestetik modallik. Pedagog bolaga o‘tmas uchli qalam beradi. So‘ngra boladan ko‘zlarini yumib, uning qo‘liga 15 marta urib qo‘yishi taklif qiladi: "Seni yelkangga bir necha marta tegib qo‘yman. Sen yelkangga necha marta tegib qo‘yganimni aytishing kerak bzladi”, deb topshiriq beradi. Pedagog teng bo‘lmagan interval bilan bolaning yelkasiga 17 marta urib qo‘yadi.

B.A.Levis va F.Pukelik metodikasi vositasida ko‘rish-motorik, nutq va fazoviy qobiliyatlarni diagnostika qilish mumkin. Buning uchun bolaga beriladigan topshiriqlar quyidagilardan iborat bo‘ladi:

1. Ushbu strelkalar ko‘rsatayotgan yo‘nalishlarni sanab chiq. Agar strelka o‘ng tomonga yo‘nalishni ko‘rsatayotgan bo‘lsa, "o‘ng", chap tomonga yo‘nalishni ko‘rsatayotgan bo‘lsa - "chap", pastga yo‘nalishni ko‘rsatayotgan bo‘lsa - "pastga", yuqoriga yo‘nalishni ko‘rsatayotgan bo‘lsa - "yuqoriga" deb aytasan. Tushuntirish uchun pedagog boshqa topshiriqlardan foydalanishi kerak (sinov topshirig‘idan emas).

2. "Strelkalarining yo‘nalishlariini ovoz chiqarmay, qo‘ling bilan ko‘rsat”, deb bolaga topshiriq beriladi. Ushbu vazifani bajarishda verbal nazoratni istisno qilish uchun boladan tilining uchini biroz tishlashi so‘raladi.

3. Eshitish va kinestetik analizatorlarining integratsiyalashish qobiliyatini aniqlash uchun "Strelkalarning yo‘nalishini yana ko‘rsat, lekin bu safar ushbu mashqni

bajarishni zarba berishim bilan sinxron tarzda boshla", deb topshiriq beradi. So‘ng pedagog taqillatishni ritmlashtiradi - har soniyada bir marta.

4. “Qog‘oz va qalam ol. Qachonki men “boshla” deganimda peshonangga varaqni qo‘y va unga “MUSHUK” so‘zini yoz”, deb navbatdagi topshiriqni beradi. Agar bola so‘zni oldindan orqa tomonga yozadigan bo‘lsa unda kinestetik analizator yetakchi hisoblanadi, agar so‘z chapdan o‘ngga yozilgan bo‘lsa – vizual analizator yetakchilik qiladi. [Sirotyuk A.L., 2003]

Olingan natijalar tahlili. Bolalarga zamonaviy ta’lim berish, ularni psixik, aqliy va ijtimoiy faol rivojlantirish uchun, eng avvalo, ta’lim oluvchi shaxsini har tomonlama va chuqur bilishga, uning psixofiziologik xususiyatlari bilan bir qatorda neyrologik imkoniyatlari hamda o‘ziga hosliklarini aniqlab, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda mana shu o‘ziga hosliklarni hisobga olinishi muhim ahamiyatga ega. Chunki o‘quvchilarning barchasi diqqati va xotirasining xajmi, uni ko‘chuvchanligi, ma’lumotlarni qabul qilish va o‘zlashtirish tezligi, borliqni tasavvur qilishi va anglashi, “dunyoni ko‘rishi” bilan bir-biridan farq qiladi. Shu bois ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilar psixikasidagi mana shunday o‘ziga hos jixatlarini xisobga olib bolalarga ta’lim berish uchun maktablarning pedagog-o‘qituvchilari neyropedagogik diagnostika metodlarini amaliyotda qo‘llashga oid bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari muhimdir.

Xulosa. Inson bosh miya yarimsharlari faoliyatida sodir bo‘ladigan neyrologik o‘zgarishlarni ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda xisobga olinishi o‘quvchilarning bilish faolligini namoyon qilishlari hamda bilishga bo‘lgan extiyojlarini qondirishlari, intellektual to‘siqlarni ortiqcha qiyinchiliklarsiz yengib o‘tishlari hamda tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyatlarini o‘zaro mutanosib shakllantirilishi, ijodiy faolliklarini intensiv rivojlantirish kabi bir qator pedagogik muammolarni yanada samarali hal etishda katta imkoniyatlar tug‘diradi, deb xisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2016. – B.14.
3. Gulyamov J.R., Nurboyev Q.M., Khuzhakulov N.T. Teaching Children Of Preschool Age In Neurodidactic Conditions / Palarch's Journal Of Archaeology Of Egypt / Egyptology 17(6). ISSN 1567-214x / PJAEE, 17 (6) (2020) / P.14485- 14494
4. Гулямов Д.Р., Каланходжаева К.Б. К вопросу учета особенностей межполушарной функциональной асимметрии мозга обучаемых в учебном процессе / Евразийский Союз Ученых. #11 (56), 2018 / https://euroasia-science.ru/wp-content/uploads/ -С. 38-43
5. Gulyamov Dj.R., Nurboyev K.M. Neyropedagogikaning nazariy-metodologik va amaliy jihatlari: monografiya. –Navoiy: A.Navoiy nom.nashriyot, 2024.
6. Методика быстрого тестирования модальностей (Л.Канц, С.Коков.) / https://pandia.org/text/80/501/33331.php
7. Определение репрезентативной системы (ведущий канал восприятия, переработки и хранения информации): тест Б.А.Левиса и Ф.Пукелика / https://gigabaza.ru/doc/15988.html
8. Определение доминирующего полушария: тест И.П.Павлова / https://infopedia.su/30x177d2.html
9. Сиротюк А.Л. Нейропсихологическое и психофизиологическое сопровождение обучения. –Москва: «ТЦ СФЕРА», 2003.
10. Тункун Я.А. Основы нейропедагогики: история, теория и практика / Ж.: Киберленинка, 73-2. ftp://194.226.213.129/text/tunkun_33_73_2_203_208.pdf.

KO‘RISHDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARDA PREDMET TASAVVURI VA KO‘RUV IDROKINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

XUSNUDDINOVA ZULAYXO XAMIDULLAYEVNA
CHDPU Maxsus pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda predmet tasavvuri, tasavvur jarayonlari va ko‘ruv idrokining o‘ziga xos xususiyatlari haqida yoritilgan.

Kalit so‘z: tasavvur, me’yor, ong, predmet tasavvuri, funksiya, fragmentlilik, sxemalilik, verbalizm.

Ko‘rishda nuqsoni bor bolalar dunyoni eshitish va teri-taktil sezgisi orqali anglashadi. Natijada, ular me’yorda ko‘ruvchi bolalarga qaraganda dunyo haqida boshqacha tasavvurga ega bo‘ladilar va tasavvur xususiyatlari boshqa sifat va tuzilishga ega. Masalan, ko‘rishda nusoni bo‘lgan bolalar predmetlarni tashqi ko‘rinishlari bilan emas, balki ovozi bilan taniydilar. Shuning uchun bolalarning diqqatini turli xil tovushlarga qaratish juda muhimdir. Ko‘rish o‘tkirligining pasayishi nafaqat atrofdagi dunyoni bilish jarayonini cheklaydi, nutq, xotira, tasavvurning rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladi. Ba’zida ko‘rishda nusoni bo‘lgan bolalar so‘zlarni noto‘g‘ri tushunishadi, sababi ular so‘zlarni haqiqiy predmetlar bilan bog‘liqligini to‘liq anglamaydilar.

Ko‘rish va umumlashtirishni birlashtirgan holda, xotira tasvirlari hissiy aks ettirishning eng yuqori darajasi bo‘lib, mavhum fikrlashga o‘tish bosqichi bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu (asosiy) va boshqa tasavvur xususiyatlari uning tuzilishini tashkil qiladi.

Insonlar ongida predmetlar haqidagi tasavvur, avvalam bor predmetlarning ma’lum bir sezgi a’zoga ta’siri natijasida uni idrok etish va shu predmetni visual tasvirini tasavvurda gavdalanishi. Shu bilan birga tasavvurda hosil bo‘lgan tasvir umumlashtiriladi.

Tasavvur - bu ilgari insonning his-tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatgan atrof-olam predmetlari va hodisalarining o‘ziga xos tasvirlarini ongda qayta yaratish (takroriy hosil qilish) jarayoni.

Tasavvur - bu predmetlar yoki hodisalarni oldindan idrok etish natijasida xotirada va tasavvurda ushlangan va ularning sezgi organlariga bevosita ta’siri bo‘lmaganda miyada paydo bo‘ladigan tasvirlar deb ta’rif beriladi. Ushbu ta’rif g‘oyalarni shakllantirishda hislar va idroklarning rolini ta’kidlaydi.

Tasavvurlar idrok tasvirlariga qaraganda aks ettirishning yuqori bosqichidir, chunki ularda, I.M.Sechenovning so‘zlariga ko‘ra, “inson tasavvurida biladigan hamma narsani birlashtiradi”. Bilish jarayonida tasavvur sezgi va idrokdan fikrlashga o‘tish bosqichidir.

Ko‘ruv, hissiy jihatdan, tasavvur bir vaqtning o‘zida yuqori darajadagi umumlashtirish bilan tavsiflanadi.

A.V.Zaporojetsning fikricha, tasavvurlar tuzilishi analizatorlarning faoliyati tufayli mavjud tasavvurlar asosida shakllanadi. Predmetlar, obrazlar va voqealar tasvirlari sifatida tasvirlar xotira yoki tasavvur asosida paydo bo‘ladi.

Tasavvurlarning fiziologik asosi turli xil stimullarning analizatorlariga ta’sir qilgandan keyin qolgan bosh miya yarimsharlari po‘stlog‘idagi iz hodisalaridir.

B.G.Ananyevning fikricha, izlarning hosil bo‘lishi birinchi va ikkinchi signal tizimlarining o‘zaro ta’siri natijasidir. Iz hodisalarining mavjudligi faqat idrok jarayonida hamda

analizator tizimlarining o‘zaro ta’siri natijasida mumkin. Iz fiziologik faolligini shakllantirishda vosita va kinestetik analizatorlar va ularning po‘stloqdagi bo‘limlari muhim rol o‘ynaydi.

V.P.Zinchenko, N.Y.Vergiles, I.V.Dubrovinaning fikricha, tasavvur taxminiy, sxematik bo‘lishi mumkin. Ko‘p marta, biron bir narsa bilan uchrashganda, tasvir aniqlanadi, umumiyroq bo‘ladi, lekin har safar odam u bilan uchrashgan bo‘lsa, darhol predmetni taniydi, chunki u bu g‘oyani, predmetning “umumlashtirilgan tasvirini” eslaydi.

V.I.Lupandin, O.V.Surchinaning ta’kidlashicha, tasavvur: signal, tartibga solish va tartibga solish funktsiyalarga ega.

Tasvirlarning signal funksiyasining mohiyati har bir alohida holatda nafaqat ilgari insonning sezgi organlariga ta’sir ko‘rsatgan predmet tasvirini, balki u haqidagi turli xil ma’lumotlarni aks ettirishdan iborat bo‘lib, keyinchalik aniq ta’sirlar ostida inson xatti-harakatlarini boshqaradigan signallar tizimiga aylandi.

Tasavvurning tartibga solish funksiyasi faoliyatning haqiqiy shartlarini hisobga olgan holda, ilgari bizning his-tuyg‘ularimizga ta’sir qilgan predmet yoki hodisa to‘g‘risida kerakli ma’lumotlarni tanlashdan iborat. Tartibga solish funksiyasi tufayli g‘oyalarning aniq tomonlari yangilanadi, ularning asosida vazifa eng katta muvaffaqiyat bilan hal qilinadi.

Tasavvurning tartiblash funksiyasi inson tanasining faoliyatini atrofdagi dunyo ta’sirini aks ettirishning ma’lum parametrlariga yo‘naltirishda namoyon bo‘ladi.

Predmetlitasavvuridrokningasosiyvazifasi bo‘lib, u idrokning barcha turlaridan olingan ma’lumotlarni kompleks birlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bunday murakkab integral faoliyat predmetning barcha xususiyatlarining yig‘indisida uning tasvirini yaratishga imkon beradi. Predmetlarning xususiyatlari tasvirlarda aks ettirish tasavvurning mazmuni deb ataladi.

Ko‘rishda nusoni bo‘lgan bolalarning tasavvur jarayonining o‘ziga xos xususiyati ko‘rish idrokining to‘liq yoki qisman yo‘qolishi yoki kamayishi tufayli ularning doirasining keskin torayishi hisoblanadi. Tasavvurning kamayishi qisman saqlanib qolgan analizatorlarning ishi tufayli qoplanadi, ya’ni eshituv idroki va teri-taktil sezgisi orqali kompensatsiyalanadi. Biroq, uni korreksiyalash mumkin emas, chunki atrof-olamdagi hodisalar va predmetlarni masofadan ko‘rib idrok etish qobiliyatining buzilishi yoki umuman yo‘qolishi ko‘r va zaif ko‘ruvchilar bir qator predmetlarni idrok eta olmaydi. Shu bilan birga, o‘quv jarayonida modellar, maketlar, chizmalar va boshqalardan foydalanish orqali qisman qoplanishi mumkin. Ko‘r va zaif ko‘ruvchi insonlarning tasavvuri obrazli xotira va sifat jihatidan farq qiladi. Ko‘rishda nusoni bo‘lgan bolalarning tasavvur jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari - bu fragmentlilik, sxemalilik, umumlashtirishning past darajasi (umumiylik) va nutqiylik (verbalizm).



Ko‘rishda nusoni bo‘lgan bolalarda ushbu xususiyatlar ko‘ruv analizatorning holatiga, asosan ko‘rish o‘tkirligi va ko‘rish maydoniga, shuningdek bilim, tajriba, faoliyatning tabiati, ta’lim va tarbiya sharoitlari va boshqalar kabi bir qator omillarga qarab turli darajadagi ko‘rish nuqsonlari bo‘lgan odamlarda namoyon bo‘ladi. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda sog‘lom tengdoshlariga nisbatan predmet haqidagi tasavvuri fragmentliligi bilan ajralib turadi, bu predmet tasvirida ko‘pincha muhim tafsilotlar yetishmayotganligida namoyon bo‘ladi. Natijada, predmet haqidagi tasavvur (tasvir) to‘liq emas va ba’zida ko‘rsatilgan pedmetga mos kelmaydi. Ko‘rish nuqsonlari bo‘lgan shaxslarda tasavvurning fragmentliligi, chizish, loy ishi yoki modellashtirishda, shuningdek predmetlarni tanib olishda aniq namoyon bo‘ladi. Ko‘rishda nusoni bo‘lgan shaxslar pedmet tasavvurida predmetlarning eng muhim qismlarini idroki buzilgan bo‘ladi. Tasavvurning fragmentliligi bu predmet haqidagi yetarli sezgining yo‘qligidandir. Ko‘rishda nusoni bo‘lgan bolalar tasavvurining fragmetlilgi teri-taktil yoki ko‘ruv idrokning ketma-ketligiga asoslanadi. Idrokning ketma-ketligi va fragmentliligi asosan fikrlash faoliyati tufayli bartaraf etiladi.

Fragmentlilik

- lotincha fragmentum “parcha, qism, bo‘lak”, frangere-dan “sindirish, buzish, maydalash” ma’nolarini anglatib, predmetning qismi, bo‘lagi degan ma’noni bildiradi.

Sxemalilik teri-taktil yoki ko‘ruv idroki natijasida yuzaga keladi. Sxemalilik ayniqsa, predmetlarning muhim bo‘lgan tomonlarini tasvirlashda aniq namoyon bo‘ladi. Ko‘rishda nusoni bo‘lgan bolalar nafaqat bor tasavvurda balki, idrok paytida ham bir xil turdagi qushlar, don o‘simliklari va boshqalar o‘rtasidagi farqni aniqlay olmaydilar. Birinchi holda, ular faqat bosh, tanasi, qanotlari va ikki oyog‘i borligini, ikkinchisida esa boshoq va poyaning mavjudligini qayd etadilar. Eng xarakterli xususiyatlar: shakli, hajmi va boshqalar – orqa fonda qoladi, natijada xotirada tasvir u yoki bu predmetning qoloq ko‘rinishida shakllanadi. Ular tasavvurining sxemaliligini yengib o‘tish mumkin. Buning uchun idrok etish jarayonini yo‘naltirish va tashkil etish, kuzatishni rivojlantirish, tekshirish ko‘nikmalarini shakllantirish kerak. Natijada, ko‘rishda nusoni bo‘lgan bolalar predmetli voqelikni to‘liq va aniqroq aks ettira boshlaydilar. Predmetlarni umumlashtirish, tasodifiy xususiyatlaridan muhim xarakterli xususiyatlarni ajratib ko‘rsatish, mavhumlashtirish jarayoni aks ettirishning to‘liqligiga va hissiy, sensor tajribaga bog‘liq. Predmetlarning muhim xususiyatlarini tasavvur etish sezgi tajribasining yetishmasligi oqibatida predmetlarni umumlashtirish kabi tasavvurlarning shakllanishiga to‘sqinlik qiladi.

Sxemalilik

- tayyor sxemalar bilan o‘ylashga moyillik bo‘lib, ishning mohiyatiga xos bo‘magan holda bayon etishni soddalashtirish.

Tasavvurning verbalizmi deganda hayoldagi sensor va kontseptual munosabatlarning ikkinchisining ustunligi tomon buzilishi yoki predmetning og‘zaki tavsifida hissiy elementlarning to‘liq yo‘qligi tushuniladi. Tasavvurning og‘zaki nutqi teri-taktil uchun mavjud bo‘lmagan belgilar bor predmetlarning ko‘r-ko‘rona tavsiflaridan keng foydalaniladi. Ko‘rishda nusoni bo‘lgan bolalarda tasvvurning verbalizmini yengib o‘tishning yo‘li ko‘rgazmali qurollardan keng foydalanishdir.

Kompensatsiya jarayonida ko‘rishda nusoni bo‘lgan bolalar xotirasi tasavvur doirasining fragmentliligi, sxemaliligi, yetarli darajada umumlashtirilmaganligi, verballiligi va torligi sezilarli darajada bartaraf etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Zulayho, X. (2022). Ko’rishida nuqsoni bo’lgan bolalar bilan korreksion ishlarni tashkillashtirishda ilk qadamni tashlash. Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali, 80-82.
2. Zulayho, X. (2022). Ko’rishida nuqsoni bor bolalarning korreksion mashg’ulotlar ish tizimini tashkil etish. Таълим ва ривожланиш таҳлили онлайн илмий журнали, 218-220.
3. Xusnuddinova, Z. X. (2023). Alohida ehtiyojli boshlang'ich sinf o'quvchilarining og zaki nutqini rivojlantirishda yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari. Ta’lim tizimida yangi metodikalar va ulardan foydalanishning amaliy asoslari, 1(1), 365-368.
4.Осипова, Л.Б. Развитие предметных представлений у детей дошкольного возраста с нарушениями зрения в процессе творческого конструирования в условиях инклюзивного образования: учебно-методическое пособие / Л.Б. Осипова, Л.А. Дружинина, О.И. Власова,
Ю.Ю. Стахеева.– Челябинск: Изд-во Челяб. гос. пед. ун-та, 2016. – 158 с.

XALQ DOSTONLARIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MUNOSABATLARNI VA MA'MURIY-HUDUDIY BO‘LINISHNI IFODALOVCHI LEKSEMALAR

TULAGANOVNA MANZURA NARMATOVA
Jizzax davlat Pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotasiya: maqolada “Malika ayyor”, “Bahrom va Gulandom” dostonlarida ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni va ma'muriy-hududiy bo‘linishni ifodalovchi leksemalar tahlil qilingan.
Kalit so’zlar: doston, leksema, baxshi, lug’at, farmon, yurt, mamalakat.

Xalq dostonlari matnida, xususan, biz o‘rgangan “Malika ayyor”, “Bahrom va Gulandom” dostonlari tilida ijtimoiy-siyosiy turmushning keng qamrovli sohalariga oid leksemalar faol qo‘llangan. Shulardan biri ijtimoiy- siyosiy munosabatlarni bildiruvchi leksik birliklar (masalan, hukm, farmon, rusm, ehson, tuhfa, xiroj, peshkash, qonun, qoida, tabarruk, hidoya) sanaladi. Biz quyida ularning ayrimlarini ko‘zdan kechiramiz: etimologik xususiyatlari va qo‘llanish holatlari haqida qisqacha to‘xtalamiz,

Hukm: asli etimologik jihatdan arabcha so‘z bo‘lib, hukmronlik; hokimiyat, boshqarish; tuzum, qaror, to‘xtam, buyruq; fikr, tushuncha kabi ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Biz o‘rgangan “Malika ayyor” dostoni matnida bu leksema faqat to‘rt o‘rinda, uning hukmiman shakldoshi esa bir marta qo‘llangan: Bunda kelib g‘arib bo‘lib zor-zor, Ne qilsa hukmi bor qudratli jabbor (M.A.48-bet); Bu so‘zni aytib yig‘lab haqqa zoru-zor, Ne qilsa hukmi bor qudratli jabbor (M.A.82-bet); Uch oshiq hukmiman yutib Zargarbek, Oq yuzidan oldi olti muchchini (M.A.116-bet). Lisoniy dalil sifatida berilgan ushbu matnlarning birinchisi va ikkinchisida (hukmi bor juftligida) “biron ish qilish izm-ixtiyori o‘zidaligi”, “imkoniyat borligi” ma'nolari ustuvorlik qilgan. Uchinchi misolda (matnda) ko‘chma “buyruq, amr” ma'nosi o‘z ifodasini topgan. Mazkur leksema biz o‘rgangan “Bahrom va Gulandom” dostoni matnida uchramadi.

Farmon: forscha so‘z bo‘lib, “amr, hukm: ko‘rsatma, qat'iy-qaror” ma'nolarini ifodalaydi. Adabiy-badiiy asarlarda, xalq og‘zaki ijodi namunalarida bu leksema biror ishning bajarilishi haqida beriladigan buyruq, hukm, topshiriq: amr ma'nolarini ifodalashga xizmat qiladi. Biz o‘rgangan “Malika ayyor” dostonida mazkur leksemaning farmoni, farmonim, farmonlar kabi shakldoshlari ikki-uch martadan qo‘llangan. Shunday bo‘ldi menga haqning farmoni, Sizni tuqqanlarning bormi armoni. (M.A.52-bet); Yor axtarib judo bo‘ldim yurtimdan, Hasratman ayrilib mamlakatimdan, necha shahar erdi hukmi farmonim, Shu g‘urbatga soldi bir go‘zal zolim (M.A.156-bet). Keltirilgan matnlarning dastlabkisida Gulqiz oyimning Avazxonga qilgan murojaatida: - Qaysi mamlakatdan kelding? degan so‘roviga xudoning sifatlaridan biri (haq) leksemasi qo‘llangan va “to‘g‘ri, rost, chin, haqqoniy” ma'nolari ifodalangan. Ikkinchi matnda esa “hukmronlik qilmoq” ma'nosi ustuvorlik qilgan. Biz o‘rgangan “Bahrom va Gulandom” dostonida farmon leksemasi qo‘llanmagan.

Rusum, rasm-rusum. Bu leksema etimologik jihatdan arabiy bo‘lib “rasm” so‘zining ko‘pligi hisoblanadi; rasm va odatlar, rasm-rusumlar; qoida-nizomlar ma'nosida qo‘llanadi. Xalq dostonlari tilida va og‘zaki so‘zlashuv nutqida

“rasm-rusum”; ayrim hollarda “rasm” shaklida faol ishlatilgan. Biz o‘rgangan “Bahrom va Gulandom” dostonida bu so‘z birligi uchraydi. Buni Bulg‘or shahridan xat (noma)ni olib kelgan elchilarning Fag‘fur shoh darvozabonlariga aytgan quyidagi gapidan bilsa bo‘ladi, unda qo‘lidagi xatni birovga bermasligi, elchilikdagi qat'iy rasm-rusum sir saqlanishi va faqat podshohning o‘ziga xatni berishining epik bayoni berilgan: Elchi aytar: “Bunday ishlar bo‘lmaydi, Elchining odati shunday bo‘ladi! Har kimga xatni berib yurmaydi, Shunday bo‘lsa agar maqsadin Podshoning o‘ziga tegadi xating, Biz elchining shudir rasmi, odati (B.G.60-bet); Elning rasimi shunday bo‘larmi, Hech zamonda kuchukka xun olarmi? Bu kuningdan o‘lsang bo‘lar, Qosimshox (B.G.88-bet).

Merganlar aytdi: - Avazjon! Boshqaga bandargoh bo‘lsa, kirib chiqmoqqa rasm bo‘lsa, senga kasm bo‘ldi (M.A.46-bet). Keyingi berilgan har ikkala matnlarda rasm leksemasi “muayyan urf-odat, rasm-rusum, qoida-nizom” ma'nosida qo‘llanganligi sezilib turibdi. Umuman, “Bahrom va Gulandom” dostonida mazkur leksemaning rasmi 2 marta, rasmin, rasmini kabi variantlari bir martadan qo‘llangan va ularning hammasi yuqorida qayd etilganlarni o‘zida ifoda etgan.

Ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirishda ma'muriy-hududiy bo‘linishni ifodalovchi leksemalarning o‘z o‘rni, vazifalari mavjud. Aslida bu tipdagi so‘z birliklarining paydo bo‘lish tarixi muayyan jamiyatning paydo bo‘lishi davriga borib taqaladi. Jamiyat bor joyda muayyan ma'muriy-hududiy bo‘linishlar va ularning o‘ziga xos tartib- qoidalari ustuvorlik qiladi. Agarda jamiyat tarixiga nazar solinsa, ilk mulkchilik shakllana boshlagan davrdayoq mavjud hududlar ham mulkiy ko‘rinish tarzida asta-sekin taqsimlanib borgan. Bularning hammasi ijtimoiy-siyosiy hayotda va uning tilida o‘z izini qoldirgan. Ma'muriy hududiy birliklarni nomlashda eng avvalo, muayyan joyning xususiyatlari, jamiyatdagi o‘rni va istiqomat qiluvchilarning o‘ziga xos va mos jihatlari nazardan qochirilmagan. Ayni lingvistik va ekstrolingvistik holatlar aholi orasida ma'muriy-hududiy bo‘linishni ifodalovchi leksemalarning kundalik-maishiy hayotda, turmush tarzida faol qo‘llanishiga asosiy sabablardan biri bo‘lgan. Biz quyida shu tipdagi leksemalarning xalq dostonlarida qo‘llanishini qisqacha ko‘zdan kechiramiz.

Yurt: leksema sof turkiycha so‘z bo‘lib, uning qo‘llanilish miqyosi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Ona tilimizning izohli lug‘atida uning ikki xil ma'nosi mavjudligi qayd etilgan: 1. Ma'lum xalq, aholi yashab turgan joy, o‘lka, mamlakat, vatan; 2. Biror mamlakat yoki o‘lkada yashovchi xalq; el; aholi (O‘TIL, V, 93-bet). Mazkur ma'nolardagi leksemalar tahlilga jalb etilgan ikkala doston matnida ham ko‘plab uchraydi. Bu o‘rinda ayrim misollar keltirish bilan chegaralanamiz: Chambilning yurtiga, Go‘ro‘g‘lining ustiga qo‘shin tortib borayotgan edi (M.A. 28-bet); Xurum yurtidan kelgan qancha amaldor, otlanib shu zamon safda amaldor... (B.G 115-bet); Chin shahri degani ajoyib erdir, Bir g‘ulg‘ula bul ham katta shahardir, Bu yurtlarning bunda egasi bordir, Etdik deb, Bahromning ko‘ngliga keldi (B.G 55-bet); Sabl qilding, Torkistonday yurtingni, Tashlab ketding bunday mamlakatingni… (M.A. 121-bet). Bu o‘rinda ta'kidlash lozimki, yurt leksemasining “Malika ayyor” dostonida yurtga, yurtda, yurtimizda, yurtini, yurtingni, yurtimizga kabi 70 ga yaqin, shuningdek, “Bahrom va Gulandom” da 45 ga yaqin shakldoshlari qo‘llanilganligi aniqlandi. Ularning hammasida ham yuqoridagi ta'kidlangan ma'nolar o‘z ifodasini topgan. Yana bir lisoniy holat kuzatildi: Juda ko‘pchilik matnlarda yurt leksemasi o‘lka, mamlakat, vatan, el, xalq kabi so‘zlari bilan ma'nodoshlik qilgan sinonimlik vazifasini bajargan. Misollar keltiramiz:

1. Yurt (mamlakat,el so‘zlari orqali sinonimlik): Muning podsholigini bildi. Muning birovi Rum mamlakati podshosi ekan, birovi Chin-Mochin podshosi ekan, - dedi (M.A. 65-bet); Ne sababdan chiqding Chambil elingdan, yo‘l bo‘lsin, Avazjon, qayga borasan? (M.A. 42-bet).

2. Yurt (el, xalq so‘zlari orqali sinonimlik): El-u xalqing senday bekka intizor (M.a, 159-bet); El-u xalqingni esingga oldingmi, Ul sababdan, bolam, ko‘ngling bo‘ldingmi (M.A. 159-bet).

3. Yurt (vatan, xalq leksemasi orqali sinonimlik): So‘zimni eshitgin shohim muqarrar, Otim yo‘lchi, o‘zim yurgan qalandar. Tarki dunyo qildim, Vatan ne darkor (M.A. 92-bet).

“Bahrom va Gulandom” dostoni matnida mazkur leksemaning qo‘llanish darajasi biroz pastroq. Aniq statistik ma'lumotlarning tasdiqlashicha, mamlakat leksemasi, mamlakatga, mamlakatda, mamlakatdan, mamlakatini kabi variantlari ikki martadan, shuningdek, mamlakati, mamlakatim, mamlakatingni, mamlakatlaridan singari shakllarining har biri bir martadan qo‘llanganligi aniqlandi. Ularning deyarli hammasida muayyan davlat (mamlakat), saltanat va shohlik kabi ma'nolarni ifodalash ustunlik qilgan. Misollar keltiramiz: Bu erdan bir qizni olib ketarman, mamlakat, yurtima men ham etarman (B.G.63-bet); Necha kun, necha tun, unda yurarman, Mamlakatim tog‘-u toshin ko‘rarman, Javob bersang, ota endi borarman (B.G.15-bet) kabi.

O‘lka: sof turkiy so‘z sifatida faol qo‘llanadi, mamlakat leksemasining sinonimi sifatida qo‘llanilishi mumkin. “Malika ayyor” dostonidan olingan mazkur matn bu boradagi kuzatishimizni dalillaydi: Chambil o‘lkalarim yodima endi, Salomat ko‘rarsan qizingdi, Chambilbelda sen ham yurgan to‘rasan (M.A.46-bet). Tarzing ko‘rdim bir mamlakat shunqori, Bul o‘lkaga nechuk tushdi guzori, Guzor solgan xonim qaydan bo‘lasan? (M.A.52-bet). “Bahrom va Gulandom” dostoni matnida o‘lka leksemasi uchramadi.

Xulosa shuki, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni va ma'muriy-hududiy bo‘linishni ifodalovchi leksemalar tilimizning oltin fondidan munosib o‘rin olgan. Ularning xalq dostonlari matnlarida qo‘llangan namunalarini to‘plash, etimologik va qo‘llanish xususiyatlarini o‘rganish alohida tadqiqot olib borishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik (1987 – 2003). Layli va Majnun. IX. 7-bet.
2. A.Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik (1987 – 2003). Sab’ayi sayyor. X. 57-bet.
3. A.Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik (1987 – 2003). Farhod va Shirin. VIII jild. 108-bet.
4. A.Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik (1987 – 2003). Hayrat ul-abror, VII jild.
5. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati (1983 – 1985).
6. Abdulxayr M.Navoiy asarlari izohli lug‘ati.T,O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi 2018,331-bet
7. B.G –Bahrom va Gulandom.Toshkent,G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1886.
8. Vohidov E. So‘z latofati. Toshkent, 2014. 63
9. Devoni lug‘atit turk. 1-jild, T., “Fan”, 1960.
10. Jumanazarova G.U. “Bahrom va Gulandom” dostonninig leksikografik ma’nolari. Jizzax, “Sangzar”, 2010.

“TEMURBEKLAR MAKTABI” O‘QUVCHILARINING MA’NAVIY KOMPETENTLIGINI JADIDCHILARNING PEDAGOGIK QARASHLARI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK ZARURIYAT

SIDDIQOV BAXTIYOR SAIDKULOVICH
Farg‘ona davlat universiteti v.b. professori, pedagogika fanlari nomzodi
QULDASHEV MURODJON G‘ANIYEVICH
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
Farg‘ona “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litseyi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Temurbeklar maktablari o‘quvchilarini ma’naviy kompetentligini rivojlantirish borasida jadidlarni g‘oyaviy qarashlari zarurat sifatida va ma’naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari, “Temurbeklar maktablari” tizimida tarbiyalanuvchilarni dunyo hamjamiyatining mehnat bozorida raqobatlasha oladigan, kasbiy kreativ qobiliyatga ega bo‘lgan, kasbiy harbiy shaxs, faol mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan xalqaro jamiyatda munosib o‘rin egallash, bo‘lajak mutaxassislarning ma’naviy-kasbiy tayyorgarligi muammosi, ayniqsa, ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar tizimini samarali tashkil etish to‘g‘risida yozilgan.

Kalit so‘zlar: o‘quvchi, bilim, ko‘nikma, malaka, shaxs kasb, ijtimoiy faoliyat, ma’naviyat, kompetensiya, ma’naviy, harbiy vatanparvarlik va kompetentlik g‘oyaviy qarashlar.

Abstract. In this article, the ideological views of the Jadids as a necessity for the development of the spiritual competence of the students of Temurbek schools, and the pedagogical foundations of the formation of spiritual and moral culture, which enable students to be educated in the system of Temurbek schools to compete in the labor market of the world community, have professional creative abilities. It was written about the problem of professional military personnel, taking a worthy place in the international society with the training of active specialist personnel, the problem of spiritual and professional training of future specialists, especially the effective organization of the educational work system in educational institutions

Key words: student, knowledge, skills, competence, personality, profession, social activity, spirituality, competence, spiritual, military patriotism and competence ideological views.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston ta’lim sohasidagi rivojlanish tendensiyalari harbiy ta’limga iqtisoslashgan “Temurbeklar maktabi” o‘quvchilarini kasbiy kompetentligi, mantiqiy mustaqillik, faol-ijodiy fikrlash qobiliyatini tarkib toptirish va individual kasbiy shakllantirish darajasini oshirishning dolzarbligini ko‘rsatmoqda. Jahon hamjamiyatining mehnat bozorida raqobatlasha oladigan, kasbiy kreativ qobiliyatga ega bo‘lgan, kasbiy harbiy shaxs, faol mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan xalqaro jamiyatda munosib o‘rin egallash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ilmiy tadqiqot muassasalari va harbiy ta’lim iqtisoslashgan dargohlarida bo‘lajak harbiy mutaxassislarni harbiy vatanparvar ruhida shakllantirish texnologiyalarini rivojlantirish, kasbiy yetuklikka erishish jarayonini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Kompetensiya - o‘quvchilarning ma'lum sohada samarali faoliyat ko‘rsatishlari uchun ta'lim tayyorgarligiga oldindan qo‘yilgan ijtimoiy talab. kompetentlilik ko‘p qirrali bo‘lib, uning bir necha talqinlari mavjud. Kompetentlilik o‘quvchi tomonidan tegishli kompetensiyalarga ega bo‘lishni anglatadi. Shunday ekan “Temurbeklar maktablari” H.A.L o‘quvchilarini ma’naviy kompetentligini jadidchilarning pedagogik qarashlari zarurat sifatida ko‘rishimiz mumkin.

Hozirgi zamon taraqqiyotning pirovard maqsadi va uning samarasi mezoni – jamiyat a’zolari imkoniyatlarini kengaytirish, moddiy

va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish, yuqori turmush darajasiga erishish kabi omillarga bog‘liq bo‘lsa, uning ibtidosi mamlakatda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari istiqbollari bilan uyg‘unlashib boradi.

O‘smirlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va Davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28- iyun 2019- yildagi PQ-4375- sonli qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasida “Temurbeklar maktabi” tashkil etildi. Bu qarorga asosan bugungi kunda yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimidagi ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qabul qilingan konsepsiyalarni amalga oshirish doirasida har tomonlama rivojlangan, bilimdon, xalqiga, shuningdek, Vatanga xizmat qilish ishiga sodiq yoshlarni tarbiyalash bo‘yicha keng miqyosda ishlar amalga oshirilmoqda[2].

Hozirgi kunda milliy qadriyatlarga, an’analar xalqlarning madaniyatiga va o‘zligiga bo‘lgan turli tahdidlar, yot g‘oyalarni singdirishga bo‘layotgan urinishlar kuchayib borayotgan globalizatsiya jarayonlari jadal rivojlanayotgan sharoitda yoshlar eng zaif qatlam bo‘lib qolayotganligi sabali bu yo‘nalishda qo‘shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishi dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

XXI asrda iqtisodiy o‘sishning o‘zi asosiy maqsad emasligi ayon bo‘lib qoldi. Buyuk yunon mutafakkiri Arastu ta’kidlaganidek, “Boylik biz intilayotgan asl maqsadimiz emasligi aniqdir, u shunchaki foydali va o‘zga narsaga erishish uchun xizmat qiladi”. Boshqacha aytganda, inson – har qanday millatning eng katta boyligidir, lekin bu boylik sifatli ta’limga asoslanmog‘i lozim[2].

Bugungi kunda respublikamizda “Temurbeklar maktablari” dagi ta’lim-tarbiya jarayonini sifat jihatdan takomillashtirish unga qo‘yilgan talablarni hisobga olgan holda tanqidiy tahlil qilish hamda yangilash bilan bir qatorda, mazkur ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish tizimini mazmun jihatdan boyitishni talab qilmoqda. Chunki, bugungi kunda harbiy ta’lim muassasalarida yaratilayotgan sharoitlar, zamonaviy o‘zgarishlar barcha imkoniyatlardan foydalana oladigan, o‘ziga va o‘z faoliyatiga nisbatan talabchan, o‘z kasbining ustasi bo‘lishga, o‘z sohasining sirlarini har tomonlama chuqur o‘zlashtirishga, o‘zini o‘zi rivojlantiruvchi hamda o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini to‘la ishga sola biladigan yuksak harbiy mahoratga ega bo‘lgan ofitserlarga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda.

Bunda ta’limning mazmunini yangilash, ilmiylik darajasini oshirish, o‘qitish metodlarini uzluksiz takomillashtirish, o‘quvchilar bilimining oshirib borilishi – o‘qituvchidan o‘z bilimini uzluksiz ravishda to‘ldirib va yangilab borishni, malaka va metodik mahoratini yuksaltirishni taqozo qiladi. Mamlakatimiz yuksalishiga bevosita ta’sir qiladigan muhim hayotiy omil-bu ta’lim tarbiya tizimidir. Shu sababli yoshlarga ta’lim – tarbiya berishga iqtidorlilarini rag‘batlantirish va qo‘llab – quvvatlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Istiqlolimizning istiqboli buyuk kelajak yaratish yo‘lidagi maqsadlarimiz, hatti-harakatlarimizning pirovard natijasi bevosita ta’lim tizimidagi islohotlarimizga bog‘liqdir.

Inson qadri va tarbiyasi shaxsiy masala emas, u davlat, jamiyat ahamiyatiga ega bo‘lgan ijtimoiy ishdir. Uning qadr-qimmati, Vatan istiqboli va millat taqdiri ham u va uning tarbiyasi bilan bog‘liq. Abdulla Avloniy so‘zlari bilan aytganda “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidur”.

Jadid ma`rifatparvarlarining pedagogik qarashlari. Turkistonda chor hukumati mustamlakachiligi siyosati tufayli ro‘y bergan fojiali voqea-hodisalarga qarama-qarshi ravishda ma’rifatparvarlik – jadidchilik harakati dunyoga keldi Ma’rifatparvarlarning

ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, ma’naviy-axloqiy g‘oyalar, fikr-mulohazalari o‘sha murakkab tarixiy sharoitlarda shakllandi va rivojlandi.

Ma’rifatparvarlar xalqimizning donishmand farzandlari sifatida mustamlakachilik davrida Turkistonda hukmron bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy vaziyatni, xalqning ma’naviy holati darajasini yaxshi bilganlar. Mustaqillikka erishish uchun xalqning umumiy madaniy saviyasini davr talablari va imkoniyatlari darajasida rivojlantirish, xalqni yangi madaniyat, ma’rifatga chorlash zarurligini chuqur anglab etganlar. Xalqni Yevropa mamlakatlari madaniyati, fan-texnika yutuqlari, ilg‘or tajribalari bilan tanishishga tinimsiz ravishda da’vat etganlar. Bilimli, madaniyatli, ma’naviyatli millat va xalq juda katta ijtimoiy kuchga aylanishini ma’rifatparvarlar birinchilardan bo‘lib tushunib etganlar. «Asta-sekin ma’rifatchilikdan jadidchilik o‘sib chiqdi va u ma’lum darajada siyosiy masalalarni olg‘a sura boshladi. Yangi ta’lim-tarbiya, yangi maktab, yangi maorif, uni boshqarish, madaniy targ‘ibot, tashkilotchilik, masalalari asosiy o‘ringa ko‘tarildi. Yangiliklarga asoslangan holda rus va eski maorifdan farq qiluvchi fikr-g‘oyalar oldinga surildi, ular mahalliy matbuot, turli kitoblar orqali keng targ‘ib qilindi. Bu madaniyatdagi mustamlakachilikka qarshi mustaqillikka xalq ongini oshirish, o‘z ahvolini yaxshilashga intilishning ko‘rinishlaridan edi».Jadidchilikning asosiy mohiyati millatni qoloqlik, xurofot botqog‘idan chiqarishga qaratilgan[3].

O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev Toshkentda bo‘lib o‘tgan “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya so‘zlagan nutqida o‘tgan asr boshlarida shakllangan bu harakat nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasi, balki butun musulmon olami va turkiy dunyo tarixida chuqur iz qoldirganini o‘z faoliyatini nafaqat siyosiy, balki ta’lim va tarbiyani yuksaltirish, Turkiston o‘lkasini ma’naviy hamda ma’rifiy isloh qilish, barkamol avlodni tarbiyalash masalasini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan jadidlar harakati o‘lka xalqlari tarixida muhim ro‘l o‘ynaydi. Aslida jadid so‘zi (arabcha “jadid”-yangi) yangilanish ma‘nosini anglatib, yangi zamonaviy maktab, matbaa, milliy taraqqiy’ot usullarini jamiyatga tatbiq etishdan iborat ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy harakat, shu oqim tarafdorlarining umumiy nomi. Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr birinchi choragida Turkistondagi milliy ozodlik harakatining milliy mafkurasi, o‘lka xalqlarining milliy mustaqillik va ma’rifatparvarlik g‘oyasi sifatida shakllandi.

XIX asrda ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan nom olgan va XX asr boshida rivojlangan jadidchilik harakatining taraqqiyparvar nomoyondalari – Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon, Munavvar Qori, Abdulla Avloniylar ijodi va faoliyatida yana ham kuchaydi. Jadidlar Turkistondagi xalqlarni birlashtirish va butun o‘lkaning milliy mustaqilligi uchun kurash g‘oyasini ilgari surdilar. Turkiston jadidlari chor hukumati istibdodidan qoloq ahvolga tushib qolgan Turkiston mahalliy aholini, jumladan o‘sib kelayotgan yoshlarni ijtimoiy-siyosiy, madaniy-marifiy turmishini, ong-saviyasini ko‘tarish, taraqqiy ettirish maqsadida juda katta madaniy ishlarni olib bordilar. Mahmudxoja Behbudiy ta’kidlaganidek, “Har bir mamlakatda islohot va madaniyat asbobig‘a tasavvul (vosita) va tashabbus etmoqlik harakati u mamlakatning yoshlari tarafidan zuhur eta boshlagani kabi, bizning Turkistonda ham madaniyat eshigi manzalasida bo‘lgan maktabi ibtidoiy ila intiboh va islohot jarchisi bo‘lgan milliy matbuot gayratli yoshlarning harakati maorif parvaronlarini soyasida vujudga keldi”. Jadidlar ta’limoti – o‘z zamonasining haqiqiy ta’limoti edi. Chunki u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni o‘z ketidan ergashtira oladi. Jadidlar voyaga yetgan yoshlar Turkiston kelajagi, ravnaqi uchun kurashchi bo‘lib yetishishi kerakligini uqtirdilar va bunda ular har xil illatlardan xalos bo‘lishlarini ta’kidlaydilar[6].

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda “Temurbeklar maktabi” o‘quvchilarini

ma’naviy kompetentligini jadidchilarning pedagogik qarashlari asosida shakllantirish ta’limni tarbiyadan, tarbiyani ta’limdan ajratib bo‘lamydi - bu sharqona qarash sharqona hayot falsafasidir. Shu jumladan, avval madrasada jadid va domlalar ta’lim va tarbiyani uzviy bergan bo‘lsa endi bu maktabda ham o‘z o‘rnini topgan. Chunki maktab milliy madaniyat, milliy urf-odatlar va qadriyatlarimiz asosini o‘rgatadigan asosiy maskandir. Madrasalarda jadidlar o‘z faoliyati darajasidan kelib chiqqan holda o‘quvchilarga ilm o‘rgatganlar. Jadidlar o‘z asarlarida ilm agar jamiyat manfaatiga xizmat qilmasa, xalq farovonligi yo‘lida qo‘llanmasa, u o‘likdir degan fikrni aytgan. Shuning uchun ular yoshlarni ilm olishga,uning sirlarini bilishga, hodislar mohiyatini yechishga, kitob mutolaa qilishga chaqiradi. Har tomonlama yetuk insonni tarbiyalash, yomonlikdan qaytarib,yaxshilikka chorlash bevosita va bilvosita ta’lim-tarbiyaga bog‘liq. Uning yuqorida ta’kidlab o‘tgan asaridatarbiyani ilmni targ‘ib qiladi. Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidur. Ilm inson uchun g‘oyat oliy, muqaddas bir fazilatdir. Zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko‘rsatur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidir”.

Xulosa o‘rnida shuni aytishim mumkinki, jadid ma’rifatparvarlari inson qadrini ijtimoiy muhit, oilaning o‘rni, ”Badan tarbiyasi” sog‘lom insonni tarbiyalash, “Fikr tarbiyasi” tafakkurni rivojlantirish, fikrlashga o‘rgatish, “Axloq tarbiyasi” – yaxshi xulq va odatlarni tarkib toptirish kabi masalalarga e’tibor qaratadi.

Eng asosiysi, insonning qadri, ezgu intilishlarini ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish bundan buyon ham O‘zbekistonda davlat va jamiyatning bosh maqsadi bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev: Jadidlar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigidan. 2023 yil 6-mart.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3394-sonli qarori.
3. https://ebook.tsue.uz/public/ebooks/inson-taraqqiyoti/download/4e444d7a4e773d3d
4. https://abiturtest.uz/mavzular/jadid-marifatparvarlarining-pedagogik-qarashlari/?ysclid=lx8yextl6d439590517
5. https://cyberleninka.ru/article/n/jadidlarning-pedagogik-qarashlari?ysclid=lx8z22e0ew352337220
6. https://arxiv.uz/ru/documents/referatlar/pedagogik-psixologiya/jadid-ma-rifatparvarlarining-pedagogik-g-oyalari
7. https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/download/6104/6441/5726
8. Oblomurodov N, Hazratqulov A va boshqalar. O‘zbekiston tarixi.(o‘quv qo‘llanma)T.2011.
9. Behbudiy M. Muhtaram yoshlarga murojaat. Oyna-1914. –B. 41.
10. M.Abdurashidxonov. Xotiralarimdan (Jadidchilik tarixidan lavhalar). Sharq 2001. B108-109.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIGA MATEMATIK HISOBLASHLARNING QULAY USULLARI HAQIDA

TURSUNOV QO‘CHQOR
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali o‘qituvchisi, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent.
UMIRZOQOVA MASHHURA BAXODIR QIZI
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalish 2-bosqich talabasi
BAKIYEVA QIRMIZXON OTABEK QIZI
Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalish 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Boshlang‘ich ta’limda matematika o‘qitishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlardan biri kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga mustahkam matematik hisoblash ko‘nikma, malaka va bilimlarni o‘rgatishdan iboratdir.Matematik muammolarni tez va oson hisoblashni yaxshi bilgan o‘quvchi ta’limning keyingi yuqori bosqichlarida matematik materiallarni o‘zlashtirishda qiynalishmaydi.Ushbu ilmiy-uslubiy maqolada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning matematik bilish darajalaridan va matematik muammmoning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib matematik misollarda hisoblashning qanday usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqligi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Son, sonli ifoda, sonli ifodaning son qiymati, og‘zaki hisoblash, yozma hisoblash, arifmetik amallar, qulay usul.

Аннотация: Одной из основных целей преподавания математики в начальных классах является оснащение учащихся начального школьного возраста сильными математическими навыками, компетенциями и знаниями. Учащиеся, умеющие быстро и легко решать математические задачи, не будут испытывать затруднений в освоении математического материала.В данной научно-методической статье говорится о целесообразности использования расчетных методов в математических расчетах исходя из уровня математических знаний учащихся младших классов и особенностей математической задачи.

Ключевые слова: Число, числовое выражение, числовое значение числового выражения, устный расчет, письменный расчет, арифметических действий, удобный метод.

Kirish

Son tushunchasi matematika fanining asosiy tushunchalaridan biri bo‘lib,bu tushunchadan boshqa matematik tushunchalar kabi kishilarning amaliy zaruriyatidan hayotidagi matematik muammolarni hal qilish uchun qilgan harakatlari natijasida hosil bo‘lgan zarurat asosida paydo bo‘lgan.

Natural sonlar narsalarning sanog‘i va tartibini bildirganligi uchun ham bu songa odamlar butun hayoti davomida ehtiyoj sezishganlar.

Vaqt o‘tishi bilan odamlar atrofidagi mavjud narsalarni sanashdan tashqari ular ustidagi munosabatlarni (arifmetik amallarni bajarishni) o‘rganib borganlar. Arifmetik amallar kishilar hayotida qanday ketma-ketlikda paydo bo‘lgan bo‘lsa,hozir ham kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga shu ketma-ketlik asosida o‘rganiladi.

Avvalo,qo‘shish amali paydo bo‘lgan bo‘lsa, uning to‘g‘ri bajarilganligini tekshirish uchun unga teskari bo‘lgan amal ayirish amali,keyinchalik esa ko‘paytirish amalini qo‘shishning xususiy

holi (bir xil qo‘shiluvchilarni bir nechtasini qo‘shish), sifatida ko‘paytirish va nihoyat ko‘paytirishga teskari amal sifatida bo‘lish amali paydo bo‘lgan.

Ayirish amalini o‘rganish davomida manfiy sonlarga (kamayuvchi ayriluvchidan kichik bo‘lganida) bo‘lish amalini o‘rganish davomida esa (sonni songa bo‘lganda qoldiqli bo‘lish bo‘lganda) kasr sonlarga zarurat tug‘iladi

Haqiqiy sonlar va ularning paydo bo‘lishi tarixi va xossalarini o‘rganadigan fan - bu Arifmetika fanidir. Matematikani o‘rganish uchun avvalo arifmetika fani va uning barcha tushunchalarini va bu tushunchalarning asosiy xossalarini yaxshi bilish talab etiladi .Shuning uchun ham Pifagor “Matematika barcha fanlarning shohi bo‘lsa , Arifmetika fani uning tojidir deb bekorga ta’riflamagan.

Arifmetika fani tushunchalaridan biri bo‘lgan “Haqiqiy sonlar”ni o‘rganishga 3 ta nazariya asosida yondashish mumkin.

1. To‘plamlar nazariyasi asosida
2. Piano aksiomalari asosida
3. Miqdorlarni o‘lchash nazariyasi asosida

Bu nazariyalarning uchalasi ham teng kuchli bo‘lib.ularning hammasi ham haqiqiy sonlar to‘plamidagi barcha tushunchar, ularning mazmun va mohiyatlari ilmiy - amaliy jihatdan isbotlangan.

Boshlang‘ich sinf matematika darslarida butun sonlar to‘plamini o‘rganishga to‘plamlar nazariyasi nuqtai nazardan yondashilgan ,ya’ni sonlar sifatida to‘plamni tashkil etuvchi elementlar miqdori qabul qilinadi.Natural sonlar ustida arifmetik amallar to‘plamlarning birlashmasi, ayirmasi va kesishmasi tushunchalariga keltirib o‘rgatiladi (to‘plamlar ustida to‘plamlarni to‘plamlarga bo‘lish qoidasi bo‘lmaganligi sababli) bo‘lish amali esa ko‘paytirish amaliga teskari amal sifatida qabul qilinib o‘rganiladi.

Adabiyotlar tahlili

Barcha fanlarni ongli va ilmiy o‘rganishda “ hamma fanlarni o‘zlashtirishning kaliti” bo‘lgan matematik hisob-kitoblarga, nafaqat matematiklarning, balki har bir kishining har kuni bir necha marta ishi tushadi. Bundan kelib chiqib matematika fanini nafaqat matematik bo‘lish uchun, balki har bir inson hayotda matematik muammolarni o‘z vaqtida muvaffaqiyatli hal qilish uchun ham bu fanning asosiy qoida va qonuniyatlarining tub mohiyatini yaxshi anglab olishi kerak bo‘ladi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning matematik hisoblashga oid ko‘nikmalarini shakllantirish 1 - sinfda arifmetik amallarni o‘rganish ketma-ketligida ya’ni birinchi qo‘shish amali bilan bog‘liq ,so‘ngra ayirish va bu ikki amal yordamida berilgan misollarni ishlash jarayonida tarkib toptiriladi. 2-sinfda esa qo‘shish va ayirish amallariga qo‘shimcha ko‘paytirish va bo‘lish amallari va ularning ba’zi xossalari o‘rganilganidan so‘ng berilgan hisob-kitoblarni bajarishga oid misol va masalalar ishlash davomida o‘rganiladi.

Yozma hisoblash usullari hisob-kitoblar biroz qiyinroq bo‘lganda og‘zaki usullarning qo‘shayotganda oraliqdagi mayda hisoblashlar o‘quvchining xayolidan ko‘tarilganda ishlatiladi.

Yozilishi rejalashtirilayotgan ushbu maqoladan asosiy ko‘zlangan maqsad kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga hisoblashning qulay usullarini o‘rgatish ekan, endi shu masala haqida ko‘proq so‘z yuritishga harakat qilamiz.

Ma’lumki,1-sinfda o‘quvchilar matematika fanidan avvalo “O‘nlik” konsentridagi materiallarni (bir xonali natural sonlarni) og‘zaki va yozma hisoblash va ular ustida qo‘shish va ayirish ,ularning xossalarini o‘rganishadi.Keyinchalik “Yuzlik” konsentridagi materiallar ya’ni birinchi sinfda o‘rganilganlar biroz murakkablashgan holda ikki xonali sonlar ustida bo‘ladi. Bundan tashqari 2-sinfda ko‘paytirish va bo‘lish amallari o‘rganishdan so‘ng misol va masalalarni o‘rganganda 4 ta arifmetik amallar bilan bilan bog‘liq bo‘lgan hisob-kitoblar o‘rganiladi.

Boshlang‘ich ta’limning 3-4 sinflarda “Minglik” va “Ko‘p xonali sonlar” konsentrlarida 3 va 4 xonali sonlar va ularning asosiy xossalari o‘rganiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini matematika hisoblashlarining qulay usullarini ongli o‘zlashtirish uchun ular har bir arifmetik ammallar va ularning xossalarini yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishlari kerak.

Tadqiqot metodologiyasi

Biz hozir maqolada zarur bo‘ladigan ba’zi bir tushunchalarga to‘xtalamiz.

Qo‘shish amali va uning xossalari;

Berilgan bo‘lsin bizga o‘zaro keshishmaydigan (Ya’ni umumiy o‘xshash elementga ega bo‘lmoqda) 2 ta A va B chekli to‘plamlar

A={a,b,c,d} va B={e,k,f}

ular mos ravishda 4 ta va 3 ta elementdan iborat. Bu to‘plamlarning birlashmasi quyidagicha topiladi

A∪B={a,b,c,d,e,k,f}.

Birlashma to‘plamda har ikkala to‘plam elementlari ishtirok etadi

n(A)=4; n(B)=3 ; bo‘lganligi uchun

n(A∪B)=n(A)+n(B)=4+3=7;

1°. Kommutativlik xossasi

Yig‘indida qo‘shiluvchilarning o‘rni almashgan bilan yig‘indi o‘zgarmaydi

Matematik formulasi: ∀ a,b ϵN →a+b=b+a bo‘ladi;

Masalan :5+4=4+5.

2°. Assosativlik xossasi.

Yig‘indida qo‘shiluvchilarni turlicha guruhlab qo‘shish natijasida yig‘indi o‘zgarmaydi.

Matematik formulasi : ∀ a,b,c ϵN→(a+b)+c=a+(b+c)=(a+c)+b bo‘ladi.

Masalan : 3+2+5=(3+2)+5=3+(2+5)=2+(3+5) ;

Bu xossalardan quyidagi natijalar kelib chiqadi.

Natija-1. Yig‘indida qo‘shiluvchilardan biri bir necha birlikka orttirilsa, yig‘indi ham shuncha birlikka ortadi .Misol uchun

6+4=10 dan (6+3)+4=13 kelib chiqadi;

Natija-2. Yig‘indida qo‘shiluvchilardan biri bir necha birlikka kamaytirilsa ,yig‘indi ham shuncha birlikka kamayadi .

6+4=10 dan 6+(4-2)=8 kelib chiqadi;

Natija-3. Yig‘indida qo‘shiluvchilardan biri bir necha birlikka orttirilsa ,ikkinchi qo‘shiluvchi shuncha birlikka kamaytirilsa yig‘indi o‘zgarmaydi.

9+3+4=16 dan (9-2)+(3+2)= 16 kelib chiqadi.

Endi qo‘shish amalining qulay usullariga to‘xtalamiz:

1°. Yig‘indida qo‘shiluvchilarni yaxlitlash usuli.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar bir xonali natural sonlar ustida qo‘shish amalini qiynalmasdan bajaradilar shuni asos qilib yaxlit o‘nlik, yaxlit yuzlik, yaxlit minglik sonlari ustida ham qo‘shish amalini yaxshi bajaradilar. Yig‘indini yig‘indiga qo‘shiluvchilarni yaxlitlash usuli qo‘shiluvchilarni 10, 100, 1000 yaxlit sonlariga keltirib yig‘indi topiladi .

Masalan: 147+221 = (147+3)-3+220+1= 150+220+(1-3)=370-2=368.

2°. Yig‘indida qo‘shiluvchilarni xona birliklariga keltirish usuli .

Masalan: 28+35+44+57+16=(20+8)+(30+5)+(40+4)+(50+7)+(10+6)=(20+30+40+50+10)+ +(8+5+4+7+6)=150+30=180.

3°. Yig‘indida qo‘shiluvchilarni negiz son atrofiga guruhlash usuli.

Masalan: 62+65+68+61+69=(60+2)+(60+5)+(60+8)+(60+1)+(60+9)=(60+60+60+60+60)+(2+5+8+1+9)= 300+25=325 .

Ayirish amali va uning xossalari

Ma’lumki, ayirish amali bilan bog‘liq hisoblashlar asosan, sondan yig‘indi va yig‘indidan sonni ayirish qoidalariga asoslanadi .

1°. Agar ayirishda kamayuvchi bir necha birlikka orttirilsa (kamaytirilsa) ayirma ham o‘shancha birlikka ortadi (kamayadi).

75-35=40 dan (75+20)-35=95-35=60 kelib chiqadi;

2°. Agar ayirmada ayriluvchi bir necha birlikka orttirilsa (kamaytirilsa) ayirma o‘shancha birlikka kamayadi (ortadi).

85-30=55da 85-(30+15)=85-45=40 kelib chiqadi;

3°. Agar ayirmada kamayuvchi va ayriluvchi bir vaqtda bir necha birlikka orttirilsa yoki kamaytirilsa ayirma o‘zgarmaydi.

90-45=45 dan (90+15)-(45+15)=105-60=45 kelib chiqadi;

Yuqorida aytganimizdek,ko‘paytirish amalini boshlang‘ich ta’limda qo‘shish amalining xususiy holi sifatida o‘rganish kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun yaxshi tushunarli bo‘ladi.

Qo‘shish amalidagi qo‘shiluvchilar o‘zaro teng bo‘lganida qo‘shishni osonlashtirish maqsadida ko‘paytirish amali tushunchasi kiritiladi.

Masalan : 5+5+5+5+5+5 yig‘indini hisoblash kerak bo‘lsin.

5+5+5+5+5+5=(5+5)+(5+5)+(5+5)=10+10+10=30 .

Yoki bu yig‘indini topish uchun 5-sonini o‘zini o‘ziga 6-marta qo‘shish talab etiladi. Bu holda buni quyidagicha 5·(6-marta qo‘shish) yoki 5·6=30 deb olamiz. (va buni 5 sonini ketma –ket o‘zini o‘ziga 6 marta qo‘shishni) buni 6 karra ortadi deb o‘qiymiz.

Ta’rif. Biror a natural sonning boshqa biror b natural songa ko‘paytmasi deb a sonini o‘zini-o‘ziga ketma–ket b marta qo‘shishga aytiladi va quyidagicha yoziladi.

C= a +a +a + ……+ a =a·b

5+5+5+5+5+5=5·6 b marta

Bu yerda a soni ko‘paytuvchi (chunki bu amalni bajarish natijasida a soni ketma-ket ko‘payib boradi) b soni ko‘paytuvchi (chunki a ning ko‘payishiga unga qo‘shiluvchi sonlar soni bog‘liq bo‘lganligi uchun) va natijada c soni natija son bo‘lib ko‘paytma deyiladi.

Tahlil va natijalar

Ko‘paytirish amali bilan berilgan hisob-kitoblarda a va b sonlari ko‘paytuvchilar deyiladi,chunki ko‘paytirish amali ham qo‘shish amali kabi o‘rin almashtirish xossalariga ega bo‘lganligidan ko‘payuvchi va ko‘paytuvchilarning o‘rinlarini almashtirib ularni umumiy bitta nom atash mumkin bo‘ladi.

Ko‘paytirish amalining xossalari

1°. Kommutativlik (o‘rin almashtirish xossasi)

$\forall$ a,b $\in$N bo‘lsa, u holda a·b=b·a bo‘ladi.

2°. Assosativlik (guruhlash xossasi)

$\forall$ a,b,c $\in$N bo‘lsa, u holda a·(b·c)=(a·b)·c=b·(a·c) bo‘ladi.

3°. Ko‘paytmaning yig‘indi va ayirmaga nisbatan taqsimot xossasi

∀ a,b∈N, a·(b+c)=a·b+a·c ; a·(b-c)=a·b-a·c .

Ko‘paytmaning bu xossalaridan quyidagi natijalar kelib chiqadi.

Natija-1. Agar ko‘paytamada ko‘paytuvchilardan biri bir necha marta orttirilsa,ikkinchisi esa shuncha marta kamaytirilsa ko‘paytma o‘zgarmaydi.

Masalan: 20·45=900 berilgan bo‘lsa, u vaqtda

(20·5) · (45:5)=900 kelib chiqadi.

Natija-2. Agar ko‘paytmada ko‘paytuvchilardan biri bir necha marta orttirilsa (kamaytirilsa) ko‘paytma shunga marta ortadi (kamayadi).

Misol uchun 20·12=240 dan (20·4)·12=960 kelib chiqadi.

Birinchi ko‘paytuvchi 4 marta orttirilganda ko‘paytam ham 4 marta ortdi.

Natija -3. Ko‘paytmada ko‘paytuvchilradan biri bir necha marta orttirilib, ikkinchi ko‘paytma o‘shancha marta kamaytirilsa ,ko‘paytma o‘zgarmaydi.

Masalan:8·10=80 dan (8:2)·(10·2)=4·20=80 kelib chiqadi.

Ko‘paytirish amalining yuqoridagi xossalari va ulardan kelib chiqqan natijalaridan foydalanib ko‘paytirish amali bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi hisoblash usullarini qarab chiqamiz .

2.° Ko‘paytuvchilar bo‘laklab ko‘paytirish usuli

Masaalan: a·b ko‘paytmani hisoblash kerak bo‘lsin ,bunda ikki holat bo‘lishi mumkin Birinchi holat ko‘paytuvchilarning ikkalasi ham murakkab son bo‘lishi ,ikkinchidan ulardan biitasi murakkab son ikkinchisi esa tub bo‘lishi mumkin. Birinchi holatda o‘qituvchi har ikkalasini bo‘laklaganda 2 va 5 sonlari hosil bo‘lsa, sonni 10,100,1000 ga ko‘paytirish xossalaridan foydalanib hisoblashni osonlashtirish mumkin bo‘ladi.

2-usul (Ko‘paytuvchilardan birini bo‘linma ko‘rinishida tasvirlash)

Bu usuldan foyalanib sonni 5,50,.500… sonlarga ko‘paytirishda qo‘llash yaxshi natija beradi.Masalan: 45·27=(9·5)*(27)=(9·27)·(5·2):2=(9·3)·9·(5·2):2=〖(3〗^5·10):2=2430:2=1215 ;

Demak,sonni 5,50 va 500 ga ko‘paytirish bu sonlarni mos ravishda 10,100 va 1000 sonlarga ko‘paytirib natijani 2 ga bo‘lish kerak ekan.

Bu usulda bo‘linmada bo‘luvchini tub ko‘paytuvchilarga ajratib bo‘luvchini ketma-ket ko‘paytuvchilarning har biriga bo‘lib chiqiladi.

3400:6=3420:(2·3)=(3420:2):3=1710:3=570

3°. Sonni 5 ga bo‘lish uchun avvalo uning 5 soniga bo‘linishi tekshiriladi. Keyin bo‘lish usuli bilan bo‘linma topiladi .Masalan: 4250:5 bo‘lishni bajarish uchun sonning 5 ga bo‘linish belgisidan foydalanib (oxirgi ikki raqamidan tashkil topgan 50 soni 5ga bo‘linadi) bo‘linishi aniqlangach,so‘ngra 5 ga bo‘lish usulidan foydalanamiz

Berilgan sooni 5 ga bo‘lish uchun uni 2 ga ko‘paytirib natijani 10 ga bo‘lish kerak, ya’ni 4250:5=(4250·2):5·2=(4250·2):10;

(bo‘linuvchi va bo‘luvchini bir vaqtda 2 ga ko‘paytirsak,natija o‘zgarmaydi)

=(4250·2):10=8500:10=850

Qoida qilib aytganda barcha to‘rtta arifmetik amallar bilan berilgan sonli ifodalarning son qiymatini tez va oson topish usullari berilgan arifmetik amallar va undagi sonlarga qarab turli-tuman bo‘ladi.Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining asosiy vazifasi berilgan sonli ifodaning son qiymatini toppish uchun eng qulay yo‘llarni

topishni o‘rgatishdan iborat .Bu biz ko‘rsatgan usullar o‘qituvchi uchun umumiy metodik ko‘rsatma bo‘lib o‘qituvchi o‘quvchilarning bilim darajasidan va o‘zining pedagogik salohiyatidan kelib chiqib hisoblashning boshqa qulay usullarini topa olishi ham mumkin.

Bo‘lish amali va uning xossalari

Boshlang‘ich ta’limning ikkinchi sinfidan boshlab ko‘paytirish va bo‘lish amallari o‘rganiladi.Bo‘lish amali ko‘paytirish amali natijasini tekshirish maqsadida unga teskari amal sifatida kiritiladi.

Agar bizga a·b=c ko‘paytma berilgan bo‘lsa,uning to‘g‘riligini tekshirish uchun ko‘paytmani ko‘paytuvchilardan biriga bo‘lganda ikkinchi ko‘paytuvchi hosil bo‘lsa,ko‘paytma to‘g‘ri bajarilgan bo‘ladi. Masalan : 8·7=56 ;56:8=7 yoki 56:7=8 bo‘lsa ko‘paytma to‘g‘ri bo‘ladi.

Ta’rif-4. Berilgan ko‘paytmadagi ko‘paytuvchilardan birini ikkinchi ko‘paytuvchi va ko‘paytma asosida topish amaliga bo‘lish amali deyiladi va bu amal quyidagi formula bilan ifodalanadi, ya’ni:

a =b·c a:b=c kelib chiqsa,

Bo‘lish amalining komponentlari

a - bo‘linuvchi, b- bo‘luvchi , c -bo‘linma deyiladi.

Masalan : 15:5=3

Bo‘lish amalining natijasi ko‘paytirish amali yordamida tekshiriladi, ya’ni

15=3·5 .

Bo‘lish amalining xossalari:

1°.Agar bo‘linuvchini bir necha marta orttirsak (kamaytirsak) bo‘linma shuncha marta ortadi (kamayadi).

Masalan:75:5=15 va (75:3):5=25:5=5 dan 15:5=3 kelib chiqadi.

2°.Agar bo‘luvchini bir necha mata orttirsak (kamaytirsak) bo‘linma shuncha marta kamayadi (ortadi).

Masalan: 36:3=12 ; 36:(3·2)=36:6=6 .

Bo‘lish amali bilan hisoblashlarni tez va oson amalga oshirish uchun bo‘linuvchining qanday natural sonlarga bo‘linishini bilish juda zarur.Shuning uchun murakkab natural sonning ba’zi bir bir xonali sonlarga bo‘linish alomatlarini keltiramiz .

Bo‘linish belgilari:

1°.2 ga bo‘linish belgisi:

Barcha juft butun sonlar 2 ga bo‘linadi.

Bular 0,2,4,6…,2n,…∀n∈N.

Nol sonini ham nomanfiy butun sonlar to‘plamidan eng kichik son bo‘lib ,uni shartli ravishda (joylashuv o‘rniga) qarab juft son deb qabul qilamiz .Buning bilan barcha butun sonlar o‘sib yoki kamayib borish bo‘yicha tartiblangan bo‘ladi .

2°.3 ga bo‘linish belgisi:

Agar murakkab sonni tashkil etuvchi raqamlar yig‘indisi 3 ga bo‘linsa,shu murakkab sonning o‘zi ham uchga bo‘linadi. Masalan: 612 sonini tashkil etuvchi raqamlar yig‘indisi (6+1+2=9) 9 bo‘lib bu son 3 ga bo‘linadi.Shuning uchun 612 soni (612:3=204) ham uchga bo‘linadi.

3°.4 ga bo‘linish belgisi:

Berilgan murakkab sonni tashkil etuvchi oxirgi ikki xonali son 4 ga bo‘linsa bu son ham 4 ga bo‘linadi.Masalan: 42132 soning oxirgi ikki xonasi 32 sonidan iborat , bu son 4 ga bo‘linadi . Shuning uchun 42132 soni ham 4 ga (42132:4=10533) bo‘linadi .

4°.5 ga bo‘linish belgisi:

Murakkab natural sonni tashkil etuvchi oxirgi ikki xonali son 5 ga bo‘linsa , shu berilgan son ham 5 ga bo‘linadi .Masalan: 4255 soni 5ga bo‘linadi, chunki oxirgi 55 soni 5 ga bo‘linadi.

5°. 6 ga bo‘linish belgisi:

Agar murakkab sonni tashkil etuvchi son juft son bo‘lib u 3ga bo‘linsa,berilgan son 6 ga bo‘linadi.Masalan: 8364 soni 6ga bo‘linadi,chunki u juft bo‘lib 3 ga bo‘linadi. Haqiqatdan 8364:6=1394 hosil bo‘ladi.

Navbatdagi qarab chiqadigan vazifamiz bo‘lishning qulay (oson va tez) usullardan ba’zi birlarni qarab chiqamiz.

1°. Xona birliklari bo‘yicha bo‘lish

Masalan: 988:4=900:4+80:4+8:4=225 +20+2=247

2°. Bo‘luvchini ko‘paytivchilarga ajratish orqali bo‘linmani topish usuli :

Bu usulning ma’nosi bo‘luvchi (u murakkab son bo‘lsa) ko‘paytuvchilarga ajratib bo‘linuvchini shu bo‘luvchilarning har biriga ketma -ket bo‘lishdan iborat bo‘ladi .

Masalan: 144:3=(72·2):3=(72:3)·2=24·2=48

3°.Bo‘luvchini ikkita soning bo‘linmasi ko‘rinishida tasvirlash orqali bo‘lish.

Masalan: Berilgan sonni 5 ga bo‘lish uchun uni 2 ga ko‘paytirib so‘ngra natijani 10 ga bo‘lish kerak

Masalan : 155:5=(155·2):5·2=310:10=31 hosil bo‘ladi.

Berilgan sonni 25 ga bo‘lish uchun uni 4 ga ko‘paytirib so‘ngra 100 ga bo‘lish kerak

Masalan:14100:25 (bo‘lish uchun yuqoridagi qoidani birdan ikki marta qo‘llaymiz)

(14100·4):100=(14100·2·2):100=(2820 0·2):100=(56400:100)=564;

Bu berilgan qoidani umumlashgan holda ham berish mumkin, lekin buni o‘rganish yuqori sinflarda berilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi .

Xulosa

Biz bu maqolamizni hisoblashlarda qo‘llaniladigan qulay usullarning umumiy qoidalarining ba’zi birlari haqida so‘z yuritdik .O‘qituvchi hisoblashlarda berilgan sonlar, arifmetik amallarga qarab o‘zi tez va oson hisoblashlarning sun’iy yo‘llarini ham topishi mumkin va bunga doimo harakat qilish ham kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

mavzular orasidagi uzviylik va izchillik – valeologik madaniyati talabalar ongiga singdirishda uzviylik va uzliksizlik tamoyiliga rioya qilingan taqdirdagina ko‘zlagan maqsadga erishish mumkin;

• shaxsni shakllantirishda onglilik – tadqiqot ishimizning bosh maqsadi valeologik madaniyati tushunchalarini bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilaridaning ongiga singdirish. Zero, talabalar ongli ravishda o‘z turmush madaniyatini tanlay olmas ekan, muammo o‘z yechimini qidiraveradi;

• fanlararo aloqadorlik – valeologik madaniyati tushunchasini ifoda etadigan omillar shartli ravishda tibbiyot, jismoniy tarbiya, psixologiya, ekalogiya, gigiyena, mehnat, etika, estetika va boshqa fanlar bilan uzviy bog‘langan holda talabalarga ko‘nikmalar hosil qilinsa, birinchidan, ularda yaxlit tasavvur hosil bo‘ladi, ikkinchidan talabalarni o‘qish jarayoniga kompleks yondoshishga undaydi;

• o‘qitishda faollik – o‘qitish jarayonida trening o‘tkazish talabalarni guruhda faol bo‘lish, erkin fikr yuritish va o‘z qarashlarini ifodalay olishga chorlaydi;

• ta’lim – tarbiyaning birligi – mazkur tamoil ajralmas pedagogik qonuniyat bo‘lib, ushbu qonuniyat asosida olib borilgan sog‘lom turmush madaniyatini talabalar ongiga singdirishdagi faoliyatimiz xususida dissertatsiya ishining yuqoridagi bandida batafsil fikr yuritilgan;

• o‘qitishda ilmiylik – bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirish jarayonida qo‘llagan referat yozish, katalog bo‘yicha ishlash, internet saytlarida ushbu mavzuga doir materiallar berish va hokazolar orqali

ularning jahon miqyosidagi axborot tarmoqlari bilan ishlash, motivatsiyalarini kuchaytirish, qo‘llangan ayrim metodlar yordamida ilmiy dunyoqarashining kengaytirishga yordam beradi;

• ko‘rgazmalilik – o‘qitishda ko‘rgazmali usuldan foydalanishning samarasi katta. Yuqorida qayd etganimizdek, tadqiqot ishimiz mobaynida “Valeologik madaniyat” blokli ko‘rgazmali qurol shuningdek, kichik ko‘rgazma materiallarini ishlab chiqishga erishildi;

• ta’limda tabaqalashtirish – bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarining imkoniyati, qobiliyati, bilimni o‘zlashtirish darajalari, istaklariga ko‘ra valeologik madaniyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim – tarbiya jarayonida ularga tabaqalashtirilgan yondashuv asosida ushbu sohadan bilimlarni berish o‘zining kutilgan natijalarini beradi. Mazkur harakat bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarining o‘qishga bo‘lgan faolligini kuchaytirsa, ikkinchi tomondan, shaxsiy erkinligini ta’minlaydi. Bu esa o‘z navbatida talabaning o‘z nuqtai nazari, bilimlarini to‘la namoyon etishga imkon beradi;

• o‘qitishda aqliy fikrlashga yo‘naltirish – bu tamoyil asosida sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim – tarbiya jarayoni.

• bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilari mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi. Bizning pedagogik faoliyatimiz jarayonida tayyorlagan tajriba – sinov materiallarimiz ushbu tamoyilga asoslangan holda tanlandi. Bu sohada ko‘zda tutilgan samaradorlikka erishilganligi ishning so‘nggi bandida asoslab berilgan;

• ta’limda axborot texnologiyalarini qo‘llash - bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarining valeologik madaniyati sohasidagi nazariy bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirishga erishilsa, ikkinchi tomondan, uzluksiz ta’lim tizimida yangi zamonaviy o‘quv adabiyotlarini yaratish, ya’ni, valeologik madaniyatini rivojlanlantirishning multimediali elektron qo‘llanmasini yaratish – davr talabidir;

• bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarining o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchni kuchaytirish – bu tamoiylga amal qilish har qanday ko‘zlagan maqsadga erishishdagi muhim omildir. Shu bois, biz valeologik madaniyatning masalan, faol – harakat borasidagi omiliga to‘xtalamiz, Respublikamizdagi yetuk sportchilarimizning erishgan yutuqlaridan namuna keltirish va hokazolar orqali ularning o‘zligini anglashlariga turtki berib, bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarining o‘ziga bo‘lgan ishonchni kuchaytirishga harakat qilamiz. Zero, ushbu ishonch uning kelgusida yetuk sportchi yoki biron – bir kasb egasi, qisqasi, sog‘lom shaxs bo‘lib yetishishida asos bo‘ladi.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan vazifalarni samarali hal etishda ta’lim muassasasi xodimlari quyidagilarga e’tibor qaratishlari maqsadga muvofiq deb topildi:

• faoliyatning izchil va puxa bo‘lishini ta’minlash;

• faoliyat jarayonida intizom talablariga rioya qilish;

• eksperimentator o‘qituvchilarni ma’naviy hamda metodik jihatdan qo‘llab – quvvatlash;

• sinov jarayonida ota – onalar bilan hamkorlikni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish;

• bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirish borasidagi jahon tajribalariga tayanib ish ko‘rish;

• bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishda mutafakkirlar qoldirgan meros – buyuk manbalarda sog‘lom turmush madaniyatiga oid bildirgan qarash va nasihatlaridan keng ko‘lamda foydalanish;

• bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishda ommaviy axborot vositalari xizmatidan samarali foydalanish;

• texnik vositalardan keng ko‘lamda

foydalanish.

XULOSA

Valeologik madaniyatni bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilari ongiga singdirishda ko‘rgazmali qurollar asosiy o‘qitish vositasi hisoblanadi. Shu bois ilmiy tadqiqot ishini olib borish jarayonida ko‘rgazmali qurollarga alohida e’tiborni qaratdik. quyida ushbu vositaning mohiyati borasidagi fikrlarni bayon etamiz. Ko‘rgazmali qurolda valeologik madaniyatning mazmuni, nosog‘lom turmush madaniyatining belgilari va sog‘lom turmush kechirish uchun zarur talablar aks ettirilgan. Ko‘rgazmali qurolning aynan ushbu ko‘rinishda bo‘lishidan asosiy maqsad: talabalarning diqqatini o‘ziga torta olish;

bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilari tomonidan valeologik madaniyat mohiyatining to‘laqonli o‘zlashtirilishiga erishish;

bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarida fanga bo‘lgan qiziqishni uyg‘ota olish;

bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarida tasavvurini boyitish, tassavurini kuchaytirish;

bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilarida tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarning amaliyotda qo‘llay olishlariga turtki berishdan iborat.

Ko‘rgazmali vositaning eng ta’sirchan jihati – har bir bo‘lakning rasmi alohida ishlanganligidadir. O‘qituvchi har bir omil haqida tushuntirish ishlarini olib borish mobaynida o‘ziga tegishli bo‘lgan qismini ajratib olib, talabalarga ko‘rsatishi mumkin. Bo‘lajak jismoniy madaniyat o‘qituvchilaridan valeologik madaniyati borasidagi nazariy bilimlar bilan qurollantirish, ularni ma’naviy tarbiyalanganlik darajasini yanada oshiradi.

Shuni ta’kidlash joizki, mamlakatimizda jismoniy madaniyat va sportni yanada rivojlantirishning eng asosiy omillaridan biri bu sohada mutaxassis kadrlar salohiyati sanaladi. Shuning uchun xam jismoniy madaniyat va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimi qo„ygan talablarni t Shuni ta‟kidlash joizki, mamlakatimizda jismoniy madaniyat va sportni yanada rivojlantirishning eng asosiy omillaridan biri bu sohada mutaxassis kadrlar salohiyati sanaladi. Shuning uchun xam jismoniy madaniyat va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimi qo„ygan talablarni to„liq bajarishga erishish. Shuningdek, mazkur tizimni yuqorida keltirilgan takliflar asosida ma‟lum darajada yangi talablar bilan boyitib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.liq bajarishga erishish. Shuningdek, mazkur tizimni yuqorida keltirilgan takliflar asosida ma‟lum darajada yangi talablar bilan boyitib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni/ Qonunlar hujjatlari to‘plami,-T; 2020 yil 23 sentabr O‘RQ-637 sonli Qarori.
2. Panachev V.D. Sport va shaxsiyat: sotsiologik tahlil tajribasi / V.D. Panachev // SOTSIS. - 2007. - 11-son. - S. 125-128.
3. Ilyinich V.I. Talabaning jismoniy madaniyati / V.I. Ilyinich. - M .: Gardarika, 2008 .-- B.463.
4. E.V. Morozova Jismoniy madaniyat shaxsiyatning umumiy madaniyatining tarkibiy qismi sifatida / E.V. Morozova // Udmurt universiteti axborotnomasi. - 2003. - 10-son. - 161-bet.
5. Jismoniy madaniyatning ijtimoiy va biologik asoslari: Darslik / Otv. ed. D.N. Davidenko. - SPb, 2001 .-- P.208.

TALABALARNING INTELLEKTUAL SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISH VA BILIM OLISHGA YO‘NALTIRISH

BUVRAYEV AKRAM RUSTAM O‘G‘LI
Jizzax davlat pedagogika universiteti, maktabgacha va boshlang‘ich yo’nalishlarida masofaviy ta’lim kafedrasi stajyor -o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada yoshlarni mustaqil bilim olishga o‘rgatish bugungi kunning eng muxim va dolzarb vazifalaridan biri ekanligi haqidagi fikrlar birlamchi manbalarga asoslanib tahlil qilingan. Bu haqida Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev so‘zlagan nutqida: ”Faqatgina chinakam ma’rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so‘z bilan aytganda, o‘zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jaxon hamjamiyatida o‘ziga munosib, obro‘li o‘rin egallash uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin”, degan edi. Shu o‘rinda ta’kidlamoq lozimki, bugungi kunda yoshlarni ma’naviy-intellektual salohiyatini shakllantirishning ahamiyati kattadir. Ushbu maqoladan yoshlarni ma’naviy-intellektual salohiyatini shakllantirish bo‘yicha shug‘ullanuvchilar foydalanishlari mumkin.

Kalit so‘zlar. Talaba, darslik, intellektual, kasbiy faoliyat, integrativ yondashuv, kasbiy faoliyat, ilmiy – metodik, tarqatma material, intellektual salohiyat.

Аннотация: В статье на основе первоисточников анализируется мнение о том, что обучение молодежи самостоятельному обучению является одной из важнейших и актуальных задач современности. Об этом сказал в своем выступлении Президент Ш.М.Мирзиёев: «Только истинно просвещенный человек может понять ценность человека, национальные ценности, словом, свою идентичность, жить в свободном и свободном обществе, жить в мировом сообществе нашей независимое государство. "Он может самоотверженно бороться, чтобы получить достойное положение". Здесь следует отметить, что сегодня велико значение формирования духовно-интеллектуального потенциала молодежи. Данная статья может быть использована теми, кто занимается формированием духовного и интеллектуального потенциала молодежи.

Ключевые слова: студент, учебник, интеллектуальная, профессиональная деятельность, интегративный подход, профессиональная деятельность, научно-методический, раздаточный материал, интеллектуальный потенциал.

Kirish. Talabalarni yuqori darajadagi fikrlashga va ular qiyin deb hisoblagan narsalarni amalga oshirishga undash haqiqatda chuqurroq o‘rganishga, bilimini oshirishga undaydi - bu juda samarali amalga oshirilganda intellektual salohiyatni oshirishga hizmat qiladi. [1, 9]

Talabalarga shunchaki tushuntirish emas, balki kelgusi kurs mazmuni asosida hal qilish uchun muammo toping yoki yarating. Muammolarni hal qilish talabalarga bilim kuchlarini qo‘llash va kengaytirish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Kerakli tarkibni o‘rgatishdan oldin hal qilinishi kerak bo‘lgan muammoni taqdim etish orqali intellektual salohiyatini oshirishi va ularni muammoni tushunish va yangi materialni o‘rganish uchun motivatsiya qilish uchun qattiq ishlashga undaysiz. Masalan, matematika darsida ularga siz o‘rgatayotgan texnikalardan foydalanadigan, lekin siz hali o‘rgatmagan yangi narsani talab qiladigan masala bering. Muammoning ular hal qila olmaydigan qismiga yetib kelganlarida, siz yangi kontseptsiyani kiritasiz. Esda tutingki, haqiqiy muammolar ko‘pincha o‘quvchilarning bilimlarini qo‘llash uchun eng murakkab va motivatsiyani keltirib chiqaradi.

Adabiyotlar tahlili. Adabiyotlarni ko‘rib chiqish shuni ko‘rsatadiki, Oliy ta’lim talabalari kamdan-kam hollarda Bloom taksonomiyasi bo‘yicha kognitiv darajada eslab qolish va tushunishdan yuqori bo‘lishi kerak. Ko‘pgina

talabalar noto‘g‘ri ma’ruzalarda passiv o‘tirishadi va tushunchalarni haqiqiy yo‘llar bilan qo‘llash o‘rniga faktlarni qayta tiklash uchun ko‘p tanlovli imtihonlarni topshirishadi. Talabalardan kamdan-kam hollarda aqliy yoki axloqiy qarorlar qabul qilish, xulosalar chiqarish, qarorlarni baholash yoki fanlar bo‘yicha umumiy maqsad yo‘lida hamkorlikda ishlashni talab qiladigan topshiriqlarni bajarish so‘raladi. Biroq, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki "Talabalarni ko‘p kurslarda talab qilinadiganidan ortiq intellektual harakatga undagan" o‘qituvchilar talabalarga o‘rganishda sezilarli yutuqlarga erishishga yordam berdi. Ushbu o‘qitish usuli, shuningdek, kognitiv bilim, qo‘llash, tanqidiy fikrlash va umr bo‘yi o‘rganishga qiziqishni ta’kidlaydigan IDEA o‘quv maqsadlari bilan chambarchas bog‘liq. Talabalar mazmun va kurs bilan shug‘ullanib, o‘z ta’limlariga sarmoya kiritganlarida ko‘proq intellektual kuchga rag‘batlantiriladi. [3, 17]

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda adekvat holatni o‘rganishga qaratilgan usullar majmui qo‘llandi: nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya, modellashtirish), diagnostik (so‘rovlar, test o‘tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba-sinov va matematik metodlar (ma’lumotlarnistatistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshqalar).

Muhokama. Talabalar nafaqat qiyinchiliklarga duch kelganlarida, balki ular taqdim etilgan muammolarni muvaffaqiyatli hal qila olishlarini ko‘rganlarida ham rag‘batlantiriladi.

Intellektual harakatlarni rag‘batlantirish uchun siz talabalarning hozirgi yutuq darajasidan oldingi kurs vazifalarini ishlab chiqishingiz kerak, lekin ular erisha oladigan darajada . Agar material talabalarning qiziqishlari bilan bog‘langan bo‘lsa va o‘qituvchilar talabalarning o‘quv hayotiga tegishli haqiqiy, haqiqiy vazifalarni taqdim etganda talabalarning motivatsiyasi va intellektual bilim olish harakatlari ortadi. Talabalarning intellektual sa’y-harakatlarini oshirishning boshqa strategiyalari orasida amaliy tadqiqotlar va simulyatsiyalar orqali bilim olishini faol o‘rganishni oshirish, shartnomalar va rubrikalardan foydalanish orqali yuqori talablarni belgilash va aniq maqsadlarni belgilash kiradi. [6, 7]

Natija. Talabaning intellektual harakatlarini ko‘p kurslarda talab qilinadiganidan tashqari rag‘batlantirish uchun Chickering va Gamsonning "Yetti tamoyil" dan bir nechtasini qo‘llash haqida o‘ylang. Xususan, talabalar o‘rtasida o‘zaro munosabat va hamkorlikni rivojlantiradigan, faol o‘rganishni, bilim olishini rag‘batlantiradigan va yuqori umidlarni bildiradigan texnika va amaliyotlarni ko‘rib chiqing. Masalan, talabalarning kichik guruhlari g‘oyalarni ishlab chiqish yoki umumlashtirish, ko‘nikma va tushunish darajasini baholash, g‘oyalarni qayta ko‘rib chiqish, muammolarni yoki imtihonlarni ko‘rib chiqish, dars oxirida o‘quv natijalarini qayta ishlash, o‘qituvchiga shakllantiruvchi fikr bildirish, taqqoslash va taqqoslash asosiy nazariyalarni yoki masalalarni qarama-qarshi qo‘yish, muammolarni hal qilish orqali nazariyani amaliyot bilan bog‘lash va nazariyani real hayotga qo‘llash haqida g‘oyalarni ishlab chiqarish orqalim intellektual bilim olish ko‘nikmalarini oshirish. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar o‘zlarining yozma yoki boshqa ishlarini bir-birlari bilan baham ko‘rganlarida ko‘pincha o‘qituvchi ishni ko‘rgandan ko‘ra yuqori sifatda ishlaydi va o‘z bilimini baholaydi. Ushbu turdagi hamkorlikdagi vazifalarni bajarish uchun siz simulyatsiyalar yoki talabalarni jalb qiladigan amaliy tadqiqotlar kabi boshqa faol strategiyalar bilan dars berishingiz mumkin. Haqiqiy muammolarga yo‘naltirilgan yoki e’tirof etilgan mahalliy ehtiyoj bilan aniq aloqasi bo‘lgan xizmat ko‘rsatish loyihalariga bog‘liq bo‘lgan amaliy tadqiqotlar idealdir. Siz o‘zingizning amaliy misollaringizni yoki simulyatsiyalaringizni yaratishingiz, nashr etilganlaridan foydalanishingiz yoki talabalarga

o‘zlari yaratishingiz mumkin. [10, 9]

Talabalaringiz bilan bo‘lgan barcha muloqotlarda yuqori umidlarni bildirib intellektual bilim olishiga qiziqishini oshiring. Chickering va Gamson ta’kidlaganidek, umidlar haqida ochiq-oydin bo‘lish talabalarga yuqori darajadagi intellektual harakatlarga erishishga yordam beradi. Kutishlar haqida aniq bo‘lishning bir usuli - kursingizga talabalar shartnomalarini kiritishdir. Shartnomalar talabalarning ma’lum bir vaqt ichida bajarishni rejalashtirgan o‘quv ishlarini tavsiflaydi. Bunday shartnomalar foydalidir, chunki talabalar "o‘z-o‘zini tartibga solish" paytida ular o‘z ishlariga ko‘proq sodiq bo‘lishadi va intellektual bilim olishi va shaxsiy kuchlarni sarflashga ko‘proq tayyor bo‘lishadi. Yaxshi shartnomaning kalitlari aniqlik, dolzarblik, boshqaruvchanlik, majburiyat va nazoratdir.

Talabalarga yuqori umidlaringizni bildirishingiz orqali bilimini oshirishini yana bir usuli - bu topshiriqlar va tadbirlar uchun rubrikalardan foydalanish. Rubrikalar talabalarga qanday qilib topshiriqni muvaffaqiyatli bajarish haqida ma’lumot beradi. Rubrikalarni o‘quvchilaringizga taqdim etish shaffoflikni yaratadi, bu ularga rioya qilish uchun qo‘llanma va ular intilishlari mumkin bo‘lgan yuqori darajadagi ishlash mezonlarini beradi. Talabalaringizni aniq maqsadlar bilan ta’minlash, ularning o‘rganishi uchun maqsadlaringizni etkazishga yordam beradi. Kurs maqsadlari Bloom taksonomiyasidagi bilim jarayonining barcha darajalariga va bilim o‘lchovlariga taalluqli bo‘lishi kerak, lekin eng muhimi, yuqori darajadagilarga e’tibor qaratish kerak. Yuqori darajadagi maqsadlar va ularga mos keladigan faoliyat va baholashlarni yaratish talabalarga muhim o‘rganish tajribalarida faolroq qatnashish imkonini beradi. Ushbu tajribalar talabalarga o‘zlarining intellektual bilim olishini oshirish imkoniyatini beradi, ularga muammolarni tahlil qilish va hal qilish, bilimli qarorlar qabul qilish uchun g‘oyalar va ma’lumotlarni baholash, yangi mahsulotlarni loyihalash va yaratish imkonini beradi.

Onlayn ta’lim har bir kishi ishtirok etsa, shug‘ullansa va tushunchalar haqida chuqur fikr yuritsa kuchli bo‘lishi mumkin. Darhaqiqat, 2008 yildagi Talabalarning ishtiroki bo‘yicha milliy tadqiqot (NSSE) hisobotida aytilishicha, onlayn o‘quvchilar, yuzma-yuz o‘quvchilarga qaraganda, "ko‘pincha ularni intellektual jihatdan qiyinlashtiradigan kurs faoliyatida ishtirok etishlari" va onlayn o‘qituvchilar uchun "ko‘proq intellektual muammolarni va ta’lim yutuqlarini rag‘batlantirish" . Bu o‘qituvchilar faol o‘quv faoliyatini rag‘batlantirish uchun o‘z kurslarini loyihalashtirganda va taqdim etganda sodir bo‘ladi. Onlayn kurslarda faol o‘rganishga talabalarning o‘zaro ta’siri orqali erishish mumkin, masalan, talabalarni loyihani bajarish uchun guruhlarda ishlashlari, o‘quvchilardan asinxron muhokamalarda ishtirok etishlarini talab qilish va boshqariladigan tengdoshlarning ko‘rsatmalarini kiritish. Onlayn o‘qituvchilar yuzma-yuz o‘qituvchilarga qaraganda ko‘p marta tuzilgan munozaralar orqali hamkorlik tajribasini taklif qilishlari orqali bilim ko‘nikmalarini oshirishi mumkin. Onlayn vositalardan talabalarni kursdan tashqari "haqiqiy auditoriya" bilan bog‘lash uchun ham foydalanish mumkin, bu esa talabalarga yuqori sifatli ishlarni bajarish uchun qo‘shimcha motivatsiya orqali bilim olishini oshirib boradi. Onlayn o‘qitishning afzalliklaridan biri bu sinf muhokamalarini oldindan qurish qobiliyatidir.

Talabalar intellektual salohiyatini oshirish uchun:

• Talabalardan nafaqat tushunchalarni tushunish va iqtibos keltirish, balki bilimlarni yangi, shaxsiy va haqiqiy usullarda qo‘llashni talab qiladigan mazmunli, ochiq savollarni yaratishga vaqt ajrating.

• Tez faktlarni eslab qolish viktorinalarini Bloom taksonomiyasining yuqori darajalarida yozilgan maslahatlar bilan muhokama qiling: yaratish, baholash va tahlil qilish .

• Talabalarning ishtiroki talablari aniq ekanligiga ishonch hosil qiling. Talabalar e’lonlari mavjud suhbatni kuchaytirishi va "qo‘shimcha uzluksiz muloqot uchun ilgaklar

bilan ta’minlashi" kerakligini bildiring.

• Talabalarga munozara mavjud bo‘lgan vaqt davomida bir nechta postlar qo‘yish, mavzuda qolish va iloji bo‘lsa, shaxsiy tajriba yoki oldingi kurs tushunchalarini to‘qishga ruxsat bering.

• Tavakkal qilishga undash uchun ba’zi o‘quvchilarning ishini yengil baholang, ehtimol tugatgandan keyin. O‘quvchining bahosiga ta’sir qilmaydigan izohlar orqali o‘sha ish yuzasidan fikr bildiring.

To‘g‘ri ishlab chiqilgan va osonlashtirilgan munozaralar onlayn kursning markaziga aylanishi mumkin va siz talabalarni materialni eslab qolish va tushunishdan tashqari o‘ylash va qo‘llash va baholashning yuqori darajalariga ko‘chirishingiz mumkin. [11, 8]

Onlayn talabalaringizning faol o‘rganish bilan shug‘ullanishining yana bir usuli - bu texnologiyani ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi. Siz ushbu fikringizni bilishingiz uchun mantiqiy fikringizni bilishingiz va bu sababni talabalaringizga yordamingiz kerak. Onlayn kursga yordam har qanday vosita o‘quv jarayonini yaxshilash, yordamni samaraliroq qilish va o‘quvchilarni texnologiya bilan ovora qilmasdan rag‘ davolashi kerak. Turli xildagi Bloom taksonomiyasining turli darajalarini qo‘llab- olish. Talabalarga yordam berish va tahlil qilishda yordamni qidiring. Ko‘pincha talabalar ma’lum kompyuter yordamida nimaga erishalarini, ular o‘zlari qila oladigan narsalarni olishdan tashqariga chiqishga undaydilar. yordam, o‘qituvchilar bilishi kerakki, Web 2.0 ishlab chiqarishdan texnologik yordamisiz o‘qituvchilarning institutsional reytingini pasaytirishi mumkin. Talabalarga ko‘plab o‘quv qo‘llanmalari, yordam dasturlari bilan va institutsional yordam markazlari. Onlayn yoki yuzma-yuz kursning yordami bilan o‘quv yo‘llari, faoliyat va aniqning uyg‘unligi talabalar uchun bo‘lishi kerak. O‘lchanadigan va kuzatilishi mumkin bo‘lgan maqsadlarni taqdim etish o‘quvchilarga nimani o‘rganishlarini va qanday o‘zlashtirishlarini aniqlash imkonini beradi. Ushba yordamiga yordam beradi, kerakli kursga mos keladi. Baholashni topshiriq maqsadiga va o‘quvchilar ishtirok etish uchun o‘quv faoliyatiga moslashtirish. Agar o‘quv maqsadingiz amaliy tahlil qilish bo‘lsa, siz talabalarning o‘rganishini bir nechta tanlov testlari yordamida foydalanishni xoxlamaysiz, siz mahsulotlardan xizmat ko‘rsatish loyihasida hamkorlikda so‘raganingizda inshoni xoxlamaysiz. Onlayn kursning barcha komponentlarini moslashtirish o‘qituvchiga boshqarishda yangi ishlab chiqarish chiqarishi mumkin. Talabalarning onlayn kurslardan qoniqish darajasini oshirishlar va butun kurs o‘ziga xos to‘g‘rilashuv bilan bog‘liq. Tegishli masalalarni ko‘rib chiqishdan tashqari, siz o‘quv jarayonining ko‘p nuqtalarida talabalarning yutuqlarini turli usullar bilan baholashga ishonch hosil qilishingiz kerak. Anjelo va Kross texnikalarning katta assortimentini o‘qitish maqsadlari bo‘yicha tashkil etilgan klasterlarga ajratdilar. Masalan, talabalarning yuqori darajadagi intellektual sa’y-harakatlarni rag‘batlantirishga mo‘ljallangan mashg‘ulotlar bo‘yicha ishlarini baholashda siz I Klaster: Yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlari texnikasidan foydalanishni xohlaysiz. Ushbu usullardan ba’zilari analitik eslatmalar, kontseptsiya xaritalari va muammolarni aniqlash vazifalari. Agar siz fanga oid bilim va ko‘nikmalarni baholashni istasangiz, III klaster sizga tegishli baholash vositalarini taqdim etadi. [5, 28]

Talabalar va o‘qituvchilar birgalikda ishlaganlarida, ular ko‘pchilik kurslar uchun talab qilinadiganidan tashqari intellektual harakatni muvaffaqiyatli rag‘batlantirishlari mumkin. Aniq belgilangan maqsadlar, hamkorlikdagi tajribalar va faol o‘rganish strategiyalarini o‘z ichiga olgan yaxshi mo‘ljallangan kurslar bu maqsadga erishish yo‘lidagi dastlabki qadamlardir. Ushbu faoliyat bilan shug‘ullanish va o‘z bilimlarini nazorat qilish orqali talabalar o‘z bilimlarida sezilarli yutuqlarga erishishlari mumkin.

Xulosa. Talabalarning intelektual salohiyatini oshirish uchun chuqurroq

o‘rganishga sabab bo‘ladigan narsa har doim ham aniq bashorat qilinavermaydi. Ba’zida o‘qituvchilar kashfiyotning ajoyib daqiqalaridan foydalanish uchun "stsenariydan tashqari" harakat qilishlari kerak. Bu moslashuvchanlikni, tezkor qaror qabul qilishni va rejani mohirona tuzatishni talab qiladi. Sinfdagi lahzalardan birida o‘zining fikrlash jarayonini ochib beradi va o‘quvchilaridan to‘g‘ri javob bermaslik qarorini tushuntiradi. Jarlik o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otishga xizmat qiladi, ularning ko‘pchiligi haftani g‘ayrat bilan yakunlaydi va o‘z tushunchalarini chuqurlashtirishga intiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.SH.M.Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” – Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017-yil, 592 bet 10-bet.
2. Incheon declaration // Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015. Incheon, Republic of Korea). –48 p.3.
3. Muslimov N.A. “Bo‘lajak kasb ta’lim o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish” /Monografiya.–Toshkent.:Fan, 2004-yil, 360 bet.
4. Sayidahmedov N.”Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya”. – Toshkent: “Fan va texnalogiya”- 2003-yil, 340 bet.
5. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov “Umumiy pedagogika” – Toshkent, “Fan va texnalogiya” nashriyoti, 2018-yil, 530 bet.
6. Safarov, B.N. (2022). PIRLS-XALQARO O‘QISH SAVODXONLIGINI O‘RGANISH BO‘YICHA TARAQQIYOT. Ta'lim faoliyatida innovatsion rivojlanish , 1 (5), 134-138.
7. Safarov, B.N. (2022 yil, noyabr). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGIK KOUCHINGNI TOSHKIL ETISHNING DOLZARBLIGI. 21- ASRDA INNOVATSION TA’LIMNING O‘RNI VA AHAMIYATIGA BASHLANGAN XALQARO KONFERENSIYADA (1-jild, 8-son, 30-35-betlar).
8. Safarov, B. (2021). 6-7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda matematika mashg'ulotlarini axamiyati: 6-7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda matematika mashg'ulotlarini axamiyati. Maktabgacha ta'lim jurnali , 2 (2).
9. Norboyevich, SB, & Axmadjonovna, BM (2023). TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING BOSHQARUV PRINSPLARI. Ta'lim faoliyatida innovatsion rivojlanish , 2 (4), 18-23.
10. Tayirov M. BOLAJAK OQITUVCHILARNING KASBIY MADANIYATIGA QOYILGAN TALABLAR //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. – 2021. – №. 3.
11. Мелиев Х. А., Сафаров Б. Н. ОИЛА, МАКТАБ ВА МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТИ ҲАМКОРЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ МАЗМУНИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 1312-1316.
13. www.jdpu.uz
14. www.tdpu.uz
15. www.arxiv.uz

”MUVOZANAT” ROMANIDA MA’NAVIY-AXLOQIY MUAMMOLARNING BADIIY TALQINI

LUTFULLAYEV JAXONGIR AMIROVICH
Jizzax davlat pedagogika universiteti v/b dotsenti, (PhD)

Аннотация: Ushbu maqolada yozuvchi Ulug’bek Hamdamning“Muvozanat” romanining g’oyaviy-badiiy xususiyatlari, romanda ilgari surilgan ma’naviy-axloqiy muammolarning badiiy talqini masalasi tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: Badiiy ijod, roman, ijodiy yondashuv, ma’naviy-axloqiy muammolar, badiiy asarning g’oyaviy-badiiy xususiyatlari.

Аннотация: В данной статье исследуются идейно-художественные особенности романа «Равновесие» писателя Улугбека Хамдама, вопрос художественной интерпретации духовно-нравственных проблем, представленных в романе.

Ключевые слова: Художественное творчество, роман, творческий подход, духовно-нравственные проблемы, идейно-художественные особенности произведения искусства.

Annotation: In this article, the ideological and artistic features of the novel "Balance" by the writer Ulugbek Hamdam, the issue of the artistic interpretation of the spiritual and moral problems presented in the novel are studied.

Keywords: Artistic creation, novel, creative approach, spiritual and moral problems, ideological-artistic features of a work of art.

Bizga ma’lumki, badiiy adabiyotning tasvir obyekti-hayot, predmeti –inson, vazifasi-estetik jihatdan tarbiyalashdir. Shu bois ham, har bir badiiy asardan hayotning turli jumboqlariga yechim topish, insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni ko‘rishimiz mumkin. Shu jihatdan oladigan bo‘lsak, badiiy adabiyot har bir insonning shakllanishida muhim tarbiya vositasi hisoblanadi.

Har qanday badiiy asarga, xususan, romanlarga ham, ma’naviy, axloqiy, estetik jihatlar singdirilgan bo‘ladi. Buni yozuvchi o‘z tilidan yoki qahramonlar tilidan bayon etadi, xatti-harakatlarida aks ettiradi. Biz romanlarni (badiiy asarlarni) o‘qish jarayonida nafaqat uning mazmuni, g‘oyasi bilan tanishamiz, qahramonlarning ko‘ngil sezimlarini xis qilamiz,xatti-harakatlaridan, ularning munosabatlaridan o‘zimizga tegishli xulosalar qilamiz, ma’naviy-axloqiy sifatlarni o‘zlashtiramiz. Masalan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanini o‘qir ekanmiz, Otabek, Kumush, Yusufbek Hoji, Qutidor kabi qahramonlarning har bir harakati ma’naviyatga, yuksak axloqiylikka yo‘g‘rilganligiga guvoh bo‘lamiz.

Xususan, Otabekdan sevgiga sadoqat, ota-onaga hurmat, yurt ishqida yonish, vatanarvarlik sifatlarini o‘rganishimiz mumkin. Aynan ana shu jihatlar asarning ma’naviy-axloqiy sifatlaridandir.

Umuman, keyingi yillarda yaratilgan romanlardan o‘quvchilar qanday ma’naviy-axloqiy sifatlarni o‘zlashtira oladilar?

Ushbu savollarga javob izlashdan oldin biron-bir badiiy asarda biror muammoni tasirli tarzda bayon etish badiiy asarning vazifasiga kiradimi yo‘qmi? Shu haqda Q.Yo‘ldoshevning fikri bilan tanishib o‘tsak, “badiiy asar publistikaning vazifasini bajara boshlasa, qismati ham publistikanikiga yarasha bo‘ladi. yani muammo xal bo‘lguncha, bazan esa muammo odamlar etiboridan chetdan qolguncha yashaydi. Asl adabiyot faqat

davrning muammolariga yechim topishdan, zamonning savollariga javob berishdan iborat bo‘la olmaydi” [1.20]. Haqiqatdan, biror muammoni hal etish uchun mo‘ljallangan asar chanqaganda ichilgan suv kabidir. Vaqt o‘tishi bilan yana chanqoq hosil bo‘laveradi. Bu bilan badiiy asarda biror muammoni ko‘tarish va uni hal qilish kerak emas, demoqchi emasmiz. Chunki istaymizmi, yo‘qmi badiiy asarda biror muammo ko‘tarilishi mumkin. Faqat biror muammo uchungina badiiy asar yozish kerak emas. Shundagina asar o‘tkinchi bo‘lmaydi. Badiiy asarda biror ma’naviy-axloqiy muammoning ko‘tarilishi esa asarning hayotiyligini taminlasa taminlaydiki, also qadrini tushirmaydi. Zero, ma’naviyat ham, axloqiylik ham inson shaxsi uchun muhim xususiyatlardandir. Adabiyot esa, inson shaxsini tadqiq etadi.

Ulug‘bek Hamdamovning “Muvozanat” romani yuksak axloqiylikka yo‘g‘rilgan, ma’naviyatni ulug‘lovchi asardir. Asarni o‘qir ekanmiz, Vatan ishqi, mustaqillikka shukrona, xalq dardi bilan yashash, kasbga sadoqat kabi bir qancha ma’naviy-axloqiy sifatlar asar matniga singdirib yuborilganining guvohi bo‘lamiz. Fikrimizning dalili sifatida asarning turli o‘rinlaridan misollar keltiramiz.

“O‘zi chopqilab katta bo‘lgan qishloq yo‘liga burilganlarida Yusufning yuragi bir entikdi: “ Ajabo, qarindosh-urug‘dan boshqa yana nima bor bu oddiy, o‘salgina qishloqdaki, meni bunchalar to‘lqinlantirmasa!” [1] Yusufni to‘lqinlantirgan bu tuyg‘u yurt ishqi, vatanga muhabbat tuyg‘usidir. Asarda Yusuf vatanparvar, fidoiy yurt kishisi sifatida tasvirlanadi.

Yusuf yurt mustaqilligini mustahkamlash, rivojlanishi uchun ochiq davlat tizimi zarur ekanligini takidlaydi: “ Biz rivojangan mamlakatlar sari intilmas, ularning ijobiy tomonlaridan o‘z milliy, jo‘g‘rofiy xususiyatlarmizga qarab o‘rganmas, pirovardida baquvvat bir mamlakatni barpo qilmas ekanmiz, hatto siz uchun shu tobda eng ustuvor qadriyat, insonning asosiy ishi bo‘lib tuyulayotgan dilimizni ham boy berishimiz hech gap emas”(56-bet)

Naqadar kuyunchaklik bilan aytilgan gaplar. Yusuf yurtidan hech qanday tama qilmaydi, hech qanday manfaat kutmaydi. “Olam va odam shu qadar katta sur’atlarda o‘zgarib bormoqdaki, ertaga vatan, kindik qoni to‘kilgan tuproq, sadoqat … degan tushunchalar qanday tushunilishi haqida bir nima deyish qiyin. Manfaat! Balki har qanday yuksak tushunchaning ham asosini tashkil qiladigan bosh unsur shu bo‘lar… Nahotki, Vatan, millat, ularning yorug‘ kelajagi uchun kurashuvchilar faqat shu qadriyatlarni himoya qiluvchi sohalarda ishlovchilardangina iborat bo‘lsa? Xorijda yashab-ishlovchi o‘zbek vatandoshi moddiy manfaati bo‘lmagani uchun O‘zbekiston uchun qayg‘urmasa, vatan ishqi, yurt mehri, vatanparvarlik tuyg‘usi jo‘shmasa,o‘zbekman, shu yurt farzandiman degani yolg‘on. Insonlarning har qanday manfaati Vatan manfaatiga xizmat qilmog‘i kerak. Bu borada Yusuf shunday fikrda: “Vatan manfaati yo‘q yerdan bino qilinmaydi, balki har bir fuqaro manfaatidan,ha-ha,aynan har bir vatandosh manfaatlaridan o‘sib chiqadi.” (179-bet) Haqiqatdan ham, har bir fuqaroning manfaati, maslagi bir bo‘lmasa, vatan manfaatiga xizmat qilmasa vatan ravnaqi, yurt kelajagi haqida gap bo‘lishi mumkin emas.

Manfaati uyg‘un kelsa, iblis bilan shartnoma tuzib,kelmasa,hatto Payg‘ambardan voz kechadigan odamlarning iblisdan qanday farqi bor?!

Yusufning baxti,saodati o‘zi xohlagan muvozanatga erishganidir. Yusuf bu baxtga erishmoq uchun ko‘p narsalarni qurbon berdi: Oilasi,xotini,o‘g‘li,akasi va uning oilasi…

Yusuf boylik, amal, martabaning ketidan quvmadi, balki bor kuchini turkiy xalqlarning haqiqiy tarixini yaratishga, yurt manfaati va ilm yo‘liga bag‘ishladi. U mustaqillikning nima

1 U.Hamdam. Muvozanat. Sharq. Toshkent. 2007. 37-bet. (Romandan olingan ko‘chirmalar sahifasi qavs ichida beriladi)

ekanini, unga yetguncha ne-ne ko‘rguliklar yurt boshiga soya solganini yaxshi biladi. Shu bois, u yurt mustaqilligi, tinchligi, farovonligi uchun jonini berishga tayyor. U tutqunlikda farovon yashashdan qorni och, usti yupun bo‘lsa-da mustaqil, erkin yashamoqlikni afzal ko‘rdi. Mana bu borada do‘sti Sodiqqa aytgan gaplarini eshiting: “-Yo‘q, yo‘q, yo‘q!!! Yuz bor yo‘q, ming bor yo‘q,Sodiq,tushunyapsanmi?!. Agar holimiz hozirgidan besh battar bo‘lib,yeyishga bir burda nonimiz qolmasa ham,O‘g‘limga bitta xapdori sotib olomay, qo‘limning kaltaligi o‘limiga sabab bo‘lsa-da, ro‘zg‘orim kuyib kul bo‘lib ketsa ham, yo‘q!!! Men o‘tmishning qaytib kelishini istamayman, tushunyapsanmi, Sodiq, sen sog‘inayotgan,qo‘msayotgan imperiyani xohlamayman! Bizning hammamizning ko‘zlarimiz ochiq ketishini istamayman!!.” (74-bet)

Yusufning Sodiqqa aytgan gaplari yoqasiga yopishadi, ya’ni u oilasidan, xotinidan, o‘g‘lidan, akasi Amirdan ayriladi, hayoti barbod bo‘ladi, g‘ururi poymol bo‘lib, qorin g‘ami uchun ne ko‘rguliklarni ko‘rganiga qaramay yurtining tinchligi uchun yana o‘sha qurbonliklarni qaytadan qurbon qilishga (agar hayoti qaytadan boshlansa, yana shu hayotni tanlashga) tayyor. U o‘g‘li Muhammadjonning o‘limidan keyin do‘sti Sodiqqa aytgan gaplari xayolida takrorlanadi. “O‘g‘ling Muhammadjonning tirik yurishi evaziga yurting qaytadan asoratga tushadi”, deyishsa, Yusuf nima qilar edi? Mana Yusufning o‘sha ruhiy holati: “_Yo‘q!!!-dedi Yusuf xayolan birdaniga g‘azabi qo‘zib,- yo‘q, yo‘q deyman ! Magar bor bo‘lsang, meni eshitib,so‘zlarimni yozib,ularga omin, deb turgan esang, ey farishtalar, yo‘q deyman. Bittamas,ikkitamas, hamma farzandimning jonini olsang ham, boshqa zurriyoti bo‘lmasin,deb mening hayotimga nuqta qo‘yib, lavhul mahfuzga yozdirsang ham, pushtimni kuydirib,kulini sahrolar bag‘riga sochsang ham … mayli… roziman! Faqat… faqat yurtimni tinch qo‘y! Uni tag‘in zolimlar qo‘liga topshirma, topshirib bo‘yniga qullik zanjirini bog‘lama, Ey Tangrim!!!” (149-bet)

Yusuf bilar ediki,yurt tinchligi, xalq farovonligi davlat ravnaqini taminlash uchun avvalo,erkin va demokratik jamiyat qurish zarur. Asarning turli o‘rinlarida demokratik jamiyat qurish orzusi aytib o‘tilgan. “Men shunday jamiyat tarafdorimanki, u nima deb atalishidan qatiy nazar unda yashayotgan har bir kishi o‘zini avvalo, Inson o‘laroq his qilsa, manfaatlari har jihatdan himoya etilsa, tug‘lish musibat emas, saodat bo‘lsa…” (Qarang: Yusufning fikrlari O’zbekustonning bosh strategik maqsadi bilan uyg’un) [3.81]

Insonning ham,jamiyatning ham, davlatning ham o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlari, ular amal qiladigan etiqodlari bo‘ladi. Inson, jamiyat,davlat biror narsaga qarab intilmas ekan,hayoti mazmunsiz va kelajagi yo‘qdir. Ana shu narsa g‘oya va mafkura tushunchalarining naqadar inson va jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Balki, biror g‘oya yoki mafkurasiz ham jamiyat, ham davlat mumkindir, lekin bunday jamiyat, bunday davlat tanazzulga mahkumdir.

Bir ijtimoiy-tarixiy davrdan ikkinchi bir davrga o‘tilgach, eski mafkurani uloqtirib, yangi mafkurani shakllantirish talab etiladi. Zero har bir jamiyatning o‘z orzu-intilishlari bo‘ladi. Agar ana shu zarurat qondirilmasa, insonlar ongida mafkuraviy bo‘shliq paydo bo‘lishi mumkin. “Muvozanat” romanida SSSRning tarqalishi va O‘zbekistonning mustaqillikka erishgan ilk kunlari tasvirlab berilgan. Bir paytlar kommunistik mafkurani o‘zlari uchun mayoq deb bilgan xalq mustaqillikka erishgach nimaga etiqod qilishini bilmay qoldi. Chunki odamlar kommunistik mafkura ta’siridan chiqamagan, yangi mafkurani qalblariga singdirib ulgurmagan edi. Shu boisdan ham, asar qahramonlari karaxt bir ahvolda: nima qilarnini bilmaydi. Jumladan, Amir obrazini oladigan bo‘lsak, u o‘qimishli maktabda dars beradi. Amir eski jamiyatda voyaga yetgan, shu davr mafkurasi tasiridagi shaxs. Mustaqillikka erishgach, u o‘zi etiqod qilib yurgan narsa sarob ekanligini bilgach, nima qilarini bilmay qoladi. Shu boisdan, o‘zini ovutish, ko‘ngil

dardiga malham qo‘yish uchun o‘zini dinga uradi.” Dinda o‘rta yo‘lni tutinglar” hadisiga amal qilmay, dinga mukkasidan ketgan Amir oilasi,turmushi,ota-onasi, yaqinlari mehridan judo bo‘ladi, jinnixonaga tushadi…Uning nazarida insonlarning kuyib-pishib mehnat qilgani bekor, Ollohga iltijo qilib toat-ibodat qilish lozim. U o‘zining bu fikrlarini otasi Odil akaga, onasi, yaqinlari,mahalladoshlariga singdirmoqchi bo‘ladi. Chunki, u tutganini qo‘ymaydigan karaxt holatda edi. Otasi Odil akaning “-Amir, men ham bilaman, har qaysi din “To‘g‘ri bo‘l, deydi. Sen aytayotgan namozu haj … bularning bari ana shu birgina gapga olib boradi. Odamning mana bu yeri, - Odil aka chap ko‘ksiga nuqib qo‘ydi-toza bo‘lsin, Agar bo‘lmasa, uning yuz yil qilgan toat ibodati bir pul !..” (45-bet) deya nasihat qilib, sen namoz o‘qib ko‘ngil xotirjamligiga erishmoqchi bo‘lsang, o‘qi, lekin meni tinch qo‘y, namoz o‘qimasam-da qilgan ishlarim va amallarim tufayli ko‘nglim xotirjam, menga shu bas, deyishi meniki to‘g‘ri, seniki botil, deb bir maqsad yo‘lidagi odamlarning tortishuvuga o‘xshaydi.

Amir Ulug‘tog‘da cho‘ponlar qo‘lida tutqunlikda tushunib yetadiki, inson muvozanatga erishmas ekan, ko‘ngil xotirjamligiga erishmas ekan. Buning uchun har bir ishda me’yor saqlash lozim.

Amir ana shu me’yorni saqlay olmagani uchun ham taqdiri alg‘ov-dalg‘ov bo‘lib ketdi. Amir o‘zi tanlagan yo‘lning xato ekanligini tog‘da bir tomchi suvga zor bo‘lganda, kun bo‘yi namoz o‘qiydigan odam bir qultum suv uchun butun honu monini berishga tayyor bo‘lganda sezadi. Shunda u uzlatga berilib toat-ibodat qilaman deb jamiyatdan, oilasidan uzilib qolganini, buning natijasida xotini Gulshodaning hayotiga zomin bo‘lgani, farzandlari va o‘z taqdirining izdan chiqib ketganligini anglaydi. Angladi-yu, Yusufning Rumiy hazratlari haqidagi aytgan rivoyati esiga tushdi. Rumiy hazratlari deydi: ”odamlar Kabaga turli xil tomondan kelisharkan, yo‘lda bir-birlari bilan “Mening yo‘lim haq, seniki botil …”baxs-munozara qilib kelishadi. Kabaga kelgach, ularning maqsadlari hosil bo‘ladi va hammalarining istaklari bir - Olloh ekanligini bilishadi.

Biz yuqorida “Muvozanat” romanida yurtga muhabbat, vatanga sadoqat, xalq dardiga qayg‘urish, uning dardini o‘z dardi deb bilish xususida to‘xtalib,asarning turli o‘rinlaridan misollar keltirdik.

Yuqorida ko‘rib chiqqanimizdek, “Muvozanat” romanida vatanga bo‘lgan muhabbat, sadoqat, vatanparvarlik o‘ziga xos tarzda ulug‘langan. “Muvozanat” romani qahramoni Yusuf mamlakat tinchligi, osoyishtaligi,taraqqiyoti uchun jamiyatimizni isloh qilish zarurligini uqtirsa, “Otamdan qolgan dalalar”romani qahramonlari Vatanga bo‘lgan muhabbatni bosqinchilarga qarshi kurashib,so‘nggi tomchi qoni qolguncha isbotlamoqchi bo‘lishadi. Har ikki yo‘l ham o‘z davri, o‘sha ijtimoiy vaziyat uchun to‘g‘ri, albatta. Lekin , nafaqat, xalqning qo‘liga qurol berib, yurt tinchligini saqlash, balki ularning ongida g‘oyaviy bo‘shliq bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, ularning qalbi va ongida vatanga bo‘lgan cheksiz muhabbat uyg‘otish ham vatan manfaati yo‘lida qilinishi kerak bo‘lgan asosiy ishlardandir.Yusuf yurt taraqqiyoti xususida shunday fikrda: “….yangi jamiyat barpo etarkanmiz, olayotgan xar bir qonun va tadbirlarimizda xuddi shu ruhiy muvozanatni nazardan qochirmasligimiz shart. Yani moddiy jihatdan farovon, mamur jamiyat ko‘rsag-u unda yashayotgan fuqaroning ko‘glida bo‘shliq- jarlik qolib ketsa, yomon. Chunki bunday bo‘shliq bora-bora nafaqat uning o‘zini, balki jamiyatni, butun dunyoni, hatto koinotni yutib yuborishiga qodir. Bu bo‘shliqni sizning xozirgi xolimiz, o‘limdan keying hayotga bo‘lgan ishonch qutqaradi yani faqat sizda emas, balki hammada shunday xol paydo bo‘lishi kerak. Faqat bitta sharti bor:meyorida” (139-bet)

Yusuf eng xavfli narsa insonlar ongida g‘oyaviy bo‘shliqning paydo bo‘lishi deb biladi. Bu bo‘shliq tezroq to‘ldirilmasa,

turli noxushliklar yuz berishi, bu vaziyatdan qora niaytli kishilar o‘z maqsadlari yo‘lida foydalanishi mumkin ekanligini teran anglaydi. Asarni o‘qir ekanmiz, g‘oyaviy bo‘shliqning yuzaga kelishi va uning oqibatlari xususida quyidagi satrlarga duch kelamiz: “ Davlat o‘z fuqarolariga erkinlik berdi. Fuqaro esa birdaniga buni ko‘tara olmay o‘zini sag‘ir jo‘jaday sezdi va ba’zi hollarda davlatga xo‘mrayib qaradi. Ayrimlar yo‘lini topmoqchi bo‘lib, kimi puldan homiy izlasa, kimi dindan, yana kimlardir aroq va nashadan, ayoldan, mansabdan, g‘amdan alamzadaligu nafratdan o‘ziga panoh qidiradi. (Said amaldan, Mirazim puldan Amir dindan va boshqalar: Takidlar bizniki.-Jahongir Lutfullayev) Xullasi, hamma ilojini qilib o‘z mushkulini xal qilmoqchi bo‘ldi…” (247-bet)

Inson o‘zi ishonib, e’tiqod qilib yurgan narsasining sarob ekanligini bilishi va boshqa biror e’tiqod qilishiga arzigulik vosita topguniga qadar ana shunday turli ko‘chalarga kirishi mumkin. Bu narsa g‘oyaviy bo‘shliqdir. Masalan, “Muvozanat” romani qahramonlari Amir dinga etiqod qo‘yadi, Mirazim “dunyoning asosi-pul”, Said uchun amal, martaba etiqod edi. Bu narsalarning barchasi puch ekanligini anglab yetgach, asar qahramonlari karaxt bir holatga tushib qoladi. Asar qahramoni Yusuf har bir ishda muvozanat bo‘lishi kerakligini, asalning ham ko‘pi zarar ekanligini ta’kidlaydi.

Payg‘ambarimizning “dinda o‘rta yo‘lni tutinglar” hadisiga amal qilmagan Amirning fojeali taqdiri hatto din yo‘liga kirgan odam ham muvozanatni, meyorni saqlashi lozimligini ko‘rsatadi.

Asarning bir o‘rnida iymon, namoz o‘qish masalasida Amir va Yusuf baxslashib qoladi. Shunda Yusuf turli buzg‘unchiliklarni oddiy xalq emas, dinni niqob qilib olgan dindorlar-u shu ishdan manfaatdor amaldorlar amalga oshirayotganini quyidagicha bayon etadi: “- Endi buzg‘unchilarga kelsak. Ularni qo‘liga qurol yo tayoq olib, ko‘zga ko‘ringan nimaiki bo‘lsa, hammasini mahv etayotganlar, deb tushunmaslik kerak. Ularning ichida boshiga salla o‘rab, besh vaqt namozni kanda qilmaydigan “iymoni but” kimsalar diniy ilmlarni o‘rgataman deb, etiqodi sust kimsalarni-yu aqlini yaxshi tanimagan yoshlarni xalqiga, vataniga qarshi qayramoqdalar.

Zero, haqiqiy iymonli kishi o‘ziga ravo ko‘rganini o‘zgaga ravo ko‘radigan, xalqi, vatani manfaatini o‘z manfaatidan ustun qo‘yguvchilardir.

“Shu kecha kunduzdagi taqchillik paytida xalqning to‘yu azalarini, har qanday marosimlardagi sarf-harajatini yengilashtirishi o‘rniga qaysi mo‘ridan tutun chiqsa, o‘sha yerda hoziru nozir mulla va mullavachalar, oppoq soqollarini selkillatib yuruvchi chollar-mahalla ko‘rklarining aksariyati, aslida, zulukdir. Ularning besh vaqt namoz o‘qishidan, dinni yaxshi bilishlaridan, hatto hajga borib kelganlaridan nima foydaki, elning og‘ir kunida asqotmasa?...” (55-bet)

Yusuf din o‘z yo‘lida, davlat o‘z yo‘lida harakatlansa, ya’ni din davlat ishiga aralashmasa jamiyat erkin rivojlanishini bir qator rivojlangan davlatlar misolida aytib o‘tadi.

Umuman, g‘oyaviy bo‘shliqning yuzaga kelmasligining oldini olish, uning o‘rnini to‘ldirish, yuqoridagi kabi turli salbiy holatlarning oldini olish mumkin. Bu Yusufning nazarida,- mafkura orqali amalga oshadi. Yusuf Mirazimning hayot yo‘lini tahlil qilar ekan shunday deydi:” Hayot Mirazimdan hech narsani ayamayotgan edi, u nimaga qo‘l uzatsa, uzib olayotgandi. Faqat bir narsa, bir narsa – oldinda uni kutib turgan maqsad – manzil yo‘q edi”. Aynan ana shu maqsad mafkura ekani anglashiladi va inson ham, jamiyat ham, davlat ham biror mafkurasiz uzoq yashay olmasligi barchamizga ma’lum.

U.Hamdamovning “Muvozanat” romanida ham faqat ma’rifatgina dunyoni qutqara olishi ta’kidlanadi. “….muvozanat ehtiyoji tobora o‘sib boraveradi. Zero, unga kuchli ham, kuchsiz ham birdek talpinadi. Demak, umid bor. Umid-ma’rifatdan. Nazarimda, butun dunyo qayta maktab ko‘rishi, o‘qib-o‘qishi, nihoyat, o‘z holini, mahluqot ertasini anglamog‘i shart.

Menga qolsa,uchinchi ming yillikning ilk yuz yilini “Ma’rifat asri”, deb atardim. Chunki, busiz mumkin emas, busiz dunyo muvozanatini qo‘ldan boy beradi va o‘zini-o‘zi mahv etishi hech gap emas”,- tarzidagi keskin xulosalar ham ma’rifatning nechog‘li qudratga ega ekanligini ko‘rsatadi.

“Lekin Yusufning fikricha, hatto yillar davomida odamlar kutubxonalarga qadam izi qilmasa-da, ularni yopib tashlamaslik zarur. Bu juda katta va kechirilmas, tuzatilishi mushkul xato bo‘lardi.” (200-bet)

Darhaqiqat, ilm-marifat, ma’naviyat kuchli qurol. Shu bois ham, Zaxro hech vaqosi bo‘lmasa-da (boylik, amal,martaba), Yusufga ishonish mumkin”,- deb biladi. Chunki, unda yuksak ma’naviyat bor. Shuning o‘zi Zaxro uchun yetarli.

Millatlararo totuvlik g‘oyasi – umumbashariy qadriyat bo‘lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqa va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik va barqarorlikning kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Ulug‘bek Hamdam romanlariga nazar tashlar ekanmiz, romanlarimizda milliy qadriyatlarimizga sadoqat, millatimizga xos sharm-hayo, g‘urur, sha’n kabi insoniy fazilatlar ulug‘langanligini ko‘ramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Yo’ldoshev. Yoniq so’z. Yangi asr avlodi. Toshkent. 2006.
2. Q U.Hamdam. Muvozanat. Sharq. Toshkent. 2007.
3. Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2001.
4. Qo‘shjonov M . Shiddat bilan yozilgan roman, U.Hamdam “Muvozanat “ romaniga so‘ngso‘z .-Toshkent . “Minjon” 2004-yil.
5. Yoqubov I . Muvozanat ehtiyoji va iztirobi. U.Hamdam “Muvozanat ” romaniga so‘ngso‘z. Toshkent “Sharq” 2007-yil .
6. J.Lutfullayev. “Muvozanat” romanining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari”. “O‘zbekiston ayollarining fan, ta’lim, madaniyat va biznes sohasidagi yutuqlari mavzuidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materialari. Toshkent-2017.
7. J.Lutfullayev. “Ijtimoiy hayot masalalarining qahramon siymosida aks etishi”. “Tafakkur va talqin”. Istiqlol ma’naviyatining shakllanishida adabiyotning roli mavzusidagi Respublika ilmiy anjumani materialari. Toshkent-2016.
8. Narmatova M. T. SOCIAL ANALYSIS OF ISAJON SULTAN'S NOVEL" ALISHER NAVOI" //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 7. – C. 124-127.
9. J.Lutfullayev. ”Isyon va itoat” romanida ma’naviy tarbiya masalasi”. O‘zbekiston ayollarining fan, ta’lim, madaniyat va biznes sohasidagi yutuqlari mavzuidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materialari. Toshkent-2017.

BADIIY MAHORATNING IZOHLANISHI TALQINI (ABDULLA QAHHOR ASARLARI MISOLIDA)

SOBEROVA MOHIRA SOLIYEVNA
stajyor-o‘qituvchi Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada adib asarlari umummiqyosda va xossatan tadqiq etilgan ilmiy-adabiy manbalarda muallif kredosining: badiiy niyati hamda adabiy estetik qarashlarining, shuningdek, mahoratining tahlil etilishi va izohlanishi masalasiga to‘xtalamiz.

Kalit so‘zlar: Adabiy asar, poetik manzara, muallif kredosi, badiiy uslub, personaj xarakteri va sh.k.

Millat ruhi butun murakkabligi va ziddiyatlari bilan avvalo adabiyotda aks etmog‘i lozim. Millatning qalb dardlariga ham dastlab adabiyot malham topadi. Chunki xalqning yashash zavqi susaysa — g‘ayrati susayadi. Ma'naviy-ruhiy g‘ayrat pasaysa — fikr va tashabbus to‘xtaydi. Bunga birinchi navbatda adabiyot mas'ul. Abdulla Qahhor aytganidek, «Adabiyot atomdan kuchli…» Agar uning kuchi «o‘tin yorish»ga sarf qilinmasa, adabiyot pokiza va muqaddas ish bo‘lib qolsa, hech shak-shubha yo‘qki, badiiy so‘zning kuch-quvvati ortib boradi.Badiiy tahlilning tagzamirida asar mohiyatining har qatiga ijodkorning badiiy mahorati bilan singdirilgan, muallifning ifoda etgan ijodiy kredosi hamda poetik manzara chizishdagi (ijodkorning nimani emas, qanday tasvirlagani birinchi galdagi ob'ektga aylangan ayni zamonda) mahoratining ochib berilishi yotadi. O’zbek adabiyotshunosligi sohasiga ham jahon andazasidagi zamonaviy metod va uslublarning kirib kelishi ilmiy tafakkur taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Bu esa, o’z navbatida, milliy adabiyotimizda ham turli yangicha ilmiy konsepsiyalarning shakllanishiga sabab bo’lmoqda. Adabiy asar tadqiqi esa doim o‘ziga xos bir estetik jarayon bo‘lgan. Shu bois “...har qanday badiiy asarning o‘qishli va jozibali tomonlarini tashkil etgan estetik, psixologik, hayotiy, ruhiy hamda badiiy tasvirga doir omillarni topish, muayyan bir asar o‘qilayotganda uning qaysi jihatlariga e'tibor qaratilsa, asar mohiyatiga etish osonroq bo‘lishini ko‘rsatish borasida o‘qirmanga ko‘mak berish sinchilikning asl mohiyatini anglatadi”. Abdulla Qahhor ijodining teran va keng ufqliligi barobarida hassos yozuvchi asarlarining ilmiy, adabiy-tahliliy, adabiy-tanqidiy tadqiqi ham o‘ziga xos ko‘lamga egadir. Mazkur tadqiqotlar jam bo‘lib, adabiyot ilmida qahhorshunoslik degan katta sohani vujudga keltirgan. Quyida bu sohaning tarixi, taraqqiyoti xususida emas, aksincha adib asarlari umummiqyosda va xossatan tadqiq etilgan ilmiy-adabiy manbalarda muallif kredosining: badiiy niyati hamda adabiyestetik qarashlarining, shuningdek, mahoratining tahlil etilishi va izohlanishi masalasiga to‘xtalamiz. Atoqli so‘z san'atkori Abdulla Qahhor o‘zbek nasrining, dramaturgiyasining peshqadamlari qatorida doim munosib e'tirof etilgani holda yozuvchi asarlarining badiiy tahlil talablari negizida o‘rganilishiga bo‘lgan ehtiyoj ilmiy, adabiytahliliy, tanqidiy maqolalar, ilmiy izlanishlarning yaratilishiga asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Adibning zamondoshlari tamal toshini qo‘ygan qahhorshunoslik bugunga qadar yuzlab maqolalar, dissertasiyalar, majmua-to‘plamlar holidagi qator qimmatli kitoblar bilan boyib borayotgani – zahmatkash

adabiyotshunoslarning mehnatlari samarasi. Matyoqub Qo‘shjonov, Ozod Sharafiddinov, Naim Karimov, Umarali Normatov, Ibrohim G‘afurov, Usmon Qosimov, Rahmon Qo‘chqor kabi adabiyotshunoslar ilmiy merosida qahhorshunoslik ilmining tamoyillariga javob bo‘larli manbalarga guvoh bo‘lganimiz barobarida keyingi davrlarga kelib turli majmua va adabiy-ilmiy jurnallarda e'lon qilingan yozuvchi asarlari tadqiqi, himoya etilgan ilmiy ishlarda ham muallif kredosi, adabiy-estetik qarashlarining muayyan izohiga duch kelamiz. Ijodkorning shaxsi va adabiy faoliyati keng ko‘lamda yoritilgan, xotiralarga tayanilgan manbalar qatorida akademik Matyoqub Qo‘shjonovning “Abdulla Qahhor mahorati” monografiyasi (1988), professor Ozod Sharafiddinovning “Abdulla Qahhor” essesi (1988), munaqqid Usmon Qosimovning “Yozuvchining sirlari. Abdulla Qahhor saboqlari” (1995), “Adabiyotning hayotbaxsh kuchi” (2008) monografiyalari, taniqli adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqulning “Abdulla Qahhor jasorati” essesi (2007, “Tafakkur” jurnali) kabilarni alohida ko‘rsatish mumkin. Nomi zikr etilgan asarlar qatorida yana bir qancha yuqorida ta'kidlangan kabi maqola va ilmiy izlanish natijalari uchraydiki, ularda ham shu xususiyat etakchi, eng muhimi, har bir asar tadqiqida xos mezon ko‘zga tashlanadi. Talanti yo‘q odam yozuvchi bo‘lolmaydi. Talanti bor odam yozuvchilikni kamolga yetgan yozuvchilarning tajribasidan o‘rganishi, o‘z xatolarini tahlil qilishi, yozgan narsalarini tobora mukammallashtirishga zo‘r berishi, yozgan narsasini ba’zan yirtib tashlashga ham o‘rganishi kerak. Birov «Yaxshi epigramma yomon poemadan afzalroq» degan ekan. Inson qanday bo‘lishi kerak, qanday bo‘lmasligi lozim ekanini, yozuvchi qalbining chuqur joylarigacha ko‘rsatadigan ikki sahifalik chinakam proza biz uchun pala-partish, lekin ustaroq so‘zlar bilan yozilgan «silliq» asardan ko‘p darajada foydaliroqdir.

A. Qahhor o‘ziga xos uslubi bilan chinakam milliy rassom hisoblanadi. Mavzu va voqe’ilikni u o‘zbekchilik haqiqatidan olgan. Uning qahramonlari ushbu muhitni ilgari surgan ro‘zg‘or, marosimlar, odatlari va xulqi bilan uzviy bog‘liqdir. O‘zbek nasrnavisligi rivojida uning “Sarob”, “Qo‘shchinor chiroqlari” romanlari, shuningdek, “Sinchalak” va “O‘tmishdan ertaklar” qissalari alohida o‘rin tutadi. “O‘tmishdan ertaklar”da muallif xotirasida chuqur iz qoldirgan odamlar haqida so‘zlaydi. Abdulla Qahhoning o‘zi: “Men yoshligimda guvoh bo‘lganlarimni yozdim. Haqiqatni, faqat haqiqatni yozdim. Agar bu haqiqat siz - zamonaviy yoshlarga dahshatli ko‘rinsa, demak, men bu achchiq haqiqatimni oxirigacha haqiqat hikoyasi - ertak deb nomlayman!”, degan.

Abdulla Qahhor o‘zbek adabiyotiga ajoyib hikoyasi va ushbu janrning tengsiz ustasi bo‘lib kirgan. Uni hatto o‘zbek Chexovi deb ham nomlashadi. Uning hikoyalarida o‘zbek xalqining eng yaxshi jihatlari — sog‘lom aqli, hajviylikka yo‘g‘rilgan hayotiy donoligi namoyon bo‘ladi. A. Qahhor hikoyalarining tili qisqa, naqllarga boy va an’anaviy o‘zbek nasriga xos dabdaba va bejamdorlikdan xoli. A. Qahhor yozgan: “Bolalik yillariy Farg‘ona vodiysida o‘tgan... O‘ttizinchi yillar o‘rtalarini eslaganimda, menga tartibsiz va g‘alati tush bo‘lib tuyuldi... Bunday xotiralarim ko‘p bo‘lgan. Ular ko‘pincha yuzaga sizib chiqardi, ammo shundaylari ham bo‘lardiki, ular ongimning chuqur xotiralarida qolib ketardi. Anton Pavlovich Chexov bo‘lmaganida, o‘sha yerda umrbod qolib ketardi ham. Bundan o‘ttiz yil muqaddam qo‘limga Anton Pavlovich Chexovning yigirma ikki boblik asarlar to‘plami tushib qoladi. Men bu kitobni deyarli bir necha kun ichida o‘qib chiqdim. G‘ayritabiiy narsa yuz berdi, go‘yo, buyuk hikoyalar muallifi, muhtaram ustoz qo‘limga o‘z ko‘zoynagini tutqazib, “Ko‘zoynakni taq va xalqingni o‘tmishiga nazar sol”, deganday

bo‘ldi... Shunday qilib, xayolimda yoshlik surati uyg‘onib, o‘tmish hayoti ko‘zimni oldida yanada ravshanroq namoyon bo‘ldi. Ehtimol, shu sabab o‘ttizinchi yil o‘rtalarida yaratilgan hikoyalarim dardu-g‘amga to‘ladir: “O‘g‘ri”, “Bemor”, “Millatchilar”, “Shahar bog‘i”. Badiiy uslubning sohasi - bu san'at. Badiiy adabiyotning "materiali" bu umumxalq tilidir. U so'zlar bilan fikrlarni, his-tuyg'ularni, tushunchalarni, tabiatni, odamlarni va ularning aloqasini tasvirlaydi. Badiiy matndagi har bir so'z nafaqat tilshunoslik qoidalariga bo'ysunadi, og'zaki san'at qonunlariga binoan, badiiy tasvirlarni yaratish qoidalari va texnikalari tizimida yashaydi. Biz, Abdulla Qahhorni ko’proq hikoya janri ustasi sifatida yaxshi bilamiz. Uning hikoyalari hayotiy asoslarga egaligi uchun ham hozirgi kungacha o’z ahamiyatini yo’qotmagan. Adibning o’tmish mavzusiga bag‘ishlangan «Anor», «O’g‘ri», «Bemor», «Tomoshabog‘», «Millatchilar», «Dahshat» hikoyalari, «O‘tmishdan ertaklar» qissasida oddiy xalqning o‘tmishi , turmush tarzi, ichki ruhiy holati va kechinmalari o‘z ifodasini topgan. Shu o’rinda yirik tadqiqotchi, professor Umarali Normatovning Abdulla Qahhor hikoyalari haqidagi quyidagi fikrlarini kiritib o’tish maqsadga muvofiq deb o’ylaymiz: Qahhor tabiati, iste’dodi yo’nalishi jihatidan hayotdagi, odamlar qismatidagi fojeiylikni teran his etadigan adibdir. Uning eng yetuk hikoyalari ayni fojeiy holat, qismatlar ifodalangan asarlardir. Hikoyalaridagi personajlar hayotidan olingan epizodlar, lavhalar garchi muayyan intiho, badiiy yechim bilan yakunlansa-da, bunday yakun galdagi fojialar, ko’rguliklarning debochasi vazifasini o‘taydi. «Bemor» dagi Sotiboldi xotinining o‘limi uyqu aralash ayasining dardiga davo tilagan qizaloq va xotini dardiga davo qidirib bor budidan judo bo‘lgan erning yangidan-yangi sarson-sargardonliklari ibtidosidir. «Anor»dagi Turobjonning oxirida jinoyatga qo‘l urishi bu oila boshiga tushajak galdagi chigal savdolarning boshlanishidir. “O’g‘ri”dagi jabrdiyda cholning najot izlab mansab-martabaning turli zinapoyalarida turgan yulg‘ichlarga duch kelib, shilinib, oxirida «najot» topishi-Egamberdi paxtafurushning himmatiga sazovor bo’lishi, bu himmat esa kelgusida yuz berajak avvalgilardan-da og‘irroq talonchilikning o’zginasidir. «Dahshat» hikoyasida Unsinning «tiriklar go’ristoni» bo’lgan Olimbek dodxo xonadonidan qutulish yo’lidagi mislsiz jasorati qahramonning halokati bilan tugaydi, biroq qahramon o’limi dodxo xonadonini izdan chiqaradi, talotumlarga griftor etadi. «Asrorbobo»dagi chol bilan kampirning jangda halok bo’lgan o’g‘li haqidagi sovuq xabarni bir-birlarini ayab sir tutishlari, cheksiz dard –alam, qalb iztiroblarini ichga yutishlari - bir umr davom etadigan fojianing alomat ko’rinishi-badiiy ixtirosidir. Abdulla Qahhor “Hayot haqiqatidan badiiy to‘qimaga” degan maqolasida: “Men hammasi bo‘lib saksonga yaqin hikoya yozganman, lekin 1957 yilda chiqqan tanlangan asarlarim to‘plamiga shulardan faqat 26 tasini kirgizishni loyiq ko‘rdim, xolos. To‘plamga kirmagan hikoyalarimning bir qismi yozuvchilik faoliyatimning dastlabki davrida yozilgan, usta ko‘rmagan shogirdning mashqlari, bir qismi o‘zimga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra bo‘sh, juda bo‘sh chiqqan”, deb yozadi. Adabiy-estetik qarashlari ma’lum darajada shakllangandan keyin ijodining ilk davriga, xususan, «Olam yasharadi» to‘plamiga nihoyatda jiddiy tanqidiy munosabatini bayon etadi. Kitobdagi ko‘pgina hikoyalarning “ilhomsiz, dardsiz” yozilganini tan oladi. Zotan yozuvchining o‘zi aytmoqchi: “Nima bo‘lib ilhomsiz yozib qo‘ygan yozuvchi, o‘zini bilsa, yozganidan pushaymon, xijolat bo‘ladi”.

Xullas, odamlar turmushidan olingan epizodlarda, lavhalarda ular hayotiga, qismatiga daxldor fojeiy mohiyatni ko’rish, teran his etish, personajlar xarakteri va qismatini ularning ruhiyati ifodasi orqali yorqin badiiy detallar vositasida gavdalantirish

Qahhor hikoyanavislik san’atining eng muhim jihatlaridir.

“Bemor”dagi Sotiboldining boshiga tushgan kulfat — og‘ir kasal yotgan xotini dardiga davo izlab yelib-yugirishlari, bu soddadil odamning omonat dalda, maslahatlarga umid bog‘lab yanada xarob, nochor holga tushishi; „ O‘g‘ri“dagi jabrdiyda cholning najot kutib mansabdorlar huzurida dovdirab, dildirab turishlari, himmat o‘rniga tahqirlanishi, kamsitish-u xo‘rlashlarga befarqligi; O‘tmishdan ertaklar“dagi Babarning ro ‘y bergan falokatlardan gangib, o‘zini yo‘qotar holga tushishi, o‘g‘irlikda gumon qilinib, otqorovul yur desa yurib tur desa turib, o‘q uzganda kiprik qoqmay jovdirashi, siyosat uchun do‘konga qamab qo‘yganida, ochiq turgan eshikdan chiqib ketmay, qish sovug‘ida tarashadek qotishi — mana shunday jabrdiyda, mute, nochor, xo‘rlangan odamlar qismati bilan tanishganda, bir tomondan , ular holiga behad achinasiz, ikkinchi tomondan, beixtiyor Cho‘lponning Na faryoding, na doding bor, Nechun sen buncha sustlashding? H aqorat dilni og‘ritmas, Tubanlik mangu ketmasmi? Tiriksan, o‘lmagansan. Sen-da odam , sen-da insonsan“ degan satrlari yodga tushadi. Shaxs erki, huquqi, mutelik, qullik psixologiyasi ifodasi, talqini bobida XX asr adabiyotida Cho‘lpon an’analarini eng izchil davom ettirgan adib ayni shu Qahhorning o‘zidir. Qahhorning yuqorida tilga olingan asarlari, personajlari xuddi Cho‘lpondagi kabi mustabid tuzum sharoitida inson haq-huquqining poymol etilishiga qarshi o‘ziga xos isyondir. Adabiyot taqdiri yurt va millat taqdiri bilan uzviy bog’liq. Millat ruhi butun murakkabligi va ziddiyatlari bilan avvalo adabiyotda aks etmog’i lozim. Millatning qalb dardlariga ham dastlab adabiyot malham topadi. Chunki xalqning yashash zavqi susaysa — g‘ayrati susayadi. Ma’naviy-ruhiy g‘ayrat pasaysa — fikr va tashabbus to'xtaydi. Bunga birinchi navbatda adabiyot mas’ul. Abdulla Qahhor aytganidek, “Adabiyot atomdan kuchli… Agar uning kuchi «o‘tin yorish»ga sarf qilinmasa, adabiyot pokiza va muqaddas ish bo’lib qolsa, hech shak-shubha yo’qki, badiiy so’zning kuch-quvvati ortib boradi. Adabiyotimizda yaratilgan va yaratilayotgan badiiy asar namunalarini badiiy matn talabiga mos yoki mos emasligini aniqlash ularning jahon adabiyoti va adabiyotshunosligi doirasida munosib o’rin egallashi uchun muhimdir. Ushbu maqola doirasida badiiy asar va badiiy mahorat mutanosibligi xususida fikr yuritishga harakat qildik. Bu esa badiiy mahorat tushunchasi borasida yanada yaqqol tasavvur uyg‘otadi, deb umid qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Normatov U. Nasr an’analari. – T.: Adabiyot va san’at, 1978. – B. 130.
2. Ro’zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo’llanilishi
3. A.Qahhor “Anor” hikoyalar to‘plami
4. Met.qo’ll. — T.: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2013.
5. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. — T.: Moliya, 2003.
6. Slastenin V.A. Obshaya pedgogika. — M.: Pedagogika, 2003.
7. Mahmudov M. Iste’dod va ijod falsafasi – T.: Adabiyot va san’at, 1976.– B. 164.
8. Quranov D. Adabiyot nazariyasi asoslari.–T.:Navoiy Universiteti, 2018 – B. 176.
9. Yo‘ldashev Q. So‘z haqida. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. – B. 70.
10. Umurav H. Adabiyot nazariyasi. Samarqand,Sandu nashriyoti,2001 yil.B. 51-52.
11. A.Qahhor “O‘tmishdan ertaklar” – T.: Adabiyot va san’at, 2016. – B. 41.
12. Q., Yo‘ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. –T.: “Kamalak”, 2016, 9 – 10-betlar

QORAQALPOQ TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARDA REFLEKSIYA KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA O'YIN TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

KAZIMBETOVA ZIYUAR MAXSETBAYEVNA
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti doktoranti

Annotatsiya. Hozirgi davr pedagogikasida o'yinli texnologiyalar interaktiv metod tariqasida unumli foydalaniladi. Vaqt talablariga ko'ra, ularning yangi kreativ shakllari shakllanmoqda. Ushbu maqolada o'quvchilarning qoraqalpoq tili darslarida refleksiya ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'yin texnologiyalarining ahamiyati, shu jumladan tilni boyitish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, ushbu texnologiyalarni joriy etish qoidalari, shakllari, yo'nalishlari, o'quv jarayonidagi ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: refleksiya, interaktiv texnologiya, kommunikativ muloqot, ta'lim jarayoni, psixologik mexanizm, "Tóǵri javobni tanlayman" texnologiyasi, "Beshinchisi (oltinchisi, ettinchisi…) ortiqcha" texnologiyasi, "Sirli sandiqcha" texnologiyasi, "Matn tuzaman" texnologiyasi, "Rasm asosida matn tuzish", "Matn asosida matn tuzish" texnologiyasi.

Аннотация. Игровые технологии в педагогике на современном этапе продуктивно используются в качестве интерактивного метода. Согласно требованиям времени, формируются их новые креативные формы. В данной статье говорится о значении игровых технологий в выработке у учащихся рефлексивных умений на уроках каракалпакского языка, в том числе обогащении языка, развитии логического мышления, правилах внедрения этих технологий, формах, направлениях, значении в воспитательно-образовательном процессе.

Ключевые слова: рефлексия, интерактивная технология, коммуникация, учебный процесс, психологический механизм, технология «Выбор верного ответа», технология «Пятое (шестое, седьмое…) избыточное», технология «Волшебный сундучок», технология «Составление текста», технология «Составление текста на основе рисунка», технология «Составление текста на основе текста».

Annotation. Game technologies in pedagogy at the present stage are productively used as an interactive method. According to the requirements of the time, their new creative forms are being formed. This article talks about the importance of gaming technologies in the development of students' reflexive skills in the lessons of the Karakalpak language, including language enrichment, the development of logical thinking, the rules for the introduction of these technologies, forms, directions, and significance in the educational process.

Keywords: reflection, interactive technology, communication, educational process, psychological mechanism, technology "Choosing the right answer", technology "Fifth (sixth, seventh...) redundant", technology "Magic chest", technology "Text compilation", technology "Drawing text based on a drawing", technology "Text compilation based on the text."

Согласно психологическим исследованиям, учащиеся 12-16 лет отличаются более высокой активностью по сравнению с учащимися других возрастных групп. Эту активность необходимо направлять в правильное русло. Пробуждение интереса к предмету с помощью традиционных ежедневных заданий, обсуждений, решений тестов и другие учебных материалов, этапы рефлексии пройденного теоретического материала, представляют собой весьма сложный процесс.

В настоящее время в системе образования, как и в других сферах, предпринимаются меры по внедрению инновационных методов с целью повышения качества обучения. Одним из таких подходов является применение технологии интерак-

тивных игр. В педагогической практике игры выполняют не только развлекательную функцию или служат для переключения внимания учащихся, но и направлены на решение конкретных педагогических задач. Игры способствуют укреплению коммуникации между учителем и учениками, выступая в роли связующего звена в укреплении общественно-социальных и научных связей. Использование игровых технологий в образовании позволяет сосредоточить внимание учащихся на учебном материале и эффективно внедрять рефлексивные практики в современный образовательный процесс. Посредством игр можно не только передавать новые знания, но и формировать у учащихся навыки рефлексии, а также развивать логическое мышление.

Ход игры, его составляющая, способствуют формированию у его участников таких показателей как умения, способности, качество. Учитель, использующий в образовательном процессе игровые технологии должен уметь показать педагогические задачи в сценарии.

Психологические механизмы игровой деятельности позволяют удовлетворять ряд важных личностных задач. Они дают возможность индивиду самореализоваться, определить свое место в социуме, развить навыки самоконтроля и реализовать собственные возможности. Основным мотивом образовательной деятельности является стремление к получению знаний. Ключевым аспектом образовательного процесса является возникновение интереса учащегося к той области знаний, которую он изучает. Важно, чтобы в ходе обучения ученик получал ощутимое удовлетворение от приобретаемых знаний, профессиональных навыков и умений.

Использование игровых технологий в учебном процессе способствует развитию творческих способностей учащихся и креативного мышления. Реализация этого подхода на практике позволяет повысить эффективность образовательной деятельности.

Игры, используемые в педагогических целях называются игровые технологии [1:991].

Исходя из учебно-воспитательного направления, игры можно разделить на четыре группы: игры, направленные на развитие богатства языка ученика, логического мышления и умений вступать в коммуникацию; игры, требующие коллективного взаимодействия, направленные на укрепление дружеских взаимоотношений между учениками; игры, выполняющие роль направляющего фактора в выборе профессии и подготовке к общественным работам; игры, направленные на развитие у учащихся предпринимательских умений, общественно-экономических, правовых знаний [2:87].

Игры, направленные на развитие у учащихся богатства языка, получения знаний, умений логического мышления и готовности вступить в коммуникацию

Технология «Выбор верного ответа»

Это игра помогает оценить теоретические знания, полученные учениками и в то же время позволяют повысить их активность на уроке, сосредоточить внимание на задании.

В рамках игрового подхода перед группой учащихся размещаются перевернутые доски, на которых написаны слова, связанные с определенной областью языкознания. Например, можно использовать термины «повествовательные предложения», «вопросительные предложения», «восклицательные предложения», «пове-

лительные предложения». Когда учитель зачитывает предложение, ученики должны встать возле той доски, которая соответствует данному типу предложения. Если учащийся ошибается в выборе, он выбывает из игры.

Благодаря этой технологии, в определенной степени, можно четко зафиксировать уровень знаний ученика. Формируется скорость мышления и быстрота ответа, укрепляется коммуникация между учениками и учителем.

Технология «Пятое (шестое, седьмое…) избыточное»

Предложенная игровая методика соответствует тематике лингвистических упражнений, направленных на работу с текстом на уроках современного каракалпакского языка. Применение данного подхода зависит от возрастных и интеллектуальных особенностей учащихся, а также от уровня их языковой подготовки. Например, в учебнике по родному языку для 7 класса при изучении текста «Физика облегчает жизнь» [3:110] можно использовать следующую табличную форму работы с материалом.

Пример:

«Пятое избыточное»

Отметьте особенность по тексту «Физика облегчает жизнь».

1	перемещение облаков	выпадение дождя	течение воды	выпадение снега	потоотделение человека
2	двигатель автомобиля	электрические провода	интенсивность горения	дверная ручка	бытовые приборы
3	изменчивость света	Изменчивость эмоций	голосовые модуляции	тепловые изменения	электрические изменения
4	воздействие на природу	изучение естественных наук	использование природных ресурсов	измерение расстояние взглядом	Двигательная активность человека на воздухе
5	дошкольное образование	высшее учебное заведение	научно-исследовательский институт	профессиональное образование	среднее специальное образование

Итак, эту технологию можно применять и для лингвистических тем. Например, на уроках родного языка в 7классе по теме «Виды междометий» можно составить следующую таблицу [3:122-126]:

Пример:

«Пятое избыточное»

Найдите избыточное по видам междометий.

1	алла барекелла / благодарствую всевышнему	япырмай / о мой пир	қудайым-ай / о боже	жолың болсын / счастливого пути	тамаша-ай / вот так представление
2	ҳәўким-ҳәўким / призыв на водопой животных	қуррай-қуррай / этим звуком обозначают курлыканье журавлей	ҳай-ҳай / возглас удивления	төте-төте / звук, используемый при кормежке кур	Шуў-щуў/ эвук, использумый при погоне животных
3	паҳ дүнья-әй / ах этот мир	рахмет / спасибо	көз айдын / добро пожаловать	әпиў етиң / прошу прощения	жолың болсын / счастливого пути
4	астапырапла / возглас удивления	яшақай / да здравствует	ақудай / душа моя	пош / прочь с дороги	әттең / ох
5	мәҳ-мәҳ/ эвуки, призывающие животных к кормежке	пош / прочь с дороги	ҳей /хей	тсс / тшшш	алло / алло

Технология «Волшебный сундучок»

Благодаря этой игре развивается логическое мышление учащихся. При использовании данного метода ученики делятся на группы. Учитель вешает на доску четыре сундучка с названиями тем. На сундучках имеются кармашки, куда вкладываются небольшие кусочки бумаги. Ученики должны вложить в них ответы со словами, относящимися к этой теме. По завершении игры подсчитывается затраченное время и количество слов, а учитель проверяет правильность выполнения задания и оценивает учеников [4:49-52].

Технология «Составление текста»

Применение данной технологии способствует развитию у учащихся навыков красноречия, логического мышления и коммуникативных способностей. Ключевое внимание уделяется умению учащихся использовать слова в соответствии с нормами стилистики и логики. Проверяется способность учащихся грамотно вводить слова в речевой оборот, передавая при этом необходимую эмоциональную окраску. Для этого ученики должны глубоко знать значение слов, их грамматические формы и способы синтаксической связи. Педагог предоставляет учащимся несколько опорных слов, на основе которых те должны создать связный текст. Разумеется, создаваемый текст должен обладать смысловой цельностью и соответствующей эмоционально-экспрессивной окраской, что зависит от речевого мастерства обучающихся.

В ходе разъяснения значений слов учитель применяет следующие методические приемы:

1) Объяснение слова на основе текста;

2) Разъяснение с использованием словарей и справочного аппарата учебника;

3) Объяснение через подбор синонимов;

4) Объяснение путем сопоставления с антонимами;

5) Разъяснение с привлечением дополнительных значений, изобразительных смыслов, а также примеров из пословиц и

поговорок;

6) Объяснение с помощью словосочетаний и предложений;

7) Объяснение через выявление основных признаков предмета [5:38].

Рассмотрим задание 2.7 из учебника каракалпакского языка для 7 класса [3:84], демонстрирующее применение описываемой ранее технологии. В задании учащимся предлагается составить различные предложения, используя предложенные ключевые лексические единицы, и написать творческий диктант на тему «Учитель - велик как отец», обеспечив при этом синтаксическую и смысловую связность текста. Кроме того, рекомендуется активно использовать продуктивные служебные слова и местоимения.

Предложенный набор лексических единиц включает такие понятия, как независимость, образование, государственная политика, сфера образования, безграничное внимание, самоотверженные педагоги, оценка, безграничное уважение, величие профессии, обоснование, настоящее и будущее общества, народная культура, повышение качества образования, использование в быту, требования к обучению, уважение к труду учителей, оказывать покровительство, строительство новых центров науки, снабжение их современной техникой, действие, учительство, великая профессия, Указ Президента от 9 января 1996 года, 1 октября - День учителей и наставников

Технология «Составление текста на основе рисунка»

При применении данной технологии учащимся выдается задание по составлению текста с использованием одного или нескольких изобразительных источников. На основе одного рисунка обучающиеся должны создать художественное, научное или публицистическое произведение. Если предложено несколько изображений, то задание выполняется путем распределения их по тематическим группам. В качестве примера рассмотрим задание 3.8 из учебника родного языка для 10 класса, разработанное на основе описываемой технологии и имеющее тему «Я часть общества». Учащимся предлагается на основе одного из представленных рисунков составить художественно-публицистический текст на тему «Дом с ангелом» [6:46].

Технология «Составление текста на основе текста»

Представляет собой эффективный метод работы с учащимися старших классов (10-11). Суть данной технологии заключается в трансформации текстов одного функционального стиля в тексты другого стиля. Например, на основе научного текста можно составить художественное произведение, либо преобразовать художественный текст в публицистический.

В качестве иллюстрации приведем задание 4.9 из учебника родного языка для 10 класса [6:50], разработанное с использованием данной технологии.

Задание 4.9.

Учащимся предлагается прочитать представленный научный текст, а затем составить публицистический текст на тему национальных ценностей, аналогичный исходному.

Одной из традиционных обрядовых практик каракалпакского народа является исполнение хаужар во время проводов невесты. Хаужар представляют собой особый жанр устного народного творчества, некоторые фрагменты которого сохранились до настоящего времени. Известный литературовед Камал Мамбетович в своей работе «Этнография каракалпаков» приводит несколько образцов хаужар, исполнявшихся ранее. Следует отметить, что данные примеры были заимствованы автором из научных трудов другого исследователя - Н. Давкараева, специализировавшегося на изучении каракалпакского фольклора. Например:

Tekiymenttiń shet bawın, // Край текимета,

Oya tursın, yar-yar-aw. // Стоит вырывая, яр-яр-ау.

Toy basına tuw biye, // Кобылицу к началу свадьбы,

Soya tursın yar-yar-aw. // Пусть закалывают яр-яр-ау.

Men apama aytayın, // Скажу матери своей,

Ákeme ayt dep, yar-yar-aw,// Отцу моему скажи, яр-яр-ау,

Meni dese bıyılsha,// Молода я еще,

Qoya tursın, yar-yar-aw.// Рано замуж мне, яр-яр-ай.

Использованная литература::

1. Turdiyeva M.J. Tálim tarbiya jarayonida pedagogic óyinlar va ularning shaxs rivojlanishiga psixologik tásiri. Scientific progress. Volume 2. Issue 7. 2021. ISSN: 2181-1601. C. 990-994.
2. Садуллаев Б.Б. Ўйинлар воситасида ўқувчиларда дўстона муносабатларга асосланган ижтимоий ҳамкорлик кўникмаларини ривожлантириш тизими: Пед.фан.док. ...дисс. – Самарқанд, 2019. – 87 с.
3. Dáwletov M, Ismaylova Z, Kazimbetova Z. Ana tili. (7-klass ushın sabaqlıq) – Tashkent, 2022. –110 c.
4. Turdiyeva G.T. Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish. Экономика и социум № 4 (107) 2023. – 49-52 с.
5. Adizova N.B. Adizova N.B. Ona tili o'qitish metodikasi. – Buxara, 2021. –38 c.
6. Abdinazimov Sh, Ismaylova Z, Kazimbetova Z. Ana tili. (10-klass ushın sabaqlıq) – Tashkent, 2022. – 46 c.

BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKASINI O‘QITISHDA RANG TASVIRGA OID MASALALARNING O‘RNI

AKRAMOVA ZUXRA BOTIR QIZI
Jizzax davlat pedagogika universiteti sirtqi bo‘lim Maktabgacha va boshlang‘ich yo‘nalishlarida masofaviy ta’lim kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola matematika darslarida turli ranglardan foydalanish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining estetik did va mantiqiy tafakkurini shakllantirish, o‘quvchilarda arifmetik hisoblash ko‘nikmalarini takomillashtirishdan iborat.

Аннотация: Эта статья направлена на развитие эстетического вкуса и логического мышления учащихся начальной школы за счет использования разных цветов на уроках математики, а также на улучшение навыков арифметических расчетов учащихся.

Annotation: This article aims to develop the aesthetic taste and logical thinking of primary school students through the use of different colors in mathematics lessons, and to improve students' arithmetic calculation skills.

Kalit so‘zlar: Tafakkur, tafakkur jarayonlari, analiz, sintez, mantiqiy masala, sonli bog‘lanish.

Ключевые слова: мышление, мыслительные процессы, анализ, синтез, логическая задача, числовая связь.

Keywords: Thinking, thinking processes, analysis, synthesis, logical problem, numerical connection.

Agar o‘quvchi, hech bo‘lmaganda bir marta o‘zi mustaqil ravishda birorta matematik masalani hal qilsa, u albatta, unutilmas hayajonli damlarni boshidan kechiradi va g‘alaba nashidasini suradi. Bunday “kichik” g‘alabalar, ayniqsa bolalik chog‘ida yuz bersa, inson bu onlarni hayotining oxirigacha xotirasida saqlab qoladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematika faniga qiziqishlarini oshirish o‘ta muhim masalalardan biri bo‘lib, ushbu ishda matematika darslarida rang tasvirga oid masalalarning muhim ahamiyatini yoritishni maqsad qilib oldik.

Rang insonni nafaqat shodlantiradi, balki uni g‘azablantirishi, tashvishga solishi, g‘amgin qilib qo‘yishga ham qodir. U ruhiyatimizga katta ta’sir ko‘rsata oladi.

Ba’zi ranglar xotirjamlik bersa, boshqalari aksincha, tashvishga soladi. Yashil, havorang, ko‘k ranglar tasalli beradi, pushti, qizil, sariq, olov ranglar esa asabni qo‘zg‘atuvchi ranglar turkumiga kiradi.

Bayram tantanalarida ranglar yanada ulkan ahamiyatga ega bo‘ladi. Masalan, qizil rang – tantanavorlik va buyuklikni, qora rang – g‘am – g‘ussani, oq rang – ozodlik va benuqsonlikni, yashil rang – orzu - umidni bildiradi.

I. Gyote shoir sifatida ishonarli qilib ranglar ta’siri ustida tadqiqot o‘tkazdi va yashil rangda saxiylik, tinchlantiruvchi, ko‘z va ruhni dam oldiruvchi xususiyatlar mavjudligi: ko‘k rangda sovuq ayozni eslatuvchi, qizil rangda dahshatga soluvchi xususiyat bor ekanligini o‘z kechinmalarida seza oldi.

I. Gyote bir manzaraning o‘zini yashil, sariq, qizil va shu kabi rangli shishalar orqali ko‘zdan kechirib, odamning ruhiy holati o‘zgarishlarini kuzatib, qizil rang va uning turli birikmalari – qo‘zg‘atuvchi, qizdiruvchi, jonlantiruvchi, faollashtiruvchi, quvvatbaxsh, sariq rang – iliq, tetiklantiruvchi, quvontiruvchi, jozibador, olov rang – quvnoqlik, xurramlik, alangali va xayrli sezgilarni keltirib chiqaradi, deb hisoblanadi. Yashil rang va uning boy birikmalari osoyishtalik, bahuzurlik va tinch kayfiyat baxsh etadi. Ko‘k rangni olaylik, u jiddiylik, musibat, g‘am – g‘ussa, ko‘ngilchanlik

va osudalikni anglatadi. Binafsha rang, qizil va ko‘k ranglar keltiradigan hissiyotlar birikmalari bilan ta’sir etib, ayni bir paytda o‘ziga jalb qilib, quvontiradi.

Bolada rang tushunchasi (yashil ko‘kat, zangori daryo, sariq quyosh, qizil gul va h.k.) qanchalik tor bo‘lsa, u ulg‘aygunga qadar “Bolalarcha idrok” qamrovida qolaveradi. Aksincha, rang birikmalarining xilma - xillik doirasi kengaya borgan sari, idrokning tahlil qilish xususiyati ziyraklashadi va tanlov imkoniyatlari ham oshib boradi.

Shularni hisobga olgan holda ushbu ishda matematika darslarini tashkil etishda ranglarning insonning ruhiy holatiga ta’sirini aniq tushungan holda dars materiallarini ko‘rgazmali tashkil etishda va yoshlarning matematikaga qiziqishlarini uyg‘otishda, rivojlantirishda, fan asoslarini o‘zlashtirishda o‘qituvchi e’tibor berishi muhim deb hisobladik.

Masalan, 2-sinf Matematika darsligidagi masalani yechish bo‘yicha o‘z tavsiyalarimizni bayon qilamiz.

Berilishi: Rasm asosida ko‘paytirishga doir misol tuzing va uni qo‘shish bilan almashtiring:

1)

2)

Yechilishi:

1) 5 * 4 = 20 5 + 5 + 5 + 5 = 20
20 : 4 = 5
2) 5 * 5 = 25 5 + 5 + 5 + 5 + 5 = 25 25 : 5 = 5

Tushuntirilishi:

O‘qituvchi: Bugungi darsimizning mavzusi ko‘paytirish ekan. Demak, ko‘paytirishga doir misollarni yechamiz. Aziz o‘quvchilar, rasmda nima tasvirlangan deb kitobdagi rasmga jalb qiladi. O‘quvchilarning turli javoblarini eshitib ularni fikrlashlariga imkon beradi. Keyin o‘zi olib kelgan yangi uzilgan chiroyli gullarini rasmdagi kabi vazaga joylashtirilgan holda jonli namoyish qiladi. Aziz bolajonlar,ular nechtaligini ayta olasizmi? Hammasi bo‘lib qancha atirgul bor? Qani kim aytadi?

Botir: bu atirgullarni qo‘shganimizda 20 chiqdi

O‘qituvchi: To‘g‘ri! Bolalar Botir buni yig‘indi ko‘rinishida aytdi.

Ko‘paytma ko‘rinishida esa bu misolni bunday o‘qishimiz mumkin:

Beshtalab to‘rt marta olinsa, yigirma hosil bo‘ladi yoki beshni to‘rtga ko‘paytirganda yigirma hosil bo‘ladi.

Ikkinchisida rangli qalamlardan foydalanar ekanmiz. Hamma rangli qalamlarini parta ustiga qo‘ysin. Menga Botir, Sarvinoz, Gulnoza, Jahongir, Munisa 5 xil rangdagi qalamlaringizdan 5 tadan beringlar. Mana bolajonlar qalamlarni beshta o‘quvchidan beshtadan oldik, ularning hammasini qo‘shganda qancha bo‘ladi? Qani kim javob beradi? Sarvinoz: Bu qalamlarni hammasini qo‘shganda 25 hosil bo‘ladi.

O‘qituvchi: Barakalla! Juda ham to‘g‘ri. Bu yig‘indi ko‘rinishida aytdi. Endi kim buni ko‘paytma ko‘rinishida aytadi?

Botir: beshtalab besh marta olinsa, yigirma besh bo‘ladi.

O‘qituvchi: Juda to‘g‘ri.

Demak bu misolni ishlashimizda Botir bilan Sarvinoz faol ishtirok etdi. Endi ularga mukofot beramiz. Bu mukofot atirgullar edi. Atirgullarni shu ikki o‘quvchiga bo‘lib beriladi. Darsdagi faolliklari uchun olgan sovg‘alarini onalariga sovg‘a qilsalar, ular juda xursand bo‘lishadi. Qolgan o‘quvchilar ham o‘z onalarini xursand qilishni xohlasalar keyingi darslarda faol ishtirok etishlari kerakligi aytiladi.

Xulosa qilib, shuni ta’kidlashimiz mumkinki, bolalarning barkamol inson bo‘lib yetishishlarida matematika darslarini jonli o‘quvchilarning kayfiyatlarini oshiradigan qiziqarli qilib tashkil etish, kompyuter texnologiyalari asosida tushuntirish, geometriya elementlari haqida to‘laroq tasavvurga ega bo‘lishlari uchun sodda va rangli figuralar komplektlarini yasatish, ulardan masalalar yechishda, sanashda, shakllarni tahlil qilishda foydalanib borish orqali fanga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirib borish hamda go‘zallikdan zavqlantirishga erishish mumkin.

Darslarni tashkil etishda yuqorida keltirilgan usullarga har doim o‘qituvchi e’tibor berib borsa, o‘quvchilarga ham ta’lim ham tarbiya berishimiz bilan birga ularning ongida estetik didni, go‘zallikdan zavqlanish hissini, kattalarga hurmat va muhabbatni shakllantirishimiz mumkin. Shuningdek, ularning fanga qiziqishlari oshishiga, o‘quvchilarning qalbida yaxshilik, ezgulik hislatlarining rivojlanishiga hamda darsda samaradorlikka erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matematika 2-sinf [Matn]: darslik / L.O‘rinboyeva [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 192 b.
2. A.S. Yunusov, S.I. Afonina, M.A. Berdiqulov, D.I. Yunusova. “Qiziqarli matematika va Olimpiada masalalari”. “O‘qituvchi” Nashriyot – Matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2007.
3. N. Abdurahmonova, L. O‘rinboyeva “Matematika” umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. Toshkent “Yangiyo‘l poligraf servis” 2014.
4. T. Qo‘ziyev, A. Egamov, T. Qanoatov, A.Nurqobilov “RANGTASVIR” 5–9 sinflar «SAN’AT» JURNALI NASHRIYOTI. TOSHKENT- 2003

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz
2. www.ziyouz.com

МАКТАБ ТАЪЛИМИДА РАҚОБАТ МУҲИТИНИ ЯРАТИШ БЎЙИЧА АҚШ ТАЖРИБАСИ

БОТИРОВ ҲАМИД ХАКИМОВИЧ
Doctor of Philosophy in law (PhD)

Аннотация: АҚШда мактабларнинг рақобатбардошлигини баҳолаш мезонлари ва усуллари таҳлил қилинди, ўрганиш натижасисида айрим тажрибаларини миллий қонунчиликка қўллаш мумкинлиги юзасидан хулослар қилинди.

Калит сўзлар: рақобатбардошлик, баҳолаш мезонлари, усуллари, таълим тизими, ўқув жараёни.

Аннотация: Проанализированы критерии и методы оценки конкурентоспособности школ США, в результате исследования сделаны выводы относительно возможности применения части опыта в национальном законодательстве.

Ключевые слова: конкурентоспособность, критерии оценки, методы, образовательная система, образовательный процесс.

Abstract: The criteria and methods for assessing the competitiveness of US schools are analyzed, as a result of the study, conclusions are drawn regarding the possibility of applying some of the experience in national legislation.

Key words: competitiveness, evaluation criteria, methods, educational system, educational process.

Кириш. Замонавий дунёда ривожланган давлатларнинг асосий рақобатбардош устунлиги уларнинг халқаро рақобат шароитларига мослашиш қобилиятини белгилайдиган инсон салоҳиятидир. Глобаллашув жараёнлари иқтисодиётнинг рақобатбардошлигини ошириш муаммосини долзарблаштирди, бу муаммони ҳал қилиш таълим соҳасига эътиборни кучайтириш ва халқаро тенденцияларни ҳисобга олишни, уни ривожлантиришнинг энг самарали стратегияларини белгилашни талаб қилади.

Шубҳасиз, халқаро тажрибани билмасдан туриб, бу талабларни амалга ошириш мумкин эмас. Бу таълим тизимларини қиёсий таҳлил қилиш, уларни турли ёндашувлар асосида самарали тажрибаларни ўрганиш зарурлигини белгилаб беради.

Шундай қилиб, Ўзбекистон таълим тизимидаги вазиятни халқаро даражада баҳолаш ва дунёнинг ижобий ва салбий тенденцияларини ҳисобга олган ҳолда, миллий таълим тизимини ривожлантиришда энг оқилона тажрибалардан фойдаланиш зарурдир.

Хусусан АҚШ мактабларида ўқувчиларнинг мустақил таълимга бўлган кўникмаларини яна ривожлантириш мақсадида улар учун рағбатлантириш бир неча усуллари йўлга қўйилган. Масалан ўқувчиларни касбга йўналтиришда, улар ўзлари учун зарур бўлган фанлар юзасидан ўқув дастурларини тузишда иштирок этадилар, аниқ ва табиий фанлардан изланишларда бир-бирлари билан рақобатлашадилар.[2.]

Мактабларга ўқувчиларда лидерлик қобилиятини шакллантириш мақсадида йилда икки марта ўқувчилар рейтинги юритилади. Юқори рейтингларга эга бўлган ўқувчиларга маълум имтиёзлар ёки рағбатлантиришлар берилади. Мазкур тажрибалар ўқувчини нафақат ўзи учун мотивацияни олиб келади, балки ўша ҳудудаги ота-оналарга ва ҳудудий маъмурий органларнинг фаолияти-

га нисбатан баҳо берилади.

Тадқиқот методологияси. Федерал даражада мактаб таълими соҳасида “Биринчилик учун пойга” (Race to the Top) ташаббуси эълон қилинган. “Биринчилик учун пойга” ташаббуси мактаблар ўртасида кучли рақобат муҳитини яратишни кўзлайди. Мазкур мактабларда ўқитувчиларнинг маоши, ўқувчиларнинг билим даражаси, аниқроғи, улар топширадиган тест натижаларига асосан белгиланади. Бироқ ушбу тартиб турли мунозараларга сабаб бўлган. Одатда демократлар томонидан касаба уюшмалари ҳам мазкур ташаббусга баҳо беришда иккига бўлинган. Биринчиси, Таълим ходимлари миллий касаба уюшмаси (NEA) ушбу ташаббус бўйича мактабларнинг юқоридан пастга принципи асосида идора этишни танқид қилган. Иккинчиси, ўқитувчиларнинг маоши тест натижаларидан келиб чиқиб белгиланишига салбий фикр берилган. Уюшма баёнотига кўра мазкур тартиб педагогларнинг таълим бериш билан эмас, кўпроқ ўқувчиларни имтиҳонга тайёрлаш билан шуғулланишига олиб келиши мумкин.[3.]

Бундан ташқари АҚШнинг собиқ президенти Обама ва унинг таълим бўйича котиби Арне Дункан К-12 таълим ислоҳотини “Тепага пойга” грант дастури орқали амалга оширдилар. Бунга кўра ўқувчиларнинг тест синовлари натижаларига кўра мактабларга баллар берилди. Бу мактаблар ўртасида рақобатлашишга олиб келади. Бироқ бу жамоатчиликнинг эътирозига сабаб бўлди, уларнинг фикрича ушбу тартиб ўқитувчиларни ижодкорлик ва ўқувчиларнинг тасаввурини уйғотишга ундашдан кўра, тест синовларига тайёрлашга эътибор кучайиб бораётганини билдиришган.[1.Б.136–159]

АҚШдаги барча мактабларга академик мустақиллик берилган, фақатгина давлат даражасида мажбурий фанлар умумфедерал таълим тўғрисидаги тартиблар билан белгиланади. Қолган барча ваколатлар таълим муассасаларининг ихтиёрий ваколати асосида амалга оширилади. Ўқувчиларга мактабларида қўшимча фанларни ва курсларнинг мураккаблик даражасини танлаш ҳуқуқи берилади. Бу ҳар қандай қизиқиш ва қобилиятга эга бўлган ўқувчига ўзини қулай ҳис қилиш ва таълим жараёнидан максимал даражада фойдаланишга ёрдам беради. Бу эса мактаблар ўртасида сифат самарадорлигини оширишга хизмат қилувчи рақобат муҳитини шаклланишига олиб келган.[2.]

Шунинг учун хар бир мактаб ўзининг таълим беришда мустақил ёндошувига эга. Мактаб ўқувчиларининг аксарияти коллеж ёки университетда ўқишни давом эттиришни хоҳлашади. Психолог-маслаҳатчилар бўлажак абитуриентлар билан ишлайдилар, улар ўқувчилар учун оптимал жадвал тузишга ва муносиб университетни танлашга ёрдам беради.

Спорт АҚШ таълимида катта аҳамият эга. Ҳар бир мактаб иккита асосий кўрсаткич билан баҳоланади: академик (ўқиш) ва спорт. Ўқувчилар нафақат жисмоний тарбия машғулотларига, балки бошқа машғулотларга ҳам киришадилар, балки тавсия этилган спорт турларидан бири билан деярли профессионал даражада шуғулланадилар. Турли муассасаларда футбол, эшкак эшиш, қиличбозлик, рақс ва ҳатто от спорти курслари мавжуд. Мазкур жараёнлар спорт таълими бўйича мактаблар ўртасида рақобат муҳитини кучайишига олиб келади.[2.]

Таҳлил ва натижалар. Мактаблар бир нечта босқичга ихтисослашган: бошланғич, ўрта ва юқори мактаб, шунинг учун америкалик ўқувчилар тез-тез мактабни ўзгартирадилар. Агар ота-она фарзандининг таълимнинг барча босқичларини бир жойда ўтишини хоҳласа, улар К-12 шаклидаги мактабга жойлаштиришади.

Америкалик болалар учун умумтаълим мактаблари бепул, лекин хорижликлар учун эмас. Шунинг учун, хорижлик ўқувчилар давлат мактабларидан кўра хусусий мактабларни афзал деб топишади. АҚШда 34 мингдан ортиқ хусусий мактаблар мавжуд. [5.]

Мактадаги таълим босқичлари:[4.]

Таълим даражаси	Инглиз тили номи	Синфлар	Ёши	Битирув имтиҳонлари
Мактабгача таълим	Nursery School	Pre-K	3-4 ёш	Kindergarten Screening
Мактабгача таълим	*Kindergarten*	K	4-5 ёsh	Kindergarten Exit Assessment
Бошланғич мактаб	Elementary School / Primary School	1-5	5-11 yosh	Maktab testlari
Ўрта мактаб / Кичик ўрта мактаб	Middle School / Junior High School	6-8	11-14 ёш	Давлат имтиҳони
Юқори мактаб	High School / Senior High School	9-12	14-17 ёш	Давлат имтиҳони (SAT, ACT, IB, AP)

Мактабларни қадриятларга ихтисослаштириш ҳам анча йўлга қўйилган. Бунда улар диний, бадиий, ҳарбий, тиббий омилларни инобатга олган ҳолда мактаблар ихтисослашади. Шунда ўқувчининг қарашлари ёки келажакдаги касбга қизиқишларини инобатга олиб мактаблар маълум бир йўналишларга ихтисослашади. Бунда, мажбурий фанлардан ташқари, дастурда мусиқа асбобларини чалиш, диний билимларни ўрганиш, ҳарбий тайёргарлик ва бошқалар киради. Ихтисослаштирилган мактаб битирувчилари АҚШнинг исталган университетига кириши мумкин. Шунинг мазкур мактабларда ўқиш бошқаларга нисбатан анча нуфузли ҳисобланади. Бу эса мактаблар ўртасида рақобатбардошликни таъминлайдиган асосий омиллардандир.[2.]

Бошланғич мактаб 5-6 ёшдан бошлаб, мактабга тайёргарликдан бошланади. Баъзи мактабларда 3-5 ёшли болалар учун болалар боғчаси бўлиб, бу ҳам ота-оналарга боласининг бир жойда мослашишига замин яратади. Мазкур имкониятлар мактаблар ўртасида ўқувчини ўзига жалб қилишда рақобат муҳитини яратишга хизмат қилади.[6.]

Ўрта мактабда ўқувчилар илғор фанлар илмий ташкилотларга боришлари ёки университет даражасидаги курсга (Advanced Placement - AP) ёзилишлари мумкин. Ушбу курсга ўқувчилар орасида энг иқтидорли ўқувчилар танлов асосида сараланади, яъни бунда аъло даражадаги академик кўрсаткичларга эришганлар танлаб олинади. Масалан, илмий лабораторияда ёки университетда илғор ҳужайрали биология дарсига қатнашиш учун ўқувчи мактабда биология фанидан юқори балл тўплаган бўлиши керак. Битирувчи сертификат бўйича AP курсларини қанчалик муваффақиятли тугатган бўлса, АҚШ энг яхши университетларига кириш эҳтимоли шунча юқори бўлади.[7.]

Ўрта мактабининг баҳоси жуда муҳим. Ўқувчилар мунтазам равишда тестлар ечишади, гуруҳ лойиҳаларини бажарадилар ва лаборатория ишларини бажарадилар. Бу коллеж ёки университетга киришнинг муҳим мезонларидан бири бўлган ҳар бир фан ва GPA бўйича якуний балларни қўшиб қўяди. Аксарият мактаблар (A-F) ҳарфи билан бирга 4 ёки 5 балли тизимдан фойдаланадилар, лекин 6 ёки ҳатто 11 балли тизимга эга бўлган мактаблар ҳам бор.[8.]

Баъзи штатларда ўрта мактаб ўқувчиларини АҚШ университетларига кириш учун зарур бўлган SAT ва ACT имтиҳонларига тайёргарлик кўришга эътибор қаратадилар. SAT ва ACT имтиҳонларига барча

мактабларда ҳам ўқувчиларни тайёрлашмайди. Шунинг учун мактаблар айнан ушбу имтиҳонларга ўқувчиларни тайёрлаш борасида ўзаро рақобатлашадилар.[9.]

АҚШда мактабларнинг рейтингини аниқлаш юзасидан 50 штатнинг мактаблари қуйидаги мезонлар асосида 100 балл билан баҳоланди:

ўқувчилар муваффақияти (25 балл);

мактаб сифати (35 балл);

ўқувчилар хавфсизлиги (40 балл).[10.]

Ўқувчиларнинг муваффақияти тест баллари ва битирув натижалари каби турли академик кўрсаткичлар орқали ўлчанади. Мактаб сифати мактаб жойлашган ҳудудддаги мавжуд ресурслар даражасини ҳисобга олади. Ниҳоят, ўқувчилар хавфсизлиги мактаб тизими рейтингини аниқлашда муҳим омил ҳисобланади. Бунга мактаб хавфсизлиги чоралари, безориликнинг олдини олиш дастурлари ва ўқувчиларнинг мактабда ўзларини хавфсиз ҳис қилишларини таъминлашга қаратилган бошқа ташаббуслар киради.

Баҳолаш мезонлари 43 та кўрсаткичдан [10.] фойдаланган ҳолда баҳоланади. Барча мезонлар 100 баллик тизим бўйича баҳоланди.

1.Ўқувчилар муваффақияти: 25 балл.

№	Кўрсаткичлари	Ажратилган баллар	Аниқлаш усуллари
	Ўрта мактабни битириш даражаси	2,27 балл	Мактабни битирган ўқувчиларнинг фоизи билан ўлчанади.
	Ўрта мактабни тарк этиш даражаси	2,27 балл	16-24 ёшгача бўлган ўқувчилар орасида мактабни ташлаб кетганлар фоизи билан ўлчанади (ҳолатни тарк этиш даражаси).
	SAT баллари	2,27 балл	Мактаб ўқувчиларининг SAT ўртача баллари билан ўлчанади.
	ACT баллари	2,27 балл	Мактаб ўқувчиларининг ACT ўртача баллари билан (қўшма балл: инглиз тили, математика, ўқиш, фан баллари) ўлчанади.
	Коллежга кириш салмоғи	2,27 балл	Мактаб битирувчиларининг бевосита коллежга кириш фоизи билан ўлчанади.
	Ўқиш саводхонлиги даражаси	2,27 балл	4 ва 8-синф ўқувчиларнинг ўқиш баллари орасидаги ўртача балл билан ўлчанади.
	Математика фани саводхонлиги даражаси	2,27 балл	
	Бошқа фанлардан синов натижалари бўйича	2,27 балл	
	AP имтиҳонида иштирок этганлар сони	1,14 балл	AP имтиҳонини топширган битирувчиларнинг фоизи билан ўлчанади.
	AP имтиҳон баллари даражаси	1,14 балл	AP имтиҳонида 3 ёки ундан юқори балл олган битирувчиларнинг фоизи билан ўлчанади.
	Иқтидорли дастурлардаги ўқувчилар сони	1,14 балл	Иқтидорли дастурларга киритилган ўқувчилар фоизи билан ўлчанади.
	Сабабсиз дарс жараёнлари бўлмаган кунлар сони	1,14 балл	Дарс жараёнлари бўлмаган кунлар сони ўлчанади (ҳар бир мактаб учун).
	Синфдан-синфга қолдирилган ўқувчилар сони	0,57 балл	Синфдан-синфга қолдирилган ўқувчилар фоизи билан ўлчанади.
	Ўтган йилга нисбатан бу йилда ўқувчиларнинг мактабда қолиш даражаси	0,57 балл	8-синфгача ўқувчиларининг қолган фоизи билан ўлчанади.

	Ўқувчиларнинг спортдаги иштироки	1,14 балл	Ўқувчининг спорт жамоасида иштирок этишини ёки мактабдан кейин ёки дам олиш кунларида, 6-17 ёшда спорт машғулотларини ўтказганлиги билан ўлчанади.

2.Мактаб сифати: 35 балл.

№	Кўрсаткичлари	Ажратилган баллар	Аниқлаш усуллари
	Бир ўқувчи учун йиллик харажатлар	3,50 балл	Мактабда молия бўйича ҳар бир ўқувчига тўғри келадиган йиллик харажатлар билан ўлчанади.
	Мактабнинг нуфузи	3,50 балл	Мактабларининг Топ 100 талигида (US News & World Report томонидан АҚШнинг энг яхши мактаблари) бўлиш фоизи билан ўлчанади.
	Ўқувчининг ўқитувчига нисбати	3,50 балл	Ўқувчининг ўқитувчига нисбати билан ўлчанади.
	Психолог-маслаҳатчиларнинг мавжудлиги	3,50 балл	Мактабда психолог-маслаҳатчиларнинг сони билан ўлчанади.
	Саломатлик кенгашларининг мавжудлиги	1,75 балл	Бир ёки бир нечта мактаб соғлиқни сақлаш кенгашлар фоизи билан ўлчанади.
	Ҳамширанинг мавжудлиги	3,50 балл	Мактабда ҳамширалар сони билан ўлчанади.
	Соғлиқни сақлаш бўйича ўқув дастурининг мавжудлиги	1,75 балл	6-12-синфларда соғлиқни сақлаш бўйича талаб қилинган кўрсатма фоизи билан ўлчанади.
	Соғлом овқатланиш ўқув дастурининг мавжудлиги	1,75 балл	Соғлом овқатланишнинг афзалликларини ўргатган ўқитувчиларнинг фоизи билан ўлчанади.
	Жинсий саломатлик бўйича ўқув дастурининг мавжудлиги	1,75 балл	жинсий саломатлик ҳақидаги барча 20 та мавзуни (жумладан, ОИТС ва СПИД қандай юқиши билан боғлиқ мавзулар, контрацепция усуллари, жинсий ориентация, гендер ифодаси, соғлом муносабатларни яратиш ва сақлаб қолиш, жинсий хавф-хатарли хатти-ҳаракатлар) 9, 10, 11 ёки 12-синфларда мажбурий ўргатган ўқитувчиларнинг фоизи билан ўлчанади.
	Давлат лицензиялаш талабларига жавоб берадиган ўқитувчилар салмоғи	3,50 балл	Давлат лицензиялаш/сертификатлаш талабларига жавоб берадиган ўқитувчилар фоизи билан ўлчанади.
	Тажрибали ўқитувчилар даражаси	3,50 балл	3 ёки ундан ортиқ йиллик тажрибага эга бўлган ўқитувчиларнинг фоизи билан ўлчанади.
	Ўқитувчиларнинг ўртача иш ҳақи	3,50 балл	Ўқитувчиларнинг ўртача иш ҳақига мослаштирилган яшаш нархи билан ўлчанади.

3.Талабалар хавфсизлиги: 40 балл.

№	Кўрсаткичлари	Ажратилган баллар	Аниқлаш усуллари
	Безорилик даражаси	3,33 балл	Мактаб мулкига зарар етказган ўқувчиларининг фоизи билан ўлчанади.
	Гиёҳванд моддаларни истеъмол қилиш	3,33 балл	Ноқонуний гиёҳванд моддаларини таклиф қилган, сотган ёки берган, истеъмол қилган ўқувчиларнинг фоизи билан ўлчанади.
	Мактаб хавфсиз бўлмаганлиги туфайли ўқувчиларнинг дарсга келмаслиги	3,33 балл	Мактабга кетаётганда ёки мактабдан келаётганда ўзларини хавфсиз ҳис қилмаган ва мактабга бормаган ўқувчиларнинг фоизи билан ўлчанади.

	Безорилик ва жинсий зўравонликнинг олдини олиш	6,67 балл	Барча мактаб ходимлари ўқувчиларни зўравонлик ва жинсий зўравонликнинг олдини олиш, аниқлаш ва уларга жавоб бериш бўйича касбий малака оширганлик фоизи билан ўлчанади.
	Жинсий тажовуз даражаси	1,67 балл	Жинсий тажовузга учраганларнинг фоизи билан ўлчанади.
	Зўрлаш ёки зўрлашга уриниш даражаси	1,67 балл	Зўрлаш ёки зўрлашга уринишдан жабр кўрганларнинг фоизи билан ўлчанади.
	Қурол билан ўғрилик даражаси	1,67 балл	Қурол билан ўғриликлар фоизи билан ўлчанади.
	Ўқотар қурол ёки портловчи модда билан ўғрилик даражаси	1,67 балл	Ўқотар қурол ёки портловчи модда билан ўғрилик фоизи билан ўлчанади.
	Қуролсиз талончилик даражаси	1,67 балл	Қуролсиз ўғриликлар ва талончиликлар фоизи билан ўлчанади.
	Жисмоний ҳужум ёки қурол билан безорилик қилиш даражаси	1,67 балл	Жисмоний ҳужумлар ёки қурол билан безориликлар фоизи билан ўлчанади.
	Ўқотар қурол ёки портловчи мослама билан безорилик қилиш даражаси	3,33 балл	Ўқотар қурол ёки портловчи моддалар билан безориликлар фоизи билан ўлчанади**.**
	Қуролсиз жисмоний ҳужум	1,67 балл	Қуролсиз жисмоний ҳужумлар фоизи билан ўлчанади.
	Қурол билан жисмоний ҳужум таҳдидлари	1,67 балл	Қурол билан жисмоний ҳужум таҳдидларининг фоизи билан ўлчанади.
	Ўқотар қурол ёки портловчи қурилма билан жисмоний ҳужум қилиш таҳдиди	1,67 балл	Ўқотар қурол ёки портловчи қурилма билан жисмоний ҳужумлар таҳдидининг фоизи билан ўлчанади.
	Қуролсиз жисмоний ҳужум таҳдидлари	1,67 балл	Қуролсиз жисмоний ҳужумлар таҳдидининг фоизи билан ўлчанади.
	Ўқотар қурол ёки портловчи қурилмага эга бўлиш	3,33 балл	Ўқотар қурол ёки портловчи мосламага эга бўлиш фоизи билан ўлчанади.

43. Ўқотар қурол ёки портловчи қурилмага эга бўлиш
3,33 балл Ўқотар қурол ёки портловчи мосламага эга бўлиш фоизи билан ўлчанади.

Хулоса ва таклифлар. Эътиборлиси, АҚШда мактаблар рейтингини аниқлашда энг кўп ажратилган баллар мактаб хавфсизлиги билан боғлиқ кўрсаткичлар улушига тўғри келади. Демак, мактаблар дастлабки ўринда мактаб хавфсизлиги, мактаб сифати ва ундан кейин ўқувчилар муваффақияти оид кўрсаткичлар учун рақобатлашишади. Шунга қарамай таълим сифати АҚШда етарли даражада таъминланган. Масалан, PISA халқаро баҳолаш тадқиқотларида АҚШ умумий ўртача 1,485 балл билан 22-ўринни эгаллган, бу ОЕСД мамлакатлари учун баҳоланган ўртача 1,465 баллдан юқорироқдир[11.].

Хорижий тажрибанинг таълимдаги рақобатни ташкил этиш борасидаги та-

жрибаси таълим соҳасидаги энг муҳим стратегик қарорларни прогнозлаш ва қабул қилиш, жорий қилиш тартибларини такомиллаштириш учун зарурдир.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jonatan Zimmerman. “Obama davridagi ta'lim: Konsensus paradoksi” Zelizer, tahr., Barak Obamaning Prezidentligi 110–28-betlar, MakGinn, Patrik (2012). "Islohotlarni rag'batlantirish: yuqori poyga, raqobatbardosh grantlar va Obamaning ta'lim dasturi". Ta'lim siyosati. 26 (1):Б.136–159.
2. https://www.unipage.net/en/schools_usa
3. https://idum.uz/uz/archives/9983
4. https://en.wikipedia.org/wiki/K-12_education_in_the_United_States
5. https://www.thinkimpact.com/number-of-schools-in-the-us/
6. https://en.wikipedia.org/wiki/Education_in_the_United_States
7. https://theboardingschools.ru/blog/vse-chto-vy-xoteli-znat-o-programme-advanced-placement-ap/
8. https://www.ef.ru/blog/language/kak-schitat-gpa/
9. https://travelsmartclub.com/publications/chto-takoe-sat-i-act-ekzameni-chem-oni-otlichayutsya
10. https://scholaroo.com/report/state-education-rankings/
11. https://worldpopulationreview.com/country-rankings/pisa-scores-by-country

SPORT MASHG‘ULOTLARI JARAYONINI TASHKIL ETISH ASOSLARI

SABUROV ARTUR KO‘KLEN OG‘LI
Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxasislarni qayta tayorlash va malakasini oshirish instituti Nukus filiali o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada sport mashg‘ulotlari jarayonini tashkil etish va sportchilar organizmiga yuklamalarning to‘g‘ri yo‘nalish berish, mashg‘ulot bilan shug‘ullanish vaqtlari haqida ma‘lumotlar keltirildi. Mashg‘ulotlarni to‘g‘ri va yosh xususiyatiga mos holda rejalashtirish va uning maqsadi, sport mashg‘ulotlarida yuklamalar va shug‘ullanuvchilar organizmiga tasiri haqida tegishli ma‘lumotlar ko‘rib chiqildi.

Kalit so‘zlar: Mikrostruktura, mezostruktura, makrostruktura, zveno, tsikllar, tezlik, chaqqonlik, chidamlilik, jismoniy tarbiya vositalari, stadiya.

Аннотация: В статье приведены сведения об организации процесса спортивной подготовки, правильном направлении нагрузок на организм спортсменов и времени тренировок. Рассмотрена соответствующая информация о правильном и соответствующем возрасту планировании тренировок и их целях, нагрузках во время спортивных тренировок и влиянии на организм участников.

Ключевые слова: Микроструктура, мезоструктура, макроструктура, связь, циклы, скорость, ловкость, выносливость, средства физического воспитания, стадий.

Annotation: The article provides information on the organization of the sports training process, the correct direction of the loads on the athletes' body, and the time of training. Appropriate information about the proper and age-appropriate planning of training and its purpose, loadings during sports training, and the effect on the body of participants was reviewed.

Key words: Microstructure, mesostructure, macrostructure, communication, cycles, speed, agility, endurance, physical education tools, stage.

Sport mashg‘ulotini muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim shartlaridan biri uni tog‘ri rejalashtirish hisoblanadi. Sportchini sport maktabida dastlabki 1-2-3 yilida murabbiy e’tiborini asosan shug‘ullananuvchining hamma tomonlama tayyorgarligining mustaqil fundamentini yaratish va ularni sport texnikasiga o‘qitishga qaratishi lozim. Keyingi yillarda jismoniy sifatlarni tarbiyalash, sport texnikasida takomillashish bo‘yicha vazifalar shug‘ullanayotganlarning yoshga oid xususiyatlari, ularning tayyorgarlik darajasi va boshqa omillar bilan muvofiq tarzda hal qilinadi.

11-16 yoshda alohida e‘tibor tezlikni tarbiyalashga qaratilsa, 15-16 yoshda sportchining mushak kuchi va maxsus chidamliligini rivojlantirishga bo‘lgan mashqlarni bajarishga qaratiladi. Yangi vazifalarni qo‘yish, nazorat me‘yorlarini ishlab chiqish, dastlabki yillarda sportchi mashg‘ulotining mazmun va uslublarini chuqur tahlilida asoslanishi lozim. Bunda sportchi tayyorgarligining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash, qanday sifatlarni yanada mukammallashtirish kerakligini aniqlashga e‘tibor qaratishi talab qilinadi[1].

Jismoniy tayyorgarlik - erishilgan va birlashgan ishchanlikni, amaliy harakatdagi ko‘nikma va malakalarni maqsadli faoliyatning samaradorligiga ta’sir ko‘rsatish

bo‘yicha tashkil topgan tayyorgarlik natijasi hisoblanadi[2]. Jismoniy tarbiyada uchta asosiy yo‘nalish mavjud bo‘lib, inson jismoniy tarbiyasi ana shu yo‘nalish asosida amalga oshiriladi. Ular umumiy jismoniy tayyorgarlik, kasb-hunar jismoniy tayyorgarligi, sport tayyorgarligidir.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik sog‘liqni mustahkamlashga, keng doirada harakat malakalari va ko‘nikmalariga ega bo‘lishiga, o‘zidan keyingi maxsus tayyorgarlikka zamin bo‘lishi uchun xizmat qiladigan asosiyharakat sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Umumiy jismoniy tayyorgarlik maqsadida jismoniy tarbiyaning barcha turdagi vositalaridan, xilma-xil jismoniy mashqlardan, tabiatning sog‘lomlashtiruvchi kuchlari va gigienik omillardan foydalaniladi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik jismoniy tarbiyaning barcha bosqichlarida ko‘proq maktab jismoniy tarbiya tizimida, ommaviy sog‘lomlashtirish ishlarida va jismoniy mashqlar bilan individual shug‘ullanish shakllari orqali amalga oshiriladi.

Jismoniy mashqlar texnikasi muntazam ravishda rivojlanadi: odatlangan texnika takomillashtiriladi, ba’zida esa usullar barham topadi, yangilari tuziladi. Bu jarayon qator sabablar bilan belgilanadi:

1. Sport tayyorligi darajasiga talablarning muntazam o‘sayotganligi.

2. Harakatlar bajarilishining mukammallashgan usullarini uzluksiz izlash, muvofiq tekshirishlar natijasi va rolining oshishi.

3. Yangi sport anjom-jihozlarining yuzaga kelishi.

Jismoniy mashq texnikasi etakchi sportchilarning (muayyan vaqt uchun) harakat bajarish usullarini amaliyotda tekshirish va ilmiy tahlil qilish, izlanish natijasi bilan ifodalanadi[3].

Bunday zamonaviy texnika harakatni bajaruvchilarning barchasi uchun teng darajada eng oqilona asosni aks ettiradi va shu sababli andozali texnika deb ataladi.

Shug‘ullanuvchilar organizmiga ko‘rsatadigan mashqlarning ta’siri samaradorligi hamda mashqlar texnikasini muvaffaqiyatli bajarish harakatlanayotgan gavdaga, uning qismlariga yoki harakatlanadigan buyumga qanchalik to‘g‘ri yo‘nalish berilganiga bog‘liq.

Jismoniy tarbiya jarayoni bu - sikllami hosil qiluvchi mashg’ulotlar va bosqichlaming berk aylanishi hisoblanadi. Shungamuvofiq uchta turi ajaratiladi: mikrosikllar (haftalik), ular mashqlaming takroriy qo’llanilishi va bir vaqtning o‘zida ulaming har xil yo’nalganligi yuklama va dam olishning uyg’unlashuvibilan tavsiflanadi; mezosikllar (oylik), ular ikkitadan oltitagacha mikrosikllami o’z ichiga oladi, ularda vositalaming miqdori, uyg’imlashish tartibi va nisbatlari o’zgarib turadi; makrosikllarda (yillik), jismoniy tarbiya ja rayoni uzoq vaqt davom etadigan bosqichlarda amalga oshiriladi[5].

Sport mashg‘ulotini muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim shartlaridan biri uni to‘g‘ri rejalashtirishdir. Sportchini sport maktabida dastlabki 1-2-3 yilida murabbiy e’tiborini asosan shug‘ullananuvchining hamma tomonlama tayyorgarligining mustaqil fundamentini yaratish va ularni sport texnikasiga o‘qitishga qaratishi lozim. Keyingi yillarda jismoniy sifatlarni tarbiyalash, sport texnikasida takomillashish bo‘yicha vazifalar shug‘ullanayotganlarning yoshga oid xususiyatlari, ularning tayyorgarlik darajasi va boshqa omillar bilan muvofiq tarzda hal qilinadi.

Sport maktabida o‘quv-mashg‘ulotlari jarayonida rejalashtirish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi: istiqbollik (ko‘p yillik),

joriy (yillik) va operativlik hisoblanadi.

Rejalashtirishning asosiy hujjatlari yosh sportchilarni tayyorlashning guruh va individual istiqbolli rejalari bilan nomoyon bo‘ladi. Joriy yillik rejalashtirishning hujjatlari mashg‘ulotning yillik guruh va individual rejalar asosida olib boriladi. Operativ rejalashtirish hujjatlari esa 1 oylik yoki 1 haftalik siklga mo‘ljallangan mashg‘ulotning guruhli va individual turlarini aks ettiradi.

Demak yuqorida sanab o‘tilgan rejalashtirishning barcha hujjatlari sport maktablari uchun tuzilgan o‘quv dasturlari asosida tuziladi. Shuning bilan bir qatorda sport mashg‘ulotlarining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, murabbiy muayyan vazifalrni belgilab oladi va shu vazifalar ko‘p yillik tayyorgarlik mobaynida va uning alohida bosqichlarida hal etilishini tahlil qilib boradi.Bundan so‘ng mashg‘ulot jarayonining mazmuni aniqlanadi, vositalar tanlanadi, sport tayyorgarligi bosqichlari belgilanadi, shu bilan birga, mashg‘ulotlarning namunali soni, optimal mashg‘ulot va musobaqa yuklamalari, nazorat me’yorlari va boshqa ko‘rsatkichlar belgilanadi. Ko‘p yillik mashg‘ulotning istiqbolli rejalashtirish ahamiyati juda ham kata hisoblanadi [6].

Bolaligida boshlangan va ko‘p yillar davom etadigan insonni jismoniy tarbiyalash jarayoni u tizimli tarzda yosh sportchining o‘sayotgan organizmining yoshga oid xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan istiqbolli reja asosida amalga oshirilgandagina yuqori samaraga erishadi.

Mashg‘ulot yuklamalarini oshishining qat’iy izchilligi sekin ko‘payishi alohida ahamiyatga ega. Shifokor tadqiqotlarining ma’lumotlariga ko‘ra, yosh sportchilarning tayyorgarligida jiddiy kamchiliklar mashg‘ulot yuklamalarining intensivligi va hajmini oshirishda izchillik va ketma-ketlik buzilganida kuzatiladi.

Yosh sportchi musobaqa tayyorgarligini to‘g‘ri rejalashtirish ham muhim ahamiyatga ega. O‘spirin va yoshlar aksariyat hollarda musobaqalarda ishtirok etib, musobaqa xarakteridagi yuqori yuklamalarni bajaradilar. Albatta, nazorat musobaqa va musobaqalarning o‘zlari zarurdir, chunki ular yosh sportchini musobaqa vaziyatida harakat qilishga o‘rgatadi. O‘z imkoniyatlarini aniqlash imkoniyatini berib, murabbiyga o‘z tarbiyalanuvchisining progressini kuzatish imkoniyatini beradi.

Ammo mazkur sharoitlarda ish katta energetik sarf-xarajatlar, yuqori asab va jismoniy zo‘riqish bilan bog‘liqligi va bularning barchasi keyingi uzoq muddatli tiklanishini hisobga olsak, yosh sportchini nazorat musobaqa va musobaqalarda haddan ziyod tez-tez ishtirok etishi unga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Texnikaning to‘g‘ri asoslari shakllanmaganda ham musobaqalarda ishtirok etish maqsadga muvofiq emas. Musobaqalarni rejalashtirishda asta-sekinlik, izchillik tamoyiliga qat’iy rioya qilish lozim. Bunda yillar bo‘yicha musobaqalar soni katta yoshli sportchilardan ko‘ra, ancha sekin o‘zgarishi lozim. Istiqbolli rejalarni ishlab chiqishda yosh portchilarning individual xususiyatlarini, ularni tayyorgarlik darajasini batafsil hisobga olib, shundan kelib chiqqan holda, yildagi musobaqalarning muayyan soni haqidagi masalani hal qilish kerak.

Yuqori mahoratli (toifadagi) sportchilarni tayyorlash jarayonini, shartli ravishda, uchta o'zaro bog’liq tashkil etuvchilarga ajratish mumkin: jarayonni tizimli qurish, uni amalga oshirish va tayyorgarlikning borishini nazorat qilish.

Sport tayyorgarligini tuzish jarayonida mashg‘ulot jarayonining yaxlitligi ma‘lum

tuzilma (struktura) asosida ta‘minlanadi.U tashkil etuvchi komponentalarni birlashtirishning mustahkam tartibini uning umumiy ketma-ketligini tashkil etadi.

Mashg‘ulot tizimi, xususan, quyidagilar bilan xarakterlanadi:

1) mashg‘ulot mazmunini tashkil etadigan elementlarni (umumiy va maxsus jismoniy, taktik va texnik tayyorgarlik vositalarini) o‘zaro aloqadorlik tartibi;

2) mashg‘ulot yuklamasi parametrlarini (hajmi va intensivligining miqdoriy va sifat harakteristikalarini) kerakli o‘zaro nisbati;

3) mashg‘ulot jarayonining turli zvenolarini (alohida mashg‘ulotlarni va ularning qismlarini, bosqichlarni, davrlarni, sikllarni) ma‘lum ketma-ketligi. Ushbu zvenolar mazkur jarayonni fazalaridan yoki pallalaridan tashkil topgan bo‘ladi ularni borishi davomida mashg‘ulot jarayoni qonuniy o‘zgarishlarga uchraydi [7].

Mashg‘ulot jarayoni davom etadigan vaqt masshtablariga bog‘liq holda quyidagilarni o‘zaro farq qiladilar:

a) mikrostrukturani alohida mashg‘ulot tuzilmasini va mashg‘ulot kuni tizimini mikrotsiklini (masalan haftalik t siklni):

b) mezostrukturani- nisbatan tugallangan (masalan, umumiy davomiyligi yig‘indisi bir oy atrofida bo‘lgan) mikrosikllarni o‘z tarkibiga olgan mashg‘ulot bosqichlari tizimini;

v) makrostrukturani - yarim yillik, yillik va ko‘p yillik singari katta mashg‘ulot tsikllari tizimini.

Ayrim sport turlarida ko‘p yillik jarayonning stadiyalari va bosqichlari o‘rtasida aniq chegaralar yo‘qligini hamda ushbu stadiya va bosqichlarning aniq vaqt doiralarini belgilash qiyinligini ta‘kidlab o‘tish lozim.

Ko‘p yillik sport mashg‘ulotini ratsional tuzish quyidagi omillarni inobatga olish asosida amalga oshiriladi:

tanlangan sport turida odatda eng yuqori natijalarga erishiladigan optimal yosh chegaralarini; bunday natijalarga erishish uchun muntazam tayyorgarlik davomiyligini;

- ko‘p yillik tayyorgarlikning har bir bosqichida mashg‘ulotning ustivor yo'naluvchanligini;

-sportchi mashg‘ulotlarni boshlagan pasport bo‘yicha yoshini va maxsus mashg‘ulotlar boshlangan biologik yoshini;

-sportchining individual xususiyatlarini va uning mahoratini o‘sib borish tempini.

Umumuytushunchagakelibto‘xtaladigan bo‘lsak sport maktablarida shug‘ullanuvchi sportchilarning yosh davrlarini e‘tiborga olib va ularning jismoniy imkoniyatlaridan kelib chiqgan holda mashg‘ulotlarning namunaviy tizim vaqtlari va ularni rejalashtirish haqida kerakli ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan.

Sportchining ko‘p yillik mashg‘ulot va musobaqalar jarayoni quyidagi uslubiy qoidalar asosida tuziladi:

1. Barcha yosh guruhlarida tayyorgarlikning vazifalarini, vositalarini, uslublarini, tashkiliy ko‘rinishlarini aniq uzviyligini ta‘minlaydigan yaxlit pedagogik tizim. Tanlangan sport turi uchun optimal yosh chegaralarida erishilgan eng yuksak natijalar ko‘p yillik tayyorgarlik effektivligining assiy mezoni hisoblanadi.

2. Barcha yosh guruhlari uchun tayyorgarlikjarayonidaengyuksaknatijalarga nisbatan maqsadli yo’naluvchanlik.

3. Ko‘p yillik mashg‘ulot jarayonida sportchi tayyorlanganligini turli tomonlarini optimal nisbati (bir xil o‘lchov birliklarida bo‘lishi).

4. Umumiy va maxsus tayyorgarlik vositalari hajmini (ular o’rtasidagi nisbat asta sekinlik bilan o‘zgaradi) qat‘iy ortib borishi. Yildan yilga maxsus tayyorgarlik vositalarining solishtirma og‘irligi

mashg‘ulot yuklamalarining umumiy hajmiga nisbatan ortib boradi va, mos ravishda, umumiy tayyorgarlik solishtirma og‘irligi kamayib boradi.

5. Mashg‘ulotmusobaqayuklamalarining hajmini va va intensivligini ilgarilab ortib borishi. Navbatdagi yillik siklning har bir davri oldingi yillik siklning mos davriga nisbatan mashg‘ulot yuklamalarining ancha yuqori darajasi bilan boshlanishi va tugashi kerak.

6. Mashg‘ulot va musobaqa yuklamalaridan foydalanish jarayonida, ayniqsa bolalar va o‘smirlar bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda, asta sekinlikk aniq rioya qilish, chunki faqat ko‘p yillik jarayonning barcha bosqchlarida mashg‘ulot va musobaqa yuklamalari sportchining biologik yoshiga va individual imkoniyatlariga to‘liq mos kelgan holdagina har tomonlama tayyorlanganlik barqaror o‘sishi mumkin.

Ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarida mashg‘ulot jarayonining ustivor yo‘naluvchanligi jismoniy sifatlar rivojlanishining ushbu sensitiv davrlarini inobatga olgan holda aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaev. M.J “Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi”. Darslik-Toshkent. 2020 yil.
2. Tursunaliyev. I.A “Jismoniy tarbiya va sport”. Darslik. –Toshkent. 2021 yil.
3. Salomov. R.S “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati”. Darslik 1-jild. Toshkent. 2014 yil.
4. Salomov. R.S “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati”. Darslik 2-jild. Toshkent. 2014 yil.
5. Salomov. R.S “Sport mashg‘ulotlari nazariyasi va uslubiyati”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2005 yil.
6. Муродов Ф.М “Физическое воспитание в дошкольном образовании Учебное пособие. -Чирчик. 2020 г.
7. Saliev X.X “Jismoniy tarbiya va sport”. Darslik. –Toshkent. 2020 yil.
8. Norqobilov M.N “Jismoniy tarbiya va sport”. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent. 2021 yil.

OLIY PEDAGOGIK TA’LIMDA ARALASH O‘QITISH MODELLARIDAN FOYDALANISH – PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

HAMIDOVA LAYLO KAMILDJONOVNA
Samarqand davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy pedagogik ta’limda aralash o‘qitish modellaridan foydalanishda yuzaga keladigan pedagogik muammolar yoritib berilgan. Aralash ta’lim zamonaviy ta’lim jarayonida keng qo‘llaniladigan ta’lim usulidir. Pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish juda muhim jarayon hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Aralash ta’lim, masofaviy o‘qitish, raqamli texnologiyalar, pedagogik innovatsiyalar, professional kadrlarni tayyorlash.

Аннотация: В данной статье рассматривается использование смешанных моделей обучения в высшем педагогическом образовании как педагогическая проблема. Смешанное обучение – широко используемый метод обучения в современном образовательном процессе. Индивидуализация образовательных процессов на основе цифровых технологий, развитие услуг дистанционного образования – очень важный процесс для постоянного развития профессиональных навыков педагогов.

Ключевые слова: Смешанное образование, дистанционное обучение, цифровые технологии, педагогические инновации, подготовка профессиональных кадров.

Abstract: This article highlights the use of mixed teaching models in higher pedagogical education as a pedagogical problem. Mixed education is a widely used educational method in the modern education process. Individualization of educational processes based on digital technologies, development of distance education services is a very important process in order to continuously develop the professional skills of pedagogues.

Keywords: Mixed education, distance learning, digital technologies, pedagogical innovations, training of professional personnel.

Kirish.Hozirgi vaqtda ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik innovatsiyalarni keng ko‘lamda qo‘llash jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Pedagogik innovatsiyalar ko‘lamining ortib borishi, mamlakatda modernizatsiya jarayoni tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan ayni davrda ta’lim sohasiga yangiliklarni tizimli ravishda kiritishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan O‘RQ-637 sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida masofaviy ta’lim o‘quv rejalari va o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim,malaka va ko‘nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda internet jahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda masofadan turib qabul qilishga qaratilganligi bizga ma’lum. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 —2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni [1] va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli farmoni[2]da o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya

jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish; uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish; o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish; xalq ta’limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish; bo‘lajak pedagoglar uchun pedagogik faoliyatga moyillik va ijodkorlik qobiliyatlarini anilash va baholash imkoniyatini beruvchi metodlarni ishlab chiqish kabi vazifalar belgilangan.

Shuningdek,O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son farmoni [3]da zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish; ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish; zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta’lim dasturlarini tashkil etish; ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar, seminarlarni onlayn kuzatish va o‘zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi “E-MINBAR” platformasini amaliyotga joriy etish, ta’lim jarayonlarida “bulutli texnologiyalar”dan foydalanish kabi dolzarb vazifalar belgilangan.

Hozirgi vaqtda masofaviy ta’limga munosabat ijobiy tomonga o‘zgarib, ayniqsa internet hayotning barcha jabhalariga kirib borganligi sababli, u hamma joyda, deyarli hamma uchun ochiq. Aralash ta’lim, birinchi navbatda, turli xil ta’lim axborot tizimlari va platformalaridan (masalan, Hemis, Moodle) foydalanadigan, internet resurslariga kirish imkoniga ega bo‘lgan va har xil turdagi vazifalarni qayta ishlash, tizimda o‘z fikringizni bildirish imkonini beradigan OTMlarda tez tarqala boshladi. Har qanday darajadagi talabalar uchun oliy ma’lumot olish maqsadida aralash ta’lim, o‘quv traektoriyasini tanlash orqali talabalarning o‘zini o‘zi anglashi uchun sharoit yaratadi. Ta’lim rivojlanishining zamonaviy davri axborotlashtirish jarayoni bilan tavsiflanadi, bu esa ta’limni metodologiya bilan ta’minlaydi, axborot va axborotlashtirish imkoniyatlarini amalga oshirishga qaratilgan ilmiy-pedagogik, o‘quv-uslubiy, dasturiy va texnologik ishlanmalarni yaratish shuningdek, ulardan optimal foydalanish amaliyotini ta’minlaydi [4].

Xorijiy mamlakatlar olimlaridanC.R.Graham Blended learning texnologiyasi yuzasidan bir qancha ilmiy izlanishlarini bayon qilgan. A.Alammary aralash ta’lim va undan oliy ta’limda foydalanish imkoniyatlari yuzasidan izlanishlar o‘tkazgan.Oliy ta’limda mobil aralash ta’lim uchun o‘quv dizayn modelini ishlab chiqishga yondashuv I. K. Suartama, P. Setyosari, S. Sultoni va S. Ulfa tomonidan tasvirlangan. Tadqiqotchilar universitetning Media ta’lim kursi uchun mobil aralash ta’lim loyihasini yaratdilar, uning maqsadi talabalarga ta’limda ommaviy axborot vositalarini loyihalash, ishlab chiqish, foydalanish, baholash va baholash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar berishdir. Ishlab chiqilgan model o‘quv maqsadlari, o‘rganish bosqichlari va Moodle LMS mobil ilovasining xususiyatlaridan iborat matritsa ko‘rinishida taqdim etilgan. Tadqiqotchilar Blumning qayta ko‘rib chiqilgan taksonomiyasining

o‘quv maqsadlari asosida 8 ta o‘quv maqsadini shakllantiradilar. Ular aralashta’li muchbosqichdaniborat deb hisoblaydilar:

1) darsoldidan (onlayn);

2) sinfda/saytda (oflayn);

3) darsdan keyin (onlayn).

Rus olimlari orasida aralash ta’lim masalalaridako‘plabolimlar tadqiqot ishlarini olib borishgan. Jumladan, Y.I. Kapustina, M.N. Moxova, M.S. Orlova, M.N.Kornev, A.S.Krilova, G.V.Kravchenko, E.A.Krilova, M.Medvedev, G. Tkachuk, N.V.Garashkina, A.Litvinov, aralash ta’lim texnologiyasi, ta’lim jarayonida aralash ta’lim modellaridan foydalanish hamda teskari o‘qitish texnologiyasidan foydalanishning ahamiyati bo‘yicha ko‘plab izlanishlar olib borishgan.

A.Litvinovning fikricha, aralash ta’lim – bu bitta ta’lim jarayonida onlayn va oflayn ta’limning kombinatsiyasi bo‘lib, u o‘quvchining “o‘quv tajribasi” va o‘zini o‘zi ta’minlaydigan mantiqiy kurs yoki mavzuni tashkil qiladi. M.Moxovaning fikricha, aralash ta’lim talabalar tomonidan masofaviy ta’limni mustaqil o‘rganish orqali o‘quv materialini yetkazib berishni nazarda tutadi va materialni mustahkamlash faol o‘qitish usullaridan foydalangan holda o‘qituvchi bilan uchrashish rejimida sodir bo‘ladi. M.Medvedev aralash ta’limni kunduzgi, masofaviy va mustaqil ta’limni birlashtirgan o‘qitish tizimi sifatida tushunadi, bu o‘qituvchilar, talabalar va interaktiv axborot manbalari o‘rtasidagi o‘zaro aloqani o‘z ichiga oladi, bir-biri bilan doimiy o‘zaro ta’sirda ishlaydi, bir butunni tashkil qiladi [5].

N. V. Garashkinava A. A. Drujinina – bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxsiy va kasbiy rivojlantirishda teskari ta’lim shakllaridan foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazishgan. G.Tkachuk bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini aralash ta’limga tayyorlashni o‘rganar ekan, aralash ta’lim insonning bilim, ko‘nikma, ko‘nikma va kognitiv faoliyati yo‘llarini o‘tkazish va o‘zlashtirishning maqsadli jarayoni bo‘lib, an’anaviy, kompyuter-kompyuter texnologiyalarining kombinatsiyasiga asoslanganligini aniqlaydi. Yo‘naltirilgan texnologiyalar, masofaviy va mobil yo‘naltirilgan ta’lim. Muallifning fikriga ko‘ra, aralash ta’lim konstruktivizm va bog‘lanish g‘oyalariga asoslanadi, unda rolli o‘yinlar, aqliy hujum va munozaralar, keys usuli, loyiha usuli, bosma va electron manbalarda qidirish usullari, yozma ravishda tashkil etish kiradi. asarlar (insholar). Shu bilanbirga, guruh, jamoaviy, individual, mustaqilish shakllari faol qo‘llaniladi [6].

Mamlakatimiz olimlaridan I.Y. Madatov, Sh.Sh.Allamova, B.Xolmirov, L.G.Babaxodjayeva, A.E.Begbo‘tayev, B.Sh. Usmonov “Aralash ta’lim” (blended learning) texnologiyasi yuzasidan ilmiy ishlar olib borgan. L.G.Babaxodjayeva aralash ta’limga quyidagicha ta’rif beradi: Aralash ta’lim — an’anaviy kunduzgi, masofaviy va mustaqil ta’limni birlashtiruvchi o‘qitish tizimi bo‘lib, u o‘qituvchilar, ta’lim oluvchilar va axborotning interfaol manbalarining o‘zaro ta’sirlashishini qamrab oladi, doimo o‘zaro aloqada bo‘lgan va bir butunlikni tashkil etgan o‘quv jarayoniga xos barcha komponentlar (o‘qitishning maqsadi, mazmuni, metodlari, tashkiliy shakllari, vositalari)ni aks ettiradi. A.E.Begbo‘tayev o‘zining ilmiy ishlarida “Tarmoq texnologiyalari” fanini o‘qitishning metodik asoslarini aralash ta’limning “Flipped classroom” modeli yordamida takomillashtirish masalariga to‘xtalib o‘tgan. Shuningdek, Oliyta’limmuassasalardafanla rma’ruzalarinio‘qitishjarayonida “Blended learning” – aralash ta’lim texnologiyasining “Flipped classroom” modelidan foydalanish samarali natijalarni beradi deb hisoblagan.

Shunday qilib, ular har bir o‘quv maqsadi va har bir bosqich uchun faoliyatni taklif qilishadi. Oliy o‘quv yurtlarida aralash ta’limning umumlashtirilgan modelini

joriy etish natijalarini o‘rganish. “MED – professional ta’lim magistri” masofaviy ta’lim xalqaro loyihasi doirasida “Oliy ta’limda aralash ta’limni tashkil etish” bo‘yicha ishchi guruh a’zolari tomonidan TKTI talabalari tajriba sinov bazasi sifatida tanlab olinib, so‘rovnoma o‘tkaziladi. So‘rovnomada jami 78 nafar bakalavr talabalari ishtirok etishadi. O‘qituvchilarning Pandemiyaga qadar 34%i an’anaviy ta’limdan, 36%i masofaviy ta’lim elementlaridan, 30%i aralash ta’lim elementlaridan foydalanganligini qayd etishgan. Pandemiya davrida darslarning tashkil etilishi xususida berilgan savolga talabalarning ko‘pchiligi (86%) darslar online tarzda (Zoom ilovasi orqali) tashkil etilganligini, qolganlar (18%) esa masofaviy ta’lim platformalarida materiallar berish orqali dars o‘tilganligini ta’kidlashgan [7].

Blended learning usulida turli texnologiyalar va vositalar axborotning o‘quv materialiga kiritilishiga yordam beradi. Internet esa har bir elementning o‘z o‘rnida ishlatilishiga imkon beradi. Talaba ma’lumotlarni xohlasa kitobdan, xohlasa internetdan o‘zi uchun qulay vaqtda, joyda o‘qishi mumkin. Video-ma’ruzalar passiv, o‘qish esa faol jarayon hisoblanadi. Asosiy matnga qo‘shimcha qilib turli maqolalar, hisobotlar ilova qilinishi mumkin. Ba’zan talabalardan axborotni o‘zlari izlashlari talab etiladi. Agar ular mos axborotni topa olishmasa, o‘qituvchining o‘zi axborotlarni web-saytiga joylab qo‘yadi. Matnlar HTML, DOC, AVI, MP3 formatlarida berilishi ham mumkin.

Aralash ta’limning tasniflanishi

Hozirgi vaqtda aralash ta’limning asosan ikki parametri bo‘yicha tasniflanishi mavjud. Birinchisi darsni tashkil etilish modeli bo‘yicha, ikkinchisi esa ananaviy va onlayn elementlarning o‘zaro nisbati bo‘yichadir. Darsni tashkil etilish modeli bo‘yicha Blended learning ikki darajada amalga oshirilishi mumkin – sinf-dars tizimi darajasida, ya’ni ta’lim muassasasida hamda o‘z ichiga nafaqat majburiy, balki qo‘shimcha ta’limni olgan o‘quvchining shaxsi darajasida.Ushbu tasniflanish 1-rasmda keltirilgan[8].



1-rasm. Darsni tashkil etilish modeli bo‘yicha aralash ta’limning tasnifi

Blended learning – onlayn o‘quv materiallari hamda o‘qituvchi rahbarligida guruhda ta’lim olishga asoslangan o‘qitish shakli. Ushbu shakldagi o‘qitish jarayonida talaba mustaqil ta’lim oladi, ammo ayni vaqtda unga guruh va o‘qituvchi tomonidan yordam ko‘rsatiladi. Guruhli mashg‘ulotlar davomida aralash o‘qitish “blended learning”ning qo‘llanilishi tufayli har bir talaba o‘quv materiallarini o‘zlashtirish borasida o‘zida ro‘y berayotgan ijobiy o‘zgarishlarni namoyon etgan holda muloqot ko‘nikmalarini o‘zlashtirib boradi, o‘tilgan materiallarni takrorlaydi va yangi mavzuni o‘rganishga tayyorlanadi. Aralash ta’lim ko‘p holatlarda topshiriqlarga tayanadi va asosiy, muhim ma’lumotlar negizida tashkil etiladi, qo‘shimcha materiallar esa talabaga onlayn platform orqali uzatib beriladi. Talaba mustaqil ta’lim olar ekan, guruhning boshqa a’zolari bilan onlayn rejimda tashkil etilayotgan muhokamada ishtirok etish orqali hamkorlik qiladi. Auditoriyada va onlayn rejimda tashkil etilayotgan mashg‘ulotlar vaqt miqdori bo‘yicha o‘zaro mos kelishi turlicha o‘zgarib turishi mumkin[9].

Oliy pedagogik ta’limda aralash o‘qitish modellaridan foydalanish pedagogik muammo sifatida ko‘rib chiqilsa, bir nechta asosiy jihatlarni tahlil qilish lozim. Bu muammo talabalarning samarali ta‘lim olishlariga to‘sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash va aralash o‘qitish modellarini muvaffaqiyatli qo‘llash uchun kerakli sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Quyida biz oliy pedagogik ta’limda aralash o‘qitish modellaridan foydalanish jarayonida duch kelishimiz mumkin bo‘lgan bir nechta pedagogik muammolarni sanab o‘tamiz. Bular:

1. Ta’lim resurslari va infratuzilma.
2. O‘qituvchilarning metodik tayyorligi.
3. Ta’limda izchillik va muvofiqlik.
4. Talabalarning tayyorgarligi va anglash jarayoni.
5. Pedagogik usullar va yondashuvlar.
6. Aralash o‘qitishning sifatini baholash.

Aralash o‘qitish modellari muvaffaqiyatli ishlashi uchun yetarli darajada ta’lim resurslari va texnologik infratuzilma talab etiladi. Pedagogik muammo sifatida, texnologik vositalar va resurslarning yetishmasligi ta‘lim sifatini pasaytirishi va natijada talabalarni ta‘lim jarayonidan uzoqlashtirishga olib kelishi mumkin.Aralash o‘qitish modellarini samarali qo‘llash uchun o‘qituvchilarning texnologik hamda metodik ko‘nikmalari yuqori bo‘lishi shart hisoblanadi. O‘qituvchilar yetarli darajada metodik tayyorlikka ega bo‘lmasalar, aralash o‘qitishdan samarali foydalana olmaydilar, bu esa talabalarning bilim olish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Aralash o‘qitish modellarini qo‘llashda izchillik va muvofiqlik muhimdir. Pedagogik muammo sifatida, o‘qituvchilarning turli yondashuvlarni turli darajada qo‘llashlari va ta’lim jarayonida noaniqliklar paydo bo‘lishi mumkin, bu esa talabalarning bilim olish jarayoniga zarar yetkazadi. Aralash o‘qitish modellari talabalar uchun ham yangi tajriba bo‘lishi mumkin.

Pedagogik muammo sifatida, talabalar aralash o‘qitishning asosiy tamoyillarini tushunmasalar yoki bu modellarga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelsalar, buularning ta’lim jarayoniga salbiy ta’sir qiladi. Aralash o‘qitish modellari uchun pedagogik usullar va yondashuvlar mos bo‘lishi kerak. Agar o‘qituvchilar eski usullarni qo‘llashda davom etsalar, aralash o‘qitishdan samarali natijalar olinmaydi. Aralash o‘qitish modellaridan foydalanishning samaradorligini baholash uchun sifatli baholash tizimlari zarur. Baholash mezonlari va usullarining yetishmasligi ta’lim sifatini aniqlashda va takomillashtirishda to‘siq bo‘lishi mumkin.

Xulosa. Oliy pedagogik ta’limda aralash

o‘qitish modellaridan foydalanishda yuzaga keladigan bu kabi pedagogik muammolarni hal qilish orqali aralash o‘qitishdan to‘liq foydalanish va ta’lim jarayonini yanada samarali qilish mumkin.Qanday qilib samarali o‘qitish usulini tanlash har doim dolzarb mavzu bo‘lib, u barcha turdagi o‘qituvchilarning e’tiborini tortadi, o‘qishda faol bo‘lishga intilayotgan talabadan tortib, malaka oshirishga intilayotgan mutaxassisgacha. Masofaviy ta’lim texnologiyalarining rivojlanishi umum ta’lim maktablari va oliy o‘quv yurtlarida dars berish va o‘qitish uchun maqbul deb hisoblangan aralash ta’limning diversifikatsiyasi va tarqalishiga yordam beradi. Biroq, oliy ta’lim muassasasida aralash ta’lim modelini tanlash masalasi alohida o‘rganishni talab qiladi. Zero, ta’lim muassasasining xususiyatlarini va raqamli ta’lim bo‘yicha tajribasini hisobga olgan holda aralash ta’limning eng muvaffaqiyatli va to‘g‘ri tashkil etilishini tanlash muhim masala hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni https://lex.uz/docs/-5841063
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712 son Farmoni https://lex.uz/docs/-4312785
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 8.10.2019 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimi¬ni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5847 sonli Farmoni https://lex.uz/ru/docs/
4. Янченко И.В. Смешанное обучение в вузе: от теории к практике // Современные проблемы науки и образования – 2016. – №5 ISSN 2070-7428
5. Медведева М.С. Формирование готовности будущих учителей к работе в условиях смешанного обучения (автореф. дис…канд. пед. наук). Нижний Новгород. 2015. 31с.
6. Ткачук Е.Г., Чепурная Н.А. Смешанное обучение как форма организации учебного процесса для спортсменов Олимпийский колледж имени Ивана Поддубного, г. Киев, Украина,2019
7. Usmonov B, Oripova G. (2023). Oliy ta’lim tizimida aralash ta’lim shakli. Зелёная химия и устойчивое развитие, 1(1), 8–16. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/green-chemistry/article/view/20679
8. Madatov I.Y. Blended learning ta’lim texnologiyasi asosida talabalarning mustaqil ta’limini samarali tashkil etishni takomillashtirish/ PhD Dissertatsiya. – Samar¬qand, 2023. -133 b.
9. Ko‘makova D.Sh.Ta’limda blending learning texnologiyasini joriy etilishi va samaradorligi. Topical issues of science.

KIMYO O‘QITISH NAZARIYASI VA AMALIYOTIDA TALABALARNING FUNKSIONAL SAVODXONLIKNI BAHOLASH PEDOGOGIK MUAMMO SIFATIDA

YUSUPOVA NARGIZA ADASHALIYEVNA
Nizomiy nomidagi TDPU, doktaranti

Annotatsiya. Maqolada akademik savodxonlik va kimyo o’qitish nazariyasi va amaliyotida talabalarning funksional savodxonligini baholash pedagogik muammo sifatida ekanligi misollar va tushunchalar yordamida aniqlangan. Shu bilan birga pedagogik va psixologik tushunchalar haqida ham alohida ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilingan va tahlillarni muhokamasi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy, ijtimoiy-psixologik, individual psixologik, kognitiv qobiliyat, funksional savodxonlik

Аннотация. В статье на примерах и понятиях определены требования в теории и практике преподавания академической грамотности и химии оценка функциональной грамотности как педагогическая проблема. В то же время были проанализированы отдельные исследовательские работы о педагогических и психологических концепциях и освещено обсуждение анализов.

Ключевые слова: профессиональные, социально-психологические, индивидуально-психологические, когнитивные способности, функциональная грамотность

Abstract. Annotation Using examples and concepts, the article defines the requirements in the theory and practice of teaching academic literacy and chemistry, the assessment of functional literacy as a pedagogical problem. At the same time, individual research papers on pedagogical and psychological concepts were analyzed and a discussion of the analyses was highlighted.

Keywords: professional, socio-psychological, individual psychological, cognitive abilities, functional literacy

Inson hayotining har bir jabxasida bir-biri bilan shu qadar bog‘langan-ki, ularni ajratib bo‘lmaydi, bularga iqtisodiyot, ta’lim, tibbiyot, madaniyat, va siyosat o‘zaro ijtimoiy munosabatlardir. Hayot davom etar ekan, avvalgi munosabatlar eskiradi, yangilari yuzaga keladi, jumladan, ta’lim tizimida ham. 1950-yillarda insonni fazoga olib chiqqan ta’lim bugungi tezkor zamonda hozirgi avlodning talab extiyojlariga mos kelmay qoldi.

Innovatsion raqamli texnologiyalar davri boshlandi. Bizning nazarimizda, ta’lim - bu o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqni rag‘batlantirish, tasavvurni kuchaytirish va kelajakni qura oladigan insonlarda mustaqil fikrlay olish qobilyatini rivojlantirishdir. Biroq biz talaba va o‘quvchilarga faqat o‘zimiz bilgan narsani o‘rgatsak, ular balki faqat bizning yo‘limizdan borish uchungina eslab qolishar. Agar biz ularni o‘qishga o‘rgatsak, ular o‘z yo‘llarini tanlashda erkin bo‘ladilar. Hayot ertaga bizning shunday muammolarni hal qila olish qobilyatimizni tekshiradiki, biz ularni bugun hatto xayolimizga ham keltira olmaumiz.

Hozirgi dunyo endi insonni faqat bilimlari uchun mukofotlamaydi, balki bilimlar asosida harakat qilish qobilyatini mukofotlaydi. Biz talaba va o‘quvchilardan qanday natija kutishimiz va buni qanday baholashimiz kerakligini ilmiy manbalarni va oliy ta’limdagi baholash metodlarini tahlil qilish orqali belgilab oldik.

XXI asrda inson savodxonligi tobora ko‘proq bilimlar uzatiladigan akademik savodxonlik, birinchi navbatda yozma shakl bilan belgilanadi. Masalan: akademik savodxonlik masalasi ko‘pincha oliy ta’limga kirishda paydo bo‘lishi ajablanarli emas, chunki

bu muvaffaqiyatli o‘rganishning asosi bo‘lgan fikrlash, tanqidiy baholash, umumlashtirish, taqqoslash va fikrlarni to‘g‘ri shakllantirish qobiliyatidir.

Akademik savodxonlikni tashkil etuvchi kompetensiyalar qabul qilinganda test sinovlari yordamida tekshiriladi va keyinchalik o‘quv jarayonida rivojlantiriladi, ya’ni ular universitet tomonidan taklif qilinadigan maxsus kurslarning bir qismidir. Akademik savodxonlik testlarini, qoida tariqasida, abituriyentlar emas, birinchi kurs talabalari topshiradi.

Akademik savodxonlikni rivojlantiruvchi kurslar, birinchi navbatda, akademik yozish va akademik o‘qish, shuningdek, taqdimot ko‘nikmalari, muhokama qilish qobiliyatlari, seminarlarda ishtirok etish ko‘nikmalari va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Umumta’lim maktab darsliklarda shu kungacha “funksional savodxonlik”ni shakllantirishga doir mavzular va topshiriqlar kiritilmagan. Masalan:

o‘quv rejada amaliy tadbiqiy masalalarga soatlar ajratilmagan;

darsliklarni yaratish tizimida xilma-xillikning yo‘qligi ularni yaratish va nashr qilishni monopollashtirishga omil bo‘lib qolmoqda hamda ularning mazmuni, metodikasi va nashr sifatiga salbiy ta’sir etmoqda;

davlat ta’lim standartlari kompetensiyaviy yondashuvga asoslanganligiga qaramasdan, o‘qitish va baholash metodlari, shuningdek darsliklar va boshqa o‘quv materiallarini asosan axborotni yodlash va bayon qilishga qaratilgan bo‘lib, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalari va boshqa malakalarni rivojlantirishga to‘sqinlik qilmoqda;

foydalanilayotgan darsliklar sifatini oshirish, xorijiy o‘quv qo‘llanmalarini qo‘shimcha yoki muqobil o‘quv materiallari sifatida qo‘llash amaliyotini yo‘lga qo‘yish talab etilmoqda.

Vazirlar Maxkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son harori bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta’limning Davlat Ta’lim Standartida kompetensiya tushunchasi mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati sifatida ta’riflangan [1]

Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartida kompetensiya va kompetentlik tushunchalariga quyidagicha ta’riflar berilgan:

kompetensiya - bilim, malaka va shaxsiy sifatlarni ma’lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qo‘llay olish;

kompetentlik - shaxsning muayyan ta’lim yo‘nalishi yoki mutaxassisligi bo‘yicha olgan bilim, malaka va ko‘nikmalari hamda shakllangan shaxsiy hislatlarini mehnat faoliyatida muvaffaqiyatli qo‘llay olish qobiliyatidir.

A.V. Xutorskiy o‘z ishlarida “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarini aloxida ta’riflaydi [2].

Kompetensiya – shaxsiy xususiyatlar (bilim, ko‘nikma, malaka, idrok, faoliyat) ning o‘zaro yig‘indisi bo‘lib, samarali faoliyat sifatini belgilaydigan zaruriyatdir.

Kompetenlik – kompetensiyaga ega insonni boshqarish tushuniladi, professionallik faoliyati predmetiga tegishli xususiyatlarini o‘z ichiga oladi.

Kompetentli yondashuv ilk bor Angliyada, kasbiy sohaning maqsadli buyurtmasi sifatida vujudga kelgan. O‘tgan asrning 70-yillarida AQShda biznes sohasida “kompetensiya” va “tayanch kompetensiyalar” tushunchalari muvaffaqiyatli kasb egasi sifatlarini aniqlash muammolari bilan bog‘liq holda qo‘llanilgan.

Yevropa ta’lim fondi 1997 yilda kompetensiyani “nimanidir yaxshi yoki samarali bajara olish”, “ishga qabul qilinayotganda talab qilinadigan talablarga muvofiq”, “o‘ziga xos mehnat vazifalarini bajara olish qobiliyati” deb izohlagan [3].

Professionallik va kompetentlik bir-biriga o‘hshash bo‘lsada, har xil ma’noga ega bo‘lgan atamalardir. Professionallik deganda nafaqat ma’lum bilimlar, balki mehnatga bo‘lgan munosabat, ishning o‘ziga xos xususiyatlari tushuniladi. Rivojlangan kompetensiyalar darhol seziladi, chunki professional pedagog o‘z ko‘nikmalarini rivojlantirishga harakat

qiladi, muayyan maqsad va natijalarga erishishga intiladi, ishchan qadriyatlar ishlab chiqaradi va bular odatda ish jarayonining standartiga mos keladi. Kompetentlik esa biroz murakkab mazmunga ega, sababi, nafaqat bilimlarning mavjudligini, balki shu bilan birga ularni qo‘llash qobiliyatini ham taqozo etadi. Kompetentlik faqat keng qamrovli baholash va kuzatish paytida aniqlanishi mumkin.

O‘qituvchining kompetentligini shakllantirish uchun asosiy narsa bu maxsus kasbiy ta’limdir. Kelajakda amaliyotda olingan bilim va ko‘nikmalar boshlang‘ich kompetensiya darajasini to‘ldiradi. Bularning barchasi formula shaklida taqdim etilishi mumkin: Kompetentlik = Bilaman + Qila olaman + Istayman + Men qilaman. Kasbiy kompetensiya shakllanishi bosqichma-bosqich va doimiy tarzda amalga oshiriladigan jarayondir [4].

N.A. Muslimov kompetentlikni quyidagicha ta’riflagan: ‘kompetentlik bu talabaning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatining amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo‘llay olishi bilan ifodalanadi‘ [5].

A.X. Mahmudov esa, kompetentlikka quyidagicha ta’rif bergan:

kompetentlik bu doimo o‘zgarib borayotgan sharoitlarda yoki mutaxasisning kasbiy faoliyatini samarali olib borishga imkon beruvchi shaxsga xos integrallashgan sifatlardir‘ [6-7].

Kompetensiya – u yoki bu kasb egasiga zarur bo‘lgan sotsiolingvistik qonuniyatlar, tamoyillar, talablar, qoidalar, burch, vazifa hamda majburiyatlar, shuningdek shaxsiy deontologik me’yorlar yig‘indisini anglatadi, kompetentlik esa shaxs amaliy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, kompetensiya meyorlarini jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda kreativlik asosida ish tajribasida namoyon etish mahoratidir [8].

O‘qituvchining professional kompetentligi uning kasbiy (ta’limiy, texnologik, metodologik) tayyorgarlik darajasi hamda o‘quvchilarning bilim olishga motivatsiyaning kuchliligi bilan baholanadi. O‘quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirishda o‘qituvchining kabiy kompetentligini o‘rganishni quyidagi uch yo‘nalishda amalga oshirishni talab etadi:

tarkibiy tuzilishiga ko‘ra (funksional savodxonlik, o‘qituvchi, kasbiy kompetentlik tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligi);

funksionalligiga ko‘ra (amaldagi tadbiqi);

genetik (faoliyatni o‘tmish, bugun va kelajakda o‘rganish asosida o‘qituvchining kabiy kompetentligini rivojlantirish) [9].

O‘quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirishda o‘qituvchining kasbiy kompetentligini o‘rganishda asosan Ye.V. Baxareva “Umumta’lim maktab o‘quvchilarida funksional savodxonlikni shakllantirishda o‘qituvchining kasbiy kompetenligini rivojlantirish” mavzusidagi dissertatsiya ishidan foydalanildi [10].

Ye.V. Baxareva o‘z tadqiqotlarida o‘quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirishda o‘qituvchining kasbiy kompetentligini quyidagi mezon va ko‘rsatkichlar asosida baholagan:

1. O‘quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirishda o‘qituvchining kasbiy kometentligi rivojlanish darajasi. Ko‘rsatkichlar: o‘qituvchining fan metadologiyasi, psixologik-pedagogik kompetensiyasi, ta’lim jarayoni valeologiyasi sohasidagi kompetensiyasi, kommunikativlik, tadqiqotchilik, o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyalari.

2. O‘z kasbiy kompetensiyasini oshirishga bo‘lgan motivatsiya darajasi. Ko‘rsatkichlar: maqsadga yo‘nalganlik, qatiyyatlilik, innovatsiyalarga ochiqliligi, vijdonan yondashuv kompetensiyalari.

3. O‘quvchilarning funksional savodxonlik darajasi. Ko‘rsatkichlar: tayanch kompetensiyalarining shakllanganligi, tanlov erkinligiga asoslangan harakatlar mustaqilligining shakllanish darajasi.

O‘qituvchining yuqorida ko‘rsatilgan ko‘rsatkich va mezonlarga egalik darajasi uning o‘quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirishda kasbiy kompetentlik darajasini

baholash imkonini beradi. Mamlakatimizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan isloxotlar natijadorligi, avvalam bor o‘qituvchining jamiyatda dahldorlik hisi shakllanganligi hamda komunikativlik, axborot bilan ishlash, o‘zini doimiy ravishda rivojlantirish kompetensiyalariga egaligi bilan belgilanadi.

Zamonaviy pedagog – faoliyatning barcha sohalarida muvaffaqiyatli ishlashiga va tez o‘zgarib turadigan axborot muhiti bilan integratsiyalashuviga imkon beradigan shaxs darajaga ega bo‘lishi kerak. Buning uchun funksional savodxonlikning muhim tarkibiy qismlari pedagoglarga shakllangan bo‘lishi kerak:

Doimiy ravishda o‘rganish va rivojlantirish;

Faol ijodiy fikrlash;

Belgilangan vazifalarni hal qilishning nostandart usullarini topish;

O‘zingizning professional yo‘lingizni va hayotiy ko‘rsatmalaringizni tanlash imkoniyatiga ega bo‘lish.

Funksional savodxonlik insonning butun hayoti davomida shakllanadi, chunki inson faoliyatining barcha sohalarida yangi bilimlar, tushunchalar, qoidalar va me’yorlarni o‘zlashtirish zarurligini anglaydi va o‘zgarishlar ro‘y beradi [11].

Hozirgi tez o‘zgarayotgan va axborot asri bo‘lgan dunyoda funksional savodxonlik odamlarning ijtimoiy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy faoliyatda faol ishtirok etishi hamda muntazam ta’lim olishiga yordam beruvchi asosiy omillardan biriga aylanib bormoqda. Demak, funksional savodxonlik - bu insonning tashqi muhit bilan munosabatlarga kirishish va unga imkon qadar tezroq moslashish hamda ushbu sharoitda ishlash qobiliyatidir. Shaxsning o‘qish, tushunish, oddiy, qisqa matnlarni tuzish va oddiy arifmetik amallarni bajarish qobiliyati sifatida elementar savodxonlikdan farqli o‘laroq, funksional savodxonlik ijtimoiy munosabatlar tizimida shaxsning normal ishlashini ta’minlaydigan bilim, ko‘nikma va malakalarning asosini tashkil etadi [12].

Xalqaro baholash tadqiqotlarida funksional savodxonlikning tarkibiy qismlari: o‘qish, matematik, tabiiy ilmiy, moliyaviy savodxonliklar va ijodiy fikrlash, global kompetensiyalardan iboratdir [12].

Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining funksional savodxongini rivojlantirishda ularni kundalik hayotimizda uchratadigan jihozlarga ilmiy nuqtai-nazardan asoslash (fikirlash, taqqoslash, tahlil qilish)ga o‘rgatish zarur. Turli obyektlarning umumiyligi nimada ekanligini so‘rash orqali ular funksional savodxonlik rivojlanganligini aniqlab olish mumkin.

Masalan, sharikli ruchka va uy telefoni. Qarama-qarshi bo‘lishi mumkin bo‘lgan turli xil belgilarni nomlash. Misol uchun, shisha va metall - mashina, samolyot, deraza, mobil telefon va boshqalar. Mos kelmaydiganlarni birlashtirish. Bu topshiriq asosida bo‘lajak kimyo fani o‘qituvchilarni qanchalik darajada ijodiy fikrlashi va ularni o‘z fikrlarini qanchalik darajada ilmiy jihatdan asoslab berishini aniqlab olishingiz mumkin.

Kimyoviy savol: Termometrni bankaga soling va qopqog‘ini yoping. 5 daqiqadan so‘ng haroratni yozib oling. Bir - ikki daqiqaga ingichka po‘lat simdan yasalgan yuvish vositasini sirka kislotaga botiring. Po‘lat simdan yasalgan yuvish vositasidan ortiqcha sirka kislotani arting va termometrning uchiga yaqin joylashtiring hamda qopqog‘ini mahkam yoping.

Har 5 daqiqada haroratni qayd eting.

Natijada harorat ko‘tariladi. Nima uchun?

Bu savolni bo‘lajak kimyo fani o‘qituvchilari ilmiy jihatdan asoslab berishsa ularda funksional savodxonlikka ega ekanlini aniqlash mumkin. Topshiriq tarkibidagi termometrni qiymati qanday o‘zgarganligini tabiiy fanlar savodxonligi hamda fanlar integratsiyasidan foydalangan holda ilmiy asoslab berishlari kerak.

Javob: Sirka kislotasi po‘lat simdagi himoya qoplamini eritadi, bu esa uni oksidlaydi. Oksidlanish paytida issiqlik hosil bo‘ladi. Hosil bo‘lgan issiqlik termometrdagi haroratni ko‘tarilishiga sabab bo‘ladi, tobora yuqori haroratni ko‘rsatadi. Topshiriqni bajarish

mobaynida bo‘lajak kimyo o‘qituvchilar savolni o‘qib o‘zlashtiradilar va uning uchun savolning mazmunini to‘liq anglash, manashu topshiriqning ichida nechta noaniqlik mavjudligini aniqlash, savolning yopiq test ekanligini fikrlash orqali javobni kreativ (ijodiy) fikrlab ilmiy asoslab bersagina bu bo‘lajak kimyo o‘qituvchisi funksional shaxs sifatida e’tirof etish mumkin.

Hozirgi kunda barcha oliy ta’lim muassasalarida talabalarni baholash mezonlarida yangi o‘zgarishlar kirib kelmoqda. Bu o‘zgarishlar hozirgi zamon talablariga mos va bu ta’lim tizimini rivojlanayotganligini anglatadi. Shu kungacha talabalarning o‘zlashtirgan bilimlarini baholashda ularni xotiralariga asoslangan savollar (reproduktiv va produktiv) berilib baholanayotgan edi. Bu shu kungacha kimyo o‘qitish nazariyasi va amaliyotida qolaversa barcha fanlarni o‘qitishda talabalarning funksional savodxonligini baholashda pedagogik muammo sifatida qaralayotgan edi.

Ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar bo‘lajak kimyo o‘qituvchilari va barcha oliy ta’lim muassasa talabalarini funksional savodxonligini baholashda yangicha baholash metodlarini tayyorlash hamda talabalarni kreativ (ijodiy) fikrlashini baholash kerakligini anglatadi.

Xulosa qilib baholash talabalarning dasturda belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish darajasini, mehnatsevarlik darajasi va intizom holatini shartli belgilarda, shuningdek, o‘qituvchining baholash mulohazalarida aniqlash va ifodalashdir. Baholash o‘quv muammolarini tashxislashning asosiy ko‘rsatkichi va fikr-mulohazalarni bildirish vositasi ekanligi tadqiqot davomida aniqlandi.

O‘qituvchining yuqorida ko‘rsatilgan ko‘rsatkich va mezonlarga egalik darajasi uning o‘quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirishda kasbiy kompetentlik darajasini baholash imkonini beradi. Mamlakatimizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan isloxotlar natijadorligi, avvalam bor o‘qituvchining jamiyatda dahldorlik hisi shakllanganligi hamda komunikativlik, axborot bilan ishlash, o‘zini doimiy ravishda rivojlantirish kompetensiyalariga egaligi bilan belgilanganligi mavzuga oid ilmiy risolalarni tahlili davomida aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-qunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘qrisida O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 2017 yil 6 aprel, 187-son.
2. Хуторский А.В. Инновации в общеобразовательной школе. Методы обучения. Сборник научных трудов/ под ред. А.В. Хуторского. – М.: ГНУ ИСМО РАО, 2006, С. 290.
3. Совет Европы. Ключевые компетенции для Европы: симпозиум док. DECS. Берн, 1996.С. (96) 43.
4. Tojiboeva G.R., Pulatova D.T. Pedagogik kompetentlik: nazariya va amaliyot. Academic research in educational sciences volume 1 | Issue 3 | 2020. ISSN: 2181-1385. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 4.804
5. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. - T.: Fan. - 2004. - 127 b., Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. //Ped. fan. dokt. diss. - Toshkent. - 2007. - 349 b
6. Mahmudov A.X. Uzluksiz ta’lim jarayoniga kompetentlik yondoshuvini joriy qilishning didaktik asoslari // Uzluksiz ta’lim. - 2012. - № 4. 8-12 betlar.
7. Mahmudov A.X. Ta’lim tizimida kompetentlik asosida yondashuvning didaktik jihatlari// “O‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishda innovatsiya texnologiyalarining ahamiyati” mavzusidagi Respublika ilmiyamaliy konferensiyasi materiallari. - Toshkent. - 2012. 44-47 betlar
8. Rizkulova K.D. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari sotsiolingvistik kompetentligini shakllantirish tizimi// Pedagogika fanlari bo‘yicha fan doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. T.: 2017. – 365 b.
9. Лебедев О.Е. Управление образовательными системами. Учебно - методическое пособие для вузов. - М.: Литературное агентство «Университетская книга», 2004. - 136 с.
10. Бахарева Е.В. Развитие профессиональной компетентности учителя по формированию функциональной грамотности учащихся основной школы. //Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. М. 2009.
11. Ergashovich I.S. Use of integrated technologies in preparing higher educational institution students for international assessment programs on organic chemistry. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 2(01), 2021. 9-22.
12. Ergashovich I.S. The importance of information communication and pedagogical techniques in teaching organic chemistry in natural sciences at academic high schools. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(11). 2019

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIYA DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

SHERALIYEVA NASIBA ALIMKULOVNA
Guliston davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Abstrakt. Boshlang'ich ta'limda ta'lim-tarbiya darslarini tashkil etish uzluksiz ta'lim olish uchun mustahkam poydevor yaratishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu maqola darsni tashkil etish samaradorligini oshiradigan didaktik imkoniyatlarni o'rganadi, qulay o'quv muhitini ta'minlovchi usullar, strategiyalar va vositalarga e'tibor qaratadi. Zamonaviy pedagogik nazariyalar va amaliy yondashuvlarni birlashtirgan holda, o'qituvchilar yosh o'quvchilar uchun o'rganish tajribasini optimallashtirishi, kognitiv, ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga yordam berishi mumkin.

Kalit so'zlar: didaktik strategiyalar, boshlang'ich ta'lim, darsni tashkil etish, faol ta'lim, ta'lim texnologiyasi, differentsial o'qitish, sinfni boshqarish, o'quvchilar motivatsiyasi

Абстракт. Организация образовательных уроков в начальном образовании имеет решающее значение для создания прочной основы для непрерывного образования. В этой статье исследуются дидактические возможности, которые повышают эффективность организации уроков, уделяя особое внимание методам, стратегиям и инструментам, которые обеспечивают благоприятную среду обучения. Объединив современные педагогические теории и практические подходы, учителя могут оптимизировать процесс обучения младших школьников и способствовать их когнитивному, социальному и эмоциональному развитию.

Ключевые слова: дидактические стратегии, начальное образование, организация уроков, активное обучение, образовательная технология, дифференцированное обучение, управление классом, мотивация учащихся.

Abstract. The organization of educational lessons in primary education is crucial in creating a solid foundation for continuous education. This article explores didactic opportunities that increase the effectiveness of lesson organization, focusing on methods, strategies and tools that provide a conducive learning environment. By combining modern pedagogical theories and practical approaches, teachers can optimize the learning experience for young students and promote their cognitive, social, and emotional development.

Key words: didactic strategies, primary education, lesson organization, active learning, educational technology, differentiated teaching, classroom management, student motivation

Kirish

Boshlang'ich ta'lim bolaning ta'lim yo'lining asosi bo'lib, uning kognitiv, ijtimoiy va hissiy rivojlanishini shakllantiradi. Ushbu shakllanish yillarida ta'lim darslarini tashkil etish uzluksiz ta'lim uchun mustahkam poydevor yaratish uchun juda muhimdir. Shu nuqtai nazardan, didaktika, o'qitish san'ati va ilmi samarali ta'lim amaliyotlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Boshlang'ich ta'limda darsni samarali tashkil etish faqat bilimlarni uzatishdan tashqariga chiqadi. Bu qiziqarli, interaktiv va yosh o'quvchilarning turli ehtiyojlariga javob beradigan o'quv muhitini yaratishni o'z ichiga oladi. Bu esa o'quvchilarning qiziqishini uyg'otadigan, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradigan va o'rganishga bo'lgan muhabbatni uyg'otadigan zamonaviy pedagogik nazariyalar va amaliy yondashuvlarni birlashtirishni taqozo etadi.

Boshlang'ich maktab sinfi - bu turli qobiliyatlarga, qiziqishlarga va bilimlarga ega bo'lgan o'quvchilar birlashadigan dinamik makon. Bu xilma-xillik o'qituvchilardan har bir O'quvchi o'quv dasturiga kirishi va o'zining to'liq salohiyatiga erishishi uchun bir qator strategiya va vositalardan foydalanishni talab

qiladi. Faol ta'lim texnikasi va texnologiya integratsiyasidan tabaqalashtirilgan ta'lim va ijobiy ta'lim muhitini yaratishgacha samarali darslarni tashkil etishning didaktik imkoniyatlari keng va ko'p qirrali.

Ushbu maqola ushbu didaktik imkoniyatlarni chuqur o‘rganish, boshlang‘ich ta’limda o‘quv darslarini tashkil qilishni optimallashtirish bo‘yicha o‘qituvchilarga tushuncha va amaliy ko‘rsatmalar berishdan iborat. Nazariy asoslarni, faol o'rganish strategiyalarini, texnologiya integratsiyasini va sinfni boshqarish usullarini o'rganib chiqib, ushbu maqola darsni tashkil etishning eng yaxshi amaliyotlarini to'liq ko'rib chiqishga intiladi.

Keys tadqiqotlari va amaliy qo'llanmalar orqali ushbu maqola ushbu didaktik strategiyalarni boshlang'ich sinflarda qanday samarali amalga oshirish mumkinligini ko'rsatib beradi. Maqsad - har bir o'quvchining intellektual va shaxsiy o'sishini ta'minlaydigan rag'batlantiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini yaratish uchun o'qituvchilarga kerakli bilim va vositalar bilan ta'minlash.

Bunda biz boshlang‘ich ta’limda darsni samarali tashkil etishning muhim ahamiyatini va uning o‘quvchilarning uzoq muddatli ilmiy muvaffaqiyati va umumiy rivojlanishiga ta’sirini ko‘rsatishni maqsad qilganmiz.

Darsni samarali tashkil etishning didaktik imkoniyatlari

	Guruh ishi	Muloqot, jamoaviy ish va g’oyalar almashishni rag’batlantiradi. Puxta rejalashtirish va aniq maqsadlarni talab qiladi.
	Amaliy tajribalar,	O’quvchilarga to’g’ridan-to’g’ri tajriba orqali tushunchalarni o’rganishga imkon beradi, mavhum g’oyalarni yanada aniq va tushunarli qiladi.
	Rol o’ynash,	O’quvchilarga simulyatsiya qilingan stsenariylarda turli rollarni o’z zimmasiga olish orqali turli nuqtai nazarlarni o’rganish va empatiyani rivojlantirish imkonini beradi.
	Interfaol doskalar	O’qituvchilarga multimedia mazmunini namoyish qilish va interfaol mashqlar orqali O’quvchilarni jalb qilish imkonini berish orqali interfaol o’qitishni osonlashtiradi.

	Moslashuvchan guruhlash	O‘quvchilarga o’zlarining mahorat darajalari, qiziqishlari va o’rganish ehtiyojlariga qarab turli guruhlarda ishlashga imkon beradi.
	Ta’lim dasturiy ta’minoti	O‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan, darhol fikr-mulohazalarni ta’minlaydigan shaxsiylashtirilgan ta’lim tajribasini taklif qiladi.
	Onlayn manbalar	An’anaviy o’quv materiallarini to’ldiruvchi o’quv videolari, virtual sayohatlar va elektron kitoblarni o’z ichiga oladi.
	Turli baholash usullari	Talim oluvchi taraqqiyoti haqida keng qamrovli tushuncha beradi va viktorinalar, loyihalar va taqdimotlar orqali turli xil o’rganish uslublarini ta’minlaydi.
	Sinfni boshqarish	Tuzilgan va bashorat qilinadigan muhitni yaratish uchun aniq qoidalar, tartiblar va kutishlarni o’rnatishni o’z ichiga oladi.
	Talim oluvchining motivatsiyasi	Ijobiy mustahkamlash, maqsadlarni belgilash va mazmunli o’rganish tajribasi orqali O’quvchilarning faolligi va ishtiyoqini oshiradi.

Texnologiyalar integratsiyasi

Texnologiyani sinfga integratsiyalash o'rganish tajribasini o'zgartirib, darslarni yanada qiziqarli va foydalanishga imkon beradi. Raqamli vositalar turli xil ta'lim uslublarini qo'llab-quvvatlashi va an'anaviy o'qitish usullarini yaxshilaydigan ko'plab resurslarni taqdim etishi mumkin.

Interaktiv doskalar-Interfaol doskalar o‘qituvchilarga multimedia kontentini ko‘rsatish va interfaol mashqlar orqali o‘quvchilarni jalb qilish imkonini berib, interfaol o‘qitishni osonlashtiradi. Ushbu doskalardan saboqlarni hayotga tatbiq etuvchi videolar, animatsiyalar va interaktiv simulyatsiyalarni taqdim etish uchun foydalanish mumkin. O'qituvchilar ulardan real vaqt rejimida tarkibga izoh berish uchun ham foydalanishlari mumkin, bu esa darslarni yanada dinamik va o'quvchilarning ehtiyojlariga javob beradi.

Ta'lim dasturlari o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan shaxsiy o'rganish tajribasini taklif qiladi. Ushbu dasturlar O'quvchilarga o'z tezligida o'rganish va kerak bo'lganda tushunchalarni qayta ko'rib chiqish imkonini beruvchi zudlik bilan fikr-mulohazalarni taqdim etishi mumkin. Misol uchun, O'quvchining malaka darajasiga moslashtirilgan matematik dasturiy ta'minot bosqichma-bosqich murakkab muammolarni taklif qilishi mumkin, bu esa o'quvchilarning fan bo'yicha ishonchini va malakasini oshirishga yordam beradi.

Onlayn manbalar-Onlayn resurslar, jumladan, o'quv videolari, virtual sayohatlar va elektron kitoblar an'anaviy o'quv materiallarini to'ldirishi va qo'shimcha o'rganish imkoniyatlarini taqdim etishi mumkin. Ushbu manbalar, ayniqsa, o'rganishni sinfdan tashqarida kengaytirish uchun qimmatli bo'lishi mumkin, bu esa o'quvchilarga mavzularni chuqurroq va o'z tezligida o'rganish imkonini beradi.

Differentsial ko'rsatma-Differentsial ta'lim o'quvchilarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun darslarni moslashtirishni o'z ichiga oladi. Bunday yondashuv barcha o'quvchilarning qobiliyatlaridan qat'iy nazar o'quv dasturidan foydalanishlari va o'quv maqsadlariga erishishlarini ta'minlaydi.

Moslashuvchan guruhlash-Moslashuvchan guruhlash o'quvchilarga o'z malaka darajalari, qiziqishlari va o'rganish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda turli guruhlarda ishlash imkonini beradi. Ushbu strategiya tengdoshlarning o'rganishini rag'batlantiradi va barcha O'quvchilarga mos ravishda e'tiroz bildirilishini ta'minlaydi. Misol uchun, o'qish darsida O'quvchilar maqsadli yo'riqnoma uchun o'qish darajasi bo'yicha guruhlarga bo'linishi va keyin turli nuqtai nazarlarni rag'batlantirish uchun aralash qobiliyatli muhokamalar uchun qayta guruhlanishi mumkin.

Turli baholash usullari-baholashning turli usullarini qo'llash o'quvchilar taraqqiyotini har tomonlama tushunish imkonini beradi va turli o'quv uslublariga mos keladi. Viktorinalar, loyihalar, og'zaki taqdimotlar va portfoliolar o'quvchilarning kuchli tomonlari va yaxshilanishi kerak bo'lgan sohalar haqida tushuncha berishi mumkin. Turli baholar, shuningdek, O'quvchilarga o'z tushunchalarini turli yo'llar bilan namoyish etish imkonini beradi, an'anaviy imtihonlar bosimini kamaytiradi va ularning qobiliyatlari haqida aniqroq tasavvur beradi.

Ijobiy ta'lim muhitini yaratish. Darsni samarali tashkil etish uchun ijobiy ta'lim muhiti zarur. Bu qo'llab-quvvatlovchi, qamrab oluvchi va o'rganish uchun qulay bo'lgan sinf muhitini yaratishni o'z ichiga oladi.

Sinf boshqaruvi-Aniq qoidalar, tartiblar va taxminlarni o'rnatish kabi sinfni boshqarishning samarali usullari tuzilgan va bashorat qilinadigan muhitni yaratishga yordam beradi. Qoidalarning izchil va adolatli qo'llanilishi, ijobiy mustahkamlash bilan birga, o'quvchilarning xatti-harakati va faolligini oshirishi mumkin.

O'quvchi motivatsiyasi-O'quvchilarni ijobiy mustahkamlash, maqsadlarni belgilash va mazmunli o'rganish tajribasini taqdim etish orqali rag'batlantirish ularning o'rganishga bo'lgan qiziqishini va ishtiyoqini oshirishi mumkin. O'quvchilarning katta va kichik yutuqlarini e'tirof etish va nishonlash ularning o'ziga bo'lgan ishonchi va motivatsiyasini oshirishi mumkin.

Hissiy qo'llab-quvvatlash-Hissiy qo'llab-quvvatlash va tegishlilik tuyg'usini rivojlantirish O'quvchilarga o'zlarini xavfsiz va qadrli his qilishlariga yordam beradi. Bu ularning umumiy rivojlanishi va akademik muvaffaqiyati uchun juda muhimdir. O'qituvchilar qulay bo'lish, hamdardlik ko'rsatish va ochiq muloqotni rag'batlantirish orqali qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratishi mumkin.

Ushbu didaktik strategiyalarni o'z ichiga olgan holda, o'qituvchilar boshlang'ich sinf o'quvchilarining turli ehtiyojlarini qondiradigan samarali va qiziqarli darslarni yaratishi mumkin. Ushbu yondashuvlar nafaqat

akademik yutuqlarni oshiradi, balki yosh o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi, ularni kelajakdagi ta'lim muammolariga tayyorlaydi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quv mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish har tomonlama o‘rganish va rivojlantirishga yordam beradigan muhitni shakllantirish uchun zarurdir. Turli didaktik strategiyalardan foydalangan holda, o'qituvchilar yosh o'quvchilarning turli ehtiyojlarini qondiradigan qiziqarli, interfaol va qo'llab-quvvatlovchi sinf xonalarini yaratishi mumkin.

Faol ta'lim usullari: Guruhlarda ishlash, amaliy tajribalar va rol o'ynash kabi strategiyalarni amalga oshirish O’quvchilarning faolligini va tushunishini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Bu usullar O’quvchilarni faol ishtirok etishga, tanqidiy fikrlashga va tengdoshlari bilan samarali hamkorlik qilishga undaydi.

Texnologiyalar integratsiyasi: Interfaol doskalar, ta'lim dasturlari va onlayn resurslar kabi raqamli vositalarni o'z ichiga olish o'rganish tajribasini boyitadi. Texnologiya shaxsiylashtirilgan ta'lim imkoniyatlarini, tezkor fikr-mulohazalarni va keng doiradagi o'quv materiallaridan foydalanishni ta'minlaydi.

Differentsial ta'lim: Darslarni o'quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtirish barcha o'quvchilarning o'quv dasturiga kirishini va o'z potentsialiga erishishini ta'minlaydi. Moslashuvchan guruhlash va turli baholash usullari o'qituvchilarga turli xil ta'lim uslublari va qobiliyatlarini hisobga olish imkonini beradi.

Ijobiy ta'lim muhitini yaratish: o'quvchilarning muvaffaqiyati uchun tuzilgan, qo'llab-quvvatlovchi va inklyuziv sinf muhitini yaratish juda muhimdir. Sinfni samarali boshqarish, motivatsiya usullari va hissiy qo'llab-quvvatlash o'quvchilar rivojlanishi mumkin bo'lgan xavfsiz va tarbiyali muhitni yaratishga yordam beradi.

O'qituvchilar darsni tashkil etishni optimallashtirish va ta'lim natijalarini yaxshilash uchun ushbu didaktik strategiyalarni o'zlarining o'qitish amaliyotiga integratsiyalash haqida o'ylashlari kerak. Faol ta'limga e'tibor qaratish, texnologiyadan foydalanish, o'qitishni farqlash va ijobiy sinf muhitini yaratish orqali o'qituvchilar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun umumiy ta'lim tajribasini yaxshilashlari mumkin. O’quvchilarning o'zgaruvchan ehtiyojlari va ta'lim texnologiyalaridagi yutuqlar bilan hamnafas bo'lish uchun ta'lim amaliyotida doimiy izlanishlar va innovatsiyalar zarur. Ushbu strategiyalarning turli sinf sharoitlarida ta'siri bo'yicha keyingi tadqiqotlar chuqurroq tushunchalar berishi va samaraliroq o'qitish usullarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, boshlang‘ich ta’limda samarali dars tashkil etishning didaktik imkoniyatlari keng va rang-barangdir. Ushbu strategiyalarni qo'llash orqali o'qituvchilar yosh o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi, ularning kelajakdagi akademik muvaffaqiyati va shaxsiy o'sishi uchun poydevor qo'yadigan dinamik va samarali ta'lim muhitini yaratishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bransford, J. D., Brown, A. L., & Cocking, R. R. (Eds.). (2000). How People Learn: Brain, Mind, Experience, and School. Washington, DC: National Academy Press.
2. Gardner, H. (1983). Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. New York: Basic Books.
3. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
4. Piaget, J. (1952). The Origins of Intelligence in Children. New York: International Universities Press.
5. Tomlinson, C. A. (2001). How to Differentiate Instruction in Mixed-Ability Classrooms. Alexandria, VA: ASCD.
6. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (1999). Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive, and Individualistic Learning. Boston: Allyn and Bacon.

DIZARTRIYADA LOGOPEDIK MASSAJ ASOSIDA OROFATSIAL KAMCHILIKLARNI BARTARAF ETISH

MANZURAXON ADILOVA
Toshkent davlat pedagogika universiteti, Logopediya kafedrasi tayanch doktoranti

Annotasiya. Ushbu maqolada dizartriya nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarda uchraydigan nutqiy, motor buzilishlar bo‘yicha tadqiqotlar sharhi, shuningdek, dizartriyani korreksiyalashda olib boriladigan logopedik massajda qo‘llaniladigan texnika, vosita va usullar yoritilgan.

Аннотация. В статье рассмотрены исследования речевых и двигательных нарушений у детей с дизартрией, а также приемы, средства и методы, используемые в логопедическом массаже при коррекции дизартрии.

Abstract. The article discusses studies of speech and motor disorders in children with dysarthria, as well as techniques, means and methods used in speech therapy massage in the correction of dysarthria

Tayanch so‘zlar: dizartriya, parez, tonus, giperkinez, ataksiya, nutqiy nuqson, logopedik massaj.

Dizartriyaga ega bo’lgan bolalar uchun logopedik massaj dasturini tuzish jarayonida nutq apparatining tuzilishi va fiziologiyasini yaxshi bilish, dizartriyaning patogenetik mexanizmlarini tushunish hamda mushaklar tonusi va periferik nutq apparati mushaklarining harakat funksiyalari bilan bog’liq buzilishlarni aniqlashga imkon beruvchi diagnostik metodlarni bilish lozim.

Logopedik massajning har qanday dasturi odatda, to’rtta massaj kompleksidan iborat bo’ladi, bunda periferik nutq apparatining tuzilish xususiyatlari, funksiyasi va korreksion ta’sir jarayonida hal qilinadigan vazifalar qat’iy ravishda inobatga olinadi. (1- jadval)

Massajning individual dasturini tuzish mobaynida logoped aynan qaysi massaj usullarini dasturga kiritish kerakligini, har bir massaj kompleksi necha daqiqadan olib borilishini, massaj jarayonida qaysi mushaklar guruhiga alohida e’tibor berilishini hamda massaj qilinadigan mushaklar ketma-ketligini belgilab olish lozim, ushbu jarayonlar diagnostika va mushaklar tonusi holatiga bog’liq hisoblanadi.

Odatda, logoped artikulyatsion apparat mushaklari tonusining buzilishiga sabab bo’ladigan uch asosiy muammoga ko’proq duch keladi:

1) chaynash mushaklaridagi muammolar bilan bog’liq tarzda og’iz holati va/yoki chaynash jarayonining buzilishi;

2) tovush talaffuzi va/yoki tovush talaffuzi poydevorining og’izning aylana mushaklaridagi muammolarga bog’liq tarzda buzilishi;

3) tovush talaffuzi va/yoki talaffuz ko’nikmalari asosining til mushaklaridagi muammolarga bog’liq tarzda buzilishi.

Dastlabki muammo turlicha simptomatika bilan (mushaklar tonusi buzilishining turiga bog’liq tarzda) ifodalanishi mumkin, masalan: bola og’zini katta ochishga va/yoki uni ushbu holatda tutib turishga qiynaladi yoki og’iz doimiy ravishda ochiq turadi, gipersalivatsiya kuzatiladi, bola qattiq ovqatni yeyishdan

1- *jadval. Logopedik massajning asosiy komplekslari*

№	Massaj harakatlari olib boriladigan sohalar	Asosiy korreksion vazifalar
1	Yelka kamari va ko'krakning yuqori qismi; bo'yin; og'iz bo'shlig'ining tubi	Nafas va ovoz apparati sohasidagi mushaklar tonusini normallashtirish. Chaynash mushaklari, og'izning aylana mushagi va tilning skelet mushaklariga reflektor tarzda ta'sir ko'rsatadi. Emotsional holatni boshqarishga yordam beradi.
2	Peshona va ko'zning aylana mushaklari sohasi	Yuzning yuqori qismidagi mimik mushaklar, chaynov mushaklari (xususan, chakka mushaklari) tonusini normallashtirish. Emotsional holatni reflektor tarzda boshqarishga yordam beradi.
3	Yuzning quyi qismi sohasi (chaynash, yuz suyagi mushaklari, lunj va iyak sohasi mushaklari)	Og'iz atrofidagi barcha mushaklar hamda chaynov mushaklari tonusini normallashtirish
4	Og'iz atrofidagi mushaklar (aylana, katta va kichik yuz mushaklari, og'iz burchagi, yuqori lab va burun qanotlarini yuqoriga ko'taruvchi mushaklar, lunj mushagi, og'iz burchagi va pastki labni pastga tushiruvchi mushaklar, iyak mushagi)	Og'izning aylana mushaklari va og'iz atrofidagi alohida mushak guruhlari tonusini normallashtirish
5	Til mushaklari: a) og'iz bo'shlig'ining tubi (til osti til usti mushaklari, til osti suyagi); b) til mushaklari (tilning ko'rinadigan qismi)	a) tilning skelet mushaklari; b) asosan til mushaklari va qisman tilning skelet mushaklari tonusini normallashtirish

bosh tortadi, chaynash paytida pastki jag' bir tomonga og'ishi yoki bir oz oldinga siljib "soxta progeniya" holatini hosil qilishi mumkin va hokazo. Ushbu simptomatika pastki jag' harakatlarini amalga oshiruvchi u yoki bu mushaklar guruhi tonusining buzilganligidan dalolat beradi.

Odatda, bunday hollarda chaynash mushaklari guruhi nisbatan ko'proq zararlanadi. Ushbu mushaklar guruhi pastki jag'ning pastga, oldinga, orqaga hamda chapga va o'ngga harakatlanishini ta'minlovchi uch asosiy mushaklardan iborat. Chaynov mushagi, chakka mushagi va qanotsimon mushak ushbu guruhga kiradi. Biroq shuni nazarda tutish kerakki, pastki jag' harakatlanishida og'iz tubini tashkil etadigan (ikki qorinli, jag'-tilosti, iyak-tilosti mushaklari) til osti suyak mushagi va bo'yin sohasidagi tilosti mushagi ham bilvosita ishtirok etadi.

Shunday qilib, pastki jag' harakatlanishi va og'iz holatini tiklashga qaratilgan massaj harakatlari kompleksini tuzishda nafaqat birlamchi ahamiyatga ega asosiy mushaklar, balki pastki jag' harakatlanishida bilvosita ishtirok etadigan ikkilamchi mushaklar holatini ham inobatga olish lozim. O'z navbatida logoped bo'yin, chakka, og'iz tubi, chaynash mushaklari sohasini tashqi va ichki tomondan massaj jarayoniga jalb etishi lozim. Bunda mushak tonusi holatini e'tibordan qochirmaslik zarur. Agar mushaklar tonusi yuqori bo'lsa, massaj jarayonini harakatlanishda bilvosita ishtirok etadigan mushaklar guruhidan

boshlash tavsiya etiladi. Aksincha, agar tonus pasaygan bo'lsa, massajni istalgan ketma-ketlikda, masalan, chaynash harakatlarini bajarish paytida asosiy vazifani bajaruvchi chaynash mushagi va qanotsimon mushakdan boshlash, so'ngra, massaj jarayoniga yuqorida sanab o'tilgan barcha mushaklarni jalb qilish mumkin. Faqat shundagina logopedik massaj kutilgan natijani beradi.

Logopedlarda qiziqish uyg'otishi mumkin bo'lgan ikkinchi muammo yuzdagi mimik mushaklarning harakatlanishi bilan bog'liq. Ushbu mushaklar insonning emotsional holatini aks ettiruvchi turli mimik harakatlarni bajarishda ishtirok etadi va tabiiyki, markaziy nerv tizimining emotsiogen tuzilmalari bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Og'izning aylana mushagi oral praksisda faol ishtirok etadi va boshqa mushaklar ichidan ajralib turadi.

Og'izning aylana mushagi tonusi buzilganda bolada quyidagi simptomatika kuzatiladi: lab-lab ("B", "P", "M), lab-tish ("V", "F") tovushlari talaffuzining buzilishi; lablangan unlilarni talaffuz qilish paytida lab holatining buzilishi; sirg'aluvchi va shovqinli tovushlarni hamda "I", "E", "O", "U" unlilarini talaffuz qilish paytida lab holatining buzilishi. Logopedik tekshirish paytida quyidagi harakat sinamalarini bajarish bilan bog'liq qiyinchiliklar aniqlanadi: lablarni oldinga cho'zish, lablarni yon tomonlarga cho'zish, lab burchaklarini ko'tarish (tabassum), lab burchaklarini pastga tushirish, yuqori labni yuqoriga ko'tarish, pastki labni pastga tushirish, lunjlarni shishirish, lunjlarni jag' tishlariga zich yopishtirish va hokazo. Erta yoshdagi bolalarda pastki labning osilib turishi yoki og'iz burchagining pastga tushishi kabi holatlar kuzatilishi mumkin. Bu oziqlantirish paytidagi muammolarga sabab bo'ladi va suyuq taomlarning og'iz burchaklaridan oqib ketishiga olib keladi.

Shu kabi holatlar uchun mo'ljallangan massaj kompleksini tuzishda logoped turli funksiyalarni bajaradigan ikkita mushak guruhinining mavjudligini inobatga olishi lozim. Og'izning aylana mushagi ikkita asosiy funksiyani bajaradi: lablarni oldinga cho'zadi va og'iz teshigini toraytiradi. O'z navbatida, patologik holat yuzaga kelganda birinchi bo'lib lab undoshlari va lablangan unlilar talaffuzi buziladi. Boshqa mushak guruhlari og'izning aylana mushagiga nisbatan radial holatda joylashgan bo'lib, ularning qisqarishi og'iz teshigini kengaytirishga sabab bo'ladi. Ushbu mushaklar yonoq suyagi yoki pastki jag'dan boshlanadi va og'izning aylana mushagi bilan qo'shilib ketadi. Ushbu mushaklardan har biri ma'lum funksiyani bajaradi. Masalan: og'izning katta aylana mushagi – lab burchaklarini yuqoriga ko'taradi; kulgu mushagi – labni yon tomonlarga cho'zadi va lunjni shishirish paytida ushbu holatni ushlab qolishga yordam beradi hamda lunj mushagining tishlarga yopishub turishini ta'minlaydi; og'iz burchagini pastga tushiruvchi mushak – og'iz burchaklarini pastga tortadi; iyak mushagi – pastki labni oldinga va yuqoriga cho'zadi va hokazo. Bundan tashqari ushbu harakatlarning bajarilishida bo'yin sohasining teriosti mushagi ham bilvosita ishtirok etadi.

Massaj harakatlari kompleksi aynan qaysi mushak guruhining faoliyati ko'proq buzilganligini inobatga olgan tarzda tuziladi. Massaj har qanday holatda ham barcha mushaj guruhlarini qamrab olishi lozim, chunki ular o'zaro chambarchas aloqador hisoblanadi. Massaj harakatlarining ketma-ketligi va usullari mushaklar tonusi holatidan

kelib chiqib tanlanadi. Masalan, og'izning aylana mushagi tonusi oshganda massaj avvaliga bo'yin mushaklaridan, keyin esa radial holatda joylashgan mushaklardan boshlanadi va shundan keyingina bevosita og'izning aylana mushagi massaj qilinadi. Mushaklar tonusi pasayganda esa massaj harakatlari kompleksi yuqoridagi ketma-ketlikda yoki aksincha tarzda tashkil etilishi mumkin, ya'ni bunda logopedik massaj nisbatan ko'proq zararlangan mushaklar guruhidan boshlanadi va shundan so'nggina u yoki bu funksiyani bajarishda yetakchi ahamiyatga ega bo'lmagan bilvosita mushaklarni massaj qilishga o'tiladi.

Uchinchi muammo til mushaklarining holatiga bog'liq hisoblanadi. Tanamizdagi hech bir mushak til mushaklari singari o'ziga xos tarzda tuzilmagan. Uning bir qancha farqli xususiyatlari bor. Birinchidan, bu faqatgina bir tomonlama birikkan yagona mushak guruhi hisoblanadi. Ikkinchidan, tilning tana qismi va ko'rinmaydigan (tekshiruv paytida) ildiz qismi farqlanadi. Til ildizida bevosita massaj harakatlarini o'tkazish ta'qiqlanadi. Uchinchidan, tildagi barcha mushaklar simmetrik tarzda joylashgan va markaziy egat uni o'ng va chap qismlarga bo'lib turadi. Ko'ndalang egat ostida esa biriktiruvchi to'qimali (fibroz) plastinka joylashgan. To'rtinchidan, tilning barcha mushaklari ikki guruhga bo'linadi: tilning skelet mushaklari til tanasining ichki qismidan boshlanib bosh yoki bo'yin (tilosti) suyaklariga birikadigan 4 ta mushakdan iborat. Skelet mushaklarining sharofati bilan til o'z holatini o'zgartira oladi. Bundan tashqari til mushaklarining xususiy guruhi ham mavjud bo'lib u tilning ichki qismida joylashgan 4 nafar mushakdan iborat. Tilning xususiy mushaklari uning shaklini o'zgartirishga yordam beradi.

Strukturani farqlab turuvchi beshinchi belgi til mushaklar uchta yo'nalish bo'ylab joylashganligi bilan bog'liq hisoblanadi: uzunasiga (til uchidan ildiz tomonga qarab), ko'ndalangiga (tilning yon qismlaridan boshlab markazga qarab), vertikal yo'nalishda (yuqoridan pastga). Bundan tashqari, yelpig'ichsimon joylashgan mushak (iyak-til mushagi) butun til sohasini kesib o'tadi. U tilning asosidan boshlanadi va tilning barcha tashqi yuzasini qoplab oladi. Ushbu struktura sabab til turli harakatlarni amalga oshira oladi.

Til mushaklarining ixtiyoriy harakatlari mushaklarning murakkab sinergiyasini tashkil qiladi. Masalan, iyak-til mushagi tilni og'iz bo'shlig'idan tashqariga chiqarishga yordam beradi. Bunda ushbu mushak bo'shashgan holatda bo'ladi, tilosti-til mushagi esa antagonist mushak sifatida tilni orqaga va pastga tortadi. Tilning yon tomonlarga harakatlanishi uchun bir tomondagi mushaklar qisqarishi, ikkinchi tomondagi mushaklar esa bo'shashishi kerak. Tilning ko'ndalang mushagining qisqarishi natijasida til ingichka holatga keladi, aksincha, tilning vertikal mushaklari faollashganda esa til ingichka yapaloq holatga keladi va hokazo. Tilni o'rta chiziq bo'ylab harakatlantirganda (oldinga, yuqoriga, pastga, orqaga) o'ng va chap tomondagi mushaklar o'zaro hamkorlikda ishlaydi, aks holda til o'z funksiyasini bajara olmayotgan mushaklar tomonga qiyshayib ketadi. Til oldi tovushlari, ayniqsa "R" tovushini talaffuz qilishda mushaklarning o'ta murakkab sinergiyasi talab etiladi. Buning uchun til uchini yuqoriga ko'taruvchi tilning xususiy mushaklari aniq harakatlanishi lozim, bu holat til ildizining tilning skelet mushaklari bilan mahkam birikishi hisobiga amalga oshiriladi, bunda

tilosti suyagiga birikuvchi mushaklar va bo'yin mushaklari alohida ahamiyatga ega. Shunday qilib, til mushaklarining faoliyatini tilning harakatlanishida bilvosita ishtirok etuvchi mushaklar guruhidan alohida tarzda tasavvur etib bo'lmaydi. Tilning harakatlanishida bilvosita ishtirok etuvchi mushaklar guruhi tilosti va tilusti mushaklari deb nomlanuvchi tilosti suyagiga birikuvchi mushaklardan (ikki qorinchali, ignasimon-tilosti, jag'-tilosti) iborat. Ushbu mushaklar og'iz bo'shlig'ining tubini tashkil etadi va til harakatlari, ayniqsa qil uchining harakatlanishida bilvosita ishtirok etadi. Tilosti suyagiga boshqa tomondan birikuvchi mushaklar, ya'ni tilostining pastki mushaklari (ko'krak-tilosti, qalqonsimon-tilosti, kurak-tilosti mushaklari) hiqildoq holatini o'zgartirish vazifasini bajarsa ham, til mushaklarining holatiga ta'sir ko'rsatadi.

Tildagi mushak tizimining o'ziga xos tuzilishi til massajini amalga oshirishga spetsifik yondashishni va til mushaklarini massaj qilish jarayonini tashkil qilishda bir qator o'ziga xos holatlarni hisobga olishni talab etadi:

- Tilning faqat ko'rinadigan qismini massaj qilish yetarli darajada samarador emas.

- Massaj jarayonida til mushaklarining ko'rinmaydigan qismiga ham, ya'ni bevosita manual kontakt hududidan chetda yotuvchi tilning skelet mushaklariga ham ta'sir ko'rsatish lozim.

- Tilning skelet mushaklariga quyidagi sohalar orqali ta'sir ko'rsatish mumkin: og'iz bo'shlig'ining tubi, bigizsimon o'siq sohasi (pastki jag' burchagi va so'rg'ichsimon o'simta o'rtasida), tilosti suyagi sohasi.

- Tilning ko'rinadigan qismini massaj qilish til mushaklarining tuzilishi bo'ylab uchta yo'nalishda amalga oshiriladi: uzunasiga, ko'ndalangiga va vertikal yo'nalishda.

- Til mushaklarining massaji odatda, tilning skelet mushaklariga ta'sir ko'rsatishdan boshlanadi va bevosita til mushaklarini uqalash bilan yakunlanadi.

O'z navbatida, til tovushlari talaffuzini yaxshilashga qaratilgan massaj kompleksini tuzishda til mushaklarining holatiga bevosita va bilvosita ta'sir qiluvchi barcha mushaklar guruhini hisobga olish lozim. Massaj harakatlarining kompleksi tilning qaysi harakatlari ko'proq zararlanganligini hisobga olgan tarzda tuzib chiqiladi. Masalan, til mushaklari tonusining oshishida til orqaga tortiladi va "yumaloq" holatga keladi, tilga teginganda esa mushaklar tonusining keskin oshishi va yaqqol ifodalangan qusish refleksi kuzatiladi. Bunday hollarda massajni tilning bilvosita mushaklaridan, ya'ni bo'yin mushaklaridan (tilosti sohasining pastki qismidagi mushaklar guruhi) boshlash, keyin esa og'iz bo'shlig'ining tubidagi mushaklarni (tilosti sohasining ustki qismidagi mushaklar) massaj qilish tavsiya etiladi. Bu tilning skelet mushaklarini bo'shashtirish imkonini beradi, shunday keyingina tilning ko'rinadigan sohasini massaj qilishga o'tish mumkin, ayni holat bevosita tilning o'zini massaj qilishdagi qiyinchiliklarni yengib o'tishga va massajning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Mushaklar tonusi pasayganda massaj harakatlarining kompleksi teskari tartibda tashkil etiladi, ya'ni bunda logopedik massajni bevosita nisbatan ko'proq zararlangan mushaklardan, tilning xususiy mushaklaridan boshlash mumkin, shundan keyin esa tilosti sohasining ustki qismidagi va tilosti sohasining pastki qismidagi mushaklarni massaj qilishga o'tish mumkin.

Bilvosita ishtirok etuvchi mushaklar guruhini (tilosti sohasining pastki qismidagi mushaklar) massaj kompleksiga jalb etish korreksion ta’sir samarasini oshirishga yordam beradi.

Shunday qilib, korreksion-pedagogik ish davomida logopedik massajdan foydalanish logopeddan massaj harakatlarining individual kompleksini har bir bola uchun alohida tuza olish ko’nikmasini talab qiladi va u quyidagi bir qator tamoyillarga asoslanadi.

- Periferik nutq apparatining anatomiyasi va fiziologiyasini bilish;
- Nutq appratai mushaklarining turli guruhidagi mushaklar tonusini aniqlashga imkon beruvchi diagnostik metodlarni bilish;
- Har bir alohida holatga mos keluvchi massaj harakatlari usullarini tanlay olish va ularning ketma-ketligini tuzish;
- Massaj kompleksiga periferik nutq apparatining buzilgan funksiyasiga ta’sir ko’rsatuvchi barcha mushaklar guruhini qamrab olish.

Faqatgina ushbu tamoyillarga amal qilish natijasida logopedik massajdan yuqori darajadagi samaraga erishish mumkin, bu holat o’z navbatida korreksion ta’sir davomiyligini qisqartirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Е.А.Дьякова “Логопедический массаж при разных формах дизартрии” М.: В.Секачев -2012.
2. Ayupova M.Yu. Logopediya. - T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2007,2011.
3. Визель Т.Г. Мозговая организация речевой функции и ее нарушения //Логопед.- М., 2004.
4. Волкова Г.А. Методика психолого- логопедического обследования детей с нарушениями речи. Вопросы дифференциальной диагностики: Учебно- методическое пособие. Спб: ДЕТСТВО ПРЕСС, 2004
5. Зайцева Л.А. Обследование детей с речевой патологией. Методические рекомендации. М.: нмцентр, 1994.
6. Adilova M.R. Logopedik massaj va miofunksional korreksiya: dizartriyani bartaraf etishdagi afzalliklari. T.: Bola va zamon jurnali, 2024. 1-son, 69-71 betlar.

ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI FANINI O‘QITISHDA UZVIYLIKNI TA’MINLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

XUDAYKULOV JAMSHID NISHANOVICH
Samarqand viloyati Pedagogik mahorat markazi, pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada ona tili va o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishda uzviylikni ta’minlashning pedagogik-psixologik asoslari haqida so‘z boradi. Maqola mazmunini yoritish maqsadida xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqot ishlaridan foydalanildi.

Kalit so‘zlar:ona tili, savodxonlik, fan taraqqiyoti,adabiy bilimlar, boshlang‘ich sinflar

Абстракт. В статье говорится о педагогических и психологических основах обеспечения связности обучения родному языку и грамотности чтения. Для пояснения содержания статьи использованы научно-исследовательские работы зарубежных и отечественных учёных.

Ключевые слова: родной язык, грамотность, развитие науки, литературные знания, начальные классы.

Abstract. The article talks about the pedagogical and psychological foundations of ensuring coherence in the teaching of mother tongue and reading literacy. In order to clarify the content of the article, scientific research works of foreign and local scientists were used.

Key words: mother tongue, literacy, science development, literary knowledge, primary grades

Ta’lim tizimi tamomila yangi mazmun kasb etayotgan bugungi kunda boshlang‘ich sinflar va unga daxldor fanlarning mazmunini qayta tahlildan o‘tkazish, ta’lim sohasi bo‘yicha uning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash asosida tubdan isloh qilish va hayot bilan bog‘lash lozimligini ko‘rsatadi.

Ilmiy-texnik, mafkuraviy taraqqiyotning zamonaviy bosqichida savodxonlik va adabiy bilimlar targ‘ibotiga, xususan, kitobxon o‘quvchini tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Zero, savodxonlik intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalash hamda turli sohadagi ilg‘or ijodiylikni ta’minlashning asosidir. Shuning uchun ham o‘qituvchilar uchun mavjud metodik tizimni, modernizatsiyalash va takomillashtirish asosida o‘quvchilarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish – zamonaviy ta’limning muhim vazifalaridan biridir.

Boshlang‘ich ta’lim tizimida, jumladan, ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarida uzviylikni ta’minlash o‘qituvchidan jarayonning qonuniyatlari, tashkiliy elementlari, pedagogik-psixologik asoslari, harakatlar ketma-ketligini bilishini taqozo etadi. Negaki, ta’lim-tarbiyaning muvaffaqiyati insonning ruhiy jihatdan rivojlanganlik darajasi bilan bog‘liq.

Boshqacha aytganda, “...har qanday ishga ijodiy yondashadigan, har qanday masalani o‘ziga xos tarzda yechadigan izlanuvchan, tashabbuskor shaxsni shakllantirish yangilangan pedagogika ilmi oldidagi vazifa bo‘lishi lozim” [1] [38-b.].

Bilish jarayonida muhim ahamiyat kasb etuvchi psixologik omillarning har biri (masalan, idrok) ikkinchi omil(masalan, xotira)ning shakllanishida to‘laqonli jarayon mavjudligini taqozo etadi, aks holda, ikkinchi omil (xotira) to‘liq shakllanmay, buning natijasida uchinchi omil tafakkur operatsiyalari paydo bo‘lmaydi [314-320-

1 Йўлдошев Қ.Б. Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари: Пед.фан.док.дисс. – Т., 1996. – 286 б.

b.] [2]. Inson erkinligi va mustaqilligini bosh masala, deb hisoblovchi nemis faylasufi Marten Haydegirning fikricha, tushunishni talab qiladigan narsalar fikrlashga, tafakkurga undaydi. Tafakkur zamirida esa tasavvur turadi. Tasavvur fikr orqali ifodalanadi. Shu nuqtai nazardan o‘quv materiallarining o‘zlashtirilish darajasi o‘quvchi ongida kechayotgan psixologik jarayon(omil)lar, ularning yaxlit va to‘laqonli kechishiga bog‘liq.

Demak, boshlang‘ich ta’lim ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarida o‘quv materiallarini uzviylik va uzluksizlik tamoyili asosida joylashtirish natijasida o‘quv jarayoni uzviyligi hamda uzluksizligining ta’minlanishi, avvalo, o‘quvchi tomonidan mavzuning to‘la idrok etilishi, fan asoslarining yaxlit o‘zlashtirilishiga yordam beradi. Tushuncha va bilimlarning samarali idrok etilishi, o‘z navbatida, mantiqiy xotiraning shakllanishi va uning rivojlanishiga yo‘l ochadi. O‘qituvchi adabiy bilimlarni o‘zlashtirishda muhim rol o‘ynovchi psixologik hodisalarning qay darajada kechganligini har bir adabiyot darsida nazorat qilib borsagina, o‘quvchilar tomonidan o‘quv materiallarining o‘zlashtirganlik darajasini baholay olishi mumkin.

N.F.Talizinaning fikricha, o‘zlashtirish jarayonining eng muhim xususiyati bilish jarayoni va xotiraning faolligidadir: bilimlarga ega bo‘lishi uchun o‘quvchi ularni qabul qilishi, ya’ni ular bilan ma’lum bir faoliyatni bajarishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni – bu doimo o‘quvchilar tomonidan muayyan bilish harakatlarining bajarilishidir. Shuning uchun har qanday bilimlarni rejalashtirishda, ularning o‘quvchilar tomonidan qanday faoliyat (ko‘nikma) asosida va qanday maqsadda o‘zlashtirilishini aniqlab olish lozim. Shuningdek, o‘qituvchi mazkur holda o‘quvchilar o‘qish ko‘nikmasi negizida aks etuvchi barcha harakatlar tizimini o‘zlashtira olmaganliklaridan xabardor bo‘lishi kerak [59-b.][3] .

Ma’lumki, ta’lim jarayonida o‘quv materiallari qismlari orasida muayyan izchillik, uzviylik, uzluksizlik saqlanmas ekan, o‘quv materiali to‘liq o‘zlashtirilmaydi. Shuning uchun ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarini o‘qitishning uzviyligi tamoyiliga amal qilish didaktikaning muhim prinsipi bo‘lib, oddiydan murakkabga, noma’lumdan ma’lumga qarab borishni anglatadi. U o‘quv rejalari, dasturlar, darsliklarda materiallarning bir-biri bilan mantiqiy bog‘liq bo‘lishini, ta’limning har bir bosqichida ma’lum darajada bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni talab qiladi. Shunga ko‘ra, “bilim fan qonuniyatlarini o‘zlashtirish, ko‘nikma o‘rganilgan bilimlarni turli vaziyatlarda qo‘llay olish, malaka o‘rganilgan bilim va shakllangan ko‘nikmalarni hayotga tatbiq etish mahoratidir” [3-6-b.][4] .

Bundan tashqari boshlang‘ich ta’limda ushbu fanlarning uzviyligini ta’minlash uchun o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligi tamoyilini yo‘lga qo‘yish ham o‘ta muhim sanaladi. Mashhur psixologlar V.M.Bexterov va V.M.Myasishchev ijtimoiy turmushning hamkorlik faoliyatida muomalaning (uning o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lgan taqlid va ta’sirlanishning) rolini tavsiflab, agarda taqlid bo‘lmasa, jamiyatning ulug‘ ne’mati bo‘lgan shaxs yuzaga kelmasligini ta’kidlaydi. Taqlid o‘z materialini muomaladan oladi, o‘zaro hamkorlik tufayli o‘zaro induksiya

2 Нишанова З.Т., Алимбаева Ш.Т. Психологик хизмат. Дарслик. – Т., 2014. – 344 б.

3 Тализина Н.Ф. Формирование познавательной деятельности младших школьников. Кн. для учителя. – М.: Просвещение, 1988. – 175 с.

4 Дониёров Б. Таълим жараёнида билим, кўникма ва малаканинг ўрни //Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 2010. – №4. –Б. 3-6.

va ta’sirlanish rivojlanadi [263-b.][5] . Psixolog E.G‘oziev o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligini 1) faoliyatga kirishish; 2) mustaqil harakatlar; 3) taqlidiy harakatlar; 4) madad harakatlari; 5) o‘zini o‘zi boshqarish harakatlari; 6) o‘zini o‘zi qo‘zg‘atuvchi harakatlar; 7) o‘zini o‘zi tashkil qiluvchi harakatlarga [140-b.][6] bo‘lib ko‘rsatadi. Demak, savodxonlikni rivojlantirish, badiiy asarni to‘g‘ri idrok qilish, o‘quvchini bilish va amalda qo‘llash muhitiga olib kirish o‘qituvchi zimmasiga hamkorlik vazifasini ham yuklaydi.

Idrok qilish jarayonida badiiy asar(– adabiyot va san’atning voqe bo‘lish va yashash shakli, yaxlitlik kasb etgan obrazlar tizimi)[41-b.][7] ning obrazlar sistemasi (– badiiy asardagi bir-biri bilan uzviy bog‘langan obrazlar tizimi) [136; 207-b.] tasavvur qilinadi, qahramonlarning xarakter xususiyati, kechmish-kechirmishlarining mohiyati anglanadi. O‘qish savodxonligi metodikasida “matn mazmunini tushunish” bilan “badiiy matnni idrok etish” o‘zaro farqli tushunchalar sifatida talqin qilinib, birinchisi asar ustidagi ishlarning dastlabki bosqichi uchun, ikkinchisi esa navbatdagi bosqich uchun ajratiladi, asarni idrok etish tushunchasi bevosita badiiy obrazlarni anglash bilan bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi [15-25-b.][8] .

Adabiy ta’lim idrok qilish tushunchasi bilan bog‘liq ekan, o‘quvchi yangi materialni to‘liq idrok etishi uchun o‘qituvchi, birinchidan, idrok etishning maqsad hamda vazifalarini aniqlashi zarur.

Ikkinchidan, o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va mavjud bilim darajasini inobatga olgan holda, yangi materialni idrok etishga tayyorlashda o‘quvchilarning oldin o‘zlashtirilgan material mazmunini bilishlari taqozo qilinadi. Aks holda, o‘quvchi yangi material mazmunini idrok etishi mumkin emas.

Uchinchidan, yangi material samarali o‘zlashtirilishi uchun mavzuni bo‘limlarga bo‘lib tushuntirish, muhim o‘rinlarni ajratib ko‘rsatish lozim.

To‘rtinchidan, yangi mavzu majmuaviy holda o‘rganilib, oldin o‘tilgan materiallar keyingi mavzular uchun asos bo‘lsa, shuningdek, ta’lim uzviyligi hamda uzluksizligini ta’minlovchi fan ichidagi va fanlararo aloqalar nazarda tutilsa, o‘quv materialining mazmuni chuqur, to‘la idrok etilishi mumkin.

Keyingi muhim bilish jarayonlari xotira va tafakkur uyg‘unligi bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘quvchilarni ona tiliga doir imlo qoidalari hamda o‘qish faniga nisbatan badiiy asarning janr xususiyatlari bilan tanishtirayotgan o‘qituvchi, ularning mexanik xotirasini emas, balki mantiqiy xotirasini rivojlantirishi kerak. Binobarin, mantiqiy xotira o‘rganilayotgan materialning tashkiliy shaklini emas, aksincha, mazmunini eslab qolish, o‘rganilayotgan materialni mavjud bilimlar bilan bog‘lash, tahlil qilish va anglashga xizmat qiladi. Bunday xotira – xotira turlaridan materialni ma’no tomonidan o‘zaro bog‘langan holda tushunib, esda qoldirishga asoslanadi [52-54-b.] [9]. Bu anglash jarayonining o‘zi tafakkur qilish jarayoni va tafakkur operatsiyalarini ishga soladi.

Tafakkur operatsiyalari o‘ta murakkab.

5 Бехтеров В.М., Мясишчев В.М. Прикладные проблемы социальной психологии. М.: - 1983. – 263 с.

6 Ғозиев Э.Ғ. Муомала психологияси. – Т.: Университет, 2001. – 176 б.

7 Қуронов Д. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 408 б.

8 Ниёзметова Р.Ҳ. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганишнинг назарий ва методик асослари: Пед. фан. докт. дисс. – Т.: 2007. – 242 б.

9 Баратов Ш.Р. ва бошқалар. Психологиядан изоҳли луғат. – Т.: Фан, 2008. – 112 б.

Shuning uchun o‘qituvchi boshlang‘ich ta’limdanoq o‘quvchilarni tahlil qilish, solishtirish, taqqoslash, umumlashtirish, tushunish, his qilish, o‘z fikrini isbotlash, fikr yuritish, dalillarni topishga o‘rgatishi maqsadga muvofiqdir. Bu o‘rinda badiiy asarlarning emotsional xususiyatlariga alohida e’tibor qaratish zarur. Chunki, emotsionallik o‘quvchida muayyan his–tuyg‘ularni uyg‘otishi bilan ajralib turadi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida jadvalda ko‘rsatilgan adabiy bilimlarni o‘zlashtirishning pedagogik-psixologik jihatlari ta’lim jarayonida inobatga olinsa, umumiy o‘rta ta’lim tizimi o‘quvchilarining adabiy bilim, ko‘nikma va malakalar uzviyligi ta’minlanadi, bu esa yangi o‘quv materialining tushunchalarini tasavvur etish, anglash va mavjud bilimlar bilan uzviy bog‘lay olish hamda tizimlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Йўлдошев Қ.Б. Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари: Пед.фан.док.дисс. – Т., 1996. – 286 б.
2. Нишанова З.Т., Алимбаева Ш.Т. Психологик хизмат. Дарслик. – Т., 2014. – 344 б.
3. Тализина Н.Ф. Формирование познавательной деятельности младших школьников. Кн. для учителя. – М.: Просвещение, 1988. – 175 с.
4. Дониёров Б. Таълим жараёнида билим, кўникма ва малаканинг ўрни //Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 2010. – №4. –Б. 3-6.
5. Бехтеров В.М., Мясишчев В.М. Прикладные проблемы социальной психологии. М.: - 1983. – 263 с.
6. Ғозиев Э.Ғ. Муомала психологияси. – Т.: Университет, 2001. – 176 б.
7. Қуронов Д. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 408 б.
8. Ниёзметова Р.Ҳ. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганишнинг назарий ва методик асослари: Пед. фан. докт. дисс. – Т.: 2007. – 242 б.
9. Баратов Ш.Р. ва бошқалар. Психологиядан изоҳли луғат. – Т.: Фан, 2008. – 112 б.

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING TARKIBIY KOMPONENTLARI

ASQAROV IXTIYOR BAXTIYOROVICH
Jizzax politexnika instituti "Transport vositalari muhandisligi" kafedrasi professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning kreativ yondashuv asosida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning tarkibiy komponentlarimohiyatini ochib berish, kasbiy sifatlari bilan aloqalarini aniqlashga imkon beruvchi asosiy nazariy qoidalar, malakali bo'lajak muhandisning qaror topishi kasbiy muhim sifatlarning shakllantirish va yuqori malakali bakalavrlarni zamonaviy ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash talablari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: tadqiqotchilik, ko'nikma, kompetansiya, komponent, qobiliyat, kasbiy ta'lim, kasbiy sifatlar, tadqiqotchilik ko'nikmasi, ilmiy-tadqiqotchilik.

Аннотация: В данной статье раскрываются сущность структурных компонентов подготовки студентов к научно-исследовательской деятельности на основе творческого подхода, основные теоретические правила, позволяющие определить их взаимосвязь с профессиональными качествами, формирование важных профессиональных качеств компетентного будущего инженера, и требования к подготовке высококвалифицированных бакалавров для современной научной и исследовательской деятельности.

Ключевые слова: исследование, умение, компетентность, компонент, способность, профессиональное образование, профессиональные качества, исследовательское умение, исследование.

Annotation: This article reveals the essence of the structural components of preparing students for research activities based on a creative approach, the basic theoretical rules that make it possible to determine their relationship with professional qualities, the formation of important professional qualities of a competent future engineer, and the requirements for the preparation of highly qualified bachelors for modern scientific and research activities.

Key words: research, skill, competence, component, ability, professional education, professional qualities, research skill, research.

Kreativlik ta'lim jarayonini tashkillashtirishni o'zida mujassamlashtirib, kreativ ta'lim jarayonini qurish, ta'lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko'nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Kreativlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlarlari bilan bog'liq ko'nikmalar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Kreativlik o'z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan ko'ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyani qamrab oladi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi.

Ko'rinib turibdiki, kreativlik bevosita shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Uning rivojlanishi esa intellekt-intuitsiya-mantiqiy fikrlash jarayoni ta'sirida kechadi.

Qayd etilgan umumiy kompetentsintsiyalarni tahlil qilish bo'yicha tadqiqotchilik ko'nikmalari zamonaviy mutaxasisning umumiy kompetensiyalarining

asosi ekanligi to‘g‘risida gapirishga imkon beradi.

Kasbiy tayyorgarlikka umumiy kompetensiyalar ko‘rinishida qo‘yiladigan zamonaviy talablar aniq bilimlar va ko‘nikmalar tizimida ifodalanadi.

Kasbiy kompetensiyalar – bu kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur kompetensiyalardir. 60712500 – Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti) yo‘nalish talabalarining kasbiy faoliyatini va mazkur yo‘nalish bo‘yicha o‘quv jarayoni tahlil qilish natijasi komponentlarining asosiy kasbiy kompetensiyalari bilan o‘zaro aloqasi to‘g‘risida xulosa chiqarishga imkon beradi [2; 612 b].

Malaka talablariga muvofiq kasbiy faoliyat turlari bilan o‘qitishning nazariy asoslari o‘rtasida to‘g‘ridan – to‘g‘ri o‘zaro aloqa va o‘zaro bog‘liqlik mavjud (1-jadval) [1].

1-jadval

“Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti)” yo‘nalishi bo‘yicha bo‘lajak mutaxassislar faoliyati turlari va uning nazariy asoslari

Kasbiy faoliyat turi	**Kasbiy faoliyatning mazmuni**
Ilmiy-tadqiqot	avtomobil transportidan foydalanish ishlarini takomillashtirish bo’yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda, ulardan foydalanish hamda texnik vositalarni, tizimlarini, jarayonlarini, jihozlar va materiallarni standartlashtirish bilan bog’liq tadbirlarda qarnashish
Layihaviy-konstruktorlik	Loyihaviy-konstruktorlik faoliyatida: - avtotransport vositalari va texnologik jihozlarning qismlari, detallari va yig’ma birliklarining loyihasini tizimli yondashuv asosida avtomatlashtirilgan ravishda ishlab chiqishni takomillashtirish; - avtomobil transporti sohasida tajriba-konstruktorlik va amaliy ishlar mavzusi bo’yicha matematik, axborot va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadbiq qila olish; - avtotransportdan foydalanish jarayonida loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish.
Ekspluatatsiya va servis xizmatini ko’rsatish	avtotransport vositalari va ularning agregat, mexanizm, tizimlari hamda texnologik jihozlardan foydalanish, ularga texnik servis ko’rsatish va ta’mirlash ishlarini tashkil etish; - avtotransport vositalari va ularning agregat, mexanizm, tizimlari hamda texnologik jihozlariga texnik servis ko’rsatish va ta’mirlash bo’yicha zamonaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va qo’llash; - avtotransport vositalari va ularning agregat, mexanizm, tizimlari hamda texnologik jihozlarni sinash, diagnostikalash va kamchiliklarni bartaraf eta bilish.

Ishlab chiqarish	avtomobil transporti ekspluatatsiyasi bo'yicha ratsional texnologiya va texnolgik jihozlarni tanlash, namunaviy texnologik xaritalarni ishlab chiqish; avtotransport vositasi ishchi qismlari va detallarini loyihalashtirish va konstruksiyasini ishlash; ularni yig'ish, sozlash, rostlash ishlarini rejalashtirish va bajarishni tashkillashtirishni hamda chet el dasturlari bilan foydalanib kompyuterda loyihalashni bilish.
Tashkiliy-boshqaruv	avtotransport vositalari va texnologik jihozlarga texnik servis xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlari texnologiyasi, texnik vositalardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarini hisoblash va baholash; - ishlab chiqarish hayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha mutaxassislarga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lish; - zamonaviy axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoring va sifatini baholash metodlari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish.

Ushbu jadvaldan koʻrinib turibdiki, boʻlajak muhandislarning kasbiy faoliyatining turlari va nazariy asosi bilan oʻzaro aloqasi va oʻzaro bogʻliqligi etarlicha tavsiflanmagan. Kasbiy koʻnikmalarni shakllantirish jarayonini tashkil etish uchun biz koʻnikma tushunchasini batafsilroq koʻrib chiqamiz. Aynan koʻnikma nazariy bilimlarning tadbiqi shakli boʻlib hisoblanadi. Shu bilan birgalikda aynan koʻnikma oʻqitishning hayot bilan aloqasi ta'limotini amalga oshirishga imkon beradi. O'z mohiyatiga koʻra koʻnikma – bu bilim va koʻnikmalarning real harakatlarida zichlashuvi.

Bizning fikrimizcha, turli xil nuqtai nazardan kasbiy faoliyatining turli darajada oʻzlashtirilganligi bilan shartlanilgan: quyi darajada koʻnikma – bu past darajada avtomatlashtirilgan koʻnikma sifatidagi malaka, rivojlanishning ancha yuqori darajasida – bu koʻnikma mahorat boʻlib, u xech qachon avtomatlashtirilmaydi. Umumlashtirilgan koʻnikma uchun malakalar birlamchidir. Faqat ularga erishilganlikdan keyingina murakkab koʻnikmalardan toʻla foydalanish mumkin boʻladi.

Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati jarayonida shakllanadigan koʻnikmalar tadqiqotchilik koʻnikmalari boʻlib hisoblanadi. Ularning tavsiflarini tahlil qilish uchun bu tushunchani oʻrganish bilan shugʻillangan mualliflarganing ta'riflarini qarab chiqamiz:

Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati- qaralayotgan muammoni yoki tadqiqotchilik masalasini hal etishda u yoki bu tadqiqot uslubini qoʻllash koʻnikmasidan iborat M.V.Mulyukov [8];

Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati – bu ilmiy izlanishni rejalashtirish va amalaga oshirishni oʻylab qoʻyilgan fikrni tadqiqot mantigʻi va dasturini ishlav chiqish, ilmiy metodlarini tanlab olish va ularni qoʻllay olish, tajriba sinov ishini tashkil etish va amalga oshirish, olingan natijalarga ilmiy matn koʻrinishida ishlab berish, tahlil qilish va rasmiylashtirish, hossalarni ifodalash va ularni mazkur ilmiy sohadagi etakchi omillar va mutaxasislar hamjamiyati oldida himoya qilish koʻnikmasidir N.V.Bordavelaya [9];

Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati – bu yuqori darajadagi mustaqillik bilan tajriba oʻtkazish, natijalarga ishlov berish va umumlashtirish koʻnikmalari bu tadqiqotda qoʻllaniladigan yangi qurilmalar va asboblarni tez oʻzlashtirib olish qobiliyatidir T.Yu.Ilvina [10];

Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati – bu ta'lim

oluvchining mavjud bilimlar va ko‘nikmalar asosida ilmiy tadqiqot mantig‘iga muvofiq uning oldida yuzaga kelgan masalani xal etish bo‘yicha o‘qitish tizimining har bir darajasi mazmuniga mos bo‘lgan amallarni samarali bajarish qobilyatidir P.Yu.Romanov [11];

Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati – bu talabaning tadqiqotchilik faoliyatiga mos keluvchi fan va asoslarini o‘rganish jarayonida o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar asosida ilmiy tadqiqot mantig‘iga bo‘ysinuvchi aqliy va amaliy harakatlarni bajarish qobiliyatidir L.N.Kaluginayu [12];

Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati turli xil talqinlarini tahlil qilish va umumlashtirish tadqiqotchilik ko‘nikmalari tarkibiga kiruvchi quyidagi asosiy tashkil etuvchilarni ajratib olishga imkon berdi:

- kuzatishlarni amalga oshirisht;
- tajribalar o‘tkazish;
- eksperiment qo‘yish;
- yangi qurilma va asboblarning ishlashini anglab etish;
- ilmiy adabiyotlar bilan ishlash;
- tadqiqotchining o‘z mehnatini tashkil etish;
- tadqiqot natijalariga ishlov berish va umumlashtirish.

Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati tayyorlash jarayonini qarab chiqish harakatlarni amaliy jihatdan amalga oshiruvchi va ichki mantiqqa ega bo‘lgan quyidagi bir qator komponentlar: motivatsion muomula tashkiliy jarayonli komunikativ texnik va natijaviy komponetlardan iborat bo‘lishini ko‘rsatadi.

1. Motivatsion komponent:bilim va ko‘nikmalarni egallashning samaradorligini o‘quv-ishlab chiqarish kasbiy masalalarini echish mobaynida reproduktiv tarzda emas (kimningdir orqasidan takrorlab yoki oddiygina eshitib), balki mustaqil ravishda aniqlay olish ko‘nikmasi;faoliyatning mazkur turiga ichki sabablarni topa olish ko‘nikmasi;kasbiy darajani mustaqil ta’lim olishga tayyorlik darajasiga bog‘liqligini tushuna olish ko‘nikmasi;

2. Mazmunli komponent:standart ishlab chiqarish vaziyatni namunaviy bo‘lmagan vaziyatdan farqlay olish ko‘nikmasi;o‘zining ishlab chiqarish harakatlarini tahlil qilish, ularning betakrorligini va noyobligini aniqlash ko‘nikmalari;harakat natijasini uni bajarish texnologiyasiga bog‘liqligini aniqlay olish ko‘nikmasi; kasbiyfaoliyatda foydalaniladigan turli xil kategoriyalar o‘rtasidagi sababiy oqibat aloqalarini o‘rganish ko‘nikmasi;

3. Tashkiliy komponent: ishlab chiqarish ishlarini bajarishda o‘zining ish vaqtini mustaqil taqsimlay olish ko‘nikmasi; muammoni xal qilish jarayonini bosqichlarga ajrata olish ko‘nikmasi; oldindan belgilagan reja bo‘yicha bosqichma-bosqich borish ko‘nikmasi; mahnat operatsiyalarini bajarish uchun o‘ziga sharoitni mustaqil yaratilish ko‘nikmasi;

4. Protsessual komponent:turli xil ishlab chiqarish vaziyatlarni tahlil qilish ko‘nikmasi; aniqlangan qiyinchiliklar asosida muammoni ifodalay olish ko‘nikmasi; mazkur muammoni xal qilishga oid taklif etilgan variantlardan eng optimal tanlay olish zarur bo‘lganda mazkur muammoni xal qilish usullarini mustaqil ishlab chiqish ko‘nikmasi; taklif etilgan sharoitlarda ishlab chiqish masalasining echimini amaliy tarizda ishlata olish ko‘nikmasi; o‘zining kasbiy qiyinchiliklarini va ularni engib o‘tish vositalarini aniqlay olish ko‘nikmasi;standart sharoitlarda faoliyatni amalga oshirishning eng optimal vositalarini va usullarini tanlay olish ko‘nikmasi; turli xil ishlab chiqish vaziyatlarida shu jumladan namunaviy bo‘lgan vaziyatlarda ham o‘z harakatlarini amalga oshira olish ko‘nikmasi; faoliyatning aniq bir sharoitlarida kasbiy masalarni xal qiqlish uchun amaliy va nazariy bilimlardan foydalana olish ko‘nikmasi;bilim

va ko‘nikmalarni o‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy masalalarni xal qilish vositasi sifatida egallay olish ko‘nikmasi.

5. Kommunikativ komponent: o‘z fikrlarni verbal tarizda umum qabul qilgan shaklda ifodalay olish ko‘nikmasi; umumiy muammo bo‘yicha asosli tarzda munozara qilish ko‘nikmasi; umumiy natijaga tezroq erishish uchun vazifalarni taqsimlash maqsadida o‘zining va hamkasblarining imkoniyatlarini asosli baholay olish ko‘nikmasi; umumiy ishni bajarishda hamkasblari yanglishgan hatoga yo‘l qo‘ygan holatlarda ularni tuzatish ko‘nikmasi; o‘z faoliyati va hamkasblari faoliyati natijalariga kerakli va muhim baho bera olish ko‘nikmasi; ishni bajarishning eng samarali usullarni aniqlash bo‘yicha qarorlarni jamoa bo‘lib qabul qilishda ishtirok etish ko‘nikmasi;

6. Texnik koaponent: axborotni tahlil tahlil qila olish, undan asosiy g‘oyani ajrata olish, tuzilmalashtirish, qulay ko‘rinishda taqdim eta olish, axborot manbalarini mustaqil izlash aososida amaliy masalalarni echa olish ko‘nikmasi; o‘zining kasbiy faoliyatida foydaladigan qurilmalarning (chizmalar, sxemalar, turli ko‘rinishdagi yo‘riqnomalar) taavsifini o‘qiy olish ko‘nikmasi; katta hajmdagi axborotni asosiysini ajrata olish ko‘nikmasi; texnologik operatsiyalarning bajarilishini qisqa va mufassal tavsiflay olish ko‘kikmasi; turli shaklda mavjud bo‘lgan texnik-texnologik tavsiflar asosida amaliy harakatlarni bajarish ko‘nikmasi.

7. Natijaviy komponent: o‘zini ancha tajribali xodimlar bilan almashtira olish ko‘nikmasi;aniq ishlab chiqarish masalasini hal qilish uchun o‘z imkoniyatlari darajasini aniqlay olish ko‘nikmasi; o‘quv ishlab chiqarish masalalarini mustaqil echishning o‘z kasbiga ta’sir ko‘rsatish darajasini baholay olish ko‘nikmasi.

Biz N.A.Demchenkovaning [16, 81-83 b] bu ishiga tayangan homda bo‘lajak kasb ta’limi pedagoglarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarining bloklarini ishlab chiqdik:

1-blok – tadqiqotchilik faoliyatning anglanganligi haqida, tadqiqotchilik yo‘nalishidagi eng oddiy masalani mustaqil echish uchun zarur bilimlar minimumiga ega bo‘lish to‘g‘risida gapirishga imkon beruvchi umumiy hususiyatga ega ko‘nikmalar;

2-blok – tadqiqotchilik topshiriqlarni hal qilishning turli xil varianlarini ishlab chiqish uchun zarur bo‘lgan ancha yuqori darajadagi ko‘nikmalar;

3-blok – real vaqt rejimida bo‘lajak kasb ta’limi pedagogiga masalani xal qilish uchun zarur bo‘lgan usullarni taqdim etishga imkon beradi.

Ko‘nikmaning murakkabligi, uning darajasiga bog‘liq holda ko‘nikmalar bloklarini ajratish oliy ta’lim muassaslarining kasbiy ta’lim yo‘nalishi sharoitida mazkur ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonini anada adekvat ravishda qurishga imkon beradi.

“Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti)” yo‘nalishi talabalariga qo‘yilgan talablar va bo‘lajak talabalarning tadqiqotchilik ko‘nikmalari tahlili umumiy kompotentsiyasini tashkil etuvchi ko‘nikmalarning ma’lum qismini tadqiqotchilik ko‘nikmalari deb atash mumkin.

Ma’lumoti turli xil darajada bo‘lgan ta’lim oluvchilarning (oliy, o‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’limi, umumiy-o‘rta) tadqiqotchilik ko‘nikmalarining mazmunini tahlil qilish bizga bo‘lajak kasb ta’limi pedagogining tadqiqotchilik ko‘nikmalari – bu muamoni ko‘rish va uni xal etishusullarini topish qobiliyatiga, o‘quv – bilim faoliyati usullarni samarali qo‘llashga va ularni ishlab chiqarish va o‘quv mehnatining borishida turli xil sohalarga ko‘chirishga asoslangan amaliy va aqliy harakatlar tizimini ongli o‘zlashtirish ekanini aniqlashga imkon beradi.

Shuni ta’kidlash lozimki, tadqiqotchilik

ko‘nikmalari, murakkab ichki tashkil etuvchilar sifatida uning tarkibiga kiruvchi ancha oddiy ko‘nikmalar majmuidan sifat jihatdan farq qiladi. Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati tayyorlash tizimini ochib berish mohiyati va mazmunini, talabalarda umum kompetensiyalar mazmuni, tadqiqotchilik ko‘nikmalari tarkibiga kiruvchi bir qator komponentlarni ajratish, bizga talabalarda ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati tayyorlash ga yo‘naltirilgan ta’lim jarayoni mazmuni va uni tashkil etish metodikasini aniqlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 60712500 – Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti) bakalavr ta’lim yo’nalishining MALAKA TALABLARI. Toshkent-2022 yil.
2. Макет федерального государственного образовательного стандарта Начального профессионального образования нового поколения по Професси и автомеханик, Московский государственный агроинже-нерный университетим. Горячкина, Москва 2007-31с.
3. Маркова А.К. Психология профессионализма.-М.,1996. с.222
4. Кудрявцев Т.В. Психологические основы профессионально-технического обучения: Проблемы профессионального становления молодежи/Подред.Т.В. Науч.-ис-след.:Педагогика,1998.—144с.
5. Левитов В.Д. К психологи и формирования авторитета учителя // Хрестоматия по педагогической психологии. Учеб.пособиедля студентов.-М.: Международная педагогическая академия, 1995.-с.258-176.
6. Бабанский Ю.К. Интенсификация процесса обучения/ /Избранные Педагогические труды /Сост.М.Ю. Бабанский.-М.:Педагогика, 1999.-с .379-416 с.
7. Милерян Е.А. Психология формирования общетрудовых политехнических умений. Автореф. дисдокт. психол.н.-Л.,1993. 118 с.
8. Мулюков М.В. Гуманизация и гуманитаризация высшего образования и внеучебная работа в вузе: материалы Всероссийской научно-практической конференции (22-24апреля2009г.)[научред.В.Н.Стегний] Пермьизд. пермскогогос. унив., 2009-527с.
9. Бордовская Н.В, Современные образовательные технологии :учебное пособие для студентов, аспирантов, докторантов, магистрантов школьных педагогов и вузовских преподавателей [Н.В.Бордов-скаяидр.]; подред. Н.В.Бордовской, Москва Кно Рус, 2010-431с.
10. Ильина Т.Ю. Проблемное обучение информатике младших школьников: дис.канд.пед.наук 13.00.02 Санкт-Петербург 2001-172с.
11. Романов П.Ю. Формирование исследовательских умений обучающихся в системе непрерывного педагогического образования, дис. докторапед. Наук 13.00.08 Магнитогорск, 2003 – 68 с.
12. Калугина Н.Л. Формирование исследовательских умений студентов университетавпроцессеса мостоятельной работы. Автореф.дис.канд.пед. Наук 13.00.08 Магнитогорск 2005-24с.

INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING KREATIVLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

ABDURAIMOVA SOHIBA KARIMKUL QIZI
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: ushbu maqolada innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, innovatsiya, innovatsion yondashuv, va olimlarning bu terminlarga oid izlanishlari va shaxsiy qarashlari, innovatsiyalarning turlari va ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, innovatsion yondashuv, innovatsion faoliyat.

Annotation: This article discusses the pedagogical conditions for developing the creativity of future primary school teachers based on an innovative approach. It explores innovation, innovative approaches, and researchers' studies and personal views on these terms, as well as the types and significance of innovations.

Keywords: innovation, innovative approach, innovative activity.

Аннотация: В данной статье рассматриваются педагогические условия развития креативных способностей будущих учителей начальных классов на основе инновационного подхода. Обсуждаются инновации, инновационные подходы, исследования и личные взгляды ученых на эти термины, а также виды и значение инноваций.

Ключевые слова: инновация, инновационный подход, инновационная деятельность.

KIRISH

Hozirgi jadal rivojlanish davrida yangiliklar yaratish, innovatsiyalar, innovatsion faoliyatga alohida ahamiyat berilmoqda, xususan, 2015 yilda Janubiy Koreyada o‘tkazilgan Xalqaro ta’lim forumida 2030 yilgacha qabul qilingan “Incheon declaration”da ta’lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish” ga alohida urg‘u qaratilgan [1]. Shuningdek, bugungi kunda innovatsion ta’lim muhitida pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish, ta’lim yo‘nalishlarining istiqbolini oshirishga qaratilgan amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan loyihalarni tatbiq qilishga qaratilgan ketma-ketlikda va tizimli samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Yurtimizda ham, innovatsion ta’lim muhitini tashkil etish, innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish orqali yuqori samaradorlikka erishish maqsad qilib belgilab olingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 -2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni, 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida PF-

1 Incheon declaration // Education 2030: Towards inulusivc and cquilablc quality cducation and lifclong lcarning for all (Word Education Eorum, 19-22 may 2015. Inchcon. Republic ol Korea). 48 p.

5847-son Farmonlari, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son qarori, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775 son, 2017-yil 27-iyuldagi PQ- 3151-son “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlarida tegishlicha chora tadbirlar belgilab berilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Yurtimizda Sh.A.Abdullayeva, Z.E.Azimova, M.Axmedjanov, N.Sh. Erkaboyeva , U.Sh.Begimqulov, X. N.Qodirova , A.A.Egamberdiyev, D. U.Qo‘chqarov va boshqa ko‘plab olimlar tomonidan innovatsion ta’lim muhiti tadqiq etilgan.

Qodirova X. N. innovatsion ta’lim muhitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining diagnostik madaniyatini shakllantirish mavzusida izlanishlar olib borgan. Hamda innovatsion ta’lim muhitida diagnostik madaniyatni aynan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida shakllantirish imkoniyatlarini takomillashtirish; bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining diagnostik madaniyati darajalarini takomillashtirish; bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining innovatsion ta lim muhitida diagnostik madaniyati obyektiv va subyektiv komponentlarini takomillashtirish; innovatsion ta’lim muhitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijtimoiy faolligini takomillashtirish ustida izlanishlar olib borgan[2] .

Qo‘chqorov D. U. bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlardan foydalangan. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarda integrativ, faoliyatli, tabaqalashgan va axborot-texnologik yondashuvlar asosida kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonining pedagogik imkoniyatlarini tahlil etish, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi didaktik jihatlarini rivojlantirish, innovatsion yondashuvlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish modelini takomillashtirish, bo‘lajak o‘qituvchilarining kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘tgan asrning o‘rtalariga kelib, pedagogik yangiliklar tadqiqot predmeti sifatida tadqiq etila boshladi. Uzluksiz ta’lim muassasalarini yanada rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj hamda jarayonni amalga oshirishga pedagog kadrlarning tayyor emasligi o‘rtasidagi ziddiyatlar pedagogik yangiliklar mustaqil sohaga aylanishiga turtki bo‘ldi. Yangilikni qo‘llash ommaviy ravishda tus olib,

2 Qodirova X. N. Innovatsion ta’lim muhitida bo‘lajak boshlang ich sinf o‘qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent-2023. 121 bet.

3 Qo‘chqarov D. U. Innovatsion yondashuvlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent – 2022. 127 bet.

yangi bilimlarga talab yanada ortishiga zamin yaratildi. Pedagogikaga yangi, yangilik, innovatsiya,innovatsion jarayon, innovatsion faoliyat, innovator, innovatsion imkoniyat, innovatsion ta'lim muhiti, innovatsion yondashuv kabi termin va tushunchalar kirib keldi[4] .

Innovatsiya tushunchasi turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. Dastlab, O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida bu atamaga "Innovatsiya (ing. innovationas - kiritilgan yangilik, ixtiro):

1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar;

2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanilishi" ko'rinishida ta'rif berilgan[5] .

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori D.U. Qo'chqorov o'zining "Innovatsion yondashuvlar asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish"mavzusidagi dissertatsiyasida quyidagicha fikr bildiradi:

" Innovatsiya - tushunchasi yangini, yangilikni, o'zgarishni anglatadi. Shuningdek innovatsiya ham vosita, ham jarayon sifatida biron-bir yangilikni kirib kelishini taqozo etadi. Pedagogik jarayonga nisbatan, bu yangi maqsadlarni, mazmunni, metodlarni, ta'lim-tarbiyaning yangi shakllarini kiritish, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyati hisoblanadi.

Innovatsion jarayon - pedagogik yangilikni yaratish faoliyati bo'lib, undan ta'lim amaliyotida foydalaniladi hamda ushbu yangilik tarqatiladi.

Innovatsion faoliyat ta'lim muassasalari tomonidan yangilikni o'zlashtirish bo'lib, u ta'lim tizimi holatining ijobiy o'zgarishini va takomillashtirilishini loyihalashga olib keladi.

Ta'limni takomillashtirishga innovatsion yondashuv OTMlari o'quv jarayoniga pedagogik innovatsiyalarni kiritish va foydalanishni anglatadi"[6] .

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) X. N. Qodirova o'zining " Innovatsion ta'lim muhitida bo'lajak boshlang ich sinf o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirish" mavzusidagi dissertatsiyasida innovatsiya terminiga turli olimlarning yondashuvini tahlil, etgan va innovatsiyalarning ilmiy kashfiyot va ixtirolardan farqlarini ko'rsatib o'tgan.

"Innovatsiyalarning ilmiy kashfiyotlar va ixtirolardan o'ziga xos farqli jihatlarga ega va ular quyidagilar:

• ilm-fan - bu ma'lum darajadagi mablag'larni bilimlar va g'oyaga aylantirish demakdir;

• innovatsiyalar — bilimlar va g'oyalarni mablag'ga aylantirish demakdir;

• ixtiro — bu yangi konsepsiyani yaratishni anglatadi,

4 Qodirova X. N. Innovatsion ta'lim muhitida bo'lajak boshlang ich sinf o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent-2023. 121 bet.

5 https://qomus.info/oz/encyclopedia/i/innovatsiya/

6 Qo'chqarov D. U. Innovatsion yondashuvlar asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent – 2022. 127 bet.

• innovatsiya - innovatsiya bu — ixtironing amaliy jihatdan ahamiyati, alohida ajratib ko‘rsatish va uni muvaffaqiyatli sotuviga erishiladigan mahsulotga aylantirishni nazarda tutadi”.

Innovatsiyaning 10 asosiy sharti sifatida esa quyidagilar keltiriladi:

maqsadni ifodalash;

jamoani ilhomlantirish; diqqatni xaridorga qaratish;

(betakror)har kimga o‘xshamaslik;

har bir narsani qayta-qayta tekshirib ko‘rish;

sinergiya yarata olish;

jarayonni yaratish;

har qanday xavf-xatarni prognoz qilish;

o‘zgarishlar yetakchisi sifatida e’tirof etilish;

tashabbuskorlik;

Olimaning mualliflik talqinida “ Innovatsiya - har qanday sohaning avvalgiga qaraganda o‘zgargan shakl va mazmundagi rivojlanishi, ustuvor vazifalarni amalga oshirish borasida sohaning maqomi va sifat-samaradorligini vertikal jihatdan o‘zgartiruvchi, tizimning natijadorlikka qaratilgan yangicha sur’atlardagi tendensiyasi hisoblanadi. Har qanday innovatsiya vaqtlar o‘tishi natijasida o‘rniga yangi, mukammallashtirilgan (xavfsizlikka doir), soddalashtirilgan (qo‘llanishga doir) varianti vujudga kelib, amaldagi shakli eskirib qolishi xarakterlanadi” [7].

XULOSA

Shunday qilib, “Innovatsiya” tushunchasi mavjud narsalarga yangi talqin berishni ifodalaydi. Ta’lim muhitida bu mavjud texnologiyalarga yangilik kiritish orqali ta’lim jarayonida foydalanish, mavjud bilimlarni yangilash va mustahkamlash maqsadida yangi va noodatiy yondoshuvlardan foydalanish jarayonini o‘z ichiga oladi. Bu jihatdan, ta’lim muhitidagi innovatsion yondashuvlar o‘quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish uchun muhimdir. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativlik qobiliyatini rivojlantirish uchun innovatsion yondashuvlardan foydalanish, mavjud texnologiyalarga yangi hayot bag‘ishlash katta ahamiyatga ega. Bu usullar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda xizmat qiladi. Masalan, interaktiv o‘quv vositalari, raqamli platformalar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida o‘qituvchilar o‘quvchilarning diqqatini jalb etib, ularning bilimlarini chuqurlashtirishi va o‘quv jarayonini jonliroq va qiziqarliroq qilishi mumkin. Shu bilan birga, innovatsion yondashuvlar o‘quvchilarning ijodiy fikrlash va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Innovatsion yondashuvlar bilan ishlash, shuningdek, o‘qituvchilarga o‘z metodlarini muntazam ravishda yangilab turishga, yangi pedagogik tendensiyalarni kuzatib borishga va ulardan faol foydalanishga yordam beradi. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga olib keladi. Shu tarzda, ta’lim jarayonidagi innovatsion yondashuvlar nafaqat o‘qituvchilarning kreativligini rivojlantirishga, balki butun ta’lim tizimining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ta’lim muhitidagi innovatsiyalar va kreativ yondashuvlar o‘quv jarayonini yangilab, o‘quvchilarga

7 Qodirova X. N. Innovatsion ta’lim muhitida bo‘lajak boshlang ich sinf o‘qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent-2023. 121 bet.

zamonaviy va samarali bilim olish imkonini yaratadi, bu esa kelajak avlodning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Incheon declaration // Education 2030: Towards inulusivc and cquilablc quality cducation and lifclong lcarning for all (Word Education Eorum, 19-22 may 2015. Inchcon. Republic ol Korea). 48 p.
2. Qodirova X. N. Innovatsion ta'lim muhitida bo'lajak boshlang ich sinf o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent-2023. 121 bet.
3. Qo'chqarov D. U. Innovatsion yondashuvlar asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent – 2022. 127 bet.
4. Maxsudova, S. (2023). Boshlang'ich sinf darslarida xorijiy tajribalardan foydalanishning ahamiyati va samaradorligi (Darsliklar misolida). In INTERNATIONAL SCIENTIFIC FORUM. Scienceweb-National database of scientific research of Uzbekistan.
5. Maxsudova, S. (2023). THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPING THE CREATIVITY OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS. Science and innovation, 2(B11), 540-543.
6. Maxsudova, S., & Omonqulova, F. (2023). Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning iqtidorini oshirish uchun harakatli o'yinlardan foydalanish. Академические исследования в современной науке, 2(12), 69-73.
7. Maxsudova, S. (2023). BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. Models and methods in modern science, 2(5), 50-53.
8. Taniberdiyev, A., & Maxsudova, S. (2023). CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF CREATIVITY IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. Modern Science and Research, 2(12), 466-472.
9. Qizi, A. S. K. (2024). TA'LIM TIZIMIDA KREATIVLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHGA OID YONDOSHUVLAR. Science and innovation, 3(Special Issue 16), 370-372.
10. Abduraimova S.K. (2024). THE ESSENCE OF DEVELOPING CREATIVITY SKILLS IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS: A PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ANALYSIS. Science and Innovation, 3 (ISSUE 5), 298-301. https://doi.org/10.5281/zenodo.11402985
11. https://qomus.info/oz/encyclopedia/i/innovatsiya/

TEXNIK OLIY TA’LIM MUASSASALARI TA’LIM JARAYONIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIK TOMONLARI

MASHRAPOV QAXRAMON OLIMJONOVICH
NamMQI tayanch doktoranti

Annotatsiya: ushbu maqolaning kirish qismida yurtimizda kadrlar tayyorlash borasida amalga oshirilayotgan samarali ishlar, adabiyotlar tahlili qismida esa interfaol metodlar yordamida ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarning fikr-mulohazalari, yaratilgan o‘quv adabiyotlar, ilmiy nashrlar tahlili keltirilgan, natijalar bo‘limida ilgari surilayotgan metod qo‘llanilgandagi natijalar tahlili jamlangan. Muhokama bo‘limida erishilgan natijalar ishonchlilik darajasi taqqoslangan. Xulosa qismida ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanilganda ta’lim jarayonidagi o‘zgarish haqida fikrlar yoritilgan. Adabiyotlar ro‘hatida esa ilmiy maqolani yozishda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati keltirilgan.

Kalit so‘zlar: metod, interfaol, OTM, mashg‘ulot, bilim, ta’lim, dars, o‘qituvchi, talaba, omil, mehnat,korxona.

Аннотация: во вводной части статьи приведены эффективные работы, проводимые в области подготовки кадров в нашей стране, а в части анализа литературы - мнения ученых, проводивших научные исследования с помощью интерактивных методов, анализ В разделе «Результаты» представлена созданная учебная литература, научные публикации и предложенный метод. Подведен анализ результатов при использовании. В разделе обсуждения сравнивается уровень достоверности полученных результатов. В заключительной части излагаются мысли об изменении образовательного процесса при использовании в образовательном процессе интерактивных методов. В библиографии приводится список литературы, использованной при написании научной статьи.

Ключевые слова: метод, интерактив, профессиональное обучение, обучение, знания, воспитание, урок, учитель, студент, фактор, труд, предприятие.

Annotation: in the introduction part of this article, the effective works carried out in the field of personnel training in our country, and in the literature analysis part, the opinions of scientists who conducted scientific research with the help of interactive methods, the analysis of the created educational literature, scientific publications, and the method proposed in the results section are presented. The analysis of results when used is summarized. The level of reliability of the obtained results is compared in the discussion section. In the conclusion part, thoughts about the change in the educational process when interactive methods are used in the educational process are highlighted. In the bibliography, a list of the literature used in writing the scientific article is presented.

Key words: method, interactive, vocational training, training, knowledge, education, lesson, teacher, student, factor, labor, enterprise.

KIRISH

Bugungi kunda yurtimizda barcha sohalardagi kadrlarni bilm salohiyatini oshirish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Bu say-harakatlar albatta prezidentimizning tashabbuslari bilan desak hech adashmagan bo‘lamiz. So‘zimizning isboti sifatida prezidentimizning ta’lim-tarbiya haqida aytgan quyidagi so‘zlarini keltirishimiz maqsadga muvofiqdir: “Yangi O‘zbekistonning asosiy ustuni — bilim, ta’lim va tarbiya bo‘ladi”[1]. Albatta bugun yurtimizdagi o‘sib kelayotgan yosh avlodni bilimli, zukko qilib tarbiyalash borasida ham salmoqli ishlar amalga oshirilayotgani barchamizga sir emas. Bo‘lg‘usi kadrlarni o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha bilimli qilib tayyorlash vazifasi

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning o‘z saylovoldi dasturida so‘zlagan nutqlari 30.05.2023.

asosan (o‘rta maxsus mutaxassislar kasb-hunar maktablarida tarbiyalanadi) OTMlar zimmasiga yuklangan. OTMlarda talabalarga bilim berish sifatini oshirish maqsadida eskirib qolgan metodlardan voz kechilib yangi metodlar asosida dars mashg‘ulotlari olib borilmoqda. Bunga misol tariqasida 2019 yil 8 oktyabr PF-5847 sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni[2]ni keltirishimiz mumkin. Bu farmondan so‘yurtimizdagi ko‘plab OTMlar o‘quv jarayoni (Harbiylashtirilgan OTMlar mustasno) kredit-modul tizimiga o‘tkazildi. Albatta yangi o‘qitish tizimi yosh kadrlarni bilimli, salohiyatli bo‘lishlariga turtki bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

OTMlar o‘quv jarayonida pedagogik texnologiyaning tarmoqlaridan biri bo‘lgan interfaol metodlardan foydalanish talabaning mutaxassisligiga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Pedagogik texnologiya qachon paydo bo‘ldi? Pedagogik texnologiya atamasi va bu sohadagi ilk ishlanmalar AQSH da XX asming 50-yillarida pay do bo‘ldi. 15-20 yildan so‘ng pedagogik texnologiya barcha rivojlangan mamlakatlar ta’lim sohasini qamrab oldi. So‘nggi yillarda pedagogik texnologiyadan foydalanish doirasi uzluksiz kengayib bormoqda[3]. Hozirgi kunda ilg‘or pedagogik texnologiya elementi bo‘lgan interfaol usullardan keng foydalanish yo‘lga qo‘yilmoqda. Interfaol – inglizcha “inter” so‘zidan olingan bo‘lib, “orasida”, “o‘rtasida” degan ma’noni anglatadi, ya’ni ikki narsa o‘rtasidagi faollik degan ma’noni bildiradi. Interfaol metod – ta’lim jarayonida talabalar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali talabalarning bilimlarini o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. “Interaktiv” so‘zi inglizcha, “Inter”- “o‘zaro”, “akt”- “harakat, ta’sir, faollik” ma’nolarini bildiradi.

Ta’limda interfaol metod – bu talaba bilan o‘qituvchi o‘rtasida ta’lim dasturini o‘zlashtirish demakdir. Mazkur metodlar hamkorlikda ishlash vositasida dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ular talabalarni mustaqil fikrlashga undaydi. Interfaol degani bu - berilgan mavzuni o‘qituvchi va talaba o‘rtasida o‘zaro hamkorlik asosida dars samaradorligini oshirish, mustaqil fikr berish ko‘nikmasini shakllantirish, fikr-mulohaza, bahs orqali o‘rganish desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Har bir talaba qo‘yilgan maqsadga mustaqil o‘zi faol ishtirok etgan holda yakka, juftlikda, guruhlarda javob topishga harakat qiladi, fikrlaydi, yozadi, so‘zga chiqadi, dalil va asoslar orqali masalani yoritib berishga harakat qiladi. Bu esa qatnashchilarning xotirasida uzoq saqlanadi. Yangi axborotni o‘zlashtirishda tanqidiy, tahliliy yondasha oladi. O‘qituvchi faqat fasilitator (yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, tashkil qiluvchi, kuzatuvchi) vazifasini bajaradi.

D.A.Alibekovning fikricha ta’lim jarayonini interfaol metodlar asosida tashkil etish quyidagi omillar asosida amalga oshiriladi:

1. Obyektiv omillar:

- ta’lim jarayoni uchun moddiy-texnik bazaning yaratilganligi;

- ta’lim jarayonida pedagogik monitoring tashkil etilganligi va uning adabiyotlar bilan ta’minlanganligi;

2. Subyektiv omillar:

- ta’lim jarayonining o‘qituvchilarda interfaol metodlar mohiyatini o‘rganishga

2 “O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabr PF-5847-sonli Farmoni.

3 N.X.Avliyaqulov, N.N.Musayeva Pedagogik texnologiya-Toshkent: Cho‘lpon NMIU, 2012.208 b.

nisbatan qiziqishning yuzaga kelganligi;

- ta’lim jarayonining o‘qituvchilarning interfaol metodlar mohiyatidan xabardorligi;

- ta’lim jarayonining o‘qituvchilarning o‘z pedagogik faoliyatlarida interfaol metodlarni qo‘llay olish mahoratiga ega ekanligi;

- o‘qituvchilarda ijodkorlik, izlanuvchanlik, talabalar o‘rtasida ko‘tarinki kayfiyatni yarata olish sifatlarining mavjudligi;

- interfaol metodlar asosida pedagogik faoliyatni tashkil etayotgan o‘qituvchilarni rag‘batlantirib borish[4].

Interfaol metod bu o‘zi nima? Bu ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metod bizga nima uchun kerak? Bu savolga javob shundan iboratki, fanlarni o‘qitish jarayonida bu metodlardan foydalanish o‘z xususiyatiga ega. Ta’lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o‘rganish va amalda qo‘llash o‘quvchi-talabalarning fikrlash doirasini kengaytiradi. Hamda o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan muammoli savollar, muammoli vaziyatlarga o‘quvchi – talabalar tomonidan to‘g‘ri yechimni topishlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi[5].

Amerikalik psixolog olimlar R.Karnikau va F.Makelrouning o‘rganishlariga ko‘ra shaxsning tabiiy fiziologik- psixologik imkoniyatlari muayyan shakllarda o‘zlashtirilgan bilimlarni turli darajada saqlab qolish imkonini beradi. Ya’ni:

- shaxs manbani o‘zi o‘qiganida 10 %;

- ma’lumotni eshitganida 20 %;

- sodir bo‘lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko‘rganida 30 %;

- sodir bo‘lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko‘rib, ular to‘g‘risidagi ma’lumotlarni eshitganida 50 %;

- ma’lumot (axborot)larni o‘zi uzatganida (so‘zlaganida, bilimlarini namoyish etganida) 80 %;

- o‘zlashtirilgan bilim (ma’lumot, axborot) larni o‘z faoliyatiga tatbiq etganida 90 % xajmdagi ma’lumotlarni yodda saqlash imkoniyatiga ega[6].

Interfaol metodlardan texnika OTMlaridan foydalanish bo‘lg‘usi muhandislarni bilim salohiyatini mustahkamlab, yetuk kadr bo‘lib yetishishlariga, mehnat bozorida qiyinchiliksiz o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha korxona (tashkilot)larda faoliyat yuritish uchun, ishga joylashishlariga, katta yordam beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Interfaol usullarning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- talabalarni mustaqil, ijodiy, tanqidiy, mantiqiy fikrlashga o‘rgatish;

- muammmoli vaziyatni amaliy va hayotiy topshiriqlar asosida yechish;

- o‘z-o‘zini fikrlashga majbur etish;

- faollashtirish;

- talabalarni tashkilotchilik va yo‘naltiruvchanlikka undash;

- do‘stona munosabatlarni shakllantirish.

Interfaol usullardan foydalanish shakllari:

1. Individuallashtirish;
2. Kichik guruhlarga ajratish;
3. Tabaqalashtirish;
4. O‘rgatish va o‘rganish jarayonida

4 D.A.Alibekov https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9136/6444

5 Абдуллаева Нафиса Основы развития продуктивного мышления учащихся Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития Москва - 2012. 326-327.

6 Д.Рузиева, М.Усмонбоева, З.Хорликова Интерфаол методлар: мохияти ва қўпланилиши / Методик йўлланма - Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ нашриѐти, 2013. - 136 бет.

demokratik, do‘stona muhitni yaratish;

5. O‘zaro muloqot, hamkorlikni tashkil etish.

Interfaol usullarni qo`llashda foydalanadigan vositalar:

1. Darsliklar, qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar:

2. Texnik vositalar;

3. Tarqatma materiallar;

4. Multimedialar.

Quyida interfaol metodlarni bir nechta turlarini ko‘rib chiqamiz:

Aqliy hujum metodi

Aqliy hujum - auditoriyadagi har bir talaba oldiga o‘qituvchi qo‘ygan savol yoki muammo yuzasidan o‘z fikrini bayon etishga imkon beruvchi o‘quv uslubidir. Uslub mohiyati “Bir kalla yaxshi, yigirma beshtasi undan yaxshi” prinsipi bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan belgalangan muammo yoki savol yuzasidan extimol tutiladigan hamma fikrlar variantini bir yerga jamlay olishda bo‘lib, istisno tariqasida ta’lim oluvchilarning barcha fikrlari, shu jumladan, aytarli to‘g‘ri bo‘lmaganlari ham inobatga olinadi. Bu narsa bayon etilgan fikrlarning keyingi tahlilida talabalarning qo‘yilgan savol yoki muammoni to‘g‘ri tushunishlariga imkon beradi.

Qo‘llanilishi:

- savol, topshiriq yoki muammoni hal qilishda fikrlarni erkin aytishda;

- muammoni hal qilish qobiliyatini oshirishda;

- talabalarning faolligini oshirishda;

- fanga kirish va asosiy mavzu mazmunini bilib olishda.

Afzalligi:

- aytilgan fikrlar tanqid va muhokama qilinmasligi yoki baholanmasligi;

- talabalarning mazmunning ilmiyligiga chuqurroq jalb qilinishi;

- belgilangan vaqt doirasida barcha xohlovchilarga o‘z fikrlarini bayon etish imkoniyatining berilishi.

BBB (Bilardim, bilmoqchiman, bilib oldim) metodi.

Bu metodni “Yangi bilim beruvchi tipidagi darsda foydalanish mumkin.

1- Qadam: Doskaga yangi mavzu yoziladi va talabalar daftariga “Bilardim” - deb yozib yangi mavzu bo‘yicha bilganlarini, yozish taklif etilib buning uchun 3 daqiqa vaqt beriladi. Taqdimot o‘tkazilib, shu jarayonda talabalar yangi mavzu bo‘yicha bilgan ma’lumotlarini aytib beradilar. Taqdimot davomida fikrlarni guruhlar tomonidan qaytib takrorlamaslik qoidasiga qat’iy rioya qilinadi.

2-Qadam: talabalarga daftarlariga “Bilmoqchiman” – deb yozib yangi mavzu bo‘yicha nimalarni bilishni xoxlashini yozish taklif etiladi. Buning uchun bir daqiqa vaqt beriladi. Taqdimot o‘tkaziladi.

3-Qadam: talabalarga daftarlariga “Bilib oldim” - deb yozib qo‘yib tushuganlarini o‘n daqiqa ichida yozish taklif etiladi. Vaqt o‘tgandan so‘ng taqdimot o‘tkaziladi. Yangi mavzu bo‘yivha talabalar o‘z fikrlarini bildiradilar. Barcha qadamlarda talabalar bir - birini tinglash qoidasiga rioya qiladilar. O‘qituvchi tomonidan yangi mavzu bo‘yicha aytilmasdan qolgan qismlari va qo‘shimcha adabiyotlardan topilgan materiallardan foydalanib to‘ldiriladi[7].

Zakovat o‘yini – bu o‘yinni o‘tkazishda dastlab sinfxonani o‘yinga moslashtirish lozim. O‘yin ishtirokchilari test yordamida saralab olinadi. Yuqori ball olgan o‘quvchilar o‘yinda ishtirok etish huquqiga ega bo‘ladilar. O‘yin ishtirokchilari 6-8 kishidan iborat bo‘ladi. Qolgan o‘quvchilar esa o‘yinni tomoshabin sifatida kuzatib turishadi. O‘yin uchun mo‘ljallangan savollar konvertga

7 https://azkurs.org/pars_docs/refs/55/54469/54469.pdf

joylashtirib o‘qib eshittiriladi. Guruh sardori savolni o‘qib o‘qituvchiga beradi. Javobni aniqlash uchun bir daqiqa vaqt ajratiladi. Bu vaqt orasida o‘yin ishtirokchilari javobni maslahatlashib topishga harakat qilishadi. Bu o‘yinni asosan yuqori sinfda o‘tkazish tavsiya etiladi. Zakovat o‘yinlarida asosan, o‘rtaga muammoli savollar tashlanib, shu muammoni hal etishga diqqat qaratiladi[8].

Interfaol metodlarni barcha ta’limni tashkil etish shakllarida qo‘llash mumkin. Ta’limni tashkil etish shakllari deganda, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarning maxsus tashkil etilgan, belgilangan tartibda va muayyan rejimda o‘tadigan faoliyati tushuniladi[9]. Interfaol metodlardan foydalanib dars mashg‘ulotlar olib borilganida natijalar qanday bo‘lishi to‘g‘risida ma’lumot olish uchun tadqiqot olib bordik. Tadqiqot boshida teknik OTMlari (auditoriya) dars mashg‘ulotlarida fanlar bo‘yicha interfaol metodlardan foydalanish holatlarini aniqlash maqsadida talabalar o‘rtasida anonim so‘rovnoma o‘tkazildi. Bu so‘rovnomada quyidagi savollar o‘z aksini topdi (1-jadvalga qarang).

8 F.F.Aniyazova, N.D.Abdolniyazova “Tarix fanini o‘qitishda interfaol metod hamda didaktik o‘yinlardan foydalanishning ahamiyati” “Ilm-fan muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida” mavzusidagi 1-sonli respublika ilmiy-onlayn konferensiyasi-2022y.

9 Z.K.Ismailova, P.M.Maxsudov, O.K.Ergashev “Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi” - Toshkent – 2020y.

1-jadval

Texnik OTMlar dars mashg‘ulotlarida interfaol metodlardan foydalanish holatini aniqlash bo‘yicha
ANONIM SO‘ROVNOMA

№	So‘rovnoma savollari	So‘rovnoma ishtirokchilari javobi (har bitta savolga bitta javobni “+” ko‘rinishida belgilash talab etiladi)		
		Ha	Yo‘q	Ikkilanaman
1	Interfaol metodlar haqida ma’lumotga egamisiz?			
2	Sizga birinchilardan bo‘lib interfaol metodlar haqida ma’lumot bergan fan o‘qituvchisini eslay olasizmi?			
2	Sizga fanlardan ta’lim berish jarayonida o‘qituvchi interfaol metodlardan foydalanadimi?			
3	Sizga interfaol metodlardan foydalanilgan holda fanlardan ta’lim berilganida dars mashg‘uloti tushunarliroq bo‘ladimi			
4	Sizga fanlar bo‘yicha (ma’ruza, amaliy, laboratoriya) mashg‘ulotlar interfaol metodlardan foydalanilgan holda olib borilsa maqsadga muvofiqmi?			
5	Interfaol metodidan foydalangan holda mashg‘ulotlar tashkil etilganida talaba faolroq bo‘lishi kerakmi?			

6	Nima deb o‘ylaysiz interfaol metodi sizga fan bo‘yicha ko‘proq ma’lumot olishingizga yordam beradimi?			
7	Interfaol metodlaridan foydalanilgan holda dars mashg‘ulotlari tashkil etilishi sizni mutaxassisligingiz bo‘yicha yetuk kadr bo‘lishingizga yordam beradimi?			
8	Dars jarayonlarida interfaol metodlardan foydalanishga sizning fikringiz ijobiymi?			

Talabalardan so‘rovnoma olinganidan so‘ng “Hayot faoliyati xavfsizligi” fanidan qiyinchilik darajasi uch bosqichga ajratilgan holda test sinovi o‘tkazildi. Natijalar quyidagicha namoyon bo‘ldi (2-jadvalga qarang):

2-jadval

Talabalar soni	Test topshiriqlariga to‘g‘ri javoblar															
	1-darajadagi testlar					2-murakkablik darajadagi testlar					3-murakkablik darajasidagi testlar					Umumiy %da
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	
31	68	66	74	78	88	76	69	70	68	72	49	59	64	51	53	67

Talabalardan olingan anonym so‘rovnoma hamda boshlang‘ich sinov testi olinganidan so‘ng interfaol metodlar yordamida “Hayot faoliyati xavfsizligi” fanidan dars mashg‘uloti tashkil etildi. Birinchi sinov ma’ruza mashg‘ulotida olib borilib, so‘ngra amaliy, laboratoriya, seminar mashg‘ulotlariga ham tadbiq etildi. Tajriba dars mashg‘ulotlari yakunida fan yuzasidan sinov testlari olindi. Natija esa quyidagicha namoyon bo‘ldi (3-jadvalga qarang):

3-jadval

Talabalar soni	Test topshiriqlariga to‘g‘ri javoblar															
	1-darajadagi testlar					2-murakkablik darajadagi testlar					3-murakkablik darajasidagi testlar					Umumiy % da
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	
29	79	76	69	89	90	69	72	70	73	77	69	70	68	67	71	73.9

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan natijalar tahlilidan ko‘rinib turibdiki interfaol metodlardan foydalanilgan holda dars mashg‘ulotlari tashkil etilsa talabalarning fan bo‘yicha bilim egallash darajasi ijobiy yakun topadi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki interfaol metodlarni OTMlar dars mashg‘ulotlarida qo‘llash bugungi zamonaviy ta’lim ya’ni kredit-modul tizimi sharoitiga mos

keladi. Bu fikrni ilgari surishimizga sabab bu yangi tizim ham talabani bilim olishga majbur etadi. Buning yakunida esa talabaning fanga bo‘lgan qiziqish darajasi ijobiy bo‘lishini ta’minlaydi. Interfaol metodlar ham talabani fanga bo‘lgan qiziqishini oshirib, fanni chuqur o‘rganishda ko‘prik vazifasini o‘taydi. Natijada talaba bilim, ko‘nikma, malakaga ega bo‘lib o‘z sohasining yetuk mutaxassisiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabr PF-5847-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning o‘z saylovoldi dasturida so‘zlagan nutqlari 30-may 2023y.
3. Д.Рузиева, М.Усмонбоева, З.Хорликова Интерфаол методлар: мохияти ва қўпланилиши / Методик йўлланма - Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ нашриѐти, 2013. - 136 бет.
4. Абдуллаева Нафиса Основы развития продуктивного мышления учащихся Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития Москва - 2012. 326-327.
5. Z.K.Ismailova, P.M.Maxsudov, O.K.Ergashev “Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi” - Toshkent – 2020y.
6. N.X.Avliyaqulov, N.N.Musayeva Pedagogik texnologiya-Toshkent: Cho‘lpon NMIU, 2012.208 b.
7. F.F.Aniyazova, N.D.Abdolniyazova “Tarix fanini o‘qitishda interfaol metod hamda didaktik o‘yinlardan foydalanishning ahamiyati” “Ilm-fan muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida” mavzusidagi 1-sonli respublika ilmiy-onlayn konferensiyasi-2022y.

Internet saytlari

8. https://azkurs.org/pars.
9. https://ppmedu.jdpu.uz/index.php.

TA’LIM VA HAYOT O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK TAMOYILI ASOSIDA MAKTAB O‘QUVCHILARIDA KIMYO FANIGA QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISH

NARIMOVA VENERA POLATOVNA
Navoiy davlat pedagogika instituti Kimyo kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada yosh avlod ma’lum bilimlar yig‘indisini bilibgina qolmay, mustaqil davlat quruvchiga xos ma’naviyat va ma’rifat egasi bo‘lib, o‘zining mehnatga munosabati va xulq atvori hammaga havas qildiradigan bo‘lishi kerakligi, bizning mamlakatda o‘qituvchiga, yosh avlodni tarbiyasiga katta imtiyozlar berilayotganligi, o‘qituvchi-mukammal shakllangan kimyo fani bo‘yicha mutaxassis bo‘lishi kerak ekanligi, kimyo fani, kimyoviy bilimlar va amaliy uslublardan tashqari bolalarning yoshiga qarab psixologiyasini bilish kerak,u oldindan bilim berishning hamma bosqichlarini amalga oshirish uslublarini mukammal egallashi lozimligi haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Samaradorlik,kimyoviy zahiralar, moddiy olam, g‘oyaviy tarbiya, vatanparvarlik, baynalminal tarbiya, atrof-muhit muhofazasi.

Аннотация: В статье показано, что молодое поколение не только знает определенный набор знаний, но и является обладателем духовности и просвещения, присущих строителю независимого государства, что его отношение и поведение к труду должны быть завидными для всех, что в нашей стране учителю, воспитанию подрастающего поколения предоставляются большие привилегии, что учитель-специалист по прекрасно сформированной химии, что химия должна, помимо химических знаний и практических приемов,необходимо знать психологию детей в соответствии с их возрастом, высказывались предположения, что он должен в совершенстве владеть приемами реализации всех этапов предварительного обучения.

Ключевые слова: Эффективность, химические запасы, материальный мир, идеологическое воспитание, патриотизм, международное образование, защита окружающей среды.

Abstract: In the article, the younger generation not only knows the sum of certain knowledge, but is the owner of the spirituality and enlightenment inherent in an independent state-builder, that his attitude and behavior to work should be enviable to everyone, that in our country great privileges are given to the teacher, the upbringing of the younger generation, that the teacher should be a, in addition to chemical knowledge and practical techniques,it is necessary to know the psychology of children by age, it is thought that he should perfectly master the methods of carrying out all the stages of prior knowledge.

Keywords: Efficiency, chemical reserves, material world, ideological education, patriotism, international education, environmental protection.

Kirish.Respublikamiz hayotidagi tub o‘zgarishlar shuni ko‘rsatmoqda-ki, har bir darsning g‘oyaviyligi,sifati va samaradorligini oshirish, uning hayot bilan bog‘lanishini ta’minlash o‘qituvchining asosiy vazifasi bo‘lib qolmoqda. Buni muvaffaqiyatli hal etish, o‘quvchilarni chuqur va mustahkam bilimlar bilan qurollantirish, fanga qiziqtirish, mustaqil ishlash va fikrlashga o‘rgatish o‘qituvchining usuliga bog`liq. Hozirgi zamon darslarining mohiyati o‘quvchilarning mustaqil ishlash va fikrlash qobiliyatlari bilan xarakterlanadi.

Shaxsni shakllantirish jarayonida o‘quvchilarga ekologik tarbiya berish alohida o‘rinni egallaydi. O‘qituvchi bu masalaga ikki tomonlama yondashadi:

1) inson va tirik organizrnlar hayot faoliyatidagi kimyoviy jarayonlarning ahamiyatini bayon etish. Masalan, stratosferada ozon qatlamining hosil bo‘lishi, molekulyar azotning tabiiy hodisalar

Kimyo fanini o‘qitishda hayotiy ko‘nimkmalarni shakllantirishga oid ishlanmasining tuzilmasi:

Mavzu	**Fizik va kimyoviy hodisalar**
Ta’lim Standartlari	Kimyoviy hodisa va jarayonlarni biladi, taniydi, farqlaydi. Kimyoviy moddalar va ularning xossalarini, izohlaydi, talqin qiladi. Kimyoviy moddalar va ularning xossalari ajratadi, xossalari orasidagi munosabat va umumiy qonuniyatlarni aniqlaydi, taqqoslaydi, tahlil qiladi. Kimyoviy hodisa va jarayonlarni baholaydi, tahliliy-tanqidiy fikr bildiradi, xulosa chiqaradi.
Ta’lim Natijalari	Kimyoviy moddalar va ularning xossalarini biladi, taniydi, farqlaydi. Kimyoviy moddalar va ularning xossalarining mohiyati va ahamiyatini izohlaydi, talqin qiladi. Kimyoviy moddalar va ularning xossalarini, vazifalari va hayotiy jarayonlarning orasidagi munosabat va umumiy qonuniyatlarni aniqlaydi, taqqoslaydi, tahlil qiladi.
Fanlararo integratsiya	Biologiya, fizika.

natijasida bog‘langan azotga aylanishi va boshqalar. Bu holatlar kimyoning tirik tabiatdagi ijobiy ahamiyatini ko‘rsatadi;

2) kimyoviy ishlab chiqarishning atrof-muhitga ta’sirini o‘rganmay turib, zavodlar qurish og‘ir oqibatlarga olib kelishi (masalan, Tojikistondagi alyuminiy zavodi) ko‘rsatiladi. Bu esa insonparvarlik g‘oyalari asosida tabiatdan foydalanish tuyg‘usini keltirib chiqaradi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI:

Tabiiy-ilmiy fanlarni o‘qitishda tizimli fikrlash qobiliyatini shakllantirish ta’lim jarayonida quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

1) o‘qituvchi tomonidan o‘rganilayotgan obyektni tizimli yoritish;

2) o‘qituvchi va talabalarning o‘rganilayotgan obyektni birgalikda tizimli analiz qilish;

3) talabalarning tizimli obyektni o‘rganishidagi mustaqil, ijodiy faoliyati [6].

TADQIQOT NATIJALARI:Kimyo darslarini o‘qitishda tabiiy-ilmiy savodxonlikning o‘rni beqiyos hisoblanadi. Uni bir nechta misollar bilan ko‘rib chiqishimiz mumkin.

Ta`lim beruvchi: umum o‘quv ko‘nikmalarini shakllantirish yangi holatlarni shakllantirish va tahlil qilish; o‘z harakatlarining imkon bo‘ladigan strategiyasini aniqlash, ularni tarkibiy qismlarga bo‘lish, ulardan eng muhimlarini aniqlash; taqlidiy tartibda muammoli vaziyatni bosqichma-bosqich majmuali yechishni ishlab chiqish; haqiqatga imkon boricha yaqin sharoitda muammoni yechish ko‘nikmalarini shakllantirish (usul nazariy ta`limdan so‘ng darhol uni amaliy ishlab chiqish vositasi sifatida samaralidir);

rivojlantiruvchi: bilish va ijodiy qobiliyatlarni, mantiqiy fikrlashni, nutqni, o‘zini boshqarishni, muhit sharoitiga moslashish qobiliyatini rivojlantirish;

Motivatsiyali: o‘qishga qiziqishni shakllantirish va o‘quvchilarni o‘quv faoliyatiga undash (asosan o‘qitishning dastlabki bosqichida samarali), qarorlarni mustaqil qabul qilishni rag‘batlantirish;

Tarbiyalovchi: mas’ulyatni, mustaqilikni, kirishimlilik va boshqalarni faoliyat va muloqat, fikr yuritish moyillik me‘yoriga tushirish orqali shakllantirish;

Nazorat-tahliliy: o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasini, ularning shaxsiy sifatlarini baholash (o‘qitishning boshlang‘ich bosqichida kirish nazorati uchun foydalaniladi), o‘quv axborotini o‘zlashtirishning ko‘nikma va malakalari sifatini tekshirish (o‘qitishning yakuniy bosqichida o‘qitish samaradorligini yakuniy nazorat qilish uchun).

Kimyo o‘qitish metodikasi asosida quyidagi metodologik yo‘nalishlar mavjud:

1. Umumiy dialektik uslub, bunda tushunchalarning fikrlash davomida rivojlanishi, o‘qitishning har xil qismlarining o‘zaro bog‘liqligi, ichki qarama-qarshilikning o‘zaro bog‘liqligi, ularni yechishda muammoli yondashish.

2. Sistematik-struktur yondashish, bunda o‘qitish uchun asosiy bo‘limlarni ajratish, ularning o‘zaro bog‘liqligini topish, hamda elementlar o‘zaro ta‘sirining barqarorligini, yaqinligini ko‘rsatish va maktab kimyo o‘qitish metodikasini birligini ko‘rsatish.

3. Yuqoridagi metodik kategoriyalarni uchta o‘qitish funkziyalari: bilim berish, tarbiyalash va rivojlantirishga asoslanib qarash.

4. Kimyo o‘qitish metodikasining asosini didaktik yondashish orqali qarab chiqish. Kimyo o‘qitish metodikasida o‘qitish uslubini didaktik tarbiyalashni tarbiya qonuniyatlari, bilimini rivojlantirishni-psixologiya fanlari o‘rgatadi.

Faoliyatni uyushtiruvchi o‘yinlar: jarayonni modellashtirish faoliyati to‘g‘risida fikrlashni nazarda tutadi, biroq model bilan asosli boy berish va hiyla ishlatish bo‘lmaydi. Rollar shartli, qarorlar esa shtatdagi tashkiliy tuzilmalar doirasidan tashqarida ishlab chiqiladi.

Biroq rolli maqsadlar va rollarning o‘zaro harakatlari farqi ta‘minlanadi. [5]

1.1.Loyihalash o‘yin mobaynida, odatdagidek tashkil etishning mavjud tashkiliy tuzilmalarni yaratish yoki isloh qilish bilan bog‘liq bo‘lgan turli tashkiliy muammolar hal etiladi.

1.2. Muammoli-yo‘naltirilgan o‘yin mobaynida vaziyatga ta‘sir etuvchi omillarning ko‘pligi va hal qilishning turli variantlarini hisobga olib, muommolarni qo‘yish va echimini izlash amalga oshiriladi.

Topilgan yechim tekshiriladi: shu yerda o‘yinda maqbullari ishlab chiqiladi va o‘ynaladi.

1.3. Tadqiqotchilik o‘yini fandagi yangi qonuniyatlarini ochib berishga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. Tadqiqotchilik o‘yinlari «Agar ... bo‘lsa nima bo‘ladi?» tartibida aniq tashkiliy holatlarni modellashtiradi. Bu holatlar o‘zgarganida turli variantlarni bashorat qilishga imkon beradi.[6]

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Shularga muvofiq ushbu “KIMYONI O`QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR” o‘quv qo‘llanmasining turli bo‘limlari Uzluksiz ta’lim tizimida davlat buyurtmasi va ijtimoiy talabga muvofiq har bir ta`lim muassasasi va unda xizmat qiluvchi pedagog-kadrlar zimmasiga ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, ilm-fanning so‘nggi yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, ijtimoiy faol, yuksak ma’naviyatli, kasb-hunarli, el-yurtga sadoqatli milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, ijodiy va mustaqil fikr yurita oladigan, davlat, jamiyat va oila oldida o‘z burchi va javobgarligini his eta oladigan, raqobatbardosh barkamol shaxsni tarbiyalash va kamolga yetkazish, ularning ongi va qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish yuklatilgan.

Natijalar va muhokama

Ta’limni takomillashtirish vazifasi har qanday fan o‘qituvchisining oldida turadi. Ta’lim har bir davrga mos ravishda jamiyatning ijtimoiy xususiyatiga va talabiga javob bera olishi lozim.

Tabiiy-ilmiy fanlarni o‘qitishda tizimli fikrlash qobiliyatini shakllantirish ta’lim jarayonida quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

1) o‘qituvchi tomonidan o‘rganilayotgan obyektni tizimli yoritish;

2) o‘qituvchi va talabalarning o‘rganilayotgan obyektni birgalikda tizimli analiz qilish;

3) talabalarning tizimli obyektni o‘rganishidagi mustaqil, ijodiy faoliyati [6].

Xulosa

Ushbu loyiha ishi o‘quvchilarda hamkorlikda guruh bilan ishlash qobiliyati shakllanib, o‘zaro do‘stona munosabat rivojlanadi. Zamonaviy maktab laboratoriyasini tashkil etishda, o‘zlarining mustaqil tasavvurlariga ega bo‘ladilar. Sarf-harajatlarni hisoblash orqali moliyaviy bilimlarni egallashadi. Bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishi rivojlanadi. Loyiha ishidan so‘ng, ularda boshqa shunga o‘xshash loyihalarni rejalashtirish va amalga oshirish qobiliyati paydo bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ишмуҳамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар. Т. Истеъдод, 2008.
2.N.Raxmatullayev,H.Omonov,Sh.Mirkomilov Kimyo o’qitish metodikasi T-2013.
3.Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M., Xoliqova Z., Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi. T.: 2013.
4.Meliboyva G.S. Kimyoni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar. Farg‘ona - 2020.

OLIY TA'LIMDA TALABALAR O'QUV FAOLIYATI BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

USANOV SARVAR ANVAROVICH
A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti, sirtqi bo'lim o'quv ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari

Annotatsiya: ushbu maqolada hozirgi vaqtda ta'lim faoliyatini boshqarishdagi asosiy kamchiliklar va ularni bartaraf etish, oliy ta'lim muassasalarida talabalar o'quv faoliyatini boshqarish tuzilmasi va yo'nalishlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, o'quv jarayoni, boshqaruv tizimi, dekanat, talabar, fakultet.

Аннотация: в данной статье выделены основные недостатки в управлении образовательной деятельностью и их устранение, структура и направления управления образовательной деятельностью студентов в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: высшее образование, учебный процесс, система управления, деканат, студент, факультет.

Annotation: In this article, the main shortcomings in the management of educational activities and their elimination, the structure and directions of the management of students' educational activities in higher education institutions are highlighted.

Key words: higher education, educational process, management system, dean's office, student, faculty.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 8-oktyabr 2019-yildagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmonida "Mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-boshqaruv jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish; oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish; sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta'minlash" strategik maqsadlar sifatida belgilangan[1].

Boshqaruv faoliyati - menejment, menejerni tavsiflovchi ingliz tilidan - boshqaruv faniga qat'iy kirib bordi. Boshqaruv muammolari bo'yicha xorijiy adabiyotlarni tahlil qilayotganda, M.Albert, M.Mescon, F.Kheduri, V.Sigert, L.Lang, M. Vudok, D.Frensis va boshqa tadqiqotchilar turli xil vaziyatlarda menejment atamasini ham, boshqaruv atamasini ham bir xil ishlatib, ularga deyarli bir xil semantik qarashlar amalga oshirganligini ko'rishimiz mumkin. Bundan ko'rinadiki, haqiqatdan ham boshqaruv va menejment tushunchalarining ma'lum bir o'ziga xos xususiyati to'g'risida gapirish imkonini beradi va bizning tadqiqotlarimiz doirasida ulardan ekvivalent foydalanishning qonuniyligini isbotlaydi.

Menejmentning ilmiy toifasini tahlil qilish, uni aniqlash va asoslashda "inson omili" mavjudligini aniqlashga imkon beradi. Xususan, M.Vudok va D.Frensning ta'rifiga ko'ra menejment inson faoliyatining eng qiyin yo'nalishlaridan biri bo'lib, u yerda mehnat jarayoni bilan birlashtirilgan odamlarning shaxsiy munosabatlari namoyon bo'ladi. Shu

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 8-oktyabr 2019-yildagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.

munosabat bilan Avraam Maslou keyinchalik boshqaruvda keng qo‘llaniladigan va “Ehtiyojlar piramidasi” deb nomlanuvchi ehtiyojlar nazariyasini ishlab chiqqan menejment fanining rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. A.Maslou ta’limotlariga binoan, odam ierarxik joylashtirilgan ehtiyojlarning murakkab tuzilishiga ega va shunga muvofiq boshqarish ishchining ehtiyojlarini aniqlash va tegishli motivatsiya usullaridan foydalanish asosida amalga oshirilishi kerak. O‘zini anglashga bo‘lgan ehtiyoj insonning eng katta ehtiyojidir. Bizning fikrimizcha, jamoada bunday sharoitlarni yaratish har bir ishtirokchiga o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishishda o‘z pozitsiyasini va mumkin bo‘lgan hissasini aniqlashga imkon beradi, menejerlar ushbu ehtiyojlarga aniq yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

Menejment tushunchasi bilan ishlaydigan V.Zigert, L.Lang fikricha korxona va tashkilotlarni boshqarish, o‘z-o‘zini boshqarish va o‘zini o‘zi boshqarish usullari va uslublarini o‘z ichiga oladi. Oxir oqibat, ular boshqaruv bu “Odamlarni boshqarish va vazifalarni insonparvar, iqtisodiy va oqilona bajarishga imkon beradigan mablag‘lardan foydalanish” degan xulosaga kelishadi. Kelgusida, tadqiqot mavzusiga muvofiq, menejment atamasini ta’limdagi professional (kasbiy) boshqaruv kabi ma’noda ishlatamiz va kerak bo‘lganda ushbu tushunchalarning turli xil talqinlarini ajratib ko‘rsatamiz.

Shunday qilib, boshqaruv tushunchasini asoslashga ilmiy yondashuvlar tahlili uning ta’rifida bir qator umumiy pozitsiyalarni ajratib ko‘rsatishimizga imkon beradi. Boshqaruv deganda inson faoliyatining bir necha turi tushuniladi. Boshqaruv odamlarga maqsadli ta’sir ko‘rsatib bunda uning birgalikdagi faoliyati faollashadi, tashkiliy tizimlarning funksiyasi, ularning tuzilishini saqlab qolish, faoliyat rejimini saqlab turish maqsadlari amalga oshiriladi[2]. Boshqaruv uyushmagan olomonni samarali, aniq kasbiy faoliyatga yo‘naltirish, odamlarning ijtimoiy kelib chiqishi yoki uning individual aloqalariga ongli ta’sir qilish, ularning samarali ishlashi va inson manfaatlariga mos ob’ektiv qonunlar va tendensiyalarni bilish va ulardan foydalanish asosida amalga oshirishdir.

Oliy ta’lim rivojlanishining hozirgi bosqichi butun o‘quv jarayonini raqamlashtirishdan iborat bo‘lib, bu, xususan, OTM muhitini axborotlashtirishda namoyon bo‘ladi. Elektron hujjat aylanishi, markazlashtirilgan raqamli ta’lim xizmatlari, markazlashtirilgan test sinovlari, raqamlashtirilgan o‘qitish tizimlari va boshqalar bu yo‘nalishdagi asosiy yutuqlardir. Hozirgi kunda Internetga yo‘naltirilgan OTM axborot tizimlari eng faol rivojlanmoqda. Bular maxsus tashkil etilgan xizmatlar bo‘lib, nafaqat turli raqamli ta’lim resurslariga kirish imkoniyatini, balki ta’limning maqsad va vazifalariga hamda talabalarning turli kognitiv qobiliyatlariga moslashtirilgan maxsus tashkil etilgan ta’lim tizimini ham ta’minlaydi. Ta’lim portallari orqali, qoida tariqasida, professor-o‘qituvchilarni darslarga tayyorlash, o‘qitish tajribasini almashish, o‘z-o‘zini o‘rganish, o‘zaro ta’lim olish va ta’lim portallari o‘rtasida ma’lumot almashish ta’minlanadi. Bunday portallar: virtual o‘quv kursini yaratish va keyin uni boshqa foydalanuvchilarga o‘rganish uchun taqdim etish imkonini berish; xodimlar va talabalar uchun o‘quv tashkilotlari tomonidan ochiladi; axborot almashinuvini ta’minlash.

Oliy ta’limda o‘quv jarayonini raqamli texnologiyalar vositasida boshqarishning klassik sxemani qo‘llab-quvvatlashi kerak, bunda boshqaruv sub’ekti va ob’ekti mavjudligini, shuningdek, qayta aloqani nazarda tutadi (1.1.1, 1.2.1-rasmlar).

2 Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta’lim tizimini boshqarish. - T.: “Turon Iqbol”, 2006. – 592 b.



1.1.1-rasm – Raqamli boshqaruv sub'ektlarining klassik boshqaruv sxemasi

Boshqaruv sub'ekti quyidagilarga ega bo'lishi kerak: o'lchash, qaror qabul qilish, ijro etish. Raqamli boshqaruv sub'ektilari o'rtasida o'lchov natijalari va boshqaruv qarorlari ko'rinishida aylanadi. Boshqaruv sub'ektidan boshqaruv ta'sirlari boshqaruv ob'ektiga yo'naltiriladi. Eng muhim jihatlardan biri bu fikr-mulohazalarni to'g'ri tashkil etishdir.



1.1.2-rasm – Pedagogika OTM o'quv jarayonini boshqarish diagrammasi

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv ishlarini boshqarishning asosiy funksiyalari aniqlandi: bashorat qilish (yoki rejalashtirish), tashkil etish, motivatsiya, nazorat, muvofiqlashtirish va aloqadir (1.1.3-rasm).

Birinchi besh funksiya boshqaruv tuzilmasini tashkil qiladi, bu esa o'z navbatida munosabatlarning mohiyatini belgilaydi.

Pedagogika OTMda boshqaruv jarayonining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- boshqaruv ob'ekti holatlarini tavsiflash va o'lchashning to'liqligi;
- boshqaruv modelining ishonchliligi va aniqligi;
- boshqaruv maqsadlarining maqsadga muvofiqligi;
- mezonlar tizimining boshqaruv maqsadlariga



3-rasm – Pedagogika OTMda o‘quv ishlarini oltita boshqaruv funksiyasi

muvofiqligi;

• boshqaruv ta’sirining chastotasi.

Pedagogika OTMdagi talabalar faoliyatini boshqarishning mavjud yo‘nalishlarini hisobga olgan holda, faqat ta’lim komponentiga bir tomonlama e’tibor qaratishi zaif teskari aloqani keltirib chiqarishini ta’kidlash lozim. Ijtimoiy soha, sport, ilmiy, madaniy va boshqalar kabi muhim komponentlar pedagogika OTM talabalar faoliyatidan tashqarida qolmoqda. Shu sababli, pedagogika OTMda kompetentli yondashuvni amalga oshirish uchun pedagogika OTMda talabalar faoliyatini kompleks monitoring qilish va boshqarish tizimi zarur bo‘lib, u ob’ektning holatini o‘lchash va boshqaruv harakatlarining yuqori chastotasiga ega.

Shunday qilib, raqamlashgan boshqaruv muhitidagi pedagogika OTMda talabalar rivojlanishini kompleks monitoring qilish va boshqarish uchun raqamlashgan boshqaruv tizimi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- butun o‘qish davrida talabaning o‘quv, ijodiy (tadqiqot) va darsdan tashqari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash;

- oyiga kamida bir necha marta ma’lumotlarning tezkor yangilanishini ta’minlash;

- talabalar, professor-o‘qituvchilar, barcha darajadagi boshqaruv xodimlari, ota-onalar va boshqa manfaatdor shaxslar uchun asosiy ma’lumotlarning ochiqligi, shaffofligi va foydalanish imkoniyatini ta’minlash;

- integral baholashlarni olish algoritmi va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ushbu baholashlardan foydalanish mexanizmlari bo‘yicha jamoatchilik kelishuviga ega bo‘lishi;

- o‘quv jarayonining barcha ishtirokchilari tomonidan tahlil qilish va taqqoslash uchun axborotni taqdim etishning zamonaviy, eng ifodali vositalaridan foydalanish;

- tizim tomonidan to‘plangan keng ko‘lamli, ko‘p o‘lchovli ma’lumotlardan samarali foydalanish uchun modellashtirish va qaror qabul qilishning bilim talab qiladigan zamonaviy matematik usullarini qo‘llash;

- qayta aloqani amalga oshirish tizimi orqali qabul qilingan qarorlar samaradorligini baholash;

- boshqaruv ob’ektining xarakteristikalari o‘zgarganda oson va tez modernizatsiya qila olish.

Menejment amaliyotida uning camapadopligi tamoyillapga bog‘liq bo‘ladi. Tamoyil – bu faoliyat yupitish, xalqning acociy qoidaci, yetakchi g‘oyadip. Ilmiy adabiyotlapda

boshqapish tamoyillapi keng miqyocda o‘rganilgan. Boshqapuv tamoyillapi macalalapi bilan, acocan, G.Emepcon, A.Fayol, F.U.Teylep, M.Vebeplap shug‘ullanishgan. Boshqapuv tamoyillari iqticodiyot qonunlari ta’siri natijacida boshqapuv ucullapiga va uclublapiga bog‘liq hodicalap mohiyatini aks ettipadi. Amaliyotda boshqapuv tamoyillapi o‘zapo bog‘liq va bipgalikda qo‘llanishi mumkin.

Olib bopilgan tadqiqotlap shuni ko‘pcatadiki, pivojlangan mamlakatlapda ta’limni boshqapishning cakkizta acociy tamoyilidan foydalaniladi (1.1.1-jadval).

1.1.1-jadval

Ta’limni boshqapishning acociy tamoyillapi [136]

№	**Tamoyil nomlanishi**
	I. Topshipiqni boshqapishga qapatilgan
1.	Muammoni yechishga ijodiy yondashuv (o‘zgapishlapga moclashish uchun tafakkupning bapcha imkoniyatlapidan foydalanish)
2.	Cifat o‘zgapishlapga epishish uchun muntazam pejalashtipish (ciyocat – pejalashtipish – amalga oshipish – monitoping ishlab chiqish)
3.	Vaziyatdan kelib chiqadigan pahbapiyat uclubi (vaziyat va bo‘ycunuvchilapga moclashuv qobiliyatini oshipish)
4.	O‘zapo hamkoplik va idealga bip xil munocabat (aniq kutishlik, foydali qaytma aloqa)
II. Amalga oshipuvchilapga qapatilgan	
5.	Gupuh va kommunikatsiya a’zolapining hamkopligi
6.	Buyuptmachiga qapatilgan (buyuptmachi, manfaatdop shaxc talablapini bajapish bo‘yicha xizmatlapni bajapish)
7.	Ijobiy fikplash, qulay muhit va o‘zapo aloqa (hamkacblapni qadplay va hupmat qila bilish)
8.	Vakolatni bepish va xodimlap kacbiy malakaci oshuviga ko‘maklashish (vakolatni bepish va kacbiy o‘cish uchun shapoit yapatish)

Tadqiqotimizda boshqarishga metodologik yondashuvlarni keltirib o‘tamiz. Mazkur yondashuvlarga tizimli, vaziyatli, vazifaviy va miqdorli yondashuvlar kiradi (1.1.2-jadval).

1.1.2-jadval

Zamonaviy menejment yondashuvlapi[1]

№	**Boshqapishga yondashuv tuplapi**	**Izoh**
1.	Tizimli yondashuv	Tizim – bu bip-bipi bilan o‘zapo bog‘langan qicmlap majmuidip. Hap bip qicm yaxlit tizimning o‘zgapishiga o‘z hiccacini qo‘shadi. Tashkilot – bu yaxlit ochiq tizimdip. Uning taqdipi tashqi va ichki muhitga bog‘liq. Tashkilotni boshqapishga tizimli yondashuvda acocan uning ichki muhitiga (iqticodiy, ilmiy-texnik, ijtimoiy-ciyociy) e’tibop bepiladi.

1 Emperik tadqiqotlar natijasiga binoan muallif tomonidan tuzilgan.

2.	Vaziyatli yondashuv	Gapchi tizimli yondashuvda yaxlit tashkilot qanday qicmlapdan tashkil topgan degan cavolga javob topcak-da, bu o‘pinda qicmlapning qayci bip muhim, qayci bipi ikkinchi yoki uchinchi dapajali, degan cavol tupmaydi. Yaxlitning qayci bip qicmi o‘ta muhim degan cavolga vaziyatli tahlil javob bepadi. Bunda tashkilotning ichki tapkibidagi o‘zgapishlap tashqi muhitning ta’cipi bilan bog‘lab o‘pganiladi. Ammo tupli dapajadagi vaziyat tupli dapajadagi bilimni talab qiladi.
3.	Vazifaviy yondashuv	Boshqapuvga tashkiliy mexanizmlapning eng oqilona yo‘llapini ishlab chiqish imkonini bepadi. Shu nuqtai nazapdan boshqapish quyidagi vazifalapni bajapadi: - tashkillashtipish; - pahbaplik qilish; - muvofiqlashtipish; - nazopat qilish va h.k.
4.	Miqdopli yondashuv	Bu kabi yondashuvga acocan: - menejmentning japayonli tamoyiliga; - qapop qabul qilish nazapiyaci tamoyillapiga; - matematik yoki ilmiy menejment kabilapga e’tibop qapatiladi. Miqdopli yondashuvdagi boshqapish japayonida nafaqat matematika, ctatictika, kibepnetika, muhandiclik fanlapi bilan bipgalikda cotsiologiya, puhshunoclik, tizimlap nazapiyaci kabi fanlapdan ham keng foydalaniladi.

Shunday qilib, tanlangan metodologik yondashuvlar va tamoyillar, oliy ta’limda boshqarishni takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilab beradi: pedagogik shart-sharoitlarni ta’minlashda, model ishlab chiqishda, boshqaruv mexanizmini ishlab chiqishda va baholash mezonlarini ishlab chiqishda.

Xulosa qilib aytganda, Oliy ta’limda kompetentli yondashuvni amalga oshirish OTMda talabalar faoliyatining barcha uch turini: o‘quv, ijodiy (izlanish) va darsdan tashqari (madaniy, ijtimoiy, sport va boshqalar) faoliyatini boshqarish va miqdoriy baholashni tashkil etishni taqozo etadi. Shu bois pedagogika OTMda talabalar faoliyatini raqamli texnologiyalardan foydalangan holda kompleks boshqarish orqali kompetentli yondashuvni joriy etish uchun zamin yaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 8-oktyabr 2019-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.
2. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta’lim tizimini boshqarish. - T.: “Turon Iqbol”, 2006. – 592 b.
3. Долятовский, В. А., Рябченко, Т. А., Мазур, О. А. Конкуренто-устойчивость и технология управления развитием ВУЗа на рынке образовательных услуг. - Ростов н/Д.: РГЭУ «РИНХ», 2006. - С. 7363.
4. Воскобойникова М., Пугачева Н., Чепурышкин И. Качество образования как фактор конкурентоспособности вуза. Высшее образование в России - № 5, 2008.

MAKTABGACHA EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYANING XALQARO TAJRIBASINI MILLIY TA'LIM TIZIMIGA INTEGRATSIYA QILISH ZARURATI

OMONOV BAKHODIR ODILJON O'G'LI
Qo'qon davlat pedagogika inistituti ta'lim menejmenti kafedrasi o'qituvchisi. PhD.

Annotatsiya. Maqolada «ekologik toza» va dunyoning rivojlangan mamlakatlarining maktabgacha ta'limda ekologik ta'lim-tarbiyaning xalqaro tajribasi tahlil etilgan. Real holat va madaniy merosni hisobga olgan holda ularni O'zbekistonning maktabgacha ta'lim tizimiga integratsiya qilish yo'llari keltirilgan.

Kalit so'zlar. Ekologiya, maktabgacha ta'lim-tarbiya, xalqaro tajriba, milliy ta'lim, implementatsiya, raqamli iqtisodiyot.

Annotation. The article analyzes the international experience of environmental education-education in preschool education of "environmentally friendly" and developed countries of the world. The ways of their implementation in the national system of preschool education of Uzbekistan, taking into account the real state and historical cultural heritage, are given.

Keywords. Ecology, preschool education-upbringing, international experience, state, national education, implementation, digital economy.

Mavzuning dolzarbligi. 2021-yil oktyabr-noyabr oylari Shotlandiyaning Glazgo shahrida bo'lib o'tgan BMT 26-sessiyasining "Iqlim sammiti"da 200 ortiq davlatlardan 25 ming nafar delegatlar ishtiroki, 120 ta davlat va hukumat rahbarlari ma'ruza bilan qatnashgan anjumanda «Global ekologik inqirozga uchramaslik uchun iqlim o'zgarishini 1,50 oshirmaslik»ka kelishib olindi. Buning uchun bir qator dolzarb ekologik, ya'ni: kishilik jamiyatining ekologik ong va madaniyatini oshirish, iqlim o'zgarishini kamaytirish va unga moslashish, chiqindilarni samarali boshqarish, biologik xilma-xillikni saqlab qolish va yashil iqtisodiyotni yo'lga qo'yish, muqobil enargiyadan keng foydalanish kabi muammolarning yechimini topish hamda ularni amalga joriy qilish zarurati yuzaga keldi. Sammitda 9-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi nomidan ma'ruza qilgan Bosh vazir o'rinbosari A.Abduxakimov yuqorida keltirib o'tilgan global ekologik muammolarni milliy miqyosda xal etishga yo'naltirilgan barcha chora-tadbirlarda O'zbekiston faol ishtirok etishi, 2022-yilda Nukus shahrida "yashil iqtisodiyot" xalqaro forumi, 2023-yilda esa BMTning "Atrof-muhit" bo'yicha 6-assambleyasini respublikamizda o'tkazish taklifi bilan chiqdi [1].

"Kishilik jamiyatining ekologik ong va madaniyatini oshirish" muammosi respublikamizda pedagogik ta'lim-tarbiyasining eng dolzarb masalalaridan biridir. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli qarori, 2019-yil 16-dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 434-sonli hamda Maktabgacha ta'lim vazirligi va Ekologiya va atrof-muhitngi muhofaza qilish davlat qo'mitasining 2019 yil 6-avgustdagi 7/1 va 6-sonli qo'shma qarorlarida maktabgacha ta'lim tizimida ekologik ta'lim-tarbiyani tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va uni tegishli ta'lim tizimi, jumladan malaka oshirish kurslarining umumta'lim fanlariga joriy etish

vazifasi qo‘yilgan.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Yuqorida keltirilgan ekologik ta’lim-tarbiyaning milliy normativ-huquqiy talablaridan kelib chiqqan tarzda tadqiqot maqsadi etib – maktabgacha ekologik ta’lim-tarbiyaning xalqaro tajribasini o‘rganish va uni milliy ta’limga implementatsiya qilish yo‘llarini izlab topish. Ushbu maqsadga erishmoq uchun quyidagi vazifalar tadqiqot oldiga qo‘yildi: “ekologik toza” va iqtisodiy rivojlangan davlatlarda maktabgacha ekologik ta’lim-tarbiya holati va uning samaradorligini aniqlash; milliy maktabgacha ta’limda ekologik ta’lim-tarbiya holatini tahlil qilish; tegishli yo‘nalishdagi xalqaro tajribani milliy maktabgacha ta’lim tizimiga implementatsiya qilish yo‘llari bo‘yicha takliflar kiritish.

Tadqiqot metodologiyasi. Maktabgacha ekologik ta’lim-tarbiyaga doir xalqaro miqyosdagi holatni tahlil qilish va uni milliy ta’lim tizimiga joriy qilishga doir pedagogik metodlar tizimi aniqlandi va ular quyidagi iyerarxik pog‘onaga joylashtirildi:

mavzuga tegishli ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish;

ekologik toza va rivojlangan davlatlar kesimida olib borilayotgan ekologik ta’lim-tarbiya jarayonini kuzatish;

faoliyat samaradorligini aniqlash va tajribalarni joriy qilish holatini baholash;

maktabgacha ta’limning malaka oshirish bosqichida sinab ko‘rish va joriy etish.

Tadqiqot natijalari. Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib boriladigan «Ekologik toza va ifloslangan davlatlar indeksi»ning eng O‘zbekiston uchun eng maksimal ko‘rsatkichi bo‘yicha e’lon qilingan reytingida respublikamiz 118-o‘rinda turadi (1-jadval). Indeks – atrof-muhit holati ko‘rsatkichlarining umumlashtirilgan reytingi. Mazkur reytingda Vatanimizni yuqori o‘rinlarga ko‘tarish uchun “ekologik toza” va iqtisodiy rivojlangan davlatlardagi maktabgacha ekologik ta’lim-tarbiya tajribasi o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

1-jadval

Dunyoning “ekologik toza” davlatlar reytingi

(https://www.education-medelle.com sayti ma’lumotlariga ko‘ra)

Tutgan o‘rni	Davlat nomi	Indeksi	Tutgan o‘rni	Davlat nomi	Indeksi
1.	Finlandiya	90.68	118.	O‘zbekiston	63.67
2.	Islandiya	90.51	119.	Liviya	63.29
3.	Shvetsiya	90.43	120.	Grenada	63.28
4.	Daniya	89.21	121.	Vosniya va Gersagovina	63.28
5.	Sloveniya	88.98	122.	Antigua va Barbuda	62.55
6.	Ispaniya	88.91	123.	Keniya	62.49
7.	Portugaliya	88.63	124.	Svazilend	60.63
8.	Estoniya	88.59	125.	Kribati	60.48
9.	Malta	88.48	126.	Ummon	60.13
10.	Fransiya	88.20	127.	Kot-d‘Ivuar	59.89

“Ekologik toza” va iqtisodiy rivojlangan davlatlarning birinchi 20 taligidan joy davlatlarda [2] ta’lim–tarbiya ishlari «Ekologik madaniyatli inson» potensialini shakllantirish aynan maktabgacha ta’lim muassasidan boshlar ekan. Bundan asosiy maqsad – maktabgacha ta’lim tashkilotlari(MTT)da bolajonlarni ekologik ta’lim-tarbiya orqali ularda ekologik madaniyatning ilk elementlarini yuzaga keltirish (1-rasm). Masalan, Finlyandiyada 5 yoshgacha bolajonlar MTTda ekologik ta’lim-tarbiyaning sodda ko‘rinishdagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lsalar, 5 yoshdan boshlab esa haftaning bir kunida mahalliy miqyosda

tashkil etilgan “Tabiat markazalarida” uni davom ettiradilar. Umuman olganda, G‘arbiy Yevropada bolajonlar maxsus xo‘jaliklarda yovvoyi hamda uy hayvonlari bilan muloqotda bo‘lishi va ularni parvarish qilish orqali ekologik ta’lim-tarbiyani uch yoshdan boshlash uchun barcha sharoitlarni yaratishga harakat qiladilar. Sharqiy Yevropa, jumladan Rossiya Federasida esa yilning ekologik taqvim kunlariga bag‘ishlangan ertalabki bayramlarni tashkil etish yo‘lga qo‘yilgan ekan.

O‘zbekistonda ekologik ta’lim-tarbiya umumiy o‘rta ta’lim – maktabda o‘tiladigan Biologiya, Geografiya, Tarix, Tabiatshunoslik kabi fanlarga integratsiya qilingan va shuning uchun ham, aksariyat hollarda, ekolog-pedagoglar tomonidan olib borilmaydi. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim tizimiga ekologik ta’lim (tarbiya masalasi inobatga olinmagan tarzda)

Davlatlar	MTTda ekologik ta’lim-tarbiyaning mazmuni
Finlyandiya	Tizimli ravishda 5 yoshdan boshlanadi va u maxsus takshil etilgan mahalliy *“Tabiat markazlari”*da olib boriladi
Shvetsiya	Atrof-muhitni muhofaza qilish jamiyati va ta’lim bo‘yicha Milliy agentlik hamkorligida *umumdavlat axborot tizimi* yaratilgan
Daniya	Barcha pedagogik kasbiy ta’lim tizimiga joriy etilgan hamda maktabgacha ta’lim yo‘nalishidagi *pedagoglarni tayyorlashda majburiy* hisoblanadi
Avstriya	Maktabgacha ta’limi pedagoglari uchun *doimiy seminar* tashkil etilgan, ularni *qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha kurslar* ishlab turibdi
Norvegiya	Bolalar bog‘chasidagi pedagog albatta *maxsus ekologik tayyorgarlikka* ega bo‘lishi lozim
Germaniya	Bolalarning *atrof-muhit haqidagi tasavvur va bilim*, *tabiatni muhofaza qilishga tayyorlash, ekologik mas’uliyatli xulqni shakllantirishga* yo‘naltirilgan
Yaponiya	*Yuksak ekologik madaniyatli shaxsni tayyorlash* atrof-muhit sohasidagi maktabgacha ta’lim dasturlarida aks etgan
AQSH	Bolajonlarning atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona va mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lishlarini shakllantirish jarayonida keng *omma va nodavlat jamoat tashkilotlari* bilan birga olib boriladi
Rossiya	12-may *“Ekologik ta’lim kuni”* deb e’lon qilingan va MTTda tegishli bayramlar o‘tkaziladi

1-rasm. ***«Ekologik toza» va rivojlangan davlatlarda ekologik ta’lim va tarbiya***

to‘liq joriy qilinmagan va soatlar miqdori kam bo‘lgani uchun ham aksariyat holda turdosh fan o‘qituvchilari tomonidan olib boriladi. Huddi shunday holat Oliy ta’limda. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish yo‘nalishida bakalavriyatga o‘qishga kirish uchun abiturent Bilogiya va Geografiya fanlaridan emas, balki Matematika va Kimyo fanlaridan test sinovidan o‘tish orqali talabalikka qabul qilinmoqda. Buning natijasida ekologik ta’limda kadrlar tayyorlash talabalarning kasbiy kompetensiyasiga tayanmagan tarzda olib borilmoqda. “Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” bo‘yicha ta’lim yo‘nalishlarining o‘quv rejasida 2019-yilga qadar noekologik fanlar 70-75%ni tashkil qilgan. Bunday ekolog kadrlar tayyorlashdagi salbiy holat OTM Maktabgacha ta’limda yo‘nalishlarida ham o‘z aksini topgan.

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi bo‘yicha o‘quv jarayonini olib borayotgan Oliy ta’lim muassasalarining 110000–Pedagogika ta’lim sohasining 5112700–Maktabgacha ta’lim psixologiyasi va pedagogikasi hamda

5111800–Maktabgacha ta’lim metodikasi ta’lim yo‘nalishlarining “Bolalarni tabiat bilan tanishtirish” fan dasturida 8 ta modul va 32 ta o‘quv mashg‘ulotlarini ekologik ta’lim-tarbiyaga emas, balki ularni tabiat bilan tanishtirishga qaratilgan xolos.

Dunyo tajribasidan foydalangan va uni milliy ta’limga implementatsiya qilgan tarzda bunday noekologik ta’limni bartaraf qilish maqsadida yuqorida qayd qilingan Ekologiya va atrof-muhitni muhafaza qilish hamda Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan qabul qilingan qo‘shma qarorda MTTda ekologik ilmni yo‘lga qo‘yish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga joriy etish masalasi qo‘yilgan [3]:

«Ilk qadam» davlat o‘quv dasturiga ekologik ta’lim-tarbiyaga doir tegishli qo‘shimchalar kiritish;

bolajonlarning yosh jihatlarini inobatga olgan holda o‘quv adabiyotlarni yaratish;

«Ekologik burchak»larni tashkil etish va ulardan ta’lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish;

yilning asosiy «Ekologik taqvim» kunlariga bag‘ishlangan bayramlarni o‘tkazib borish;

rahbar va mutaxassislarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslariga «Ekologiyaning dolzarb muammolari»ga bag‘ishlangan o‘quv modullarni joriy qilish va h.k.

Maktabgacha ta’limda mazkur Qo‘shma qarorning asosiy vazifasi – 2018-yilgacha amalda bo‘lgan «Bolajon» va amaldagi «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturlarida bolajonlarni tabiat bilan tanishtirish bilan cheklanib qolmasdan, balki ularni ekologik ilmli qilish kerakligi uqtirilgan. Bu degani, bolajonlarni tabiat bilan tanishtirish davomida ularni kundalik hayotida uchraydigan mahalliy atrof-muhitdagi ekotizimlarni (yashash: joyi, makoni, uyi) muhofaza qilish, undagi tabiiy resurslardan oqilona foydlanish va ularning buzilganlarini qayta tiklashda kerak bo‘ladigan ma’lumotlarga ega qilishlik vazifasi yuklatiladi.

MTTda ekologik ta’lim va tarbiyaga joriy etish orqali yuqorida qayd etilgan vazifalar amalda bajarilmoqda. Jumladan, «Tabiat bilan tanishtirish» o‘quv kursi kiritilgan[8]. Lekin axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish yetarli darajada emas.

O‘zbekistonning maktabgacha ta’lim bosqichida ekologik ilm boshqa ta’lim turlaridagi ilmdan keskin farq qiladi. Unga tegishli o‘quv adabiyotlar bir paytning o‘zida ham bolajonlarga ham tarbiyachi, metodist, difektolog, psixologlarga, ya’ni barcha pedagoglarga tegishli bo‘lmog‘i darkor (2-jadval).

Ko‘rgazmali stendni ishlatish metodikasini Institut veb-saytidan mumkin. Yilning asosiy ekologik taqvim kunlariga bag‘ishlangan bayram yoki utrenniklarni o‘tkazib borish uchun avvalam bor «Ekologik taqvim» ko‘rgazmali plakatlarni ishlab chiqish tavsiya etiladi[9].

Ekologik kunlarni belgilash MTT joylashgan mahalliy sharoitlardan kelib chiqqan tarzda “Taqvim jadvali”ni ishlab chiqish va aynan o‘sh kunlarda bayramlarni yoki tadbirlarni o‘tkazish tavsiya etiladi. Masalan, cho‘l zonasida joylashgan bog‘chalarda: Quyosh, iqlim, biologik xilma-xillik, cho‘llanish va qurg‘oqchilikka qarshi kurash kunlarini taqvim va tadbirlar rejasiga kiritish zarur. Tog‘li hudulardagi bog‘chalarda: Yer planetasining ozon qatlamini muhofaza qilish, qo‘riqxonalar kuni, hayvonlarni muhofaza qilish, tabiiy ofatlardan himoyalanish kabi kunlarni taqvim rejasiga kiritish maqsadga muvofiq. Zero bolajonlarning kundalik faoliyatlarida yoki ko‘z oldilarida mazkur atrof tabiiy muhit holati, jarayon yoki voqealar sodir bo‘lmoqda.

Kishi, jumladan bolajon ekologik ilmli bo‘ldi degani hali ekologik madaniyatli darajaga yetib bordi degani emas. Uni mazkur darajaga yetib olishi uchun bolajon ekologik ma’rifatli, ya’ni MTTda zamon talabiga javob beradigan ekologik ta’lim olishi lozim. Bizlarga ma’lumki, ekologik ma’rifat ta’lim orqali,

2-jadval

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagog va bolajonlar uchun tavsiya etiladigan ekologik ilm

Pedagoglar uchun	Bolajonlar uchun
Ekologiya – muayyan ekotizimlarda tirik mavjudotlar o‘zaro va ularni atrof tabiiy muhiti o‘rtasidagi (oqilona foydalanish, muhofaza qilish, qayta tikshlashga doir) qonuniyatlarni tadqiq qiluvchi ***fan sohasi***, unga doir bilim, ko‘nikma va malkalarni shakllantiruvchi ***ta’lim-tarbiya yo‘nalishi***, ushbu adloqadorlik qonuniyatlarini optimallashtiruvchi ***amaliyot tarmog‘i***	*Ekologiya* – o‘zingiz yashab turgan joy tabiatidan oqilona foydalanish, uni saqlash va buzilganlarini qayta tiklashga qaratilgan harakat
Ekotizim – barcha tirik mavjudotlar, jumladan kishilarning ma’lum bir tizimda (global, regional, milliy va lokal) turuvchi yashash makoni	*Yashab turgan joy* – biz yashayotgan xona, uy, ko‘cha, bog‘cha, mahalla, qishloq, shahar
Oqilona foydalanish – ekotizimlardagi tabiiy resurslardan ilmiy asoslangan tarzda foydalanish	*Tabiatdan oqilona foydalanish* – aql bilan tabiatdan foydalanishga qaratilgan harakat
Muhofaza qilish – ekotizimlarda kechayotgan modda va energiya almashuvining tabiiy xususiyatlarini saqlab qolish	*Tabiatni saqlash* – «Ona tabiat»ni asrashga qaratilgan harakat
Qayta tiklash – buzilgan ekotizimlarni ilmiy asosda qayta tiklash	*Tabiatni qayta tiklash* – buzilgan tabiatni yaxshilashga qaratilgan harakat
Ekologik ong – ekotizimlar orgazmlar, jumladan kishilarning birgina yashash makoni ekanligini anglash	*Ekologik ong* – «Ona tabiat» bizning hayotimizda naqadar kerakligini anglash
Ekologik madaniyat – ekologik ta’lim-tarbiya orqali olgan bilim, ko‘nikma va malkalarni amalda qo‘llash darajasi	*Ekologik madaniyat* – ekologik ongni amalda qo‘llay olish darajasi

ma’naviyat esa tarbiya orqali bolajonlarga singdirilishi mumkin.

Xulosa. “Ekologik toza” va iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda kishining ekologik ong va madniyatini shakllantirish ekologik ta’lim-tarbiya orqali amalga oshirilmoqda. Ekologik ta’lim bolajonlarning 3 yoshidan, ekologik tarbiya esa ularning chaqolqlik, ya’ni “beshik”dan boshlanar ekan. Mazkur yo‘nalishdagi xalqaro tajribani O‘zbekistonning maktabgacha ta’lim tizimiga to‘g‘ridan to‘g‘ri joriy qilishning nafaqat iqtisodiy imkoniyat va ijtimoiy holat, balki o‘zbek millatining ko‘p asrdan buyon shakllanib kelgan boy madaniy merosi nuqtayi nazardan maqsadga muvofiq emas. Shuning uchun ham milliy maktabgacha ekologik ta’lim-tarbiyani implementatsiya qilish, ya’ni xalqaro tajribani bizdagi real sharoitga moslashtirgan tarzda olib kirish lozim. Maktabgacha ta’limda ekologik ta’lim-tarbiyani yangi bosqichga olib chiquvchi ilmni, bolajonlar va pedagoglarning ekologik ma’rifatini shakllantiruvchi ta’limni,

zamonaviy axborot texnologiyalarini ekologik boshqaruvga tatbiq etuvchi raqamli iqtisodiyotni qadamma qadam amalga joriy etish zamon talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zR Bosh vazir o‘rinbosari A.Abduxakimovning BMTning 26-sessiyasidagi ma’ruzasi. http://dy.uz/FkzMG.
2. Vikipediya. Samые ekologicheski chistые stranы mira. Shveysarskiy konsaltingovыy sentr. https://www.education-medelle.com.
3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi hamda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining 2019-yil 6-avgustda «Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik ta’lim va tarbiyani rivojlantirish chora-tadbirlari» bo‘yicha 7/1 va 6-sonli qo‘shma qarori.
4. Nigmatov A. Maktabgacha ekologik ta’lim va tarbiya. Darslik. – T.: «Navruz», 2020. -160 b.
5. Nigmatov A. Kompetentnыy podxod v obrazovanii// J. Maktabgacha ta’lim (metodika va nazariya). №10.2019.–15–17-b.
6. Negroponte N. Bits&Atoms. University of Phoenix (https://ru. wikipedia. org/wiki).
7. Chumakov V. Strategii sifrovogo liderstva // V mire nauki. № 10. 2019.– S. 70-77.
8. Nigmatov A.N., Omonov B.O. (2021). Waste: The Experience Of Creative Approach, Innovative Suggestion And Practical Classification. The American Journal of Applied Sciences, 3(03), –P.56-63.
9. Omonov B.O. Household waste and their practical classification. Eastern European Scientific Journal,. www.auris-verlag.de. DOI10.12851/EESJ202204. –P.60-64
10. Omonov B.O. (2023). Educational technologies used in teaching topics related to the development of environmental competence in waste management. current research journal of pedagogics, January 30, 2023-y. 4(01). – P.62–67. ttps://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-04-01-10. DOI-10.37547/social-fsshj (Global impact factor 8.145).

O‘QITUVCHINING DIAGNOSTIK FAOLIYATIDA DIAGNOSTIK MODEL TIZIMI

QODIROVA XALIMAXON NURMUXAMMAD QIZI
Nizomiy nomidagi TDPU “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi” kafedrasi dotsenti v.b, (PhD)

Annotatsiya: Maqolada o‘rganilayotgan hodisani shakllantirish jarayonining yaratilgan modellarining ikki bosqichdan iborat bo’lgan asosli va dinamik jihatlari, o‘rganilayotgan hodisaning rivojlanishi uchun pedagogik shart-sharoitlar modelini yaratish hamda diagostik faoliyat modelini yaratish uchun taklif etilayotgan modelning o‘qituvchi o‘z bilimlari va ko‘nikmalarini hisobga olgan holda muayyan muammoning yechimiga muvofiq tarkibiy qismlar bilan to‘ldirib, diagnostik faoliyati modelini ishlab chiqishi mumkin bo‘lgan algoritmni aks ettirishiga doir qarashlar yoritilgan.

Kalit so’zlar: pedagogik faoliyat, diagnostik faoliyat, diagnostik model, asosli va dinamik jihatlar, pedagogik shart-sharoit, tashxis qo‘yish, diagnostika va tuzatish, diagnostika natijalarini umumlashtirish.

Аннотация. В статье освещены взгляды на двухступенчатые фундаментальные и динамические аспекты созданных моделей процесса формирования изучаемого явления, создание модели педагогических условий развития изучаемого явления и отражение педагогом алгоритма, с помощью которого можно разработать модель, предлагаемой для создания модели диагностической деятельности, дополнив ее компонентами в соответствии с решением конкретной задачи с учетом собственных знаний и навыков.

Ключевые слова: педагогическая деятельность, диагностическая деятельность, диагностическая модель, фундаментальные и динамические аспекты, педагогические условия, диагностика, диагностика и коррекция, обобщение результатов диагностики.

KIRISH

Dunyo xalqlari o‘zining kelajagini yorqinlikda ko‘rishga intilib yashamoqda. Yorqinlikka eltuvchi yo‘l – hech shubhasiz aytish mumkinki, muvafaqqiyatli ta’lim olishlik shu bilan bir qatorda tinimsiz izlanishlardan iborat desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bugungi rivojlangan davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy yutuqlarida ilm-fan va ta’limning o‘rni benihoya katta.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev hozirgi kunda ilm-fan va ta’limga ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatdan e’tirborni yuksak darajada qaratmoqda. Agar joiz bo‘lsa, olib borilayotgan tashabbuslarni birgina pedagoglik faoliyatiga doir chiqarilayotgan Qaror va Farmonlardan tortib, pedagoglarning jamiyatdagi obro‘si va oylik maoshlarini oshirish kabilarnilarni keltirishimizning o‘zi kifoya.

Muhtaram Prezidentimiz 2020-yil 24-yanvardagi Oliy majlisga murojaatida alohida to‘xtalib, “Pedagogik mahorat va malaka darajasiga ega bo‘lgan, o‘z ishida aniq natijalarga erishgan o‘qituvchilarga yuqori maosh to‘lash tizimini joriy etamiz”[5]dedilar.

Albatta, pedagogik mahorat va malakaga ega o‘qituvchining diagnostik bilimi, kompotentsiyasi va shu bilan bir qatorda diagnostik madaniyati ham shakllangan bo‘lishi kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI

V.S.Avanesov “Pedagogik diagnostika deganda tarbiya, ta’lim natijalarini o‘lchash va baholash uchun shaxsning o‘ziga xosindividual xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan o‘qituvchilar va pedagogik jamoalarning bir maqsadga qaratilgan faoliyat tizimini tushunishni nazarda tutadi” deb ta’kidlaydi[6;41].

D.A.Choriyeva[39] “Pedagogik diagnostika talabalarga tarbiyaviy jarayonda

komillikka intilishni kuchaytiradigan nazorat funksiyasi - ta’limiy -tarbiyaviy jarayonda turli xil nazorat turlarini o‘tkazishni nazarda tutadi, chunki diagnostika ma’naviy - ma’rifiy jarayon holati to‘g‘risidagi axborotga ega bo‘lishni bildiradi”- deya o‘z qarashlarini ifodalaydi [2].

V.M.Yangirova[8], Ye.I.Kikoin[7;16] “Diagnostikaning o‘quv diagnostik umumlashmasidan foydalangan holda talaba shaxsini pedagogik-psixologik tadqiq etish xususiyatlaridan biri ekanligi to‘g‘risidagi fikrlarini ilgari suradilar. Biroq, biz pedagogik va psixologik diagnostika o‘zaro ta’sir doiralarini qiyoslash uchun prinsipial jihatdan muhim deb hisoblaydi. Ilmiy adabiyotlarda tadqiqot predmetlari va ushbu turdagi diagnostika o‘zaro ta’sir ko‘rsatish maydoniga ko‘ra ajratish masalasi muzokaralarga sabab bo‘lib, tez-tez muhokama qilib kelinadi” deya ta’riflaydi.

TADQIQIOT METODOLOGIYASI:

Maqolada o‘qituvchining diagnostik faoliyatida diagnostik model tizimini amalga oshirishda o‘rganilayotgan hodisani shakllantirish jarayonining yaratilgan modellarining ikki bosqichdan iborat bo’lgan asosli va dinamik jihatlari, o‘rganilayotgan hodisaning rivojlanishi uchun pedagogik shart-sharoitlar modelini yaratish hamda diagostik faoliyat modelini yaratish uchun taklif etilayotgan modelning o‘qituvchi o‘z bilimlari va ko‘nikmalarini hisobga olgan holda muayyan muammoning yechimiga muvofiq tarkibiy qismlar bilan to‘ldirib, diagnostik faoliyati modelini ishlab chiqishi uchun tashxis qo‘yilgan ob’yektning shakllanish dinamikasini protsessual jihatini aniqlash, tadqiq qilinayotgan hodisani shakllantirish

№	Mashg‘ulot nomi	O‘quv yili mobaynida			Sog‘lomlashtirish davri mobaynida		
		Hafta mobaynida	Oy mobaynida	O‘quv yili mobaynida	Hafta mobaynida	Oy mobaynida	Sog‘lomlashtirish davri mobaynida
1	Tabiat bilan tanishtirish	1	4	36	1	4	12

jarayonining omilini yaratish uchun tadqiqot va diagnostik muolajalarni bajarish, bosqichma-bosqich tashxis qo‘yish, o‘rganilayotgan hodisani rivojlantirish uchun pedagogik sharoitlar tizimini modellashtirish tartiblari asosida diagnostik faoliyat model tizimining algoritmi sifatida aks ettirilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR:

Diagnostik kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishning dolzarbligi, o‘qituvchining kasbiy faoliyatini o‘rganish va qayta ko‘rib chiqish, zamonaviy ta’limning asosiy prinsiplarini amalga oshirishda uning faol ishtirokini taminlash muammosini zudlik bilan hal qilishni talab qiladi: maktabni demokratlashtirish, insonparvarlik ta’limning madaniy-yaratuvchilik funksiyasini tiklash asosi sifatida shaxsiyatni rivojlantirish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan.

O‘z faoliyatini zamonaviy ta’limning maqsadlari va vazifalari kontekstida tushungan o‘qituvchilar diagnostika faoliyati kasbiy faoliyatining ajralmas qismiga aylanishi kerakligini tan olishadi, lekin shu bilan birga uni amalga oshirish uchun pedagogik diagnostika sohasida bilim va ko‘nikmalar yetishmasligini ta’kidlashadi.

O‘qituvchining diagnostika faoliyatida turli sabablarga ko‘ra tasniflanishi mumkin

bo‘lgan turli xil modellar qo‘llaniladi. Agar o‘quv amaliyotini takomillashtirish uchun modellashtirish qo‘llanilsa, quyidagi uchta model tizimiga tayanish tavsiya etiladi:

o‘rganilayotgan hodisani (ob’yekt, sifat yoki faoliyat) o’zini-o’zi rivojlantiradigan yaxlit tizim sifatida shakllantirish jarayonining modeli;

ushbu ob’yektni shakllantirish uchun pedagogik muhit sifatida pedagogik sharoitlar modeli (yoki o’quvchining faoliyat turlari to’plami);

oldingi modelda ko’zda tutilgan o’quvchining faoliyatini tashkil etishda o’qituvchining kasbiy faoliyati modeli (yoki pedagogik sharoitlar).

Har biri tarkibiy jihatdan mazmunli va dinamik jihatlarga ega bo’lgan ushbu modellarni tuzish tartibini ko’rib chiqaylik?

1. O‘rganilayotgan hodisani shakllantirish jarayonining yaratilgan modellari ikki bosqichdan iborat - asosli va dinamik jihatlarni ochib berish.

Diagnostika ob’yektining (xususiyatlar, fazilatlar, sohalar, inson faoliyati va boshqalar) yaxlitlik sifatida mazmunli modelini yaratish uchun o’qituvchiga kerak bo’ladi

Falsafiy, sotsiologik, psixologik va pedagogik adabiyotlarning nazariy tahlili asosida tashxis qo’yilgan ob’yektni shaxsiy, faoliyat va h.klarning kengroq tizimidan ajratilgan yaxlitlik sifatida aniqlang. Buning uchun tanlangan hodisaning tipik xususiyatlarini (diagnostika mezonlari va parametrlari, namoyon bo’lishi) aniqlash kerak. Uni boshqa xususiyatlar, fazilatlar yoki inson doirasi yoki faoliyat turlaridan ajratib turing:

ob’yektning atrof-muhit bilan yoki uning funktsiyalari namoyon bo’ladigan kengroq tizim bilan bog’liqligini ta’kidlash;

tashxis qo‘yilgan ob’yektning ichki tarkibini (sifati, ko‘lami yoki shaxsiy xususiyatlari) tahlil qilish, aniqlangan funktsiyalarni bajarilishini ta’minlaydigan ichki tuzilmani tashkil etuvchi tarkibiy qismlarni aniqlash.

Bunday model tahlil jarayonida ob’yektning yaxlit ko’rinishini buzmasdan nafaqat yaxlit, balki chuqur tarkibiy-tashxis qo‘yish imkoniyatini yaratadi.

Tashxis qo‘yilgan ob’yektning shakllanish dinamikasini protsessual jihatini aniqlash uchun:

tashxis qo‘yilgan hodisaning shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan bolaning ma’lum bir yosh davridagi fiziologik, psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish;

yosh xususiyatlariga qarab hodisalarni (mezonlar va ko‘rsatkichlar tizimini) tavsiflovchi tuzilmani ishlab chiqish va uning rivojlanish bosqichlarini (darajalari, bosqichlari) tavsiflash; ehtimol boshlang’ich nazariy model keyinchalik diagnostika natijalariga qarab belgilanadi yoki aniqlanadi;

jarayonni bir holatdan ikkinchisiga “sakrash” ga yaqinlashtiradigan miqdoriy o’zgarishlarni, ayniqsa, ushbu o’tishlarning inqirozlarini va ularni yumshatish imkoniyatlarini tavsiflang (bosqichma-bosqich o’tish);

hodisaning o‘z-o‘zini rivojlantirish manbalarini (ichki kuchlar, omillar), jarayonning o‘z-o‘zini harakatini ta’minlaydigan, ko’rib chiqilayotgan yoshdagi manbalar ishlash xususiyatlarini aniqlash;

o‘z-o‘zini rivojlantirishning bosqichlari va manbalarini aniqlash asosida, jarayonning rivojlanishi va pedagogik faoliyatning maqsadlarini ishlab chiqish uchun asos bo’lib xizmat qiladigan ta’lim hodisasini rivojlantirish modelini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Birinchi model (uning tarkibiy va dinamik jihatlari kombinatsiyasida) diagnostika faoliyatining gumanitar tarkibini aniqlaydi, uni pedagogik ma’nolar bilan to’ldiradi. Aks holda, tashxis o’z-o’zidan yakunlanadi, pedagogik jarayondan “chiqib ketadi”. Ushbu model pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning tegishli usullarini tanlash uchun ma’lumotlardan pedagogik hodisalarni va ularning o‘zgarishi qonuniyatlarini tushunishga

o‘tishga imkon beradi.

Shuni ta’kidlash kerakki, boshqaruvga majburiy ravishda bo‘ysunish, ustunlikni anglatmaydi. Zamonaviy fanlarda nazorat ostida, ularning o‘ziga xos tuzilishini saqlab qolish, faoliyat rejimini saqlab turish va dasturlarini amalga oshirishni ta’minlaydigan uyushgan tizimlarning funktsiyalari ko‘rib chiqiladi. Bu savolga javob aniq texnokratik ta’lim strategiyasi va gumanitar strategiyaga xos mexanik g‘oyalarning aniq farqi.

2. O‘rganilayotgan hodisaning rivojlanishi uchun pedagogik shart-sharoitlar modelini yaratish uchun o‘qituvchi: 1) uning shakllanish jarayoniga sezilarli ta’sir ko’rsatadigan tashqi sharoitlarni aniqlashi, 2) pedagogik nazorat qilinadigan sharoitlarni ularning orasidan tanlashi kerak.

Bunday holda, omil jarayonning ichki harakatlantiruvchi kuchi sifatida tushuniladi va shart tashqi, ma’lum darajada yoki o‘qituvchi tomonidan ongli ravishda ishlab chiqilgan, bu jarayonga sezilarli ta’sir ko’rsatadigan vaziyat taklif qiladi, lekin ma’lum bir natijaga kafolat bermaydi.

Tadqiq qilinayotgan hodisani shakllantirish jarayonining omilini yaratish uchun quyidagi tadqiqot va diagnostika muolajalarini bajarish kerak:

 hodisaning shakllanishining ishlab chiqilgan modeliga asoslanib, ma’lum yoshdagi bolaning xatti-harakatlarida, xususiyatlarida, hissiy holatida va h.klarda o‘ziga xos xususiyatlarni va uning ajralib turadigan tarkibiy qismlarini tanlang;

 ushbu mezonlarga muvofiq individual komponentlar va umuman hodisalar uchun diagnostika usullarining eng maqbul (zarur va yetarli) to’plamini (kompleksini) tanlang; bir nechta guruhlarni ajratish mumkin: tadqiqot maqsadlari uchun, kundalik pedagogik faoliyat uchun, boshqaruv nazorati uchun va hk.;

 diagnostika eksperimentini o‘tkazish va tavsiflash;

Bosqichma-bosqich tashxis qo‘yish mumkin:

diagnostika mezonlari va usullarini tanlash uchun cheklangan namunadagi “tajriba” ekspertizasi, 2) tendentsiyalarni aniqlash uchun ommaviy diagnostika; 3) oldingi bosqichda tanlab olingan namunada diagnostikaning chuqurligi;

diagnostika natijalarini umumlashtirish: tizimlashtirish, umumlashtirish, tahlil qilish (ma’lumotlarni jadvallarga, monografik xususiyatlarga, modellarga va boshqalarga qisqartirish);

nazariy model va diagnostika natijalarining (hodisaning o’zgarmas va o’zgaruvchan belgilarini aniqlash, tashxis qo’yishning maqbul usullarini tanlash) va o‘rganilayotgan hodisaning rivojlanishi sharoitlariga (haqiqiy pedagogik tajribada, o‘rganilayotgan ob’yektning rivojlanishi va yo‘q bo‘lib ketishi uchun sharoitlarni aniqlash) muvofiqligi to‘g‘risida xulosalar chiqarish.

Diagnost qo‘yish jarayonida o‘qituvchi ko‘proq miqdoriy munosabatlarni emas, balki

sifatni (va uni shakllantirish jarayonida) va ushbu sifatni shakllantirishda turli xil sharoitlarning ta'sirini ochib beradi. Natijada, nazariy model takomillashtirilib, o'rganilayotgan hodisaning shakllanish omillari tanlanadi, bu esa ularni tahlil qilish asosida pedagogik jihatdan tartibga solinadigan shart-sharoitlarni tanlashga imkon beradi.

O'rganilayotgan hodisani rivojlantirish uchun pedagogik sharoitlar tizimini modellashtirish uchun quyidagi tartiblarni bajarish kerak bo'ladi:

2-jadval

№		Mushukniing bolasi	Qo'yning bolasi	Tuyaning bolasi	Echkining bolasi	Otning bolasi
1	Toychoq					*
2	Uloqcha				*	
3	Mushukcha	*				
4	Qo'zichoq		*			
5	Bo'taloq			*		

talabalar bilan ishlashning amaliy usullari va shakllariga xos bo'lgan rivojlanayotgan samaradorlikni aniqlash uchun empirik pedagogik materiallar va pedagogik adabiyotlar tahlili, o'z pedagogik tajribasi asosida;

tahlil asosida eng samarali va boshqariladigan pedagogik sharoitlarni, xarakterli usullarni, o'qitish usullari va ish shakllarini tanlang;

jarayonni nazorat qilish vositalarini (diagnostika va tuzatish) tanlash, shuningdek, tavsiya etilgan sharoitlar tizimining samaradorligini eksperimental ravishda aniqlash.

Ushbu model birinchi navbatda atrof-muhitning pedagogik potentsialini diagnostika qilish uchun ishlatiladi. Bu pedagogik hodisani shakllantirish uchun ichki omillar va tashqi sharoitlarning birligini ochib berganligi sababli, bir martalik tashxisdan pedagogik jarayonni kuzatishga o'tishga imkon beradi.

3-jadval

№	Test savollari	A	V	S
1	Viz - viz, viz - viz uchamiz, qo'namiz. Guldan-gulga ko'chamiz, Gul sharbatin ichamiz. Viz - viz, viz - viz, Qani toping, kim biz?	asalari	pashsha	qovoqari
2	Uy hayvonini toping.	sigir	bo'ri	yo'lbars
3	Qaysi qush bahorning elchisi?	qaldirg'och	bulbul	musicha
4	Qishin - yozin ko'm - ko'k libosda. A) tol V) archa S) bodom	archa	tol	bodom
5	Poliz ekinini toping.	Sabzi,karam	Anor,olma	Pista,bodom
6	Yovvoyi hayvonni toping.	ayiq	ot	tuya
7	Qaysi hasharot eng kam umr ko'radi?	kapalak	chumoli	Pashsha
8	Bahorda birinchi ochiladigan gul.	boychechak	lolaqizg'aldoq	chuchmoma
9	Qaysi daraxt meva qilmaydi?	terak	shaftoli	olma
10	Qaysi qushlar qishda yurtimizda qishlaydi?	bulbul, qaldirg'och	chumchuq, musicha	turna, laylak

Agar, birinchi model, qoida tariqasida, juda qiyin diagnostika vositalarini o‘z ichiga olsa, ikkinchisi har qanday o‘qituvchiga bolalar va ularning ota-onalari bilan kundalik o’zaro aloqada mavjud.

3. Diagostik faoliyat modelini yaratish uchun quyidagilar zarur: 1) tizim tushunchasini tashkil etadigan tamoyillarni aniqlash; 2) pedagogik faoliyatning shakllanish bosqichlarini ishlab chiqish, o‘qituvchining mavjud uslubiy tizimiga o’zgarishlar kiritish.



1-rasm. Diagnostik faoliyat modeli.

Ushbu model pedagogik faoliyatini takomillashtirish (va o‘zini takomillashtirish!) Vazifalariga eng yaqin. Bir qarashda, bu pedagogik faoliyatni tahlil qilish, tekshirish va baholash uchun faqat ta’lim tizimining ma’muriy va uslubiy xizmatlari tomonidan talab qilinadi. Ammo kasbiy faoliyatning o‘z-o‘zini tashxissiz, o‘qituvchining o‘zini-o‘zi rivojlantirish mumkin emas. Shunday qilib, faoliyatning normativ modeli nafaqat diagnostika tizimini loyihalashda juda muhim, balki rivojlanayotgan pedagogik faoliyatni loyihalashda ham qo’llaniladi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ushbu maqolada o’qituvchi kasbiy faoliyatininf diagnostic tizimida ko’rsatilgan komponentlardan foydalangan holda undagi mashg‘ulotlar, individual o‘qituvchilar tomonidan, o‘quv jarayonida aniq hal etilishi kerak bo‘lgan muammolar mavjud bo‘lsa va ushbu muammoni hal qilishning prognoz qilingan natijalarini aks ettiradigan bo‘lsa samarali natija berishi shubhasizdir. Shuningdek, o‘quv jarayonining samaradorligi aniqlangan muammolarni hal qilish uchun o‘quv kurslarini mustaqil diagnostika tadbirlarini tashkil etish bilan ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-3775 son Qarori.
2. Choriyeva D.A. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarini pedagogik diagnostikaga tayyorgarligini takomillashtirish. 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi yo‘nalishi bo‘yicha falsafa doktori (RhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.ya. T. TDPU. 2021.
3. Kadyrova Kh.N. Formation of diagnostic culture of future primary class teachers using educational platforms Vol. 3 No. 11 (2023): Volume03 Issue11 Published:2023-11-01 http://theusajournals.com/index.php/ijp/article/view/1872. 265 Jan St, Manhattan, IL 60442, USA 54-59 p.p
4. Kadyrova Kh.N. Theoretical-comparative analysis of the concept of “innovation”electron. EUROPEAN INTERNATIONAL JOURNAL OF PEDAGOGICS VOLUME ISSUE. VOLUME ISSUE PAGES: 54-59 DOI: https://eipublication.com/index.php/eijp/article/view/1250 https://doi.org/10.55640/eijp-03-11-06. Friedrich-Franz-Straße, Berlin, Germany. 20-26 p.p
5. Xalq so‘zi gazetasi 25.01.2020/ №19 (7521) 2-b.
6. Аванесов В.С. Определение, предмет и основные функции педагогической диагностики /Педагогическая диагностика. – 2002. № 1. 41-с.
7. Кикоин Е.И. Формирование диагностических умений учителя начальных классов в процессе изучения психолого-педагогических дисциплин. автореф. дис. канд. пед. наук: 13.00.01.М.1992. 16 с.
8. Янгирова В.М. Подготовка учителя к диагностике развития младшего школьника: дис. д-ра пед. наук: 13.00.08. М., 2000.

O‘RGANISHGA UNDOVCHI ISH MUHITIDA XATOLARGA YONDASHISH MASALASI

XASANOVA OZODAXON QURVONALI QIZI
Farg‘ona davlat universiteti doktoranti Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD)

Annotatsiya: Maqolada o‘rganishga undovchi ish muhiti uchun qanday aspektlar muhim ekanligi, xatolarga qanday yondashish lozimligi kabi savollar tadqiqqa tortilgan. Til o‘rganuvchilar bilan o‘qituvchi o‘rtasidagi munosbatlar va xatolarga konstruktiv yondashish yo‘llari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: o‘rganishga undovchi ish muhiti, xato, xatoga yondashish, o‘qituvchi, til o‘rganuvchi.

KIRISH

Chet til o‘rganishni boshlashning dastlabki darslarida til o‘rganuvchilarga o‘zi haqida gapirib berishni taklif qilish, bunda o‘zining o‘rganish usullarini haqida ham gapirishga undash, bu orqali til o‘rganuvchilarning qanday usulda yaxshiroq, tezroq o‘rganishlari haqidagi ma’lumotni shakllantirib olish mumkin. Bunda ular o‘zlarining til o‘rganishdan qanday perspektivalar kutayotganliklarini guruhdoshlari bilan muhokama qilishlari ham yaxshi samara beradi. Bunday topshiriqlar yordamida sinfda o‘rganishga undovchi ish muhitini yaratishga erishiladi.

ASOSIY QISM

Ushbu maqolada o‘rganishga undovchi ish muhiti uchun qanday aspektlar muhim ekanligiga to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Bular o‘rganish guruhidagi ijtimoiy va guruh dinamikasi hisobladi. Bundan tashqari o‘qituvchi va til o‘rganuvchilar o‘rtasidagi munosabatlar, xatolarga qanday yondashish ham shu aspektlar qatoriga kiradi. O‘qituvchi har bir guruhga mos tushadigan yondashuvni topa bilishi lozim.

Guruh ruhini shakllanishi o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi, buning uchun til o‘rganuvchilar bir-birlarini yaxshi tanib olishlari kerak bo‘ladi.

Guruhda birlik hissini shakllantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish yaxshi samara beradi.

1. Darsni "MORGENKREIS" (TONGGI DOIRA) bilan boshlash, bunda hamma til o‘rganuvchilar doira bo‘lib turishadi va bir-birlariga kecha yoki hafta oxirida nima qilgani to‘g‘risida, hozir o‘zini qanday his qilayotgani to‘g‘risida va hakozolar haqida gapirib, o‘zaro muloqot qilishadi.

2. Birgalikda kuylash, o‘ynash yoki raqs tushish. Bular harakatlanish, o‘rin almashish va o‘zini birgalikda his qilishga yordam beradi.

3. Loyihaga yo‘naltirilgan o‘rganish til o‘rganuvchilarni birgalikda bir narsa ustida ishlashga undaydi. Ular materiallarini birgalikda rejalashtirishadi, tayyorlashadi va taqdim qilishadi. Bu holat barcha ishtirokchilarni bir-biriga bog‘lashga xizmat qiladi.

4. O‘yinlarda yoki mashq va topshiriqlarni bajarishda juftlikda yoki kichik guruhlarda musobaqalashish. Bu ham guruh ruhini, til o‘rganuvchilarda birlik hissini rivojlantirish uchun zarur hisoblanadi.

5. Birgalikda o‘rganish jarayoni va dars uchun qoidalar o‘ylab chiqish.

Ularni yozma ravishda yozib, mustahkamlash. Bunday qoidalar guruh a'zolariga o‘zaro ishonch hissini beradi.

6. Til o‘rganuvchilarning o‘tirgan joylarini muntazam almashtirib borish. Bu orqali yonidagi turli sheriklar bilan ishlash usullarini sinab ko‘rish mumkin. Juftliklarni turli usullar bilan yasash mumkin. Masalan, tug‘ilgan yillariga qarab, qiziqishlariga qarab, alfavit tarkibida, sanash orqali va hakozo. Shunda

tasodifiy juftliklar shakllanadi. Qaysidir bir sherigi bilan samarasiz ishlagan til o‘rganuvchi boshqasi bilan eng yaxshi natijani ham ko‘rsatishi mumkin.

Birgalikdagi va almashinuv xarakteriga ega bo‘lgan o‘rganish faoliyatini olib borish guruh ruhini kuchaytirish uchun eng mos tushadigan yondashuv hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda uning yordamida chet tilida gapirish mashq qilinadi. Bu ayniqsa bolalarga ham juda mos keladi.

Chet til darslaridagi o‘rganishga undaydigan ish muhitini yaratish uchun xizmat qiladigan o‘zaro munosabatlar faqat til o‘rganuvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat bilan cheklanib qolmaydi. O‘qituvchi va til o‘rganuvchilar o‘rtasidagi munosabat ham katta rol o‘ynaydi.



Rasm № 1. O‘qituvchi va til o‘rganuvchi munosabatlari

O‘qituvchi til o‘rganuvchilarning ishonchini qozonishga harakat qilishi kerak. Bu orqali u o‘z-o‘ziga ishonch hissini ham shakllantiradi. Agar o‘qituvchi darsda til o‘rganuvchi qo‘rqayotganini sezsa, uni jiddiy qabul qilishi va u o‘zini dadil his qilishiga erishishi lozim. Bundan tashqari til o‘rganuvchilar xatoga yo‘l qo‘yganida o‘zaro bir-birlarini ustidan kulmayotganliklariga ham e’tibor berib borishi kerak. Bu orqali til o‘rganuvchilarda qo‘rquv hissini kamaytirishga erishiladi va natijada hamma til o‘rganuvchilar yanada faolroq darsda qatnasha boshlaydilar. Bundan tashqari rohat beruvchi, qo‘rquvsiz muhitni yaratish ham o‘qituvchining vazifasi hisoblanadi. O‘qituvchi o‘rganishga impuls beruvchi, bilimlarni talab qiluvchi, o‘rni kelganda yordam beruvchi shaxs sifatida til o‘rganuvchilar ko‘z o‘ngida gavdalanishi kerak.

Bu maqsadga erishish uchun muhim talablardan biri o‘qituvchining dars o‘tishdan quvonch hissini tuyishi hamda til o‘rganuvchilari bilan samimiy, ochiq, do‘stona va o‘zaro hurmatda munosabatda bo‘lishi hisoblanadi. Bundan tashqari o‘qituvchi o‘z til o‘rganuvchilarining qiziqishlariga va shaxsiy rivojlanishiga e’tibor bilan qarashi va o‘z navbatida buni ularga ko‘rsatib turishi lozim. Til o‘rganuvchilar o‘qituvchi ularga xurmat bilan munosabatda bo‘layotganini sezib turishlari kerak.

Insonning ichki tuyg‘ulari odatda uning tana harakatlarida ko‘zga tashlanadi. O‘qituvchining o‘zini qanday tutayotgani, darsga qanday munosabatda ekanligi til o‘rganuvchilar tomonidan tez payqab olinadi. Shunga ko‘ra ularda ham darsga bo‘lgan munosabat o‘zgarishi mumkin. DLL kitobida keltirilgan quyidagi rasmlar orqali buni yaqqol ko‘rib olishimiz mumkin [1].

Rasm № 2. O‘qituvchining o‘z darsiga munosabati

Ushbu rasmda chet til o‘qituvchisining o‘z darsiga ijobiy munosabatda bo‘layotganinini va buning til o‘rganuvchilarga ham ijobiy ta’sir etayotganini ko‘rishimiz mumkin.

1 S.Ballweg und andere. Deutsch lehren lernen. Wie lernt man die Fremdsprache Deutsch. 2013. Munchen. 200 S.

Rasm № 3. O‘qituvchining o‘z darsiga tushkun munosabati

Lekin hamma o‘qituvchilar ham o‘z darslariga birdek ijobiy munosabatda bo‘lavermaydilar. Bu holat har doim takrorlanib turmasada, ba’zan o‘qituvchining kayfiyatiga qarab o‘zgarib turishi mumkin. O‘qituvchining tushkun kayfiyatda bo‘lishi esa, albatta til o‘rganuvchilarning ham o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini tushib ketishiga olib keladi.

Quyida esa chet til o‘qituvchisining o‘z til o‘rganuvchilariga samimiy, do‘stona munosabatda bo‘lishi va bunga nisbatan til o‘rganuvchilardan qanday munosabat qaytarilishini ko‘rishimiz mumkin. S.Ballveg va bir qator mualliflar o‘zlarining DLL2 kitoblarida buni quyidagicha tasvirlashadi[2] .

Rasm № 4. O‘qituvchining o‘z til o‘rganuvchisiga do‘stona munosabati

O‘qituvchilar o‘z darslariga va til o‘rganuvchilariga bo‘lgan munosabatiga ko‘ra avtoritar turga ham mansub bo‘lishi mumkin. Bunday turdagi o‘qituvchilar dars jarayonida qat’iy tartib-qoidaga amal qilinishini talab qilishadi. Bu usul sinfdagi tartib-intizomni saqlab turishda yaxshi samara beradi. Lekin til o‘rganuvchilar qo‘rquv va bosim ostida til o‘rganganlari uchun samaradorlik yuqori bo‘lmaydi. Ularning javoblari to‘liq yoddan aytib berishga asoslanadi. Uni quyidagi rasm orqali ko‘rishimiz mumkin:

Rasm № 5. O‘qituvchining darsdagi avtoritar munosabati

Rasmlardan ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchining xatti-harakati bevosita til o‘rganuvchiga ta'sir etar ekan. Agar o‘qituvchi darsini qiziqish bilan olib borsa, til o‘rganuvchi ham o‘z navbatida qiziqish bilan javob qaytaradi va albatta aksincha. Bu holat yuz foiz bo‘lmasa ham, katta foizlarda doimo shundayligini ko‘plab o‘qituvchilar o‘z faoliyatidan ham biladilar.

Albatta bir-biriga bo‘lgan hurmat faqat tana harakatlari yordamida ifodalanmaydi. Dars til o‘rganuvchilarning faqat kognitiv emas, balki hissiy hamda ijtimoiy kompetensiyalarini ham rivojlantirishi kerak. Buning uchun esa o‘qituvchining o‘zi til o‘rganuvchilariga na'muna bo‘lishi kerak. Uning qarorlari hamisha odil bo‘lishi muhim. Ayniqsa baholash, maqtash va jazolash holatlarida. Hamma til o‘rganuvchilarga birdek munosabatda bo‘lish talab etiladi. Kimki o‘z til o‘rganuvchilari bilan halol munosabatda bo‘lsa, shunda ulardan hurmat va e’tibor kutishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘rganishga undaydigan ish muhitini

2 S.Ballweg und andere. Deutsch lehren lernen. Wie lernt man die Fremdsprache Deutsch. 2013. Munchen. 200 S.

yaratish uchun til o‘rganuvchilar yo‘l qo‘ygan xatolar bilan konstruktiv ishlash talab etiladi. Xatoga yo‘l qo‘yish salbiy holat sifatida baholanmasligi lozim. Xatoga yo‘l qo‘yishga o‘rganishni yana davom ettirish deb yondashgan maq'ul. Shu sababli til o‘rganuvchi xatoga yo‘l qo‘yganida uning xatosiga konstruktiv qayta xabar berilishi maqsadga muvofiq. Konstruktiv qayta xabar berish deganda, til o‘rganuvchiga qayerda xatoga yo‘l qo‘yganini tushuntirish va buni u to‘g‘ri anglaganini bilish jarayoni tushuniladi. Bunday tushuntirishdan so‘ng til o‘rganuvchi xatosini o‘zi to‘g‘rilay olishi kerak. Individual va konstruktiv berilgan fidbek til o‘rganuvchini o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bunday fidbekda til o‘rganuvchiga uning o‘sayotganligi ko‘rsatilishi va xatoni to‘g‘rilash yo‘llari ko‘rsatib o‘tilishi lozim. Fidbek ijobiy ruhda yozilishi yoki aytilishi katta ahamiyatga ega. Bu orqali til o‘rganuvchilarda qo‘rquv hissi kamayadi va muloqotga tayyorlik darajasi oshishiga erishiladi.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni ta’kidlab o‘tmoqchimiz, guruhdagi o‘rganishga undovchi o‘rganish muhitini shakllantirish o‘rganishning eng muhim talablaridan biridir. Uning natijasida til o‘rganuvchilar ham ochiq, samimiy bo‘lishadi va yangiliklarni o‘rganishga, sinab ko‘rishga tayyor bo‘lishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H. Kordes. „Aus Fehlern lernen.“ In: Henrici et al. (Hrsg.), Fremdsprachen Lehren und Lernen. Themenschwerpunkt: Fehleranalyse und Fehlerkorrektur. S.15-34. 15.S.
2. H.Wulf. Communicative teacher talk: Vorschläge zu einer effektiven Unterrichtssprache. – Hueber, 2001. S.5.
3. J.Jalolov. Chet til o‘qitish metodikasi. T.: -O‘qituvchi, 2012. 85-b.
4. J.Truscott. What's Wrong with Oral Grammar Correction. The Canadian Modern Language Review 55, 1999. 437-456-p.;
5. K.Kleppin, F.Königs. „Grundelemente der mündlichen Fehlerkorrektur – Lernerurteile im (interkulturellen) Vergleich.“ In: Henrici et al. (Hrsg.), Fremdsprachen Lehren und Lernen. Themenschwerpunkt: Fehleranalyse und Fehlerkorrektur. 1993. S.76-90.
6. K.Kleppin. Fehler und Fehlerkorrektur. Fernstudieneinheit 19. München. Langenscheidt. 1998. S. 41
7. L.Ortega. Language Acquisition Research for Language Teaching: Apply even if with Caution! Keynote address, präsentiert auf der Konferenz der Österreichischen Gesellschaft für Sprachendidaktik, Innsbruck, 23.-25. September 2010.
8. S. Ballweg und andere. Deutsch lehren lernen. Wie lernt man die Fremdsprache Deutsch. 2013. Munchen. 200 S.

FIZIOLOGIYA VA INSON SALOMATLIGI DARSLARIDA QR KOD O'QUV DASTURIDAN FOYDALANIB MASHG'ULOT O'TKAZISHNING AFZALLIKLARI

ILYASOV AZIZ SAIDMURATOVICH
Biologiya fanlari doktori, professor
RABBIMOVA MOHICHEHRA SOYIBJON QIZI
Tayanch doktorant

Annotatsiya: QR-kod tezkor javob kodlari bo'lib ikki o'lchovli shtrix kodlar bo'lib, ular ma'lumotni kodlash va dekodlash uchun ishlatiladi. Ushbu kodlar kerakli ma'lumotni kamera va QR o'qish dasturi bilan jihozlangan mobil qurilma yordamida shtrix-kodni skanerlash orqali dekodlash mumkin. Ma'lumki, QR kodlari juda ham ko'p qirrali bo'lsa-da, ularning ta'limda qo'llanilishi hali ham boshlang'ich bosqichda. Ushbu tadqiqot ishi bo'lajak biologiya fani o'qituvchilari, laborantlar "Fiziologiya va inson salomatligi" fanidan tayyorlagan o'quv materiallarida QR kodlaridan foydalanish haqidagi fikrlarini o'rganishga qaratilgan. Ushbu dastur o'quv jarayonida qo'llashning asosiy afzalligi o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzularga qiziqishini sezilarli darajada oshirdi.

Kalit so'zlar: QR kod, konteks, videorolik, treyler, vizual, kognitiv faollik, model.

Аннотатция: QR-коды — это коды быстрого ответа, двумерные штрих-коды, которые используются для кодирования и декодирования информации. Эти коды можно расшифровать путем сканирования штрих-кода с помощью мобильного устройства, оснащенного камерой и программным обеспечением для считывания QR-кодов, чтобы предоставить необходимую информацию. Известно, что хотя QR-коды очень универсальны, их использование в образовании все еще находится в зачаточном состоянии. Данная исследовательская работа направлена на изучение мнений будущих учителей биологии, лаборантов об использовании QR-кодов в учебных материалах, подготовленных по предмету «Физиология и здоровье человека». Основным преимуществом использования данной программы в учебном процессе является то, что она значительно повысила интерес учащихся к изучаемым темам.

Ключевые слова: QR-код, контекст, видео, трейлер, трехмерный инструмент, визуал, познавательная деятельность, модель

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi kunda nafaqat boshqa sohalarda, balki ta'limda ham raqamli texnologiyalardan samarali foydalanib kelinmoqda. Axborot texnologiyalari insonlar o'rtasidagi muloqotni ta'minlaydi vas hu bilan bir qatorda axborotning hech qanday cheklovlarsiz uzatilishini ta'minlab beradi. Internet tarmoqlari va mobil qurilmalarning ijtimoiy hayotga kirib kelishi texnologiya taraqqiyotini yanada tezlashtirdi. Raqamli texnologiya vositalariga kameralar, smartfonlar, planshetlar va boshqa mobil qurilmalar kiradi va ular o'zgaruvchan global dunyoda odamlar hayotini ma'lum darajada o'zgartirdi.

Axborot texnologiyalar olamida smartfonlar rivojlanishi bilan parallel ravishda QR kodlaridan foydalanish ortdi. QR kodlari endi hayotning ko'plab sohalarida paydo bo'ldi va eng yaxshi yordamchi vazifasini bajarmoqda. Eng ko'p ishlatiladigan va eng yuqori sig'imli QR kodlari 2D shtrix kodlari ma'lumotni gorizontal va vertikal ravishda saqlaydi. Shuning uchun ular ma'lumotni gorizontal ravishda kodlaydigan chiziqli shtrix-kodlarga qaraganda ko'proq imkoniyatlarga egadir [1].

QR kodlaridan foydalanishda [2] o'quv muhitida samaradorlikni yanada oshiradi, chunki ular talabalarning qidiruv tizimlarida vaqtni behuda o'tkazishiga va ahamiyatsiz ma'lumotlarga duchor bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Bosma materiallardagi QR

kodlari yordamida o‘qituvchilar talabalarga mavzuga oid ko‘proq manbalardan foydalanish imkoniyatini beradi. Bu ham qog‘ozni isrof qilishning oldini oladi va talabalarga ko‘proq manbalardan foydalanishga imkon beradi. QR kodlari mobil ta'limni qo‘llab-quvvatlaydi va o‘quv jarayonini yanada boyitadi.

Keyingi yillarda ta'lim va tarbiya jarayonida ham QR kodlaridan foydalanishga qiziqish ortib bormoqda. [4] QR kodlarini ta'lim faoliyatida ikki xil usulda qo‘llash mumkin: Birinchidan, QR kodlar talabaga onlayn ilovalarga kirishda yordam beradi, ikkinchidan, QR kodlar skanerdan o‘tkazilgandan so‘ng talabaga internetga ulanishga hojat qoldirmasdan kerakli ma’lumotga ega bo‘lishi mumkin.

Bosma materiallardagi QR kodlari yordamida o‘qituvchilar talabalarga mavzuga oid ko‘proq manbalardan foydalanish imkoniyatini beradi. Bu ham qog‘ozni isrof qilishning oldini oladi va talabalarga ko‘proq manbalardan foydalanishga yordam beradi. QR kodlari mobil ta'limni qo‘llab-quvvatlaydi va o‘quv jarayonini yanada boyitadi, Shuningdek, QR kodlari talabalarning tushunishda qiynaladigan va noto‘g‘ri tasavvurga ega b‘olgan mavzularga qiziqishini oshirishi mumkin [7].

Mobil qurilmalarning kundalik hayotda tez tarqalishini hisobga olsak, bosma materiallar (masalan, elektron kitoblar) o‘rnini bosuvchi resurslar va bosma o‘quv resurslaridan onlayn ma'lumotlar bilan birgalikda foydalanishga ehtiyoj ko’payganini ko‘ramiz. Boshqacha aytganda, bosma resurslarning to‘liq elektron resurslar bilan to’liq almashtirib bo’lmaydi, balki bosma materiallarni onlayn axborot resurslari bilan almashtirish emas, balki ulardan birgalikda foydalanish talabalarning bilim olish imkoniyatini yanada oshiradi [6].

QR kodlari ta'limda keng foydalanish salohiyatiga ega bo‘lsa-da, Turkiya fan ta'limida QR kodlaridan foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar yaqinda boshlangan [3,5]. Biroq, ta'limda QR kodlaridan foydalanish bo‘yicha keyingi tadqiqotlarga ehtiyoj sezilarli ko‘zga tashlanayapti va bu borada tadqiqotlar olib borilyapti.

Ta'limda innovatsion amaliyotlar (QR kod) talabalarning kelajakdagi hayoti va faoliyatida kerak bo‘ladigan ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Biroq, oliy ta'limning biologiya va pedagogika yo‘nalishi talabalarini odam anatomiyasi va fiziologiyasi, rivojlanish biologiyasi, fiziologiya va inson salomatligi fanidan o‘qitishda QR kod o‘qitish vositasidan foydalanib dars o‘tish to‘liq o‘rganilmagan, Shu sababli QR kodlarini oliy ta’limga kiritish va bor ma'lumotlarga asoslanib fanda qo‘llash lozim.

Ishning maqsadi: “Fiziologiya va inson salomatligi” darslarida oliy ta’lim muassasalarining pedagogika ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun rivojlanish biologiyasi va anatomiya va fiziologiya fanlarida QR kodli ta’lim vositasidan foydalanib o’qitishni afzalliklarini tahlil qilish.

Materiallar va tadqiqot usullari: O‘quv guruhi 2023-2024-o‘quv yilining bahorgi semestrda “Fiziologiya va inson salomatligi” fanida qatnashgan va QR kodlaridan akademik foydalanishni tanlagan 5 ta guruhga bo‘lingan jami 125 ta (98 nafar ayol, 27 nafar erkak) talabalar ishtirok etishdi. Quyidagi jadvalda darsning turli shakllarida QR kod yaratish tajribasi loyihalashtirilgan.

Ushbu vaziyatni o‘rganishda ma’lumotlar yarim tuzilgan suhbatlar orqali to‘plandi. Ma’lumotlar kontent tahlili usuli bilan tahlil qilindi. Tadqiqot davomida fan o‘qituvchilari va talabalar o‘zlari QR-kodlarni tayyorlagan o‘quv materiallarida, o‘quv jarayonida qo‘llash istiqbollari, uning afzalliklari, kamchiliklari, QR kodlarining tayyorlangan materiallarga ta’siri haqida ma’lumot to’plandi va tahlil

qilindi.

Navoiy innovatsiyalar universitetida biz 2024-yil iyun oyida besh xil QR kod texnologiyadan foydalangan holda tajribalarini o‘tkazdik. Bizning tadqiqot uslublarimiz so‘rovlar va kuzatishlarni o‘z ichiga oldi. Tajribada 1-bosqich talabalarining 5 ta guruhida so‘rov o‘tkazdik.

QR kod tajriba loyihasi

guruhlar	QR kod yaratish	QR kod uchun jihozlar	dars turi	**talabalar soni**
PP-807-23S	hamkorlikda ishlash	mobil telefonlar planshet	amaliyot	**20**
PP-808-23S	mustaqil uyda	shaxsiy kompyuter mobil telefonlar	mustaqil talim	**26**
PP-809-23S	turli muhitda	universitetga tegishli qurilmalar, mobil telefonlar	laboratoriya	**26**
PP-810-23S PP-811-23S	jismoniy faollikda	planshet, mobil telefonlar	to‘garak	**53**
Jami talabalar soni				**125**

Shaxsiy tekshirish natijalari: Biologiya ta’lim yo‘nalishining 1-bosqich talabalari (PP-807-23S) fiziologiya va inson salomatligi amaliy darslarida “Xazinani tezkor top” o‘yinini tashkil qildik. Darsning maqsadi talabalarning ma'lumot qidirish ko‘nikmalarini oshirish va an'anaviy dars kuniga bir oz o‘zgartirish kiritishdan iborat edi. QR kod faoliyati talabalar o‘rtasida hamkorlik va raqobat bo‘lishi uchun rejalashtirilgan edi. “Fiziologiya va inson salomatligi fanidan “Sezgi organlari faoliyatini o’rganish” mavzusi bo‘yicha QR kodli stend na’munasi (1-rasmda) ko‘rsatildi va topshiriq berildi. Bu topshiriqda mavzu bo’yicha axborotni izlash vazifasi bo‘lib, talabalar kompyuterda xazina izlaganday mavzu bo’yicha savollarga javoblarni qidirib topshiriqni bajardilar va mazkur guruh kichik guruhlarga bo‘linib vazifani bajardilar. Eng ko‘p to‘g‘ri javob bergan jamoa ishtirokchilari olqishlar bilan taqdirlandi. Texnik nosozliklar yuzaga kelgan bo‘lsa-da, talabalar juda ishtiyoqmand bo‘lishdi: mobil telefonning kamerasi va QR kodni o‘quvchi har doim ham kutilganidek ishlamadi.

Talabalarning fikr-mulohazalari. Darsda faoliyat asosan o‘qituvchi tomonidan guruh sardori va yordamchisi yordamida rejalashtirildi. Shu sababli darsni tashkillashtirgan i

kki talaba faoliyat haqida juda kam fikr bildirishdi. Ular o‘z guruhi bilan ko‘proq ma'lumot olish kerakligini aytdi, chunki talabalar qidiruvda so‘zlari bilan bog‘liq muammolarga duch kelishdi.

1-bosqich talabalari (PP-808-23S) biz bu guruh talabalari uchun o‘z-o‘zini baholash jarayonida yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi qog‘ozga asoslangan treyler (kichik videorolik) mashg‘ulotini tashkil etdik. Faoliyat shuningdek, talabalar tomonidan yaratilgan kontent o‘rtasidagi hamkorlikni o‘z ichiga oladi.

Darsning umumiy maqsadi “Endokrin va hazm bezlarini tuzilishi va faoliyati” mavzusini o‘rgatish edi. Guruhning ikki talabasi yangi o‘qitish usullarini sinab ko‘rishga intilardi.

QR faoliyatida talabalar qalqonsimon bez, qalqonoldi bezi, gipofiz, epifiz, ayirsimon bez va oshqozonosti bezi, jigar mavzularini o‘rganish bo‘yicha guruh ishi va tadqiqot topshirig‘ini bajarishda “Endokrin va hazm bezlarini tuzilishi va faoliyati” mavzusida QR kodli 3D albomdan foydalanishdi (2-rasm). Har bir kichik guruh o‘zlarining asosiy topilmalari haqida veb-sahifa, savollar bilan ish varag‘i va guruhning veb-sahifasiga havolani taqdim etgan QR kodini (tarkibida ma’lumot bo’lishi kerak) tayyorladilar. O‘qituvchi tomonidan tayyorlangan ish varaqlari guruh bo‘ylab tarqatildi va talabalar savollarga javob berishdi. Agar talabalar to‘g‘ri javobni bilmasalar, ular QR kodini skanerlab, veb-sahifada javob topishga harakat qilishlari mumkin. Mobil telefonlar orqali veb-sahifaga kirishda ba'zi texnik muammolar yuzaga kelgan bo‘lsa ham, talabalar juda g‘ayratli, qiziqish bilan darsga ishtirok edilar.

Talabalarning fikr-mulohazalar. Tajribada talabalar uyda tayyorlanganlari uchun juda ko‘p mehnat talab qilgan. O‘qituvchining aytishicha, animatsiya kabi ko‘plab multimedia resurslar, afsuski, barcha smartfonlarda ham ishlamaydi. Talabalar darslik nashriyotlariga ishlaydigan multimedia resurslarini topib, ularni QR kodli darsliklarga joylashtirishni taklif qildi. Shuningdek, QR faoliyati kattaroq displeyga ega bo‘lgan mobil qurilmalar bilan yaxshiroq ishlaydi deb hisobladi. Biroq, talabalarning aytishicha, ularga bu usulda ishlash juda yoqqanligi va ularning motivatsiyasi yuqori bo‘lgan. Shunga qaramay, o‘qituvchi QR kodlari yordamida talabalar o‘zlari xohlagan vaqtda ilgari o‘qitiladigan mavzularga qaytishlari mumkinligidan juda xursand bo‘ldi, bu esa chuqurroq o‘rganishga yordam beradi deb hisobladi. Biz o‘qituvchilar QR kodlaridan foydalanishni davom ettirmoqchi va ta'lim kontekstida QR kodlaridan foydalanishning yangi usullarini topishga va ishlab chiqishga harakat qilmoqdamiz.

1-rasm. Laboratoriya mashg‘ulotida “Sezgi organlari faoliyatini o‘rganish” mavzusida QR kodli 3D stendi

Pedagogika psixologiya ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabalari (PP-809-23S) uchun real muhitni yaratish bo‘yicha laboratoriya mashg‘ulot o‘tkazdik. Na’muna sifatida laboratoriya mashg‘uloti uchun mo‘ljallangan hazm qilish organlari anatomiyasini o‘rganish bo‘yicha QR kodli 3D stenddan foydalanishdi (3-rasm).

Turk olimlarining fikricha Canbazoÿlu Bilici, S., Tekin, N. va Karahan, E. (2016), Yilmaz, B. (2017) QR kodlar qo‘llash sohalari: laboratoriya tajribalari, amaliy mashg‘ulot videolari, davriy jadval podkastlari (elementlarni tavsiflovchi) fanni o‘zlashtirish samarali natijalar olish mumkin deb hisoblashadi. Shu bilan birga QR kodlari talabalarning tushunishda qiynaladigan va noto‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lgan real tasvirlarga qiziqishini oshirishi mumkin. QR faoliyatining asosiy g‘oyasi talabalarning bir xil mavzuda ikkita turli muhitlarda rejalashtirishi edi: biri an'anaviy usullardan foydalangan holda o‘quv xonasida, ikkinchisi esa laboratoriya xonasida.

Savollarining mazmuni laboratoriya va o‘quv xonasida bir xil edi. Maqsad, talabalar sinfdan ko‘ra tajriba xonasida ko‘proq ilhom

olishlarini o‘rganish edi. QR kod bo‘yicha darsni o‘zlashtirish ikkinchi darajada qolganga o‘xshardi. Ba'zi talabalar uchun laboratoriya xonasi qiziqarli bo‘lganligi QR ma’lumotlariga e’tibor qilishmadi; ba'zilari butunlay boshqa masalalarni muhokama qilishardi va hokazo. Kodni o‘qish qismidan ko‘ra real muhit talabalarga qiziqarli bo‘lib tuyuldi. Ba'zi texnik muammolar ham bor edi: telefon kamerasi va QR-kodni o‘qish moslamasi har doim ham kutilganidek ishlamagani uchun bir muddat tartibsizlikni keltirib chiqardi.



2-rasm. “Ovqat hazm qilish organlari” QR kodli stend.

Talabalarning fikr-mulohazalari. O‘qituvchi faoliyatini oldindan rejalashtirish muhimligini aytdi, lekin talabalar ularni mashg‘ulot davomida o’qituvchi tomonidan rag‘batlantirilmaganligini takidlashdi, chunki mashg‘ulot laboratoriyada o‘tkazilgan edi. Biz yangilik effektini ham ko‘rdik. Laboratoriyada mashg‘ulotlar qiziqarli bo‘lganligi uchun QR kod uncha qiziqish uyg‘otmadi, lekin ba’zi bir real bajarib bo‘lmaydigan mashg‘ulotlarni QR koddan skanerlab bajarishni o‘rgangan o‘quv xonasidagi talabalar mashg‘ulot to‘g‘risida ko‘proq ma’lumot olganliklarini ta’kidlashdi.



3-rasm. “Ovqat hazm qilish anatomiyasini o’rganish” uchun QR kodli albom

Navoiy innovatsiyalar universiteti pedagogika psixologiya ta’lim yo‘nalishi “Fiziologiya va inson salomatligi” to‘garak darsida 4 va 5 (PP-810-23S, PP-811-23S) guruhlari bilan QR faoliyatini tashkil qildik. Bunda maqsad ovqat hazm qilish organlari tizimida jismoniy mashqlarning o‘rnini o‘rganish uchun mashqlar ketma-ketligini QR kodga joylashtirdik va shu asnoda qanday mashq qaysi a’zoning yaxshi rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishini o‘rgandik. Ushbu guruh talabalari masofaviy ta'lim va mustaqil ta'limning yangi usullarini qidirdi va QR kodlarining imkoniyatlarini sinab ko‘rishga ishtiyoq bilan qarashdi. Ushbu fikrni qo’llab quvvatlab Aktash, C. va Chayci, B. (2013) QR kodlaridan foydalanishda o‘quv muhitida samaradorlik oshishini, talabalarning qidiruv tizimlarida vaqtni behuda o‘tkazishiga va ahamiyatsiz ma'lumotlarga duchor bo‘lishiga yo‘l qo‘ymasligini ta’kidlashgan. O‘qituvchi to‘garakdagi harakatlarni to‘g‘ri bajarishni ko‘rsatuvchi videoroliklarni media assistent yordamida rejalashtirdi va tayyorladi. Ushbu videolar YouTube ma’lumotlari orqali yaratildi va ushbu YouTube havolasi QR kodiga o‘rnatilgan. Ushbu QR kodlarni sinab ko‘rish uchun besh nafar talaba tanlab olindi.

Tanlangan talabalar QR kodlarini mobil qurilmalaridagi QR kodni o‘qish moslamasi yordamida skanerlashdi va mashq videolarini tomosha qilishdi. Videoroliklarni tomosha qilgandan so‘ng talabalar harakatlarni

takrorlab bajarib borishdi. Besh nafar talaba jismoniy mashqlarni o‘zlari bajarishdi, ikki nafar talaba faoliyatni hujjatlashtirishdi, qolgan ikki nafari esa tadqiqotchi sifatida videoga olishdi. QR kodlari to‘garak xonasida qoldirildi, bu esa talabalarga keyinchalik ulardan boshqa guruh talabalari foydalanish imkonini beradi. Bu safar sinov davomida hech qanday texnik muammo yuzaga kelmadi. Bu guruhda talabalar QR kodlarini skanerlash va videolarni tomosha qilish uchun planshet kompyuterlaridan foydalandilar. Planshet kompyuterining displeyi mobil telefonnikidan kattaroq bo’lganligi uchun videolarni tomosha qilishni osonlashtirdi.

Shunday qilib, QR kodlaridan ma’lum bir fan doirasida foydalanilsa o‘quv jarayonini yanada rang-barang qiladi. Xuddi shunday, dars mashg‘ulotida o‘yinlardan QR kodlar orqali foydalanish talabalarda qiziqish uyg‘otadi. Shu sababli, ushbu tadqiqot ishtirokchilari ta’kidlaganidek, QR kodlaridan o’qituvchilar laboratoriyalarda, sinf doskalarida, darslarni baholashda, amaliy mashg‘ulotlarda topshiriqlarni bajarishda, o‘quv jarayonini boyitish va qo‘llab-quvvatlash uchun foydalanishlari mumkin. Ushbu texnologiyadan o‘qituvchilar va talabalar tomonidan o‘quv va o‘qitish jarayonida qanday foydalanish mumkinligi bo‘yicha qo‘shimcha tavsiyalar berish uchun tadqiqotlar o‘tkazilishi muhimdir. O‘quv xonasi albom, stend, maket, mulyajlarda ilovalar orqali QR kodlar yordamida bilim olish talabalarning dars samaradorligini oshishiga sabab bo‘ladi.

Tajribalarimiz davomida nafaqat biologiya va psixologiya fani o’qituvchilari, balki boshqa fan o‘qituvchilarini ta’limda QR kodlaridan foydalanishga biroz shubha bilan qarashlarini aniqladik. Biroq, ta'limda QR kodlarini sinab ko‘rgan o‘qituvchilar buni sinab ko‘rishga arziydigan tajriba deb aytishdi. Biz o‘qituvchilarning asosiy fikr-mulohazalari QR-faoliyatini rejalashtirish, ayniqsa QR kodlari va ulardan ta'lim sharoitida foydalanish usullari bilan tanish bo‘lmaganda qiyin ish deb hisoblashlarini aniqladik. Biz talabalarni ta'limdagi QR kodlari haqidagi umumiy tasavvurlari ijobiy ekanligini tadqiqotlarimiz davomida aniqladik. Agar QR-kodlarni, ayniqsa, QR faoliyati yaxshi rejalashtirilgan va tashkil etilgan va texnologiya yaxshi ishlayotgan bo‘lsa, rag‘batlantiruvchi bo‘lishini muhim ekanligi o’z isbotini topdi.

Xulosa. Tadqiqotimizda QR kodlari turli kontekstlarda (to‘garak mashg‘ulotlarda , amaliyot, laboratoriya xonasida va mustaqil holda uyda) o‘rganish mumkinligi aniqlandi. QR kodlari yordamida o‘rganish darsdan tashqarida ham kengaytirilishi mumkinligi va o‘quv materiallari endi darsliklar bilan cheklanib qolmasligi izohlandi. Shu bilan birga o’qituvchilar uchun QR kodlaridan ta'lim kontekstida qanday foydalanish kerakligi va raqamli ta'limni rivojlantirish bo‘yicha misollar va maslahatlarni taqdim etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akin T. QR-kod qo‘llab-quvvatlanadigan o‘quv materialining muvaffaqiyatga erishish va saqlashga ta'siri. Hacettepe universiteti. Kompyuter va o‘qitish texnologiyalari ta’limi kafedrasi. Malayziya onlayn ta'lim texnologiyasi jurnali, 1(1), 54-72. Magistrlik dissertatsiyasi, Anqara -2014.
2. Aktash, C. va Chayci, B. QR kodining mobil ta'limda yangi ta'lim usullarini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi QR kodining mobil ta'limda yangi ta'lim usullarini ishlab chiqishdagi hissasi. Global Media Journal, 4(7), 1-19. Anqara-2013
3. Canbazoÿlu Bilici, S., Tekin, N. va Karahan, E. O ‘qituvchilarning fan laboratoriyasida QR kodlari bilan boyitilgan plakatlardan foydalanishi Bo ‘lajak o ‘qituvchilarning ilmiy laboratoriyasida QR kodlari bilan boyitilgan plakatlardan foydalanish. II Xalqaro Evroosiyo Ta'lim Tadqiqotlari Kongressi, 31 May-3 iyun, Mug ‘la - 2016.
4. Çataoÿlu, E. & Ateÿkan, A. Ta'lim va ta'limda QR kodidan foydalanishga misol Ta'limda QR kodlaridan misollar bilan foydalanish. Onlayn boshlang ‘ich ta'lim, 13(1), 5-14. Anqara -2014.
5. Karahan, E. & Canbazoÿlu Bilici, S. Fan ta’limida QR kodlardan foydalanish: fan o ‘qituvchilarining fikr va takliflari. Necatibey taÿlim fakulteti Fan va matematika taÿlimi elektron jurnali, 11 (1). 433-457. Anqara-2017
6. Özdemir, S. Multimedia bilan bosma kitoblarni qo ‘llab-quvvatlash: o‘rganish uchun mobil texnologiyalardan foydalanishning yangi usuli. Britaniya ta'lim texnologiyalari jurnali, 41(6): E135E138. Buyuk Britaniya-2010
7. Yilmaz, B. & Canbazoÿlu Bilici, S. Quyosh tizimi va undan tashqarida - kosmik jumboq: yoki kod bilan ishlab chiqilgan faoliyat. Anatolian Teacher Journal, 1 (2), 75-82. Aksaray-2017

SCRATCH DASTURLASH TILI YORDAMIDA 1-SINF O‘QUVCHILARINING DIQQATLARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

SADOQAT NORMURODOVA
Shahrisabz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada 1-sinf o‘quvchilariga Scratch dasturlash tili yordamida ma’lumotlarni vizuallashtirish bilan “Alifboni” o‘rgatish davomida o‘quvchilarning diqqatlarini va xotiralarini yaxshilash imkoniyatlarni o‘rganilgan. Ham ko‘rish, ham eshitish kanallari orqali ma’lumotlarning olinishi ularning yaxshi idrok qilinishi, diqqatlarining yaxshilanishi va xotirada mustahkam joylashishi ko‘rsatilgan. Tahlil qilish davomida o‘quvchilarda ijodiy fikrlashning analogiya, assotsiatsiya kabi usullarini o‘zlashtirishlari mumkinligi ko‘rsatilgfan.

Kalit so‘zlar. Ta’lim, diqqat, xotira, ma’lumot, ongli, ongsiz, ixtiyoriy, ixtiyorsiz, jarayon muloqot, qiziqarli, animatsion, idrok, bevosita, bilvosita, Scratch, dasturiy til, vizuallashtirish, non, nog‘ora, narvon, nay, ninachi.

Аннотация. В статье исследуются возможности улучшения внимания и памяти учащихся при обучении первоклассников «Алфавиту» с помощью визуализации данных с помощью языка программирования Scratch. Было доказано, что получение информации как через визуальные, так и через слуховые каналы улучшает восприятие, концентрацию и сохранение памяти. В ходе анализа было показано, что студенты могут овладевать такими методами творческого мышления, как аналогия и ассоциация.

Ключевые слова. Образование, внимание, память, информация, сознательное, бессознательное, произвольное, непроизвольное, процесс связи, веселье, анимация, восприятие, прямое, косвенное, Скретч, язык программирования, визуализация, хлеб, барабан, лестница, флейта, стрекоза.

Abstract. The article explores the possibilities of improving students' attention and memory while teaching "Alphabet" to 1st grade students with data visualization using the Scratch programming language. Receiving information through both visual and auditory channels has been shown to improve perception, focus, and memory retention. During the analysis, it was shown that students can master the methods of creative thinking, such as analogy and association.

Keywords. Education, attention, memory, information, conscious, unconscious, voluntary, involuntary, process communication, fun, animation, perception, direct, indirect, Scratch, programming language, visualization, bread, drum, ladder, flute, dragonfly.

Kirish.

Ta’lim uchun diqqat muhim ahamiyatga ega. Miya olinadigan ma’lumotlarga qancha ko‘p diqqat ajratsa bu ma’lumotlar shuncha yaxshi kodlanadi va yaxshi saqlanadi. Bu esa bolalarning ma’lumotlarni yaxshi o‘zlashtirishlariga, xotiralarida yaxshi saqlanishiga yordam beradi [1]. Bolaning maktabga tayyorligi, o‘qish faoliyatiga tayyorligini aniqlashda diqqat muhim ahamiyatga ega. Dastlabki vaqtda bolaning ta’lim jarayonidagi muammolarining vujudga kelishiga diqqatning yetishmovchiligi sabab bo‘ladi [2].

Diqqat – ongli yoki ongsiz ravishda sezgi organlari orqali kelayotgan ma’lumotlar orasidan bittasini tanlab olish va boshqalarini rad etish jarayonidir [3].

Maktabgacha ta’lim davrida bolalarning diqqatlari asta sekin rivojlana boradi. Bular ixtiyorsiz, ixtiyoriy va ixtiyoriydan keyingi diqqatlardir. Ixtiyorsiz diqqat bu – kuchli irodani talab qilmaydi. Bunday diqqat uchun bolalarga yorqin ko‘rinish, narsaning chiroyli ko‘rinishi yoki ichki mazmun bo‘lishi yoki yoqib qolishi muhim. Bu diqqat jarayonning

boshlanishi va birinchi pog‘onasidir. Ixtiyoriy diqqat (ikkinchi pog‘ona)ning asosiy o‘sishi maktabgacha davrda bo‘ladi. Buning uchun kuchli iroda kerak. Ixtiyoriydan keyingi diqqat eng takomil bo‘ladi va u ta’lim jarayonida vujudga keladi.

Dastlab kattalarning bolaga yo‘naltirilgan so‘zlari bolaning u yoki bu belgiga diqqatlarini qaratishga undaydi. So‘zlarning diqqatni yo‘naltirishdagi o‘rni ta’lim uchun muhim ahamiyatga ega. Bola so‘zlar yordamida o‘zaro muloqot sohasiga so‘ngra esa shaxsiy rivojlanish sohasiga kiradi. Besh-olti yoshida bolada ixtiyoriy diqqat shakllanadi. Keyinchalik esa ixtiyoriy diqqat rivojlanib boradi va irodali diqqat vujudga keladi.

Noodatiy, g‘ayrioddiy va ajoyib hodisalar diqqat va natijada qiziqishni ham uyg‘otadi. Misol sifatida chiroyli reklama, rang-barang taqdimotlarni keltirish mumkin. Mashg‘ulotni chiroyli, animatsion va qiziqarli qilib o‘tish o‘quvchilarning diqqatlarini tortishga va ulardan shu ma’lumotlarga qiziqish uyg‘otishga olib keladi. Tabiiyki diqqatni tortish uchun ma’lumotlarni idrok qilish muhim.

U yoki bu narsaga diqqat ajratilganida miyada nima ro‘y beradi?

Emotsiya bilan idrok qilingan ma’lumotlar miyada boshqa ma’lumotlarga qaraganda yaxshi tahlil qilinadi, ular to‘g‘risida aniq taassurotlar qoladi va xotirada uzoq vaqt qoladi [4]. Diqqatni jamlash o‘rganilayotgan hodisaning ma’nosini tushunishga bog‘liq bo‘ladi.

Ta’lim jarayonida yana e’tibor berilishi lozim bo‘lgan omil miyaning faqat bitta narsaga e’tibor bera olishini hisobga olishdir.

Miya matnni kichkina rasmchalar sifatida qabul qiladi. Agar har bir harfning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlamaguncha miya uni qabul qilmaydi. Shuning uchun ham alifboni o‘rgatishda har bir harfni bolaning tabiatidan biladigan so‘zlari yordamida ifodalash yaxshi natija beradi. Biror matnni o‘qigandan unda yozilgan jarayonni miyamizda vizuallashtiramiz. Bernard Shou iborasi bilan aytganda ““so‘z” pochta markasi kabi ma’nosi o‘rganilishi lozim bo‘lgan narsani olib borishga xizmat qiladi xolos”.

O‘qituvchi ma’lumotlarni vizuallashtirishga – rang, kattalik, harakat kabi diqqatni tortuvchi omillarga e’tibor berishi lozim. Evolyutsiya natijasida inson miyasida harakatlarni solishtiruvchi murakkab neyron aloqalari vujudga kelgan va harakatlanuvchi obyektlar bilan bog‘liq ma’lumotlarni yaxshi qabul qiladi va tahlil qiladi. Aynan shuning uchun ham alifboni o‘rganishda harflarning harakatlanishi ma’lumotlarni yaxshi idrok qilinishini ta’minlaydi. Ma’lumotlarni yaxshi bezatilgan animatsiyalar ko‘rinishida taqdim etish miyaning qiziquvchanligini orttiradi.

Diqqatni qaratish xotira, qiziqish va ongga bog‘liqdir. Ma’lumotlarni qiziqarli ko‘rinishda berish bevosita diqqat bilan bog‘liqdir. Boshqacha aytganda zarur hodisalarga alohida diqqat ajratiladi. Shuningdek diqqat ham o‘z navbatida qiziqish uyg‘otadi [5].

Diqqat bevosita xotirlash bilan bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ham diqqatni yaxshilashga yo‘naltirilgan har qanday usul ma’lumotni xotirada saqlash uchun ham foydali bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va kichik sinflar uchun tayyorlangan o‘quv adabiyotlari va materiallarining bolalar uchun katta qiziqish uyg‘otadigan, diqqatni tortadigan qilib bezatilishining sababi ham shundan.

7 yoshli bolalarning diqqatlari va xotiralarini yaxshilash imkoniyatlarni O‘zbekistonlik va xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan ham o‘rganilgan. Jumladan: Л.Выготский, П.Гальперен, А.Леонтев, Р. Немов [4-6] ishlarida, O‘zbekistonlik olimlar V.Karimova, G.G‘oziyev, E.Esanboboyeva, G.Umarova va boshqalarning ishlarida bu muammo o‘rganilgan [7-10]. Shuningdek ma’lumotlarni vizuallashtirish Power Point, Autoplay, Hotpatotes, Ispring, Myquiz, Kahoot, Python tillari yordamida ham amalga oshirilgan [11-16]. Lekin ulardan 1-sinf o‘quvchilariga “Alifbo”ni “Scratch” dasturlash tili yordamida

o‘rganish davomida bolalarning diqqatlari va xotiralarini rivojlantirish muammolari qaralmagan.

Nazariy asoslar. Xotira insonning atrof olamdan olgan taassurotlarining saqlanishi va zarur bo‘lganda qayta tiklanishidir. Demak, xotira hayotiy tajribaning saqlanishi va qayta tiklanish jarayonidir. Insonda uch xil: ixtiyoriy, mantiqiy va bilvosita xotiralar mavjud. Birinchisi xotirlashning irodali nazorati bilan bog‘liq ikkinchisi esa mantiqiy qo‘llanishi bilan aloqador.

Bilvosita xotitra esa – xotirlashga yordam beruvchi turli-tuman vositalar orqali olinadigan ma’lumotlarni saqlashdir. Ta’lim jarayonida samarali usullarning qo‘llanilishi aynan shu xotirani yaxshilanishiga yordam beradi.

Ko‘rish xotirasi – ko‘rish orqali olinadigan ma’lumotlarning saqlanishi va qayta tiklanishi bilan bog‘liqdir. Bu xotira tasavvur bilan bevosita aloqador. Kishi ko‘rish orqali tasavvur qilgan ma’lumotlarini oson eslaydi va tiklaydi. Ta’lim jarayonida bolalarning ko‘rish xotiralarni rivojlantirish ularning tasavvurlari va demak, ijodiy fikrlashlarining rivojlanishiga yordam beradi.

Shuningdek eshitish xotirasi ham ta’lim samaradorligini oshirish uchun muhim rol o‘ynaydi. Ixtiyorsiz xotira ba’zan ixtiyoriy xotiradan ustun bo‘lishi mumkin. Bu o‘rinda motivatsiya muhim ahamiyati kasb etadi. Nemis olimi G.Ebbingauzning ta’kidlashiga ko‘ra yaxshi xotirlash uchun ma’lumotlar insonga kuchli taassurot qoldiradigan bo‘lishi lozim. Shunda ular birdaniga va uzoq vaqt xotirada qolishi, zarur bo‘lganda aniq tiklanishi mumkin. Aynan shunday ma’lumotlar tasavvurning rivojlanishini ta’minlaydi. Mashg‘ulotlarni shu talablarga muvofiq tashkil qilish ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Vizual xabar tez aniqlanadi va qaytariladi (tiklanadi). Tajribalarning ko‘rsatishicha ikki yarim mingta tasvirni 10 sekund davomida ko‘rgan bo‘lsalarda ularni qayta anglashi (tanishi) 90 foizni tashkil qilgan. Bir yildan keyin bu ko‘rsatgich 60 foiz bo‘lgan.

Xotirada saqlash bo‘yicha vizual ma’lumotlar verbal ma’lumotlarga qaraganda samarali. Og‘zaki shaklda berilgan ma’lumotlar bo‘yicha uch kundan keyin test sinovlaridagi ko‘rsatkich 10 foiz atrofida bo‘lgan. Agar ma’lumot vizual ko‘rinishda berilsa bu ko‘rsatkich 65 foizga ko‘tarilgan [8].

Umumta’lim maktablarining 1-sinf o‘quvchilari (7 yoshli) bolalarning yetakchi faoliyati syujetli, rolli o‘yinlar bo‘ladi. Ulardan bolalik erkinliklarini yo‘qotish, kechinmalarini umumlashtirish va ichki ruhiy hayotga tayyor bo‘lish, ijtimoiy faoliyat ko‘rsatishga tayyorlik va bunga ehtiyoj vujudga keladi. Ularda tasavvur, ko‘rgazmali timsolli fikrlash, ma’lumotlarni tahlil qilish, bilim olishga ichki motivatsiya, o‘z-o‘zini baholash, fikrlarini nutq yordamida bayon qila olish qobiliyatlari shakllanadi. Ulardan o‘z hatti-harakatlarini ma’no-mazmun, bilish hissiyoti paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Buni ularda “ijodiy fikrlash” ko‘nikmalari shakllanayotganligining dastlabki belgilari sifatida baholash mumkin. Ularni qiziqtiruvchi faoliyatlar orasida hamon atrofdagi olamdan olingan narsalarning rasmlarini chizish yetakchi bo‘lib qoladi. Bu imkoniyatlardan bolalarda “Alifbo”ni o‘rgatish jarayonida foydalanish ayniqsa yaxshi natija beradi. Masalan, “Alifbo”ni rasmlar va ularning harakatlari yordamida o‘rganish, harflar va narsalarning rang-barangligi va musiqa ostida harakatlanishi bolalarda yaxshigina emotsiya uyg‘otishi mumkin. Bu esa bir tomondan ma’lumotlarning bolalar xotiralarida uzoq vaqt qolishi (ma’lumotlarning doimiy xotirada joylashishini) ta’minlasa, ikkinchi tomondan ular ong ostida joylashib, bolalarning ma’lumotlar zahirasiga aylanadi. Shu usul bilan yana bolalarning rasmlarga munosabatlariga qarab ularning kechinmalari, sokin musiqa yordamida esa ularning kayfiyatini yaxshilab, hissiyotli bo‘lishlariga erishishi mumkin.

Natijalar. Oldingi ishimizda ko‘rganimizdek ma’lumotlarni vizuallashtirishni Scratch dasturlash tili vositasida amalga oshiramiz [17]. Alifboning N harfi va boshqa so‘zlarni

yasaymiz. Ularning o‘quvchilar tasavvurlarini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini o‘rganamiz [18-20].



Bolalar harf ustiga bosganda harf nomi “N” va shakli haqida ovozli xabar eshitadilar.

Ovozli xabarlar 1-sinf o‘quvchilariga ta’lim jarayonida sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ularning ta’lim va o‘qishga bo‘lgan munosabatini yaxshilash, eslab qolish qobiliyatini kuchaytirish va darslarni qiziqarli qilishda katta rol o‘ynaydi. Quyida ovozli xabarlarning

1-sinf o‘quvchilariga qanday ta’sir ko‘rsatishi haqida ayrim misollar keltirilgan:



Shuningdek, ushu sahnada ham bolalar o‘rganayotgan harflariga mos elementlarni tanlasalargina ularni nomlari ovozli xabarda yoki ularning ovozlari (musiqa asboblari ovozi) ni eshitishlari mumkin.



Ushbu sahnada esa o‘qituvchi tomonidan berilgan: Qani bolajonlar aytinglarchi

1-o‘rgangan harfimiz “O” va bugungi o‘rgangan “N” harfi orqali ko‘rib turgan elementlaringizdan qaysi birini nomini aytish mumkin. Shu element (non rasmi) tanlansagina sahnada “Non” so‘zi paydo bo‘ladi.

1-sinf o‘quvchilarini rag‘batlantirish jarayonida ko‘rgazmali va ovozli usullardan foydalanish ularning ta’lim jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshirishda va samarali o‘zlashtirishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Sahnadagi “Sprite”lar yordamida savollar bilan o‘quvchilarning diqqatlarini jamlash, ma’lumotlarni xotiralarida uzoq saqlash va asosiysi ularning tasavvurlari va solishtirish (analogiyalar topish) ko‘nikmalarini rivojlantirishga, narsalar orasidagi assotsiyatsiyalarni topishga erishish mumkin [21].

Sahnadagi narsalar orasida jonlilari bormi? Siz uni ko‘rganmisiz? Uni qaysi faslda ko‘rgansiz? Uni qayerda ko‘rgansiz? Musiqa asboblari bormi? Ularning nomlarini ayting. Ularni chalib ko‘rganmisiz? Ular qanday tovush chiqarishini ayting. Balandlikka chiqishda nimadan foydalaniladi? Sizning uyingizda shunday narsa bormi? Sahnada keltirilgan bu jihozlarning bir-birlaridan farqi nimada? Sahnada keltirilgan narsalarning qaysisini iste’mol qilish mumkin? U to‘g‘risida ibratli maqollarni yoki hikoyalarni bilasizmi? Biz o‘rgangan O va N harflari qaysi nomlarda bor? Qaysi so‘zda O harfi ikki marta ishtirok etgan?

Qaysisida N harfi ikki marta ishtirok etgan? Faqat O va N harflari ishtirok etgan so‘zni ayting. Bu harflar ikki marta ishtirok etgan so‘zni ayting. Qaysi so‘zda O harfi ishtirok etmagan.

Alifboning boshqa harflarini ham o‘rganish o‘quvchilarda bunday ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlarini oshiradi.

Munozaralar. Scratch dasturlash tilidan foydalanib ma’lumotlarni vizuallashtirish bilan “Alifbo”ni o‘rgatish o‘quvchilarga diqqatlarini jamlash, ma’lumotlarni xotirada saqlash va tasavvurlarini rivojlantirish imkoniyatlarini beradi. Dastur yordamida alifbo harflari va ular yordamida narsalarni vizuallashtirish o‘quvchilarga mavzuni yaxshi tushinish, ulardan amalda foydalanish to‘g‘risida ko‘nikmalarga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi. Shu bilan birga o‘quvchilar narsalarning nomlarini aniq talaffuz qilishga o‘rganadilar. Bu esa ularning nutqlarining rivojlanishiga, ma’lumotlarni ham ko‘rish, ham eshitish orqali idrok qilishlari esa ularni xotirada mustahkam joylashib ong osti zahirasiga aylanishlarini ta’minlaydi. Rang-barang sahna o‘quvchilarga “Alifbo”ni o‘rganishga qiziqishlarini, o‘rganilgan harflar yordamida so‘zlarning tuzilishi esa ulardan keyingi harflarni ham o‘rganishga ishtiyoq ya’ni ichki motivatsiyaning tug‘ilishiga olib keladi. Bularning hammasi 1-sinf o‘quvchilariga “Alifbo”ni o‘rganishda “Scratch” dasturlash tilidan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishga imkon berishini ko‘rsatadi.

Xulosa

- 1-sinf o‘quvchilariga “Scratch” dasturlash tili yordamida ma’lumotlarni vizuallashtirish bilan “Alifbo”ni o‘rganishda o‘quvchilarning diqqatlari va xotiralarini yaxshilash imkoniyatlari o‘rganilgan.
- Ma’lumotlarni vizuallashtirish bilan o‘quvchilarning diqqatlarini yaxshilash mumkinligi asoslangan.
- Ma’lumotlarni vizuallashtirish ma’lumotlarni o‘quvchilar xotirasida mustahkam joylashishi va ong osti zahirasiga aylanishi ko‘rsatilgan.
- “Scratch” dasturlash tilidan foydalanish o‘quvchilarning ham ko‘rish ham eshitish sensor kanallaridan foydalanishlarini ta’minlashi hisobiga ma’lumotlar yaxshi idrok qilinishi asoslangan.
- “Scratch” dasturlash tili o‘quvchilarga “Alifbo”ni o‘rgatishning samarali vositasi bo‘la olishi va bu jarayonida ularga ijodiy fikrlashning solishtirish, analogiya kabi fikrlash usullarini o‘zlashtirish usullari keltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Медина Д. Правила Мозга. – М., Манн, Иванов и Фербер. 2014 г.
2. Р.Немов. психология Книга 1. Москва Владос 2006
3. Л.Выготский. Развитие висших форм внимания в децком возрасти.
4. A.G‘aniyev “Technology for developing “Non-Standard Thinking” Skills” EXCELLENCIA international multi-disciplinary journal of education. Volume 02, Issue 06, 2024 ISSN (E):2994-9521
5. Гальперен П.Я. К проблеме внимания. Хрестоматия по вниманию – М. 1976 г.
6. Леонтев А.Н. Избранные психологические произведения в 2 тт. – М. 1983 г – Т1 (Развитие высших форм запоминания 4-64)
7. Umarova G.M. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda diqqatning rivojlanishiga o‘yin faoliyatining ta’siri. Raqamli ta’limning zamonaviy tendensiyalari – ilmiy amaliy konferensiya. 25.10.2023-yil.
8. Karinova V.M. Psixologiya – 2002-yil.
9. G‘oziyev E.G. Umumiy psixologiya 1-2- kitob T. 2002-yil.
10. Esanboyev Q.V va boshqalar. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda diqqat va uni rivojlantirishning ilmiy asoslari.
11. A.A.Xasanov. Kahoot – o‘yinli o‘quv platformasidan foydalanib talabalar bilimlarini baholash. "Экономика и социум" №12(103)-1 2022
12. http://kahoot.com/
13. D.H.Fayziyeva, F.F.Norova. Hot potatoes dasturi imkoniyatlari. Uslubiy qo‘llanma. Buxoro: 2022.
14. http://www.findsoft.ru/. AutoPlay Media Studio 7.0 –быстрое создание мультимедиа-приложений.
15. Shohobaliyeva Oyguloy Bobur qizi. Didaktik vositalar tayyorlashda Ispring suite dasturi imkoniyatlari. Tadqiqot va innovatsiyalar jurnali 6-son, 2023
16. https://www.ispringsolutions.com/
17. S.Normurodova. Scratch dasturlash tili yordamida ma’lumotlarni vizuallashtirish bilan 1-sinf o‘quvchilariga “alifbo”ni o‘rgatish va ularning tasavvurlarini rivojlantirish imkoniyatlarni.
18. Scratch для юных программистов” Голиков Д. В. 2. “Scratch для детей” Мажед Маржи Москва 2017
19. “Программирование на Scratch 2” Голиков Денис и Голиков Артём
20. https://scratch.mit.edu - Scratch texnologiyasining online manzili.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI O‘QITISH JARAYONIDA NUTQ O‘STIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

ABDURAXMONOVA DINARA YUSUPOVNA
Jizzax davlat pedagogika universiteti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘qitish jarayonida nutq o‘stirishning asosiy yo‘nalishlari haqida so‘z boradi. Maqola mazmunini ochib berish maqsadida asosiy manba sifatida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan foydalanildi.

Kalit so‘zlar: ona tili, so‘z boyligi, nutq, nutq madaniyati

Abstract. The article talks about the main directions of speech development in the process of training future primary school teachers. In order to reveal the content of the article, the "Annotated Dictionary of the Uzbek Language" was used as the main source.

Key words: mother tongue, vocabulary, speech, speech culture

Абстракт. В статье говорится об основных направлениях развития речи в процессе подготовки будущих учителей начальных классов. В целях раскрытия содержания статьи в качестве основного источника использован «Аннотированный словарь узбекского языка».

Ключевые слова: родной язык, словарный запас, речь, культура речи.

So‘z tovush yoki tovushlardan biror ma’no bildiruvchi nutq birligi, gap bo‘lagidir. So‘z yordamida biz aniq va mavhum tushunchalarni ifodalaymiz, fikrimizni bayon qilamiz. Hozirgi o‘zbek adabiy tili juda katta so’z boyligiga ega. Jumladan, “O‘zbek tilining izohli lug‘atida” 80 000 so‘z va birikmaning ma’nosi izohlanadi. Bular, asosan, o‘zbek adabiy tilidagi umumxalq ishlatiladigan so‘z va birikmalardir. Bu lug‘atga kirmagan, lekin odamlar foydalanadigan qanchadan-qancha shevaga oid so‘zlar mutaxassislar foydalanadigan atamalar, iste’molda bo‘lgan joy nomlari, ism-familyalar, taxalluslar borki, ularning hammasi qo‘shib hisoblansa 300 mingdan oshadi. Tilimizda yuzlab so‘zlarning ko‘p ma’noga ega ekanligi, minglab so‘zlarning kamida 2-3 va hatto o‘nlab ma’nodoshlari borligi, juda ko‘p turg‘un birikmalar va tasviriy ifodalar mavjudligi hisobga olinsa, ularning miqdori yanada ortadi. [1,b.25-26]

O‘quvchilar lug‘atini bu boy xazina bilan boyitishning o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, u faqat ona tili mashg‘ulotlarida emas, balki faoliyatning barcha jabhalarida-oilada, ko‘chada, maktabda, boshqa fanlarni o‘qitish jarayonida bu so‘zlarni egallab boradi. Mtematika, fizika, kimyo, musiqa va boshqa fanlar, radio eshittirishlari va teleko‘rsatuvlar, matbuot, badiiy adabiyot, bolani o‘rab turgan ijtimoiy muhit hamma-hammasi o‘quvchilar so‘z boyligini oshirish manbaidir. Maktabda o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish murakkab jarayon bo‘lib u asosan quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

1. O‘quvchilarni ularga notanish so‘z va iboralar bilan tanishtirish. O‘quvchi nutqida faqat tilimizda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tufayli paydo bo‘layotgan so‘zlar emas, balki ular birinchi marta duch kelayotgan mavjud so‘zlar ham yangidir. O‘qish savodxonligi 4-sinf 2-qism darsligida uqsang (tushunib olsang), uddalolmas (bajara olmas), nuqul (doim), mag‘zin (mazmuni), muzofat (viloyat), dong‘i (ovozasi, dovrig‘i), suruv suruv ot (otlar to‘dasi), qiroatxona (kitob o‘qish xonasi) kifoya (yetarli), sas (tovush),madad (yordam), anduh (g‘am), kabi bir qator so‘z va iboralarga duch keladilarki, ular tilimizda yangi so‘z emas, ammo o‘quvchi uchun yangidir. O’quvchilarni

bunday yangi so‘zlar bilan tanishtirib borish ona tili va o‘qish mashg‘ulotlarining asosiy vazifasi sanaladi. Bundan tashqari o‘quvchi har kuni fan asoslarini o‘rganish jarayonida qanchadan-qancha yangi so‘zlarga duch keladi va ularning ma’nolarini bilib oladi. O‘quvchilar nutqini yangi so‘zlar bilan boyitish ayniqsa, ona tili fanining imkoniyatlari kattadir. Til hodisalarini o‘rganish jarayonida ularga notanish bo‘lgan yangi so‘zlar va atamalarning ma’nolari izohlab boriladi. [2,b.6-7]

2. O‘quvchilarni so‘zning yangi ma’nolari bilan tanishtirish. O‘quvchilar ko‘p ma’noli so‘zlarning barcha ma’nolarini birdaniga o‘zlashtirib ololmaydi. Bu murakkab jarayon bosqichma-bosqich amalga oshadi. Bola quyi sinflarda so‘zning ma’lum bir ma’nosiga duch kelsa, keying sinflarda shu so‘znining boshqa ma’nolari bilan tanishish imkoniga ega bo‘ladi. Buning uchun o‘qituvchi bola nutqini doimiy tahlil qilib borishi, iste’molda bo‘lmagan ko‘p ma’noli yoki ma’nodosh so‘zlarni aniqlash, ularni qaysi yo’llar bilan o‘quvchi nutqiga olib kirish choralarini ko‘rish lozim. Tilning barcha sathlarini o‘rganishda omonimlar, ma’nodosh va qarama-qarshi ma’noli so‘zlar, uyadosh so‘zlar, tasviriy ifoda va iboralar ustida ish olib borish bu murakkab vazifani amalga oshirishning eng qulay yo‘llaridan biridir.[3, b.1-2]

3. O‘quvchi nutqidagi kam iste’mol so‘zlarni iste’molli so‘zlarga aylantirish. Ko‘p hollarda o‘quvchi so‘zning ma’nosini bilsada, ammo nutqda undan deyarli foydalanmaydi. Bu holni bartaraf etish uchun matndagi ma’lum bir so‘zni uning ma’nodoshlari, uyadoshlari, qarama-qarshi ma’nolilari bilan almashtirish, nuqtalar o‘rniga mazmunga muvofiq keladigan zarur so‘zni topib qo‘yish kabi amaliy ishlardan unumli foydalansa bo‘ladi.

4. O‘quvchi nutqidagi adabiy tilga zid so‘zlarni bartaraf etish. O‘quvchilar nutqida adabiy tilda boshqacha aytiladigan yoki umuman adabiy tilda bo‘lmagan bir qator so‘zlar (shevaga oid so‘zlar, arxaik so‘zlar) borki, ular nutqning sofligi, tushunarliligi, badiiyligiga putur yetkazadi. Bu salbiy holning oldini olish uchun ko‘proq talaffuzi va yozilishi adabiy tildan farq qiluvchi so‘zlarni adabiy tilda yozish, matndagi shevaga oid so‘zlar yoki arxaik so‘zlarni adabiy tildagi so‘zlar bilan almashtirishda foydalanish mumkin.

O‘qituvchi darsga tayyorlanar ekan, qaysi so‘zlar o‘quvchining lug‘atiga kiritish, qaysi so‘zlarning ma’nolari izohlab berilishini aniqlab olishi zarur. O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishda quyidagi usullardan foydalanishi maqsadga muvofiq deb bilamiz:

1. So‘zning ma’nosini taqqoslash va ularni sharhlash. Bu usul ko‘proq ma’nosi va shakli bir-biriga yaqin yoki keskin farq qiladigan so‘zlarni izohlashda qo‘l keladi. Tilimizda bunday so‘zlar anchagina qismini tashkil etadi. Masalan: i-u tovush (harf)larning talaffuzi va imlosi o‘rganilar ekan, urush-urish, tushum-tushim singari so‘zlarni taqqoslash orqali ularning ma’nosi, talaffuzi, imlosini sharhlash mumkin. Qo‘shma otlar va ularning ilmosi haqida gap ketganda paxtagul, boshog‘riq, gulbozor singari qo‘shma otlarni paxta guli, bosh og‘rig‘i, gul bozori singari so‘z birikmalari bilan taqqoslash orqali ularning ma’no va imlo farqlarini bilib olish mumkin.

2. So‘zlarni kuzatish. Kuzatish va taqqoslash kabi keng qo‘llaniladigan aqliy faoliyat usuli bo‘lib, unga asoslangan topshiriqlar o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantirishga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Bunday topshiriqlardan darsning istalgan bosqichida unumli foydalanish mumkin. Ular ayniqsa ona tilidan yangi bilimlar berishda ancha qo‘l keladi. O‘quvchilar berilgan so‘z va birikmalarni kuzatib, ulardan o‘zlariga zarur narsalarni ajratib oladilar va shu asosda muayan xulosaga keladilar. Masalan, “Sodda qo‘shma va juft so‘zlar mavzuni o‘rganishda matndan ikki va undan ortiq o‘zak qo‘shib yozilgan so‘zlarni (masalan: belbog‘, ko‘zoynak kabi) ajtarish, ularning tarkibiy qismlari va birikishini aniqlash, bu so‘zlarga so‘z yasovchi qo‘shimchalar qo‘shish (belbog‘li, ota-onali kabi) ularning ma’nolarini izohlash kabi amaliy

ishlardan foydalansa bo‘ladi.

3. So‘zlarni ma’lum belgilariga qarab guruhlarga ajratish. Guruhlash aqliy faoliyat usuli bo‘lib, u ona tili mashg‘ulotlarida bolalarning so‘z boyligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu usul so‘zlarni anglatayotgan ma’nosi, so‘z turkumi, yasalishi, imlosi,uyasi kabilarga ajratish imkonini beradi. Guruhlash kuzatish va taqqoslash bilan chambarchas bog‘langan. So‘zlarni guruhlash uchun avvalo chambarchas bog‘langan. So‘zlarni guruhlash uchun avvalo kuzatish yoki taqqoslashdan foydalanishga to‘g‘ri keladi.

4. Ma’lum bir guruhdagi so‘zlar ro‘yxatini mustaqil ravishda tuzish. O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish maqsadida ularga ma’lum bir guruhdagi so‘zlar lug‘atini tuzisni ham topshirish mumkin. Shubhasiz bunday lug‘atlarni dars jarayonida tuzish ancha murakkabdir. Shuning uchun mustaqil ishning bu turi ma’lum bir mavzu o‘rganilgandan keyin uy vazifasi sifatida topshirish maqsadga muvofiqdir. Lug‘at tuzish uchun o‘quvchilar ma’lum bir kasb egalari, ota-onalari, keksalar bilan suhbatda bo‘ladilar, mavjud izohli lug‘atlarga murojaat qiladilar.[1,b.26-27]

Shunday qilib, ona tilini o‘qitish jarayonida bolalar nutqini rivojlantirish birinchi navbatda ularning so‘z boyligini oshirishni taqazo etadi. O ‘quvchilarni doimiy ravishda ular birinchi marta duch kelayotgan yangi so ‘zlar hamda fan texnika taraqqiyoti natijasida tilimizga kirib kelayotgan yangi so ‘zlar bilan tanishtirib borish, so ‘zlarning yangi ma’no qirralarini ochib berish nutqda, nutqdagi kam qo ‘llaniladigan so ‘zlarni ko ‘p qo ‘llaniladigan so ‘zlarga aylantirish o ‘qituvchi shuningdek, oila va jamoatchilikning asosiy vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.G‘ulomov, Sh.Qobilova Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari. O‘quv qo‘llanma.T: O‘qituvchi. 1995.
2. U.B.Aydarova., N.K. Azizova “O‘qish savodxonligi” 4-sinf 2-qism Novda edutainment.Toshkent-2023.
3. Abduraxmonova D.Yu. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozma nutqiy kompetensiyalarini takomillashtirish omillari // Mug‘allim hem uzliksiz bilimlendiriy Imliy-metodik jurnal. Qaraqolpog‘iston Respublikasi: 2022 y. № 4/1. B. 128-132.
4. Abduraxmonova D.Y. Boshlang ‘ich ta’limda ijodiy yozma ishlarni tashkil etish usullari // Xalq ta’limi ilmiy-metodik jurnal. Toshkent: 2022 y. № 6. B. 38-41
5. Abduraxmonova D.Yu. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida kichik ijodiy hikoyalar yozishga o‘rgatish // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnoma. Namangan 2022 yil, 11-son. B.358-262.